



**Zohid  
Madrahimov**

# **TARIXIY TOPONIMIKA**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Zohid Madrahimov

# TARIXIY TOPONIMIKA

*(o‘quv qo‘llanma)*

«Navro‘z» nashriyoti  
Toshkent  
2017

UO'K:62.(24.62).12

KBK: 66.04(O'zb)

M-40

Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika (*o'quv qo'llanma*) / «Navro'z» nashriyoti. –Toshkent, 2017. 128 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma Namangan davlat universiteti Kengashining 2017-yil 10-martdagi 8-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

**Mas'ul muharrir:**

**Erqo'ziyev Anvar,**  
tarix fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:**

**Dehkanov Narimon,**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Sarimsokov Abdilatip,**  
tarix fanlari nomzodi

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012-yil 29-oktyabrdagi 418-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Magistratura to'g'risidagi nizom" va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqildi.

O'quv qo'llanma ma'lumotlaridan 5120300 – tarix (Jahon mamlakatlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'tiladigan "Tarixiy toponimika" fani bo'yicha dars mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Mazkur o'quv qo'llanmada toponimika fanining paydo bo'lishi va taraqqiyoti, toponimika fani rivojlanishiga hissa qo'shgan jahonning va yurtimizning ko'zga ko'ringan olimlari haqida ma'lumotlar berilgan. Yurtimiz hududidagi toponimlar va ularning tarixiy qiymati, ajdodlar tilida yaratilgan tarixiy toponimlarning o'ziga xos ma'lum shaklda ifodalanib, muayyan ma'noni anglatishi, geografik hududning tabiiy xususiyatlari, o'lkamiz toponimlarida tub aholining tili va ma'naviyati ma'lum darajada o'z aksini topganligi, shu boisdan har bir toponimning etimonimi, ya'ni ma'nosini aniqlash, ko'p jihatdan uning asliy shakli va birikmalarini to'g'ri belgilab olishga bog'liqligi. toponimika manbashunosligida o'rta asrlarda yaratilgan qo'lyozma asarlar va tarixiy hujjatlarning ilmiy ahamiyati beqiyosligi kabi masalalar ahamiyati ochib beriladi.

ISBN 978-9943-381-84-1

© "Navro'z" nashriyoti, 2017

© Zohid Madrahimov



## KIRISH

Toponimika geografik nomlar, kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimika atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, "topos" – joy, "onom" yoki "onima" – nom. umuman, joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi.

XIX asr oxirlaridan e'tiboran dunyoda amaliy grammatika, xususan, kartografiya ehtiyojlari munosabati bilan toponimikaga qiziqish kuchaydi. Toponimikadan maxsus asarlar paydo bo'ldi, geografik nomlarni o'rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Toponimika fani dastlab Yevropada paydo bo'ldi va asta-sekinlik bilan taraqqiy etib, boshqa hududlarga ham tarqala boshladi. Sobiq Ittifoq davrida toponimik tadqiqotlar rivojlandi. Uning ta'sirida O'zbekistonda ham toponimika fani rivojlanib boshladi.

XIX asr oxirlaridan e'tiboran dunyoda amaliy grammatika, xususan kartografiya ehtiyojlari munosabati bilan toponimikaga qiziqish kuchaydi. Toponimikadan maxsus asarlar paydo bo'ldi. geografik nomlarni o'rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, Angliyada 1923-yilda dunyoda birinchilardan bo'lib mamlakatdagi barcha toponimik ishlarni muvofiqlashtirish uchun "Toponimika jamiyati" tuzildi. Keyinchalik, G'arbiy Yevropa, Fransiya, Germaniya, Pol'sha va boshqa mamlakatlarda ham huddi shunday jamiyatlar yoki guruhlar paydo bo'lgan edi.

Sobiq Ittifoq davrida V. V. Bartol'd, M. S. Andreyev, S. P. Tolstov, Ya. G'. G'ulomov, B. A. Ahmedov, A. R. Muhammadjonov, M. Masson, O. D. Chexovich, A. A. Semenov, O. A. Suhareva kabi olimlarning tarixiy-geografik asarlaridan O'zbekiston toponimlarining ma'nosi va kelib chiqishi haqida talay materiallarni uchratish mumkin.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonda toponimika fanining va geografik atamashunoslikning rivojlanishida professor H. H. Hasanov, tilshunos toponimistlardan professorlar – T. Nafasov, Z. Do'simov, dotsent N. Oxunovlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug'-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini (etnogenezini) hamda geografiyaga oid atamalarni o'rganishda Ya. G'. G'ulomov, R. N. Nabiyev, A. R. Muhammadjonov, F. Abdullayev, S. Ibrohimov, O'zbekistonda birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan H. T. Zarifov, etnograflar – E. Fozilov M. Shoabdurahmonov, X. Doniyorov, R. Qo'ng'irov, geograflar – H. Hasanov, S. Qorayev kabilarning ishlari diqqatga sazovordir.

Sovet davlati parchalanib ketgandan keyin joy nomlari milliy qadriyat qatlamlaridan biri sifatida qaralib. mustaqil toponimik siyosat yurgizila boshlandi. xalq tarixi, madaniyati, tiliga aloqador bolmagan shahar va qishloqlar, ko'chalar va boshqa geografik ob'yektlaratag nomlari o'zgartirila boshlandi. tarixiy nomlar tiklandi. qayta nomlandi.

1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi geografik ob'yektlarni nomlash va qayta nomlash siyosatida ham burilish nuqtasi boldi, toponimlarni milliy lashtirish harakati boshlandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng toponimika fani yanada rivojlana boshladi. Shuningdek, yurtimiz toponimlarining nomlanishiga ham jiddiy e'tibor berila boshlandi. Sobiq Ittifoq davrida yurtimizdagi qishloq, shaharcha, ko'cha va boshqa joy nomlari Lenin, Marks, Engel's, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin, Frunze, Qizil maydon va boshqa nomlar bilan atalib kelingan. Shunisi ajablanarliki, bu shaxslarning ba'zilari umrida bir marta ham yurtimizga qadam qo'ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kimsalar edi. Yoki shaharlardagi aksariyat turar joy mavzolari "S-1", "S-2", "T-3" degan, odamda hech qanday his-tuyg'u, xotira uyg'otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelingan.

Hozirda bunday nomlar o'mini tariximiz bilan bog'liq, chuqur ma'noli nomlar egalladi. Masalan, Toshkentning o'zida shaharning qadimgi 12 darvozasi nomi bilan ko'cha, mahallalar paydo bo'ldi: Samarqand, Beshyog'och, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar. Shuningdek, aholining yashash sharoiti va mashg'ulotlaridan kelib chiqqan nomlar yana qayta tiklandi. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi Pichoqchilik, Charxchilik, Ko'nchilik, Degrezlik, Taqachi, Egarchi, O'qchi, Zargarlik, Parchabof va hokazo.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda geografik ob'yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalarini ko'rib chiquvchi, shuningdek, "Geografik ob'yektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablarining bajarilishini nazorat qiluvchi komissiyalar – maxsus organlar tashkil etildi.

Toponimika fanini chuqurroq o'rganish maqsadida Namangan davlat universiteti 5120300 – tarix (Jahon mamlakatlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga "Tarixiy toponimika" nomli maxsus kurs tashkil etildi va tez orada talabalarining eng sevimli fanlaridan biriga aylandi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning yozilishiga ham tarix yo'nalishi talabalarining fanga bo'lgan qiziqishlari sabab bo'ldi. O'quv qo'llanmada "Tarixiy toponimika" fanining paydo bo'lishi va taraqqiyoti. O'rta Osiyo tarixiy toponimiyasining manbalari, o'rta asr yozma manbalarida qadimgi toponimlar, tarixiy kartalardagi toponimik ma'lumotlar, toponimlarning tarixiylik va til jihatdan mansubligi, yurtimizning etnonim va etnotoponimlari, oronim va orotoponimlari, gidronim va gidrotoponimlari, yurtimiz shahar va qishloqlari toponimikasiga doir ma'lumotlar o'z aksini topgan.

**Muallif**

### Reja:

1. Toponimika fani va uning rivojlanishi.
2. Toponimikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
3. Toponimlarning paydo bo'lishi.

**Toponomika fani va uning rivojlanishi.** Toponomika geografik nomlar, kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponomikani "zamin tili", ya'ni, yer tili deb ham atashadi. Toponomika atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, "topos" – joy, "onom" yoki "onima" – nom, umuman, joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi. Toponomika ikki ob'yektdan: mikro va makro toponimlardan iborat bo'lib, mikrotoponomika – grammatik jihatdan mayda ob'yektlarni, ya'ni "turdosh otlarni", mikro ob'yektlarning nomlarini, makrotoponomika esa atoqli otlar, ya'ni yirik ob'yektlarning nomlarini tadqiq qiladi.

Hozirgi vaqtda toponimika faqat katta va yirik ob'yektlarning: tog'lar, o'rmonlar, vodiylar, vohalar, shaharlarning nomlarinigina emas, balki kichik ob'yektlarning – mahallalar, daralar, jarliklar, anhorlar, daryo irmoqlari, ariqlar va ko'llarning nomlarini ham o'rganmoqda.

Joy nomlari, ya'ni toponimiya bir necha turga bo'linadi. Bular, gidronomiya (yunoncha gidro – suv), ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari: oronimiya (yunoncha oros – tog), ya'ni yer yuzasining relef shakllari – tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya (yunoncha oykos – uy), polinimiya (yunoncha polis – shahar) yoki urbanonomiya (lotincha urbos – shahar), ya'ni qishloq hamda shahar-larning nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha etnos – xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar (yunoncha antropos – odam) deb atash mumkin.

XIX asr oxirlaridan e'tiboran dunyoda amaliy grammatika, xususan, kartografiya ehtiyojlari munosabati bilan toponimikaga qiziqish kuchaydi. Toponimikadan maxsus asarlar paydo bo'ldi, geografik nomlarni o'rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, Angliyada 1923-yilda dunyoda birinchilardan bo'lib mamlakatdagi barcha toponimik ishlarni muvofiqlashtirish uchun Toponomika jamiyati tuzildi. Keyinchalik, G'arbiy Yevropa, Fransiya, Germaniya, Pol'sha va boshqa mamlakatlarda ham huddi shunday jamiyatlar yoki guruhlar paydo bo'lgan edi.

Rossiyada toponimik tadqiqotlar tarix, geografiya va filologiya fanlari vakillari tomonidan olib borildi Akademik Shegrel (1794 – 1855), mashhur tarixchi va etnograf N. L. Nadejdin (1804-1856), tilshunos A. Kastreislar (1813- 1852) rus toponimikasining dastlabki tadqiqotchilaridandir. 1847-yilda Rossiya Geografiya jamiyatida tuzilgan geografik terminologiyani o'rganish komissiyasi va Rus tili va adabiyoti havaskorlari jamiyati (1811-1930) toponimikaga katta ahamiyat berdi. 1904-yilda Rossiya geografiya jamiyati qoshida Kartografiya komissiyasi tuzildi.

Sobiq Ittifoq davrida toponimik tadqiqotlar yanada rivojlandi. Toponimik materiallarni to'plash va qayta ishlash sohasida jiddiy ishlar boshlandi. Toponimi-

ka bo'yicha maxsus mahkamalar, Butunittifoq geografiya jamiyatining filiallarida va bo'limlarida toponimika komissiyalari tuzila boshlandi. 1965-yilda Leningrad-da SSSR toponimikasi bo'yicha Birinchi butunittifoq konferensiyasi o'tkazildi. Sobiq ittifoqdosh respublikalarning tilshunoslik institutlari, sobiq SSSR Geografiya jamiyati Moskva filialining toponimika komissiyasi geografik nomlarni o'rganishga katta ahamiyat bera boshladi.

Sobiq Ittifoq davrida toponimika bo'yicha A. Matveyev, E. M. Mirzayev, V. A. Nikonov, A. Popov, A. V. Superanskaya, A. A. Refonmatskiy, B. A. Serebrennikov, V. N. Toporov, O. N. Trabadiyevning asarlari ma'lum va mashhur.

Dunyoda eng yirik toponimistlardan biri atoqli geograf E. M. Mirzayev (1908-1998) hisoblanib, olim yarim asrdan ko'proq vaqt davomida geografik nomlarning, jumladan, O'zbekiston toponimlarining kelib chiqishi, transkripsiyasi, xususan, mahalliy geografik atamalar haqida ko'plab qimmatli asarlar, maqolalar, monografiyalar, lug'atlar yaratdi. E. M. Mirzayev ko'p yillik ilmiy faoliyatida toponimikaning nazariy masalalari bilan bir qatorda geografik atamalarga ham alohida ahamiyat berdi. Masalan, 4 mingga yaqin xalq geografik atamalarini o'z ichiga olgan lug'ati (Словарь народных географических терминов. – М., 1984) jahon toponimistlari va tilshunoslarining e'tiborini tortdi. Bu asar 1999-yilda to'ldirilib, 2 jildda qayta nashr etildi.

Rossiyalik yirik toponimistlardan biri V. A. Nikonov Sobiq Ittifoqda toponimikaning fan sifatida oyoqqa turishiga katta hissa qo'shdi. Olimning eng yirik toponimik asarlari – "Toponimikaga kirish" (Введение в топонимику. – М., 1965.) va "Qisqacha toponimik lug'at" (Краткий топонимический словарь. – М., 1966.) dir. V. A. Nikonov toponimlar tarix taqozosi ila vujudga keladigan ijtimoiy hodisa ekanligini, geografik nomlarning tarkib topishida suffikslarning – grammatik qo'shimchalarning (ayniqsa, slavyan toponimiyasida) katta o'rin tutishini alohida uqtirdi. U toponimlarning bir-biri bilan bog'liq holda paydo bo'lishining qator qonunini hamda geografik ob'yektlarning kam uchraydigan harakterli xususiyatlariga qarab nom olishining nisbiy negativlik qonunini kashf etdi. V. A. Nikonov o'zining toponimik lug'atida dunyodagi 4 mingga yaqin yirik geografik ob'yektlar nomlarining kelib chiqishini izohlab bergan.

Rossiyalik yirik tilshunos toponimistlardan biri A. V. Superanskaya bo'lib, olima toponimlarga, xususan, atoqli otlarga bag'ishlangan ko'plab asarlar yozgan. Uning geografik nomlar lingvistik qonuniyatlaridan bahs etadigan eng yirik asari "Toponimika nima?" (Что такое топонимика? – М., 1985.) kitobidir. Asarda toponimikaning nazariy asoslari bayon etilgan, geografik nomlar tarixidan ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston toponimiyasini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan har bir mutaxassis: V. V. Bartol'd, M. S. Andreyev, S. P. Tolstov, Ya. G'. G'ulomov, B. A. Ahmedov, A. R. Muhammadjonov, M. Masson, O. D. Chexovich, A. A. Semenov, O. A. Suxareva kabi olimlarning tarixiy-geografik asarlaridan O'zbekiston toponimlarining ma'nosi, kelib chiqishi haqida talay ma'lumotlar topadi.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi rus sharqshunoslaridan akademik V. V. Bartol'dning asarlari toponomikada alohida o'rin tutadi. V. V. Bartol'dning tarixiy geografiyaga taalluqli bo'lmagan va geografik nomlarni o'z ichiga olmagan birona ham asarini topish qiyin. Asarlarining toponimika uchun

qimmatli shundaki, u rus va G'arbiy Yevropa tillaridagi adabiyotlarni o'qish bilan kifoyalanmaydi, balki arab, fors hamda turkiy tillardagi asarlarni asliyatida mutolaa qiladi, ularni tanqidiy o'rganadi va bir-birlari bilan taqqoslaydi. U arab va fors manbalarida tilga olingan yuzlab joy nomlarining transkripsiyasini, etimologiyasini va o'rnini aniqladi. V. V. Bartol'd joy nomlarini mamlakat tarixi va geografik muhiti bilan bog'liq ravishda o'rgandi, ayni vaqtda toponimlarning lingvistikasiga ham katta ahamiyat beradi.

Akademik Ya. G'. G'ulomovning "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida toponimik nomlar ham juda ko'p. Ya. G'. G'ulomov atamaologiyaga juda katta ahamiyat beradi. Bu esa ko'plab toponimlarning ma'nosini ochib beradi. Xorazmda arna (Mang'itarna, Paxtaarna, Shovotarna, O'taliqarna, Polvonarna), yob (yop) (Bog'yop, Bizyop, Polvonyop, Tozayop, Xonyop, Tozabog'yop, Chirmonyop), qir (g'ir) (Manqir, Toyqir Tuzqir, Yassiqir), qal'a (Bozorqal'a Burgutqal'a, Qabulqal'a Qavatqal'a, Tuproqqal'a, Kofirqal'a) kabi atamalardan tuzilgan geografik nomlar juda ko'p. Ya. G'. G'ulomov bu atamalarni tushuntirib o'tadi. Masalan, arna so'zi Xorazmda hozir "magistral kanal" ma'nosida keladi. Ya. G'. G'ulomov esa arna atamasining asl ma'nosi "daryo tarmog'i", "shaxobcha" ekanini aytadi.

Qadimiy tarixiy hujjatlar, vasiqalar, vaqfnomalar toponimika uchun katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda tarix fanlari doktori O. D. Chexovich tomonidan tayyorlangan, XIII-XIV asrlarga doir "Buxoro hujjatlari", XV-XVI asrlarga oid "Samarqand hujjatlari" tengsiz toponimik asarlardir. Masalan, birgina "Samarqand hujjatlari"da mingdan ortiq geografik va tarixiy topografik nomlar tilga olingan. Shundan ikki yuzdan ortiq toponimning o'rni, hozir nima deb atalishi, ba'zan kelib chiqishi aniqlangan. Bundan tashqari, O. D. Chexovich yer-suv muomalasi, vasiqa, vaqf hujjatlariga doir ko'plab atamalarni izohlab ham bergan.

Sharqshunos A. L Troitskaya Qo'qon xonlarining (XIX asr) arxividagi 3800 hujjatni tarjima va tahlil qilar ekan, ularda tilga olingan geografik nomlar ko'rsatkichini tuzdi. Geografik nomlarning ruscha transkripsiyasi yonida arabcha yozuvi ham keltirilganligi diqqatga sazovordir. Hujjatlar bundan bir yarim asr oldin (XIX asrning 40-70-yillarida) yozilgani bilan ham qimmatli. Bu esa shu davr ichida geografik nomlarning yozilishda va talaffuzida ro'y bergan o'zgarishlarni payqab olishga imkon beradi.

O'zbekistonda toponimika fanining va geografik atamashunoslikning rivojlanishida professor H. H. Hasanovning xizmatlari katta. Olimning "Geografik nomlari imlosi" (1962), "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" (1965), "Geografik nomlar siri" (1985), "Yer tili" (1977), "Geografiya atamaları lug'ati" (1966), "O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar" (1964), "Sayyoh olimlar" (1981) kabi asarlarida, ko'plab risolalari va maqolalarida O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda joy nomlarini o'rganishga qadimdan ahamiyat berib kelinganni qayd qilingan.

Tilshunos toponimistlardan professorlar – I. Nafasov, Z. Do'simov, dotsent N. Oxunov O'zbekistonda toponimikaning rivojlanishiga, toponimlarning nominatsion (nomlanish) qonunlarini ochib berishga salmoqli hissa qo'shdi va ko'plab joy nomlarining etimologiyasini aniqlab berdilar.

O'zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri – T. Nafasov O'zbekistonda birinchi bo'lib toponimikadan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Keyinchalik, sohaga oid bir qancha risola,



maqolalar chop etdi. Uning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati"da (1988), asosan, Janubiy O'zbekistondagi mikrotoponimlar etimologiyasi yoritilgan. Shu bilan birga mintaqadagi Boysun, Kesh, Chag'onyon, Qarshi kabi ba'zi tarixiy toponimlarga ham etimologik izoh berilgan.

Z. Do'simov Xorazm toponimiyasini o'rganib, joy nomlarining tarixi va etimologiyasi, ularning lingvistik xususiyatlari, modellari va tiplarini aniqlash sohasida ishladi. "Xorazm toponimlari" monografiyasida (1985) Xorazm toponimlarining shakllanishi va ularning taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qildi.

Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug'-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini (etnogenezini) hamda geografiyaga oid atamalarni o'rganishda Ya. G'. G'ulomov, R. N. Nabiyeu, A. R. Muhammadjonov, F. Abdullayev, S. Ibrohimov, O'zbekistonda birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan H. T. Zarifov, etnograflar – E. Fozilov, M. Shoabdurahmonov, X. Doniyorov, R. Qo'ng'irov, geograflar – H. Hasanov, S. Qorayev kabilarning ishlari diqqatga sazovordir.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng toponimika fani yanada rivojlana boshladi. Shuningdek, yurtimiz toponimlarining nomlanishiga ham jiddiy e'tibor berila boshlandi.

**Toponimikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.** Toponimika shaharlar, qishloqlar, daryolar, ko'llar, tog'lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o'rganar ekan, bu fan geograflarga ham, tilshunoslarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi.

Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bolib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Albatta, so'zni tilshunoslik – lingvistika fani o'rganishi kerak. Demak, toponimika atoqli otlarni o'rganadigan onomastika fanining bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi.

Ikkinchi tomondan, geografik nomlar haritaning eng muhim elementi sifatida biron mamlakat yoki o'lka tabiatining xususiyatlarini aks ettiradi. Ana shu nuqtai nazardan toponimikani geografik fanlar jumlasiga kiritish mumkin.

Shu bilan birgalikda, joy nomlari jamiyat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Joylarga qanday nom berish, avvalo, jamiyatning muayyan bosqichdagi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Joy nomlari tarixini bilmasdan turib toponimika bilan shug'ullanish kutilgan natijani bermaydi. Ana shuning uchun ham toponimika tarix fanlari qatoridan o'rin oladi.

Demak, toponimika uchta katta soha: tilshunoslik, geografiya, tarix oralig'idagi fandir. Shu bois toponimikaning faktlari harakter jihatdan xilma-xil bo'lgan lingvistik, tarixiy va geografik material jalb qilingandagina to'g'ri izohlab berilish mumkin.

Toponimlar til lug'at fondining bir qismidir. Shu bilan birgalikda joy nomlar tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qiladi. Bu farq toponimlarning uzoq yashashida, ularning potikomponentli, ya'ni ko'p komponentlardan – tarkibiy qismlardan iborat bo'lishida, tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (apellyativlar) ishtirok eta olishida o'z aksini topadi.

Toponimlarni yasashda shu til uchun xos bo'lgan lingvistik vositalardan (modellardan) foydalaniladi. Toponimikani o'rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Ko'pgina joy nomlari juda qadimiydir. Ibtidoiy

yodgorliklarda qayd qilingan geografik nomlarni keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lugʻat tarkibida, soʻzlarning dastlabki shaklida roʻy bergan oʻzgarishlarni bilib olishiriz mumkin.

Masalan, hozirgi Nurota nomini baʼzi birovlar moʻgʻulcha va oʻzbekcha tov soʻzlaridan tarkib topgan boʻlib, har ikkala soʻz ham “togʻ” degan maʼnoni bildiradi deyishadi. Holbuki, bu nom bundan ming yildan ham koʻproq oldin qayd qilingan.

Buxoro tarixchisi Abu Bakr Muhammad ibn Jaʼfar Narshaxiy oʻzining “Buxoro tarixi” asarida (934-944-yillarda yozilgan) Nur degan joy nomini tilgan oladi. Uni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar, deb yozadi Narshaxiy. Nuri Buxoro, yaʼni Buxoro Nuridan boshqa Nurlar ham boʻlgan. Masalan, Zarafshonning ikkita tarmogʻi – Qoradaryo bilan Oqdaryo oraligʻidagi Miyonkoʻl orolida ham Nur degan qishloq boʻlgan. Uni boshqalardan farq qilish uchun Nuri Miyonkoʻl deb atashgan. Shunday qilib, Nur bora-bora Nurota boʻlib ketgan: nur soʻzi (arabcha) “yorugʻlik”, ota esa geografik nomlar tarkibida “aziz avliyolarning qadamjosi” degan maʼnoni bildiradi.

Samarqand shahri Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) yilnomalarida Marokanda, sugʻd yozuvlarida Smarakans, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshgʻariy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirxond (XV asr, Amir Temur saroyiga kelgan ispan elchisi Lui Gonzales de Klavixo (XV asr) asarlarida Semizkent. Chingizxon haqidagi moʻgʻul hikoyasida Semizgen kabi bir qancha variantlarda ucharaydiki, bularning hammasi Samarqand nomi juda qadimiy ekanligini va uning kelib chiqishi (etimologiyasi) tamom uzil-kesil hal boʻlmaganligini koʻrsatadi. Bunday misollarni koʻplab keltirish mumkin.

Toponomikaning tilshunoslik, til tarixi hamda dialektologiya uchun ahamiyati juda katta va xilma-xil. Nemis tilshunosi V. Shperberg, rus toponimisti V. A. Nikonov tadqiqotlari roman va slavyan toponimlarida koʻplik shakli juda keng tarqalganligini koʻrsatadi. Haqiqatan ham, rus toponimlarida koʻplik affiksi koʻplab ishlatiladi. Masalan, koʻprik soʻzining bir oʻzi oʻzbek tilida hech vaqt toponimga aylanmaydi, buning uchun koʻprik soʻziga biron sifat qoʻshilishi kerak, chunonchi Beshkoʻprik, Gʻishtkoʻprik, Taxtakoʻprik, Koʻprikboshi va hokazo. Rus tilida esa most (koʻprik) soʻziga koʻprik qoʻshimchasi qoʻshilsa bas, Mosto shaklida toponim yasaladi. Bunda koʻprikning koʻp boʻlishi shart emas. Mosto toponimi oʻzbekcha koʻprikli maʼnosini beradi. Qarshi, Mori kabi joy nomlarini ham ruslar koʻplik shaklidagi soʻzlar kabi tushunadi va shunday turlaydi. Bularning hammasi rus tilining xususiyatidan kelib chiqadi. Rus tilida koʻpgina soʻzlar faqat koʻplik shaklida ishlatiladi.

Xorazm viloyatidagi 720 ta aholi punktidan 80 dan ortigʻi – lar qoʻshimchasi bilan tugaydi. Shunisi qiziqki, bu nomlar orasida Koʻpaklar, Shagʻallar, Echkilar, Qargʻalar kabi toponimlar ham uchraydi. Bu toponimlar hayvon nomlaridan tarkib topganga oʻxshaydi. Aslida esa unday emas: koʻpak, shagʻal (chiya boʻri), echki, qargʻa degan urugʻ nomlari bor. Hali zikr etilgan toponimlar ana shu urugʻlar nomi bilan atalgan. Masalan, Qargʻalar “qargʻa urugʻidan boʻlgan kishilar yashaydigan joy” demakdir. Shuningdek, – on affiksi. Bu tojikcha affiks Oʻzbekiston sharoitida aksari toponim yasaydi va kishilarning qandaydir ijtimoiy guruhga, chunonchi: 1) muayyan millatga – Arabon (arablar), Qirgʻizon (qirgʻiz-

lar), O'zbekon (o'zbeklar); 2) qandaydir urug'-aymoqqa – Mang'iton (mang'itlar). Minggon (ming urug'idan bo'lgan kishilar); 3) ma'lum tabaqaga – Mirzoyon (kotiblar), Tarxonon (soliqdan ozod qilinganlar); 4) hunar-kasbga – Bo'yrabog'on (bo'ya to'quvchilar), Kosagaron (kosa ustalari), So'zangaron (igna ustalari); 5) diniy e'tiqodga mansub ekanligini bildiradi: Mug'on, Mug'iyon (otashparastlar), Hinduyon (hindular) va hokazo.

Ko'rinib turibdiki, toponimika tarixiy tilshunoslikning ko'pgina masalalarini yechib berishda tilshunoslarimiz yordamga keladi.

Toponomika geografiya uchun katta ahamiyatga ega. Toponim – geografik ob'yektning aniq manzilidir. Nomlar joyning geografik aniqlash uchun ham, geografik tushunchalari ifoda etish uchun ham zarur. Geografik haritada keltirilgan boy va xilma-xil nomlar orasida nomlar alohida o'rin tutadi. Geografik ob'yektlar shu qadar ko'p va xilma-xilki, ularni ifoda etish uchun maxsus so'zlar, nomlar bo'lishi kerak. Geografik nomlari geografiyaning o'ziga xos till desa bo'ladi. Geografik nomlar muayyan geografik tushunchalarni ifoda etar ekan, bir qancha hollarda atamaga aylanib qoladi. Masalan, yonar tog'larni ifoda etuvchi vulqon atamasi Italiyadagi Vulkano tog'i nomidan olingan.

Tog'lar tog'risida ham shunday deyish mumkin. Tog'lar orasida yashaydigan Tog' so'ziga nisbatan tosh so'zi ko'proq ishlatadi. Masalan, tog'li yerda "Tog' tepasiga chiqib ketdi" deyish o'rniga "Tog'ga chiqib ketdi" deyishadi. Shuningdek, Ayritosh, Qoratosh, Oqtosh deganda ko'pincha qandaydir ayrim tog'lar nazarda tutiladi. Ural va Sibir tog'larida ham kamen (tosh) deb ataydi.

Shunday bo'lsa ham, geografik nomlarda geografik qonuniyatlarning aks etganiga juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Demak, joy nomlari tasodifiy paydo bo'lmaydi, aksincha, Eshakhangraganqir, Qo'yqirilganqal'a kabi tasodifiy nomlar kamdan-kam uchraydi. Binobarin, toponimlarning aksari qismi ma'naviy jihatdan tabiat hodisalarini aks ettiradi.

Xalq biron tabiat hodisasini geografik atama bilan ifoda etadi va binobarin, geografik nomlar tarkibida geografik atamalar ko'p uchraydi. Bunday atamalar toponimiya negizi, ya'ni murakkab geografik nomlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Geografik atama (tog', cho'l, ko'l, qishloq va h.k.) hali geografik nom emas, balki turdosh ot bo'lib, muayyan umumiy yoki xususiy geografik tushunchani bildiradi. Biroq har qanday geografik atama atoqli otga, ya'ni geografik nomga aylanishi mumkin.

Geografik atamalar, shuningdek, o'simlik va hayvon nomlari biron qo'shimchasiz yoki aniqlovchisiz toponimga aylanmaydi. Masalan, O'zbekistonda o'n minglab quduq bor va har biri o'z nomiga ega. Bunda quduq so'zi yonida biron kishining ismi yoki aniqlovchi so'z (chuqur, katta, uch, to'rt va h.k.) yo bo'lmasa – cha, – li kabi qo'shimchalar bo'ladi. Agar bordi-yu Quduq, Choqqi, Ariq, Yantoq, Qulon kabi bir atama yoki birgina o'simlik, hayvon nomidan iborat toponim uchraydigan bo'lsa, u holda bunday toponimni izohlashda juda ehtiyot bo'lish kerak. Masalan, Toshkentdagi Zahariqni ko'pincha Zax deyishadi.

Jizzax viloyatining Zomin tumanida baland tog' yaqinidagi tepasi yassi qir baraz deyiladi. Masalan, Kattabaraz, Kichikbaraz, To'pchihoybaraz degan joylar bor. Baraz ("baland") so'zi qadimiy sug'd tilidan qolgan bo'lib, hozir juda katta

hududlarda mustaqil yoki toponimlar tarkibida uchraydi. Masalan, Zarafshon daryosining bosh tomonidagi Yag'nobda Burazo, Pusfati baroz, Sari baroz, Sibaroso, Vanjda Berazgo kabi toponimlar bor. Olimlarning yozishicha, Rossiyaning Yevropa qismidagi Berezalika, Berezau gidronimlari ham o'sha baraz ("baland") so'zidan kelib chiqqan. Arman tilidagi banter ham o'sha baraz bilan o'zakdosh va ma'nodosh.

Bu misollar geografiyani yaxshi bilmasdan turib toponimika bilan shug'ullanish ishonchli natijalar bermasligini ko'rsatadi.

Geografik nomlar juda uzoq davr mobaynida saqlanib qolishi juda katta ahamiyatga ega. Masalan, Damashq shaharining shu nom bilan atalganiga uch ming yil boladi. Uni dunyodagi eng kekxa nom deb bo'lmaydi. Buxoro, Samarqand, Xorazm kabi toponimlar ham juda qadimiy nomlardan. Shuning uchun ham ularning kelib chiqishi hamon uzil-kesil hal bo'lgan emas. Qanchadan-qancha nomlar yozuv paydo bo'lmasdan oldingi davrlardan qolgan. Xalqlar yo'q bo'lib ketgan, tili unutilgan bo'lishi mumkin. lekin geografik joy nomlari saqlanib qolaveradi. O'simlik yoki hayvon yo'q bo'lib ketgan bo'lsa ham, nom yashayveradi.

Yerga bo'lgan xususiy mulkchilik, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mayda yer egaligi toponimiyada sezilarli iz qoldirgan.

Misollarga murojaat qilaylik. 1909-yilda Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida nashr etilgan ro'yxatga ko'ra, Qo'qon va Marg'ilon uyezdlarida, shuningdek, Andijon va O'sh uyezdlarida chek so'zini 50 dan ortiq qishloq nomi tarkibida ko'ramiz. Andijon viloyatida va xususan Farg'ona viloyatida chek so'zidan tarkib topgan joy nomlari hozir ham anchagina uchraydi.

Andijon tumanida Obtobachichek degan qishloq bor. Bu nom Xudoyorxon davridan qolgan. Abdurahmon ismli bola (Musulmonqulning o'g'li) xonning qo'liga suv quyuvchi – obtobachi bo'lgan. Xudoyorxon Abdurahmon obtobachiga bir necha yuz tanob yemi chek qilib bergan. Abdurahmon obtobachining yeri Chek Obtobachi deb atalgan, keyinchalik Obtobachichek bo'lib ketgan. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida Bobochek, Iso Avliyochek, Muhammad Aminchek, Nasriddinbekchek kabi yerlar bo'lgan. Keyinchalik bu yerlarda qishloqlar bunyod etilgan. Xo'sh, chek yer olgan bu kishilar kimlar bo'lgan? Bularning hammasi tarixiy shaxslardir. Chunonchi, Muhammad Amin va Nasriddinbek Xudoyorxonning o'gillari bo'lgan. Iso Avliyo esa xonning ishonchli kishisi va maslahatchisi hisoblangan.

Chek deganda, xon va uning oila a'zolari, amaldor, ruhoniylar va mashhur shaxslarning, umuman har qanday kishilarning xususiy yerlari tushunilgan. Shu bilan birga Farg'ona vodiysida chek so'zi muayyan yer o'lchovi ham hisoblangan. Shu nomlar tarkibida esa chek atamasi toponim yasovchi bo'lib, xonlik davri yer egaligidan darak berib turadi.

**Toponimlarning paydo bo'lishi.** Dunyoda hamma narsaning nomi bor. "Tog'" deganda balandmi-pastmi, kattami-kichikmi umuman tog' tushuniladi. Tog' ham shunday umumiy atama, turdosh ot. Shunday so'zlarni xohlagan tilga tarjima qilish mumkin. Atoqli ot esa qandaydir bir narsani, predmetni, ob'yektni bildiradi va odatda tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, Samarqand deganda, respublikamizdagi Zarafshon daryosi sohilida joylashgan go'zal tarixiy shahar tushuniladi. Buxoro deyish bilan

O'zbekistonning ko'hna shahri, shu nomli viloyat markazi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, toponim (geografik nom) – avvalo so'zdir. Biroq u oddiy so'z emas, birinchidan, atoqli ot. Ayni paytda ko'pgina toponimlar, hatto tilshunos olimlar uchun ham tushunarsiz. Xorazm, Samarqand, Farg'ona, Namangan kabi nomlarning kelib chiqishi haqida qancha fikrlar bildirilgan bo'lsa ham, ularning kelib chiqishi, etimologiyasi hamon noma'lum.

Geografik nomlar manzilgina emas, balki ko'pdan-ko'p axborot – tarixiy, geografik, lingvistik ma'lumot tashiydi. Har qanday geografik nom muayyan mazmunga ega, ma'nosiz nom bo'lmaydi. Lekin ko'pgina joy nomlarining ma'nosi yo'qolgan, aniqrog'i hozirgi kishilar uchun tushunarsiz bo'lib qolgan.

Toponimlar turli asrlar mevasi bo'lib, uzoq davrlar yashaydi. Qadimiy tillarda qo'yilgan nom keyingi xalqlar uchun oddiy toponimdan boshqa narsa emas, uning qanday ma'noni anglatishi haqida har doim ham o'ylab o'tirishmaydi.

Geografik nomlar turli davrlar guvohi. Turli soha olimlari – tilshunolar, geograflar, tarixchilar, arxeologlar, geologlar, etnograflar toponimikaga murojaat qiladilar.

Geografik nomlarga qarab o'tmishda qanday xalqlar yashaganini, turli millat xalqlarining o'zaro aloqalarini, ularning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishini bilib olish mumkin.

Turli davrlarda yashagan va turli tillarda gaplashgan xalqlar O'rta Osiyo. jumladan o'zbek halqining etnogenezida muayyan darajada ishtirok etgan va o'lkaning tarixiy toponimiyasida iz qoldirgan. Buni O'rta Osiyoning o'tmishda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lgan aholisining hozirgacha saqlanib qolgan urug'-qabila nomlarida ham ko'rish mumkin.

Sarmat, Sirak (Shiroq), Tohar, Alan, Mitan kabi toponimlar olkada turli davrlarda yashagan qadimiy xalqlar va qabila nomlarining in'ikosidir. Har bir mamlakatda, viloyat, har bir tumanda, shaharda va hatto qishloqda qanchadan-qancha toponimlar bor.

Toponimika geologik qidiruv ishlarida ham katta yordam beradi. Geologiya-minerologiya fanlari doktori R. A. Musin o'zining ko'p yillik ilmiy faoliyatida qadim zamonlarda ishga solingan konlarning o'rinlarini toponimika ancha aniq ko'rsatib bera olishini isbot qiladi. Konsoy, Kontepa, Oltintog', Kumushkon. Miskon, Ko'hila'l, Qo'rg'oshinkon kabi daryo va soylar, tog'lar va tepaliklar. yo'llar va dovonlar, maydon va mavzelar bu joylardan yer osti boyliklari qazib olinganidan dalolat beradi.

Masalan, Parkent qishlog'i yaqinida joylashgan Kumushkondan qadimda ham, yaqin-yaqinlarda ham qo'rg'oshin qazib olingan. Nima uchun Kumushkon Qo'rg'oshinkon deb atalgan emas? Buning siri yaqindagina aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, Kumushkonning qo'rg'oshin rudalari boshqa kon rudalaridan o'zining kumushga boyligi bilan ajralib turar ekan.

Geografik nomlar juda qadim zamonlarda, ibtidoiy tuzum davrida paydo bo'la boshlagan. Joy nomlari ming-ming yillar davomida to'plana borgan va hozirgi vaqtda Yer sharida behisob toponimlar bor. Lekin hammasi bo'lib. dunyoda qancha geografik nom bor ekanini hech kim bilmaydi, buni hisoblab chiqishning iloji ham yo'q. Har bir qishloqda va uning yon-verida bir necha

quduq, kichik jar, ayrim qoya, hovuz, uvat bilan chegaralangan chek yer, buloq, tepalik, xirmonjoylar, yolg'izoyoq yo'llar uchraydiki, ularning nomlari shu qishloqdagi bir guruh odamdan boshqa hech kimga ma'lum emas. Bunday kichik ob'yektlarni eng mukammal topografik haritadan ham topib bo'lmaydi.

Geografik nomlar dunyoga keladi, yashaydi, ma'lum bir davr davomida ko'pincha shakli hamda talaffuzi o'zgaradi va nihoyat nom-nishonsiz yo'qoladi. Toponimlarning umri turlicha. Ba'zi bir toponimlar bir necha yil yoki bir necha o'n yil yashasa, boshqa bir geografik nomlar asrlar bo'yi ham tildan tilga o'taveradi. Samarqand yunon tarixchilari asarlarida Maraqanda, sug'd yozuvlarida Samrakans, Toshkent esa dastlab Choch, keyinchalik Shosh. X asrdan e'tiboran Toshkent shaklida qayd qilingan.

O'rta Osiyoga turkiy xalqlar kelmasdan oldin hozirgi O'zbekiston hududidagi vohalarda yashagan mahalliy xalqlar va qabilalar – xorazmliklar, sug'diyalar, Choch (Toshkent) atroflari hamda Farg'ona vodiysi (qadimgi Parkana) aholisi saklar (shaklar) o'zbeklarning eng qadimiy ota-bobolari hisoblangan va sharqiy Eron tillarida so'zlashganlar. Shunday qilib, O'zbekiston hududida forsha nomlar substrat toponimlar, ya'ni o'zbeklar tomonidan assimilyatsiya qilingan tub nomlar hisoblanadi. Samarqand, Xorazm, Jizzax, Qo'qon, kabi ko'p so'zlar qadimiy nomlar ana shunday substrat toponimlardir.

Turkistonda arablarning uzoq davr davomida hukmronlik qilishi joy nomlarida ham o'z aksini topgan. Bunda arab tilining adabiy til bo'lib xizmat qilishi katta rol o'ynagan.

Arablar nomlari orasida avliyolar, payg'ambarlar va har xil diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan nomlar alohida o'rin tutadi. Arablardan qolgan toponimlarning eng ko'p sonlisi Rabotlardir. Arablar o'zlari bosib olgan joylarda harbiy punktlar – ko'pdan-ko'p rabotlar (ribotlar) qurgan. Chunonchi, Buxoro biqinidagi Boykand (Paykand) yaqinida 1000 dan ortiq rabot bo'lgan. Bu rabotlarda turkiy xalqlarning hujumlariga qarshilik ko'rsatadigan qo'shinlar turgan. Rabot nomli toponimlar O'zbekiston hududida hozir ham kam emas. Masalan, Rossiya imperiyasining harbiy olimi N. F. Sitnyakovskiyning 1899-yildagi "Ro'yxat"ida Zarafshon vodiysining faqat Buxoro qismida Balandrabot, Beshrabot, Deganrabot, Kaltarabot, Oltirabot, foshrabot, Chonrabot, Chuqurrabot, Qo'shrabot, Rabot, Rabotio'zbek, Rabotimulla, Raboti Yusuf, Yangirabot kabi 160 dan ortiq qishloq, bundan tashqari, shu qishloqlar nomi bilan atalgan bir necha o'n ariq qayd qilingan. Shuningdek, bob (bobil), nahr, tal (tepa), masjid (marchit), madrasa kabi arab atamalari geografik nomlar tarkibida ko'p uchraydi.

Shu bilan birga O'rta Osiyoda, jumladan. O'zbekistonda arablardan oldin paydo bo'lgan nomlar ham bor. Masalan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida tilga olingan bir qancha nomlar Buxoro atroflarida hozirgi kunlarda ham uchraydi. Shopurkon, Karmana, G'ijduvon, Ishtixon kabi qadimiy ariq hamda qishloqlar ana shular jumlasidan.

Mo'g'ullarning kirib kelishi O'rta Osiyo toponimiyasini yanada murakkablashtirib yubordi – Bultig'ur, Darxon, Norin, Norinko'l, Norinkapa, Shiherti kabilar mo'g'ulcha nomlardir. Dovon, ko'tal, to'qay, shiber, qapchig'ay kabi mo'g'ulcha atamalar O'rta Osiyo turkiy xalqlari tillari leksikasidan va toponimiyasidan mustahkam o'rin olgan.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistondagi ruscha nomlar turli yo'llar bilan paydo bolgan. Vannovskiy, Vladikino, Vrevskaya, Obmchevo, Ursatevskmya kabi temir yo'l stantsiyalari Rossiya imperiyasi hukumati hokimlarining qarorlari bilan qo'yilgan rasmiy nomlar edi.

Rus dehqonlari ko'chirib keltirilgan joylarda anchagina ruscha nomlar paydo bo'lgan. Mirzacho'lga rus dehqonlari dastlab 1886-yilda ko'chirib keltirilgan. O'sha yili bu yerda to'rta posyolka vujudga kelgan. Bular Zaporovskiy, Nadejdinskiy, Romanovskiy va Sretenskiy posyolkalari edi. 1898-yilga kelganda Sirdaryoning har ikkala sohilida 9 ta rus posyolkasi bunyod etildi. Bundan keyin paydo bo'lgan ruscha geografik nomlar ham Rossiyadagi nomlardan farq qilmas edi, boshqacha aytganda, ruslar o'zlari yashab kelgan yoki o'zlariga tanish bo'lgan joy nomlarini qo'ygan edilar.

O'zbekiston toponimlari tarkibida eng ko'p keladigan affikslar (topoformantlar): -zor (Marg'izor, Olmazor), -kat, -kent (Navkat, Binkat, Parkent), -iston (Guliston, Bog'iston), -loq (Toshloq, Sangloq, Qumloq), -obod (Dehqonobod, Dashnobod, Xalqobod, Haqqulobod), -li, -lik -liq, (Gazli, Totti, Soylik, Ohaklik, Bo'stonliq, Qoyliq), -on (Ohangaron, So'zangaron), -xona (Arabxona, Bo'rixona, Urganjxona), -goh, go (Namozgoh, Janggoh), -chi (Sho'rchi, O'qchi, Chiroqchi), -cha (Shorcha, Ko'kcha, Shoxcha), -ak -ik (Hisorak), -kor (Paxtakor, Lalmikor) va boshqalar.

### **Tayanch iboralar.**

Mikro va makro toponimlar, gidronomiya, oronimiya, urbanomiya, etnotoponimlar, antropotoponimlar, Toponimika jamiyati, Kartografiya komissiyasi, E. M. Mirzayev, V. V. Bartol'd, Ya. G. G'ulomov, O. D. Chexovich, A. L. Troitskaya, H. H. Hasanov, "Xorazm toponimlari" monografiyasi, "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati".

### **Nazorat savollari.**

1. Toponimika qanday turlarga bo'linadi?
2. Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston toponimlarini o'rgangan olimlarni sanab bering?
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda toponimika faniga qanday e'tibor berilmoqda?
4. Toponimlar qanday paydo bo'ladi?

## **O'RTA OSIYO TARIXIY TOPONIMIYASINING MANBALARI**

### **Reja:**

1. "Avesto" – O'rta Osiyo toponimikasi haqida muhim manba.
2. Eron yozuvlari, hind va xitoy manbalarida toponimik ma'lumotlar.
3. Yunon manbalarida O'rta Osiyoning toponimlari.

"Avesto" – O'rta Osiyo toponimikasi haqida muhim manba. O'rta Osiyo va uning geografik nomlari to'g'risidagi eng qadimgi ma'lumotlar Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da uchraydi. "Avesto"ning turli qismlari qadimgi geografik tushunchalar – daryolar, tog'lar, ko'llarning nomlari, qadimgi

mamlakatlar ro'yxati, hududiy, etnik qabilalar va viloyatlarning nomlari, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy tuzum, qadimgi qabilalar o'rtasidagi siyosiy kurashlar, zardushtiylarning diniy falsafasi kabi ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Dastlabki "Avesto" 21 ta kitobdan iborat bo'lib. bizning kunlarimizgacha uning Yasna – "qurbonlik qilish", Visparat – "hamma hukmronlar", Yasht – "qadrlash", "ulug'lash", Videvdat – "devlarga qarshi qonunlar" kabi qismlari yetib kelgan.

"Avesto"da O'rta Osiyo viloyatlarning eng qadimgi nomlari haqida ma'lumotlar mavjud. Xususan, Yasnaning 3-kitobi va Videvdatning 1-kitobida ular haqida ma'lumotlar sanab o'tiladi.

Yasnadagi davlatlar ro'yxatida "Aryonam Vayjo" yoki "Oriylar yurti". Bu yurtda ko'plab yaylovlar, uzun tog'lar, ko'llar va daryolar mavjud. Bu yurtdan keyin Porutu, Iskata, Mouru, Gova, Sug'da, Xvarizam yurtlari sanab o'tiladi.

Yasna kitobida oriylar yurti to'g'risida quyidagicha yozib o'tiladi: "Bu yurtning qo'shinlari ko'pgina yurishlar uyushtiradilar, keng yaylovlarda ko'pgina mollarni boqadilar".

"Videvdat" kitobida zardushtiylarning ulug' va dono xudosi Axuramazda payg'ambar Zaratushtraga quyidagilarni xabar qiladi: "Spitama Zaratushtra. Odamlar yashaydigan joylarda baxt kam bo'lsa ham Men ularga tinchlik va xotirjamlik yaratganman. Birinchi bo'lib Men odamlar uchun Vanxvi Dat'yo daryosi bo'yida eng yaxshi yurt bulgan Aryonam Vayjoga asos soldim. Ikkinchidan, Men Axuramazda, eng yaxshi yurtlardan biri Gava Sug'duga asos soldim. Uchinchidan, Men Axuramazda eng yaxshi yurtlardan biri qudratli Mouruga asos soldim. To'rtinchidan, Men Axuramazda eng yaxshi yurtlardan biri baland bayroqli va go'zal Bahdiga asos soldim".

Videvdatning birinchi bobida sanab o'tilgan yurtlar Yasnada keltirilgan yurtlar ro'yxatidan farq qiladi: Aryonam Vayjo, Gava, Mouru, Bahdi, Nisayyo, Ar'yo, Urva, Xnanta, Raga, Chaxro, Varna va ismsiz Hindistonning 7 ta viloyati.

"Avesto" matnlarida O'rta Osiyo chegaralari Afg'oniston, shimoli-sharqiy Eron va O'rta Sharq chegaralari bilan bog'lanadi.

Videvdatning alohida maxsus bobida Aryonam Vayjoning Vanxvi Dat'yo daryosi bo'yida joylashganligi yozib o'tiladi.

Aryonam Vayjoning chegaralari to'g'risida "Avesto"da aniq ma'lumotlar yo'q. Bu yerda u baland tog'lik hudud deb eslatiladi. Vanxvi Dat'yo daryosi qaysi daryo ekanligi ma'lum emas. Ko'plab olimlar (S. P. Tolstov, B. G'ofurov, V. Abayev, A. Sagdullayev, M. Ishoqov, I. Jabborov va hokazolar)ning fikricha, "Avesto"da keltirilgan Zardushtning vatani Ar'yanem Vaychax bu Xorazm Daitiya daryosi esa Anudaryodir.

Shuningdek, "Avesto"da yana bir keng daryo Ranxa ham eslatiladi. Ba'zi olimlarning fikricha, bu Sirdaryodir. Qadimgi Yunon olimlarining ma'lumotlariga ko'ra esa skiflar tilida Ra bu Volgadir.

"Avesto"da ismi keltirilgan boshqa daryolar: Zarnushat, Vitanxuxat, Frazdanlarning hozirda qaysi daryo ekanliklari bizga noma'lum. Zarnushat oltin daryo degan ma'noni bildiradi. Bu tushuncha Zarafshon (oltin keltiruvchi) nomida saqlanib qolgan.



Miloddan avvalgi I mingyillikda Oʻrta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni oʻrganish bu davrda hududning yangi rivojlangan jamiyatga oʻtayotganligidan dalolat beradi. Oʻrta Osiyoning baʼzi hududlarida dastlabki davlat birlashmalari vujudga keladi. Bu davlat birlashmalari “Avesto”da “dax’yusaeti” deb ataladi.

Tadqiqotchilar I. Jabborov va G. Drevyanskayalar etnografik va arxeologik tadqiqotlarga tayanib zardushtiylikning vatani Oʻrta Osiyo, xususan, qadimgi Xorazm ekanligini asoslashga harakat qiladilar. Misol uchun, qadimgi xorazmiylar, baqtriylar, soʻgʻdiylar, margʻiyonaliklar va hind-eron tilida soʻzlashgan qadimgi xalqlar osmon va yerni “Asman” va “Zam” deb, quyosh va oy xudolarini “Xvar” va “Moh” deb ataganlar. Tadqiqotchilar “Xorazm” soʻzining kelib chiqishini “Xvar” va “Zam” soʻzlarining birikishidan deb biladilar va buning asosida zardushtiylikning boshlanishi haqida fikr bildiradilar.

Koʻpchilik tadqiqotchilar fikrlarini umumlashtirib hamda arxeologik va yozma manbalar maʼlumotlarini qiyosiy oʻrganilar ekan, arxeolog olim A. Sagdullayev, Zaratushtra ahamoniylarning Oʻrta Osiyoga yurishlaridan oldin, yaʼni, miloddan avvalgi 630-553 yoki 618 – 541-yillarda yashagan boʻlib, “Avesto”ning vatani haqida, “Avesto”ning eng qadimgi geografik nomlari Oʻrta Sharq va yurtimiz qadimgi viloyatlari bilan bogʻlanadi, degan fikrni bildiradi. Shuningdek, olimning fikricha, “Avesto”dagi eng qadimgi mamlakatlar – Oʻrta Osiyo va Oʻrta Sharq, Eronning shimoliy-sharqiy hududlari bilan bogʻlanadi. “Avesto”da keltirilgan Arenam Vayjo mamlakatini keng hududlarda joylashgan oʻlka deb tushunish mumkin. U yerdagi baland togʻlar – Pomir, Hindiqush, Hisor, Tyan’-Shan’, chuqur koʻllar – Kaspiy, Orol, Balxash, Issiqkoʻl, keng daryolar – Amudaryo va Sirdaryo deb faraz qilinadi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” oʻlkamiz toponimiyasi haqida maʼlumot beruvchi eng qadimgi manbadir.

**Eron yozuvlari, hind va xitoy manbalarida toponimik maʼlumotlar.** Qadimgi Eron yozuvlari Oʻrta Osiyo tarixi va toponimikasi haqida qadimiy va muhim manbalardandir. Bunday yozuvlar ahamoniylarning qadimgi poytaxti Persopol’, shuningdek, Suza va Ekbatana (hozirgi Hamadon) shaharlari va uning atrofida topilgan.

Masalan, pishiq sopol taxtachaga oʻyib yozilgan bir katibada Doro I (miloddan avvalgi 522–486-yy.) hukmronligining dastlabki yillarida (miloddan avvalgi 494–490-yillar orasida) Suzada bunyod etilgan saroyning qurilish tafsiloti, aniqrogʻi qurilishga ketgan materiallarning qaysi mamlakatdan keltirilganligi yozilgan taxtachadagi maʼlumotlarga koʻra, oltin Lidiya bilan Baqtriyadan, qimmatbaho toshlar, lazurit va serdolik (qizil va qizgʻish rangli tosh) Soʻgʻdiyonadan, feruza Xorazmdan olib kelingan.

Persopoldan (Sherozning shimoliy tarafida, undan taxminan 50 km masofada joylashgan miloddan avvalgi 520–450-yillar oraligʻida qurilgan shahar) topilgan yozuvlar va tasviriy suratlar – rel’eflar katta ilmiy qiymatga ega. Ular orasida Apadana zinalari ustiga ishlangan tasviriy suratlar alohida ahamiyat kasb etadi. Suratlarda (balandligi 3 fut – ingliz oʻlchov birligi 91,44 santimetrga teng) ahamoniylarga tobe boʻlgan 23 satraplikdan (qaram mamlakatdan oʻlpon olib kelgan kishilar qiyofasi tasvirlangan. Bular orasida baqtriyaliklar turli idishlar,

teri, mo'yna va tuya bilan, so'g'dliklar turli mato, teri va qo'ylar bilan, saklar ot va chakmonlar bilan, parfiyaliklar idishlar va tuya bilan va xorazmliklar ot va qurol-aslaha bilan tasvirlangan.

Persopoldan 6 milya – qariyb 9 km masofada, uning shimol tarafida Husaynkuh qoyalarida ahamoniylardan Doro I. Ksereks I (miloddan avvalgi 486 – 465-yy.), Artakserks I (miloddan avvalgi 465 – 424-yy.) hamda Doro II (miloddan avvalgi 424–404-yy.)larning maqbaralarini hamda ularga kiraverishda o'yib yozilgan katibalar bor. Mazkur yodgorlik sosoniy sarkardalardan Rustam (636-yilda arablar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan) nomi bilan ham bog'liq va tarixda ko'pincha Naqshi Rustam deb ataladi.

Katibalarda, ayniqsa Doro I surati ostiga yozilgan katibada, uning davlati ko'klarga ko'tarib maqtaladi, uning tarafidan bosib olingan xalqlar esa itoatkorlikka va halol mehnat qilishga chaqiriladi, bo'ysunmaganlar va shu sababdan jazoga mahkum etilganlarning nomlari qayd etiladi. Muhimi shundaki, katibada ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 satraplik va xalqlarning to'la ro'yxati yozilgan. Bular orasida parfiyaliklar, baqtriyaliklar, so'g'diyonaliklar hamda xorazmliklar ham bor.

Yodgorlik orasida muhimlaridan yana biri mashhur Behistun yozuvlaridir. Bu yozuvlar uzunligi 22 m, umumiy balandligi 7,8 m bo'lib, ular Shimoliy Eronda, Kirmonshohdan 30 km masofada, daryo bo'ylab o'tgan qadimgi karvon yo'li yoqasida, uning chap tarafida, Zagros nomli tik qoyaga, taxminan 105 metr balandlikda Doro I ning amri bilan yozilgan g'alaba yodgorligidir. Yozuv elam, babil va qadimgi eron tillarida bitilgan va miloddan avvalgi 523–522-yillarda ahamoniylar saltanatini larzaga keltirgan Gaumata – miloddan avvalgi 522-yil 29-sentabrda halok bo'lgan, marg'iyonalik Frada – miloddan avvalgi 522-yil 10-dekabrda asirga olingan, Skunxa – hozirgi Qozog'iston va O'zbekiston hududida istiqomat qilgan sak qabilalarining yetakchisi kabi boshliqlar rahbarligidagi xalq harakatlari haqida hikoya qiladi.

Behustun, Naqshi Rustam va Persepol' yozuvlarida Eronga qaram bo'lgan xalqlar qatori saklar ham tilga olinib, "xaumavarga saklar", "tigraxauda saklar", "dengiz orti saklari", so'g'd orti saklari" nomlari bilan keltiriladi.

Eron yozuvlarida toponimik ma'lumotlar – O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, eng qadimgi xalqlar massaget va saklar haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Qadimgi hind yozuvlari O'rta Osiyo tarixi va toponimikasi haqida muhim manbalardandir. Xususan, "Mahabharata" ("Bharata avlodlari jangnomasi") sanskrit tilida yozilgan bo'lib, 100 ming baytni o'z ichiga olgan 18 kitobdan iborat. Afsonaviy shoh Bharataning ikki toifa avlodlari kauravlar va pandavlarining o'zaro adovatlari va urushlari bayon etiladi. U miloddan avvalgi X-VIII asrlarda yaratilgan.

Asarda masalan, uzoq Hindistonga, savdo-sotiq ishlari bilan borgan saklar, toharlar va qanhalar haqida mana bu muhim ma'lumot keltirilgan: "Uning (podshoh Yudhishtaning) eshigi oldida boshqa xalqlar bilan birga saklar, toharlar va qanhaliklar ham navbat kutib turardilar. Pahmoq soqol, peshonalari shohlar bilan bezatilgan, qo'llarida turli-tuman sovg'alar, jun, rangi, ipak va patta (toq) qayinning bir turi) daraxti tolasidan, shuningdek, kamyob matolardan paxtadan



to'qilgan gazlamalar, mayin, nafis terilar, uzun va o'tkir qilichlar, shamshirlar, temir nayzalar, har xil boltalar, ichimliklar, xushbo'y narsalar, turli-tuman qimmatbaho toshlar". "Maxabaharata" da saklar "shak" tarzida tilga olinadi.

Qadimgi Xitoy manbalarida O'rta Osiyo hududidagi qadimgi davlatlar va xalqlar haqida qimmatli ma'lumotlar bilan birga toponomik ma'lumotlar ham uchraydi. Xitoy manbalari haqida so'z boshlashdan oldin shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, ular ham xitoy hukmdorlarining maqsad va manfaatlarini ko'zlab yozilgan, boshqa xalqlarning tarixi ko'p hollarda bir taraflama yoritilgan. Xitoy manbalarida bo'lib o'tgan voqealarning vaqti va o'rni aniq ko'rsatiladi, bir-biriga qarshi turgan qo'shinlarning umumiy soni aniq ko'rsatiladi.

Qadimiy O'zbekistonning uzoq o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini, toponimikasini o'rganishda quyidagi Xitoy manbalari muhim rol o'ynaydi.

"Shi Szi" ("Tarixiy esdaliklar") – Xitoy tarixshunolarining otasi hisoblanadigan Sima Syan (tahminan miloddan avvalgi 145 yoki 135–86-yillar)ning 130 bobdan iborat asaridir. Sima Syanning "Shi Szi" nomli asarida Xitoyning qadimiy zamonlardan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar o'tgan tarix bayon etilgan. Asarda O'rta Osiyo, uning 123-bobida, xususan Farg'ona va uning qadimiy xalqi, hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlar mavjud.

"Syan Xan shu" ("Avvalgi Xan' sulolasining tarixi") – yirik tarixchi olim Ban Gu (39–92 yy) asaridir. "Syan' Xan shu"ning 95- bobida O'rta Osiyo (ayniqsa, qang'li, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqi va uning hayoti haqida ko'p muhim ma'lumotlarni uchratamiz.

"Xou Xan shu" ("Keyingi Xan sulolasi tarixi") – tarixchi Fan' Xua (398 – 445-yy.) asari. "Xou Xan shu" Xitoyning avvalgi Xan' sulolasi davridagi tarixni o'z ichiga olgan katta asar bo'lib, 130 bobdan iborat. Unda O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung'oriyaning 25 – 221-yillar orasidagi tarixi haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar bor.

"Bey shu" ("Shimoliy sulolalar tarixi") – 100 bobli asar bo'lib, Tan sulolasi (618 – 907-yy.) davrida yashagan yirik tarixchi Li Yan' shou (tahminan 595 – 678-yy.) qalamiga mansub. Unda Shimoliy Xitoyda hukmronlik Vey (386 – 535-yy.), Si (550 – 577-yy.), Chjou (557 – 581-yy.) sulolasi hukmronligi, ya'ni 386 – 581-yillar tarixi bayon etilgan. Asarda O'rta Osiyo, xususan Xorazm hamda Sharqiy Turkiston haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

"Suy shu" ("Suy xonadonining tarixi") – Xitoy tarixchilari jamoasi tarafidan yozilgan asar. Uni yozishda Vey Chjen (580 – 643-yy.) – Tan sulolasi davrida o'tgan tarixchi, muhim ahamiyat kasb etgan. Asarda Xitoyning Suy sulolasi davrida, V-VI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi 85 bobda bayon etilgan. Kitobning 55 bobi 637-yili yozib tamomlangan. Qolgan 30 bobiga esa 20 yil vaqt ketgan. Asarda imperatorning iqtisodiy siyosati, qo'shinning tuzilishi, mamlakatning ahvoli, xalqning urf-odatlarini haqida ma'lumotlar keltirilgan. Uning 83-bobida O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlarni uchratamiz.

E'tiborli tomoni Xitoy manbalarida O'rta Osiyoning Qang', Kushon va Dovon davlatlari, uning qadimiy aholisi, mashg'ulotlari, yue-chjilar, saklar, qang'liklar, dovonliklar haqida toponimik ma'lumotlar uchraydi. Xususan, Xitoy

manbalarida esa saklar “sak”, “se”, “sek”, “sai” shakllarida tilga olinib, ular Xitoyning g‘arbida yashashligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Qang‘ davlati haqida xitoylik tarixchilar ko‘plab ma‘lumotlar yozib qoldirganlar. Jumladan, “Shi-szi” solnomasiga ko‘ra, Qang‘uy dastlab kuchsizgina davlat bo‘lgan paytda, hukmdor oqsoqollar orasidan tanlangan va u oqsoqollarning birlashgan qo‘shinlariga tayangan. Ko‘chmanchilarda har bir oila boshlig‘i jangchi hisoblangan. Shuning uchun qang‘uy qo‘shinlarining soni ulardagi oilalar soniga teng bo‘lgan. Qang‘uy qudratli davlatga aylangan vaqtida 120 ming qo‘shinga (demak, shuncha oilaga ham) ega bo‘lgan. O‘sha paytda aholisi taxminan 600000 kishidan iborat bo‘lgan. Xitoy elchilari o‘z hukmdorlariga qang‘uyular haqida “mag‘rur, qo‘rs” deb ma‘lumot bergan. Bu davlatning siyosiy tarixi haqida ma‘lumotlar asosan Xitoy manbalarida uchraydi. Jumladan, Xitoy qo‘mondoni Li Guan-li qo‘shinlari miloddan avvalgi 101-yilda Dovonga bostirib kirganida Qang‘uy davlati qo‘shinlari o‘z qo‘shinlari bo‘lgan Farg‘ona Dovon davlatini xitoyliklar bosqinidan himoya qilgan va va xatto ularning g‘alaba qozonishi uchun katta yordam bergan.

Solnomachilar Qang‘uyini ko‘chmanchilar davlati deb atasalarda, unda shaharlar mavjud bo‘lganligi haqida ham ma‘lumot beradilar. Xalqi “...tuproqdan qilingan devor ichida yashaydigan” Yan‘tsay shaharlari shular jumlasidandir.

Xitoy manbalarida Davan nomi bilan atalgan davlat boshqa manbalarda Parkana nomi bilan yuritilgan. Farg‘ona (Dovon) davlati taxminan miloddan avvalgi III asrda paydo bo‘lgan. Xitoy manbalariga ko‘ra, Farg‘ona (Dovon) davlatida 300 ming aholi yashagan katta-kichik shaharlar mavjud bo‘lgan. Shaharlar orasida Ershi shahri alohida ahamiyatga ega bo‘lgan va davlat poytaxti hisoblangan.

Miloddan avvallgi 104–101-yillarda Xitoy qo‘shinlari jang qilib, Ershini bosib olgan vaqtida dovonliklarga Qang‘ davlati qo‘shinlari yordamga yetib kelgan va ikki o‘rtada tuzilgan sulh shartnomasiga ko‘ra, xitoyliklar Dovon davlati tarkibidan chiqib ketadilar.

Xitoy manbalarining Toshkent shahri tarixi va toponimikasi haqidagi ma‘lumotlari ham e‘tiborlidir. Choch toponimi Xitoy manbalarida Choch, Shi yoki Chjeshe nomlari bilan eslatib o‘tiladi.

Xitoy manbalarining o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, ularda respublikamiz hududida joylashgan Toshkent viloyati va Farg‘ona vodiysining eng qadimgi davri haqida qimmatli ma‘lumot berilgan va bu hududda mavjud davlatlar va shaharlar, xalqlar va qabilalar, daryolar va tog‘lar haqida qimmatli toponimik ma‘lumotlar ham mavjud.

**Yunon manbalarida O‘rta Osiyo toponimlari tavsifi.** O‘lkamiz tarixi va toponimikasini o‘rganishda mahalliy yozma manbalarning xozircha deyarli yo‘qligi tufayli yunon-rim yozma manbalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rta Osiyo va uning geografik nomlari to‘g‘risidagi eng qadimgi ma‘lumotlar miloddan avvalgi VI-V asrlarda yunon olimlari asarlarida uchraydi.

Miletlik Gekateyning (miloddan avvalgi VI asr) ma‘lumotlari antik davr yozma yodgorliklarining eng qadimgisidir. Bu mavzudagi oz sonli ma‘lumotlar orasida Gekateyning ma‘lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Gekatey “Yer kurrasining tasviri” asarining Osiyoga bag‘ishlangan qismida Xorazm haqidagi

ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Keyinchalik yaratilgan Afiney (miloddan avvalgi II – I asrlar) va vizantiyalik Stefanlarning (VI asr) “Qabilalar tavsifi” asarlarida Gekatey tomonidan keltirilgan ma'lumotlar saqlanib qolingan. Unda quyidagi jumalarni o'qish mumkin: “...parflarning (Parfiya – Turkmaniston janubi) sharqida tekisliklar tog'larni egallagan xorasmiylar yashaydi”. Vizantiyalik Stefan esa “Xorasmiya: praflarning sharqidagi shahar, Gekatey Osiyoni tasvirlab shunday deydi: “Ularning shahri Xorasmiya”.

Qadimgi yunon mualliflari Gerodot, Strabon, Eratosfen, Efor va boshqalar Xorazm haqida ma'lumotlar yozib qoldirar ekanlar, eng avvalo Gekatey ma'lumotlariga suyanadilar.

Gekateydan so'ng O'rta Osiyo davlatlari haqidagi ma'lumotlarni miloddan avvalgi 519 – 512-yillarda Doro I ning farmoniga ko'ra, Eronning janubidan Hind daryosi sohillariga sayohat qilgan Kariyalik Skilak ham o'zining “Sayohatnoma” asarida yozib qoldirgan va bu haqida Gerodot o'z asarlarida ma'lumot berib o'tadi.

Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, “Tarix otasi” deb nom olgan Gerodot (miloddan avvalgi 485 – 425-yillar) mil. avv. 455 – 445-yillar davomida Liviya, Misr, Ossuriya, Ekbatanaga qilgan sayohatlari natijasida qadimgi Sharq xalqlari tarixi haqida ko'plab ma'lumotlar to'playdi. Tarixchilarning hisob-kitoblariga qaraganda, Gerodot o'zining “Tarix” asarida Baqtriya, Baqtra va baqtriyaliklarni 13 marta, so'g'dlarni 2 marta, xorazmiylarni 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marta tilga olib, ularning moddiy madaniyati, urf-odatlarini, dini va tarixi haqida ma'lumotlar bergan.

Gerodotning O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari haqidagi ma'lumotlari – ahamoniylarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, fors podshosi Kir II va massagetlar malikasi To'maris o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniylar podsholarining piyoda va otliq qo'shinlari safida o'rta osiyoliklarning harbiylar sifatida ishtiroki, ularning harbiy san'ati va qurol-aslahalari, yo'l boshchilari, fors-yunon urushlarida ularning ishtiroki va ko'rsatgan jasoratlari, etnik jihatdan turlicha bo'lgan ko'plab xalqlarning ahamoniylar davlatiga bo'ysunishi va ularga turli soliqlar to'lashi, sak-massagetlarning urf-odatlarini, turmush tarzi va diniy e'tiqodlari kabi ko'plab qiziqarli ma'lumotlardan iborat.

Gerodot Kaspiy dengizidan sharq tomondagi hududni “bepoyon tekislikdan iborat” deb atagan, Araks daryosini (Amudaryoni) tilga olgan.

Shuningdek, Gerodot yunon-fors urushlari bilan bog'liq ma'lumotlar orasida baqtriyaliklar haqida ma'lumot berib o'tadi. Gerodotning ma'lum qilishicha, Midiya va Lidiyani zabt qilgan ahamoniylar shohi Kir o'ziga juda katta tashvish keltirayotgan Baqtriya xalqi, sak va massagetlarga qarshi urushga “shaxsan o'zi boshchilik qilishga, yunonlarga qarshi urushga esa boshqa lashkar boshini yuborishga” majbur bo'ladi. Bu esa Baqtriyaning bu davrda ancha qudratli davlatlardan biri bo'lganligini tasdiqlaydi.

Yunon tarixchilarining asarlarida saklar “dengiz orqasidagi saklar”, “massaget-saklar”, “katta saklar”, “amirgiy saklar”, “kaspiylar” va “ortokoribanti” kabi nomlar bilan tilga olingan.

Gerodot O'rta Osiyoning qadim aholisidan biri saklarni tasvirlar ekan, “saklar boshlariga uchi nayzali qalin namat, tik turuvchi qalpoq kiyganlar. Ular

shalvor kiyganlar, sak kamoni va xanjar bilan qurollanganlar. Bundan tashqari, ularda sagaris – ikki tomoni jangovor oybolta ham bor edi”, deb ko‘rsatib o‘tadi. Boshqa o‘rinlarda ham Gerodot saklarning mardonavorligi va jangovorligini bir necha bor ta‘kidlab o‘tadi.

Gerodot saklarning bir qismi chorvachilik bilan shug‘ullangani va boshqa katta qismi Eron shohiga boj to‘lovchi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq saklar bo‘lganligini yozib qoldiradi.

Gerodot “Tarix” asarining uchinchi kitobi 92-bobida ortokoribanti deb atalgan xalqlar to‘g‘risida ma‘lumot berib o‘tadi. Uzoq izlanishlardan so‘ng nemis olimi Kissling bu nom Eronda qoyatoshlarga yozilgan tigraxauda saklari so‘zining yunoncha talaffuzi ekanligini aniqladi. Bu xalqlar keyinchalik Markaziy Osiyoda ham o‘zlarining qadimiy bosh kiyimlarini saqlaganlar. shuning uchun ular boshqa saklardan farqli o‘laroq, yunonlar tomonidan “ortokoribanti” deb nomlangan.

“Sak” so‘zi etimologiyasi haqida turli fikrlar mavjud. Yunonlar sak so‘zi skiflarning yoki saklarning shohi nomini bildiradi yoki yunoncha “saka” – “qalqon” so‘zidan kelib chiqqan deyishsa, ba‘zilar qadimgi Eron tilida “sak” (yurmoq, chopmoq, yugurmoq) so‘zi bilan bog‘lab, “yuguruvchi”, “tez yuruvchi”, “ko‘chmanchi”, “sayyoh” ma‘nosini bildiradi deb aytishadi.

Gerodot massaget qabilalari haqida nisbatan ko‘proq ma‘lumotlar beradi. Uning xabar berishicha, massagetlar jasur va ko‘p sonli qabilalardir. Ular sharqda, quyosh chiqish yo‘nalishida, Araks daryosining narigi yonida, issedonlar ro‘parasida joylashganlar. Ba‘zilar ularni skif qabilalari deb hisoblaganlar. Massagetlarning kiyim-kechaklari va turmush tarzi skiflarnikidan uncha farq qilmaydi. Ularning otliq va piyoda qo‘shinlari bo‘lib, an‘anaga ko‘ra, kamon, nayza va harbiy cho‘qmorlar bilan jang qiladilar. Temir va mis massagetlar yerida umuman uchramaydi. Ammo oltin va kumush ularda juda ko‘p. Shuningdek. Gerodot, massagetlar malikasi To‘marisning fors podshosi Kir bilan munosabatlari, ular o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar haqida ham batafsil ma‘lumotlar beradi.

Muarrixlar “massaget” nomi biror qavmning asl nomi emas, balki xalqning maishatini anglatuvchi laqab bo‘lishi kerak deyilar. Masalan, “massaget” so‘zi tarkibidagi o‘zak va qo‘shimchalarni ajratib, “Mas‘ya” baliq, “ka” yeguvchi, “ga”lar, ya‘ni “baliq, yeguvchilar” degan laqab bo‘lganini taxmin qiladilar. Qadimgi Eron tili mutaxassisi L. M. Oranskiy “massagetlar sak qabilalarining katta ittifoqini tashkil etgan bo‘lsa kerak. “Massaget” atamasini “katta saklar” (mas – katta, saka – sak, t –ko‘plik qo‘shimchasi) sifatida talqin etish mumkin”, deb hisoblaydi. Tarixiy faktlarga suyaniladigan bo‘linsa, massagetlar miloddan avvalgi 700-yillarda skiflarni Markaziy Osiyoning g‘arbidan siqib chiqarib, o‘zlari shu joylarni ishg‘ol qilganlar. Gerodot ularning yashash joylari sifatida Orol dengizining janubiy sharqi, Amudaryo va Sirdaryo o‘rtalarini ko‘rsatadi.

Gerodot ahamoniylar davridagi O‘rta Osiyo davlatlari va xalqlari haqida ham ma‘lumot bergan. Gerodotning bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, Baqtriya Ahamoniylar davlatining o‘n ikkinchi viloyati (satrapligi)ni tashkil etib, 300

talant\*, Parfiya, Xorazm, So'g'diyona va oriylar o'n oltinchi viloyat bo'lib, 300 talant, saklar va kaspibybo'yi xalqlari o'n beshinchi viloyat bo'lib, 250 talant, Parikaniya va Osiyo habashlari o'n yettinchi viloyat bo'lib, 400 talant boj to'laganlar. Bundan ko'rinadiki, Markaziy Osiyo va Xuroson viloyatlaridan ahamoniylar har yili 1250 talant miqdorida boj olib turganlar.

Markaziy Osiyo xalqlari bosib olingan boshqa davlatlar kabi o'z fuqarolari hisobidan Eron armiyasi uchun lashkar yuborishlari shart bo'lgan. Gerodotning yozishicha, baqtriyaliklar saklar bilan bir qatorda eng yaxshi jangchilar hisoblanib, shoh gvardiyasi qismlariga jalb etilgan. Gerodot o'z asarida baqtriyalik jangchilarning kiyimlari va harbiy qurol-yarog'lari haqida ham ma'lumotlar yozib qoldirgan. Ahamoniylar saroyida va armiyasida sharqiy viloyatlardan kelib xizmat qiluvchi vakillar juda ko'pchilikni tashkil qilgan. Markaziy Osiyoda yashovchi qabila va elatlar yaxshi suvoriylar va merganlar sifatida ahamoniylar armiyasi uchun juda qulay jangovar kuch bo'lib xizmat qilganlar. Gerodot keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Kserksning Yunoniston bilan bo'lgan janglarida Markaziy Osiyo qabilalari va elatlaridan 1700000 piyoda va 800000 suvoriylar qatnashgan. Bular orasida saklar eng jangovarlari hisoblangan.

Gekatey va Gerodot asarlarida O'rta Osiyoning qadimiy mamlakatlari – Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, dengiz va daryolari – Kaspiy dengizi, Amudaryo, Sirdaryo va aholisi va qabilalari – saklar, massagetlar, so'g'diyonaliklar, baqtriyaliklar, xorazmliklar haqida qimmatli toponimik ma'lumotlar uchraydi.

Bu davr tarixchilaridan yana biri miloddan avvalgi V–IV asrlarda yashagan Ksenofont hisoblanadi. Asli kelib chiqishi afinalik bo'lgan Ksenofont hayotining ko'p qismini Sparta mulklarida o'tkazgan va spartaliklar bilan birga fors shahzodasi Kir yurishlarida qatnashib Bobilgacha boradi (miloddan avvalgi 401-y.). Ksenofont ko'pgina asarlar yozgan bo'lib, ular orasida miloddan avvalgi 371–355-yillar oralig'ida yozilgan “Kiropediya” asari alohida ahamiyatga egadir. Tarixchi bu asarida ahamoniylar davlatining asoschisi Kir II haqida hikoya qiladi. Bu asarda O'rta Osiyodagi girkanlar va saklar haqida ko'pgina ma'lumotlar bor. Shuningdek, baqtriyaliklar ham bir necha marta eslatib o'tiladi. Misol uchun, bu asarida Ksenofont sak kabilalarini Girkaniya bilan qo'shni yashab Kir bilan ittifoqchilikda bo'lganliklari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, tarixchi saklarni Kirning Bobilga tantanali kirib kelishi paytida va otlar musobaqalarini tasvirlagan paytida ham eslatib o'tadi. Ksenofont Baqtriya haqida, Kir bosib olgan o'lkalar va xalqlar haqida xabar bersa-da, bu voqea qachon bo'lgani va qanday kechgani haqida hech qanday ma'lumot bermaydi.

Asli kelib chiqishi Kichik Osiyoning Knid shahrilik bo'lgan Ktesiy (miloddan avvalgi V – IV asrlar) tabiblik bilan shug'ullangan. U bir qancha muddat ahamoniylar podshosi Artakserks II (miloddan avvalgi 404–359-yy.) huzurida saroy tabibi vazifasida ishlagan, Ktesiy podsho oilasiga ancha yaqin bo'lib, Suzada va ehtimol, Ekbatanada ham yashagan. Podsho saroyida faoliyat ko'rsatgan davrida Ktesiy ahamoniylar davlati tarkibidagi Sharq, jumladan, O'rta Osiyo xalqdari haqida ko'plab hikoyalar eshitgan hamda podsho yilnomalaridan foydalanib, “Persika” asarini yaratgan (miloddan avvalgi IV asrning boshi).

\* Bir talant – 25,92 kg kumush tanga

Uning bu asarida baqtriyaliklar va ularning qo'shnilari haqida ko'pgina ma'lumotlar saqlangan. Jumladan, tarixchi Ossuriya podshosi Nin va Baqtriya podshosi Oksiart urushlari, Kir II ning baqtriyaliklar bilan urushlari, Baqtriyaning juda ko'p mustahkam istehkomlari va qal'alari haqida hikoya qiladi.

Aleksandr Makedonskiyning bostirib kelishi (miloddan avvalgi 334-325-yillar), shuningdek, savdo aloqalarining avj olishi qadimgi dunyo olimlarining geografik tasavvurlarini kengaytirishga imkon beradi.

O'rta Osiyoning, jumladan O'zbekistonning daryolari, tabiiy geografiyasi, shaharlari to'g'risidagi ma'lumotlar miloddan avvalgi I asrga kelganda aniq bir tus oladi. Masalan, qadimgi yunon geografi va tarixchisi, 17 jildlik "Geografiya" asarining muallifi Strabon (miloddan avvalgi 64/63 – 23/24-yillar), tarixchi va yozuvchi. 7 jildlik "Aleksandr Makedonskiy yurishlari tarixi" muallifi Flaviy Arrian (95–175-yillar), 10 jildlik "Aleksandr Makedonskiy tarixi"ni yozgan Ruf Kursiy (I asr), Yaksart (Sirdaryo), Politimet (Zarafshon) haqida ma'lumotlar bergan. Arrian Sirdaryo bo'yida sug'diylarning shaharlarini tilga olgan. Astronom Ptolemey (taxminan 90 – 160-yillar) O'rta Osiyo geografiyasi haqida keng ma'lumotlar berib o'lka hududlarini, daryolari, shaharlarini tasvirlab yozgan.

Strabon Apollodor o'zining "Xronika"sida Baqtriyani "butun Oriana bezagi", "ming shaharlik mamlakat" deb tavsiflaydi. Strabonning ma'lumotlariga ko'ra, Aleksandr Makedonskiy Baqtriya va So'g'diyonada 8 ta shaharga shaharga asos solgan. Ammo, bu ma'lumotlar arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari bilan tasdiqlanmagan va ko'pgina ilmiy munozaralarga sabab bo'lganki, bu alohida mavzu hisoblanadi. Biz O'rta Osiyo hududlarida Makedoniyalik Iskandar uchta: Oks Iskandariyasi, Iskandariya Esxata (Chekkadagi Iskandariya) va Marg'iyonadagi Iskandariya shaharlariga asos solganligi haqida ma'lum ma'lumotlarga egamiz. Shuningdek, Strabon saklarni Tyan'-Shan', Farg'ona va Yaksart saklariga bo'ladilar. Strabon saklarni "dax", "day", "dov" nomlari bilan ham ataydi.

II asr asrda yashab o'tgan Dionisiy Periegest O'rta Osiyoda yashovchi sak qabilalari haqida ma'lumot berar ekan, saklar ajoyib chavandoz va kamondan mohirlik bilan otishlari, "dunyodagi hamma merganlar orasida eng mohiri skiflar, ular bironta ham o'qni bekor ketkazmaydilar" deb aytadi. Diodor esa yunonlar merganlik san'atini saklardan o'rganganligini, hattoki "o'q-yoy" so'zi saklardan kirib kelganligini yozib qoldiradi. Sak jangchilari ahamoniylar urushlarining hammasida faol ishtirok etganlar, ularning qurollari qoldiqlari, ayniqsa bronzadan ishlangan nayza uchlari Yaqin va Kichik Osiyo hamda Yunonistondan ko'plab topilgan.

Shunday qilib, yunon olimlarining asarlarida O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda bir qancha toponimik ma'lumotlar, chunonchi Araks (Amudaryo), Oks (Oksos – Amudaryo), Xorasmiya (Xorazm) shahri, Qang' (Qangxa, Qang'uy) davlati, Yaksart (Sirdaryoning eng qadimgi maxalliy nomi), Marakand (Samarqand), Politimet (Zarafshon), sak, massaget va boshqalar tilga olingan.

### **Tayanch iboralar.**

"Avesto", Aryonam Vayjo, Gava, Mouru, Bahdi, Behistun, Naqshi Rustam va Persepol' yozuvlari, "Maxabharata", Sima Syan, Byan Gu, Gerodot, Strabon, Eratosfen, Efor, Strabon, saklar, "massagetlar.



### Nazorat savollari:

1. “Avesto”ning qaysi qismlarida O`rta Osiyodagi qadimgi joy nomlari keltirilgan?
2. Eron yozuvlarida O`rta Osiyodagi qaysi qabilalar va davrlar haqida ma`lumotlar mavjud?
3. Xitoy manbalrining qadimgi O`rta Osiyo tarixi va toponimlarini o`rganishda qanday ahamiyati bor?
4. Qadimgi O`rta Osiyo toponimlari keltirilgan yunon manbalarini ko`rsating?

### O`RTA ASR YOZMA MANBALARIDA QADIMGI TOPONIMLAR

#### Reja:

1. Abu Rayhon Beruniy asarlari va “Hudud ul-Olam” asari – muhim tarixiy manba.
2. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida toponimik ma`lumotlar.
3. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari va unda O`rta Osiyo toponimlari.

**Abu Rayhon Beruniy asarlari va “Hudud ul-Olam” asari – muhim tarixiy manba.** Buyuk bobokalonimiz va vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048-y.y.) o`rta asrlarning buyuk qomusiy olimlardan edi. Uning buyukligi o`sha davrning deyarli barcha fanlariga qo`shgan betakror ilmiy merosida namoyon bo`ladi. U nafaqat astronomiya va boshqa tabiiy fanlar bilan, balki tarix va din tarixi bilan shug`ullanadi. Olim yozib qoldirgan 160 dan ortiq asarlari bilan astronomiya, astrologiya, matematika, geografiya, geodeziya, geologiya, mineralogiya, arifmetika, tabobat, tarix, filologiya va boshqa fanlarning rivojiga ulkan hissa qo`sha oldi.

Abu Rayhon Beruniy o`z asarlarida O`rta Osiyo va Xuroson shaharlari haqida ma`lumotlar keltirib o`tgan. Uning deyarli hamma asarlarida O`rta Osiyo shaharlari tilga olinib, ularning yo tarixi, yo iqlimi, yoxud aholisi ta`riflangan. Beruniy o`zining “Saydana” asarida 400 dan ortiq qishloq, tog`, daryo, shahar va orollar, “Qonuni Ma`sudi” kitobida 600 dan ortiq joy nomlarini tilga olgan. Shundan 85 tasi O`rta Osiyo va Xurosonga tegishlidir. “Qonuni Ma`sudiy” kitobida shu joylarning uzunlik va kengliklari ko`rsatilgan va deyarli hammasiga qisqacha izoh berilgan.

Balx – qadimgi ismi Bomi.

Obiskur – (Kaspiy) dengiz bo`yida, Jurjon shahrining porti, Jurjon viloyatida.

Kalif – Jayhun daryosi bo`yida, Xuroson viloyatida.

Maymana – hozir Jaxudon, Juzjon viloyatida.

Voxon – la`l konlari chegarasida, Xuttalon viloyatida.

Bolxon – shu yerda Jayhun daryosi qayriladi va Jurjon dengiziga qayriladi, G`uziya viloyatida.

Jurjoniya – Xorazm shaharlaridan biri, Jayhunning g`arbida.

Kot – (Xorazimning) ikkinchi shahri, Jayhunning sharqiy qirg'og'ida, Xorazm viloyatida.

Omuyya – (Xurosondan) Movarounnahrda kechib o'tadigan joy, Xuroson viloyatida.

Tavovis – har yili bozor bo'ladigan joy. Xuroson viloyatida.

Barsxon – Issiqko'l yonida, bu (suvi) issiq ko'ldir. Turkiston viloyatida.

Abu Rayhon Beruniy "Qonuni Mas'udiy" asarida O'rta Osiyo shaharlarini jadval tarzida ketgan va ular haqida toponimik ma'lumotlar berilgan. Jumladan, Toshkent bunday deyilgan: "Binkat – Shosh shaharlaridan biri, turkiycha Toshkent. Bu yunon mualliflarining Burj al- hijra qal'asidir".

Bundan tashqari, quyidagi hududlar ham asarda turlicha nomlangan:

Baykand (Poykand) – Buxorodan janubi-g'arbda joylashgan shahar. Hozirgi Yakkatut stansiyasi yonidagi harobalar. U Badzarubayi deb ham atalgan.

Kesh (Kitob va Shahrisabz) – forscha Ma'jamat deb yuritilgan.

Sutkent – Xasart daryosi bo'yidagi shahar.

Qariyat al-Hadisa – Hasart daryosining quyilishi yonida, Xorazm ko'li yonida, G'uzlar viloyati.

Yangikent – Sirdaryo etaklarida (hozirgi Kazalinsk shahri ro'parasida, daryoning chap tomonidagi harobalar).

Yangikent – turkiylarda Janikent, arablarda "Qariyat al-Hadisa" (qariyat – qishloq, hodisa – yangi ya'ni "yangi qishloq") va "Madinat al- Jadida" (madina – shahar, jadida – yangi, ya'ni Yangi shahar) tojiklar esa Dehinav (deh – qishloq, nav – yangi ya'ni yangi qishloq) deb yozganlar.

Bundan tashqari, olim o'z asarlarida daryo nomlarini ham keltirgan. Ulardan biri Sirdaryodir. Sirdaryo – Hasart. Yunon tilidagi asarlarida Yaksart tarzida keltirilgan. Lekin bu Sirdaryoning yunoncha nomi emas, balki Hasart (yoki Qasart) nomi yunoncha buzilib Yaksart shaklini olgan.

Bundan 120 yil oldin polyak sharqshunosi I. Lelevel Beruniy jadvali asosida O'rta Osiyoning kartasining tuzishga muvaffaq bo'ldi. U o'z kartasida 40 ta shahar va daryoning hamda 8 ta viloyatning nomini yozgan.

Abu Rayhon Beruniyning geografik va toponimik merosi "Hindiston tarixi", "Al-osorul boqiya", "Qonuni Mas'udiy" asarlarida keltirilgan.

Olim xorazmliklarda Vaxsh suvlami, jumladan Jayhun daryosini nazorat qilib turgan malak nomi ekanligini aytgan. Demak, Amudaryoning o'ng irmog'i bo'lgan Vaxsh, Surxondaryo viloyatidagi Vaxshivordara kabi toponimlar o'sha suv parisi nomi in'ikosidir. "Geodeziya" asarida Beruniy o'sha vaqtdagi Sariqamisli ko'lini Hiz tengizi, ya'ni "Qiz dengizi" deb atagan. Olim toponimika qonuniyatlariga oid bir qancha fikrlar bildirgan, masalan, yunonlar va arablar turkiy so'zlarni buzib o'z tillariga moslab talaffuz qilganliklari oqibatida bir qancha so'zlarning ma'nosi o'zgarib ketganini, (masalan, turkiycha tosh so'zini arablar shosh deb talaffuz qilishlarini) aytadi.

"Hudud ul-olam" ("Dunyoning hadlari") tarixiy-geografik asar bo'lib, 982 – 983-yillarda fors-tojik tilida noma'lum muallif tomonidan yozilgan. Asarda Yer kurrasining inson yashab turgan (to'rtidan bir) qismidagi mamlakatlar iqlimi, tabiati, xalqlari, urf-odatlarini, mashg'ulotlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Qo'lyozmani 1892-yilda tarjimon Abulfazl Gulpayoganiy Buxorodan topib. 1893-yilda sharqshunos A. G. Tumanskiyga bergan. V. V. Bartol'd "Hudud ul-olam" matnini so'zboshi va izohlar bilan rus tilida, 1937-yilda rus sharqshunosi V. F. Minorskiy ingliz tilida nashr ettirgan. Professor H. Hasanov o'zining "O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar" kitobida (Toshkent, 1964) "Hudud ul-olam" haqida katta maqola yozgan va talay qismining o'zbekcha tarjimasini keltirgan.

"Hudud ul-olam"ning mazmun-mundariyasi haqida va raqamlab chiqqan bo'limlari nomiga qarab tasavvur hosil qilish mumkin:

1. Muqaddima.
2. Yerning hadlari, obodonligi va vayronalari.
3. Dengizlar va qo'ltiqlar.
4. Orollar (jaziraho).
5. Tog'lar va ularning bag'ridagi ma'danlar.
6. Daryolar.
7. Cho'llar va qumliklar (biyobonho va regho).
8. Jahon viloyatlari (nohiyathoi jahon).
9. Chiniston viloyatining xosiyati.
10. Hindiston viloyati.
11. Tibet viloyati va uning shaharlari.
12. To'g'uzg'uz viloyati va uning shaharlari.
13. Yag'mo viloyati va utiling shaharlari.
14. Xirg'iz (qirg'iz) viloyati.
13. Xallux (qarluq) viloyati va uning shaharlari.
16. Jikil viloyati.
17. Tuxsi viloyati va uning shaharlari.
18. Kimok viloyati va uning shaharlari.
19. G'uz viloyati.
20. Bajonaki Turk viloyati.
21. Xifchoq (qipchoq) viloyati.
22. Majg'ari viloyati.
23. Xuroson viloyati va uning shaharlari.
24. Xuroson chekkalari va uning shaharlari.
25. Movarounnahr viloyati va uning shaharlari.
26. Movarounnahr chekkalari va uning shaharlari.
27. Sind viloyati va uning shaharlari.
28. Kirmon viloyati va uning shaharlari.
29. Bors (Fors) viloyati va uning shaharlari.
30. Jibol viloyati va uning shaharlari.
31. Xuziston viloyati va uning shaharlari.
32. Daylamon viloyati va uning shaharlari.
33. Iroq viloyati va uning shaharlari.
34. Jazira viloyati va uning shaharlari.
35. Ozarbodgon viloyati va Arminiya hamda Arron viloyati.
36. Arab viloyati va uning shaharlari.
37. Shorn viloyati va uning shaharlari.
38. Misr viloyati va uning shaharlari.
39. Mag'rib viloyati va uning shaharlari.
40. Andalus viloyati va uning shaharlari.
41. Rum viloyati va uning shaharlari.
42. Saqalob viloyati.
43. Rus viloyati va uning shaharlari.
44. Ichki Bulg'or viloyati.
45. Mirvat viloyati.
46. Bajanoki Hazar viloyati.
47. Olon viloyati va uning shaharlari.
48. Sarir viloyati va uning shaharlari.
49. Hazarlar viloyati.
50. Barados viloyati.
51. Burtos viloyati.
52. Vanandar viloyati.
53. Janubdagi obodon yerlar va viloyatlar.
54. Zangiston viloyati va uning shaharlari.
55. Zobaj viloyati va uning shaharlari.
56. Habasha viloyati va uning shaharlari.
57. Buja viloyati.
58. Nuba viloyati.
59. Sudon viloyati va uning shaharlari.
60. Kitob oxiri.

Mundarijadan ko'rinadiki, "Hudud ul-olam" jahonning barcha mamlakatlari tasvirlab bergan geografik, etnografik va iqtisodiy ma'lumotnomadir. Asarning fors tilida yozilganligi o'sha davrda (X asr) mahalliy fors-tojik madaniyatining ancha yuksak bo'lganidan darak beradi.

"Hudud ul-olam"dagi ayrim geografik nomlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Movarounnahr tog'lari. H. Hasanov yozishicha, "Hudud ul-olam"da O'rta Osiyoning janubidagi Bo'lur, Samarqand, Shiknon, ya'ni Xon Vaqon tog'lari. Buttamon ichkarisidagi va Movarounnahrda yoyilgan Ustrushona, Xuttalon, Chag'oniyon tog'lari, ularning tarmoqlari batafsil tasvirlangan. So'ngra Movarounnahrda ko'pgina tog' tarmoqlari nomsiz bayon etilgan.

Movarounnahr daryolari. “Jayhun (Amu) daryosi Vahon hududidan oqib chiqadi va Bomir (Pomir) viloyati va Shig‘noni Vahon hududi orasidan o‘tib, Xorazm dengiziga quyiladi”.

“...Harnob (Panj) Qasark tog‘ining g‘arbidan oqib chiqadi va Badaxshon va Porg‘ar (Parxor) orasidan o‘tib, Jayhunga qo‘shiladi”.

“Yana bir daryoki, uni Vaxsheob deydilar, Vaxsh tog‘laridan chiqadi, Vaxsh (shahri) yaqinida Jayhunga quyiladi”.

“Chag‘onrud (Surxondaryo)ki, Chag‘oniyondan oqadi va Termiz yonida Jayhunga quyiladi”.

“...Yana biri O‘zgand suvidirki, Xallux tog‘i (orqasi) dan boshlanib, O‘zgand, Bob (Pop), Axsikat, Xo‘jand, Banokat shaharlari yonidan o‘tadi va to Choch yerlarigacha yetadi, so‘ngra Xorazm dengiziga quyiladi”.

Demak, muallif Sirdaryoni O‘zgand (O‘zgan) suvi degan, Xallux (Qarluq) tog‘i – Tyanshan tog‘lari bo‘lsa kerak (ilk o‘rta asrlarda Yettisuvda Qarluq davlati bo‘lgan). Hozirgi Aysi qishlog‘i (Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on tumani) o‘rta asrlarda yirik shahar bo‘lgan va Farg‘ona vodiysining markazi hisoblangan. Bob hozirgi Pop tumanining markazi – Pop shahri. Banokat Amir Temur 1392-yilda tiklab o‘zining katta o‘g‘li Shohruh Mirzo nomi bilan Shohruhiya deb atagan shahar, xalq tilida bora-bora Sharqiya bo‘lib ketgan. Ohangaron daryosining bir tarmog‘i hozir ham Sharqiya deb ataladi. Shahar harobasi Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan.

“Yana bir daryo (hozirgi Qurshob daryosi) Xurshobdirki, Buttamon chekkasidan, shimoliy tog‘laridan boshlanib, Xurshob shahri yaqinida O‘zgandga (Sirdaryoga) quyiladi”.

“Yana boshqasi Choch suvidirki, O‘zgandga quyiladi”. “Yana bir daryo Qubo (suvi)dirki, Qubo shahri yaqinida O‘zgand (suvi)ga quyiladi”. Qubo – Farg‘ona viloyatidagi Quva soyi va Quva shahridir. “Hudud ul-olam”da Norin daryosi Xatlom shahri nomi bilan Xatlom deb atalgan. “Yana boshqasi Parak daryosidirki, Choch yerlaridan o‘tadi. O‘zgandga quyiladi. Bu daryolar hammasi qo‘shilgandan keyin yaxlit suv Choch daryosi deyiladi, arablar (toziyon) bu daryoni Sayhun deb ataydilar”.

Parak – Chirchiq daryosi. Demak, bosh tomondagisi O‘zgand bo‘lgan, Chirchiq quyilgandan keyin Sirdaryo Choch daryosi deb atalgan.

“Hudud ul-olam” asarida Zarafshon Buxoro daryosi deyilgan. Shu ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, daryolar ko‘pincha shaharlar yoki viloyatlar nomlari bilan atalgan. Vaxsh daryosi – Vaxsh shahri, Chag‘onrud (Chag‘oniyon), O‘zgand suvi – O‘zgand shahri, Xurshob daryosi – Xurshob shahri. Xatlom daryosi – Xatlom shahri, Choch daryosi – Choch (shahri, viloyati), O‘sh daryosi – O‘sh shahri.

“Hudud ul-olam” muallifi Sirdaryoni bir o‘rinda Hasart deb atagan. Shunga asoslanib, H. Hasanov bunday xulosa chiqaradi: “Sirdaryo X asrda O‘zbekiston tuprog‘ida O‘zgand va Hasart nomlari bilan atalgani ma‘lum bo‘ladi. Shunday qilib, Hasart mahalliy nomlardan biriki, qadimgi yunonlarning kitoblarida yozilgan Yaksart shakli o‘shandan o‘zgartiribroq olingandir”.

“Movarounnahr – keng, obod va juda ko‘rkam o‘lka. Turkistonning darvozasi va savdogarlar maskanidir”.

Asarda O'zbekistonning shaharlari va ayrim viloyatlari quyidagicha ta'riflanadi:

“Buxoro – azim shahar, Movarounnahrning eng obod shahri”.

“Paykend – yuztacha rabot (Narshaxiyning “Buxoro tarixi”da mingdan ortiq rabot) bo‘lgan kichik shaharcha”. (Paykend, Baykand, Poykand nomi bilan ma'lum bo‘lgan ilk o‘rta asr shahrining vayronasi Buxoroning janubi-g‘arbiy biqinida).

“Karmina, Dabusi, Arbinjon Sug‘dning kichikroq shaharlaridan. Kushoniya – Sug‘dning eng obod shaharlaridan...”.

“Samarqanad – buyuk, obod va ne‘mati bisyor shahar. Bu yerga dunyoning hamma mamlakatlaridan savdogarlar keladi...”.

“Kesh – issiq mintaqa shaharlaridan biri. U yerda yog‘ingarchilik ko‘p bo‘ladi...”.

“Termiz – Jayhun bo‘yidagi obod shaharlardan. Bu shahar Xatlon va Chag‘oniyonning savdo markazidir...”.

“Chag‘oniyoli – ziroatchilik va chorvachilik uchun qulay va keng joy, ammo xalqi juda kambag‘al”.

“Bu viloyatlarning poytaxti Chag‘oniyon shahridir, tog‘ etagida bino bo‘libdur”.

“Dizak – kichik bir shahar, suv bo‘yida...”.

“Farg‘ona – ulug‘, obod va juda go‘zal viloyatdir. Uning toglari, tekis joylari, oqar suvlari va shaharlari ko‘p...”.

“Chatg‘al (Chotqol) – Farg‘onaning bir qismi. tog‘lar orasida joylashgan. kichik shahar va qishloqlari ko‘p. Ot va qo‘y boqiladi, konlari ham bor”.

“Axsikat – Farg‘onaning poytaxti, amirning qarorgohi. Bu katta shahar. Hasart daryosi (Sirdaryo) bo‘yida”.

“So‘x – tog‘lar orasida. Buttamon bilan Farg‘ona chegarasidagi joy, 60 ta qishlog‘i bor”.

“Qibo (Quva) – Farg‘onaning eng obod katta shahri...”.

“Shosh – katta va obod, ko‘rkam joydir. Shoshning poytaxti Binkat”.

“Kot – Xorazmning poytaxti... Bu shahar Turk, Turkiston, Movarounnahr va Hazarning savdo markazidir. Uning hokimi Xorazmshoh deb ataladi”.

Umuman olganda, “Hudud ul-olam” asarida Movarounnahr, xususan, O‘zbekiston geografiyasi, ayniqsa qadimiy toponimiyasi haqida talaygina ma'lumotlar olish mumkin.

**Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridagi toponimik ma'lumotlar.**  
“Buxoro tarixi” asari tarixnavislikda yozilgan dastlabki asarlardan biridir. Asar muallifi Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far ibn Zakariyya al-Xattob ibn Sharik an-Narshaxiy (899–959 y.y) tarixchi olim. Buxoroning Narshax qishlog‘ida tug‘ilgan. Tarjimai holiga oid ma'lumotlar kam va faqat aynan o‘zi haqida asari orqali qoldirilgan ma'lumotlar mavjud. Somoniylar saroyida kotiblik qilgan. Narshaxiy 943–944-yillarda “Buxoro tarixi” (“Tarixi viloyati Buxoro”) nomli asarini arab tilida yozib, uni somoniylar amiri Nuh ibn Nasr (943–954)ga bag‘ishlagan. Narshaxiyning o‘g‘li Abu Bakr Mansur va nevarasi hadisshunos olim Abu Rafi al-Ala ibn Mansur ibn Muhammad ibn Ja‘far asarni arab tilida davom ettirishib, Mansur ibn Nuh (997–999 y.y), ya‘ni so‘nggi somoniylar

davigacha to'ldirishgan. Nasafiyning "Kitob al-qand" ("Samarqandiya") va Abu Sa'd as-Sam'oni (1113–1167 y.)ning "Kitob al-ansob" asarlarida Narshaxiy haqida ma'lumotlar mavjud. Narshaxiy o'z tug'ilgan qishlog'ida vafot etgan. Asarning asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. 1128-yilda quvalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Qubaviy asarni fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan. 1178–1179-yillarda asar 2-marta Muhammad Ibn Zufar ibn Umar tomonidan qisqartirilgan. Tarjimonlar qisqartirish bilan birga uni yangi ma'lumotlar bilan ma'lum ma'noda to'ldirganlar. Narshaxiy aslida o'z asariga qanday nom berganligi ma'lum emas. Shu sababli asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotida ham "Tarixi Narshaxiy" ("Narshaxiy tarixi"), "Tarixi Buxoro" ("Buxoro tarixi"), "Tahqiq ul-viloyat" ("Viloyat haqiqatini aniqlash"), "Axbori Buxoro" ("Buxoro haqida xabarlar") kabi har xil nomlar bilan yuritilib kelgan. Bu nomlardan keyingi uchtasi asar mazmuni bo'yicha to'g'ri bo'lib, ulardan eng anig'i – "Tarixi Buxoro" hozirda tarixiy adabiyotda qat'iy o'rmashib qoldi.

"Buxoro tarixi" 36 bobdan iborat bo'lib, asosan, Buxoro vohasining tarixiga bag'ishlangan. Kitobning bir necha bobi Buxoroning barpo etilishi, qadimiy nomlari, qadimgi podshohlariga bag'ishlangan. Asarning IV bobi Buxoro atrofidagi Karmana, Nur, Tavois, Iskajkat, Sharg'. Zandana, Vardona, Afshona, Barkat, Romitan, Varaxsha, Baykand (Poykend), Forob va boshqalar shahar va qishloqlarning tasviriga bag'ishlangan. Unda bu joylarning tarixi, aholisi va uning mashg'uloti, faoliyati hamda tashqi shaharlar bilan munosabatlari hikoya qilinadi. Buxoro aholisining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo'lgan muhim tarixiy voqealar bayon qilinadi. "Buxoro tarixi"da IX asrda O'rta Osiyoning arab xalifaligidan ajralib chiqishi, Movarounnahr va Xurosonda somoniylar davlatining barpo bo'lishi va somoniylar davrida Buxoroning iqtisodiy va madaniy hayoti tasvirlangan. Asarda Buxoroning tarixiy topografiyasiga oid ma'lumotlar bo'lib, unda Buxoro shahrining darvozalari, ichki va tashqi devorlarining qurilishi ham ark va shahristonning bino qilinishi hikoya qilinadi. Asar faqat Buxoro tarixinigina emas, balki butun O'rta Osiyo tarixini o'rganishda ham nodir manbadir. "Buxoro tarixi" Parij (1892 y)da fransuz, Buxoro (1904) va Tehron (1939)da fors, Toshkent (1897)da rus, Kembrij (1954)da ingliz, Toshkent (1966, 1993)da o'zbek tilida, Dushanbe (1979)da tojik tilida nashr etilgan.

"Buxoro tarixi" asarida keltirilgan shaharlardan dastlab Buxoro toponimiga to'xtasak. Abu-l-Hasan Nishopuriy "Xazoin ul-ulum" kitobida keltirganki, Buxoro shahri, garchi oradan Jayhun daryosi o'tgan bo'lsa ham Xuroson shaharlaridan hisoblanadi. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr Buxoro ko'p ismlarga ega deydi va o'z kitobida Numijkat degan ismni keltiradi. Yana boshqa bir joyda men uni Bumiskat deb keltirilganini ko'rdim. Boshqa bir joyda arab tilida "Madinat us-sufriya", ya'ni "Mis shahar" va yana boshqa bir joyda arab tilida "Madinat ut-tujjor", ya'ni "Savdogarlar shahri" deb yozilgan. Buxoro degan nom u nomlarning hammasidan mashhurroqdir. Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko'p nomga ega emas. Bir hadisda Buxoro nomi Fohira bo'lib, kelgan. Xoja imom, zohid, voiz Salmoni Forsiy aytishicha, payg'ambar shunday degan: Jabroil aytganki, kun chiqish tomonda bir joy bor, uni Xuroson deydilar, uning

uchta shaharini qiyomat kuni yoqut va marjon bilan ziynatlab keltiradilar; ulardan nur chiqib turadi; u shaharlarning tevaragida farishtalar ko'p bo'lib, ular tasbih, hamd va takbir aytadilar, kelinni kuyov uyiga olib borgandek, u shaharlarni e'zoz va ikrom bilan mahshargohga olib keladilar. Bu shaharlarning har birida yetmish mingdan bayroq, har bir bayroq tagida yetmish mingtadan shahid (yotgan) bo'ladi va har bir shahidning shifoati bilan forscha so'zlovchi va xudoni bir deb biluvchi yetmish ming kishi azobdan qutuladi. Qiyomat kuni u shaharlarning har tarafi: o'ng va so'li, oldi va orqasi o'n kunlik yo'l bo'lib, bularning hammasida shahidlar turadi. Hazrat payg'ambar, Ey Jabroil! U shaharlarning nomlarini menga ayt, deb so'radi; Jabroil shaharlarning birini arab tilida Qosimiyforschada, Yashkard deydi; ikkinchisini arabchada Samaron, forskada Samarqand deydi; uchinchisini arabchada Fohira, forskada Buxoro deydi, deb javob berdi. Payg'ambar, Ey Jabroil! Nega Fohira deb ataydilar? Jabroil: shuning uchunki, qiyomat kuni Buxoro shahri o'zida shahidlarning ko'pligi bilan faxr qiladi, deb javob berdi. Payg'ambar xitob qilib: Ey xudo! Fohiraga barakat bergin, uning xalqlari dillarini taqvo bilan pok etgin, ishlarini pokiza qilgin va ularni mening ummatimga marhamatli qilgin! – dedi. Ana shu ma'ni tufayli buxoroliklarning rahmdilliklariga, ularning e'tiqodlilik va pokliklariga kun chiqish va kun botish guvohlik beradi.

“Buxoro tarixi”da keltirilgan ayrim qishloqlar izhohi ham shu davrga oid o'ziga xos ma'lumotlarni beradi. Jumladan, asarda keltirilgan joy nomlari:

Karmina – Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib, uning suvi Buxoro suvidan keladi; xiroji Buxoro xirojiga qo'shiladi. Uning o'ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor; unda masjidi jome barpo etilgan. Karminada adib va shoirlar ko'p bo'lganlar. Masalda aytilishicha, qadim vaqtlarda Karminani “Bodyyayi xurdak” (“Ko'zacha”) deb ataganlar. Buxorodan to Karminagacha o'n to'rt farsangdir. Karmina hozirgi Navoiy viloyatidagi Karmana shahriga to'g'ri keladi. Taniqli rus akademigi V. V. Bartol'd Karmana toponimini “ki Armaniya” – Armanistonga o'xshash, deb izohlaydi. Shuningdek, toponim qadimgi turkcha “karman” – “qishloq” (qadimgi shahar) so'zidan yasalgan, degan fikrlar ham mavjud. Lekin bu fikr bizningcha to'g'ri emas. Chunki, karman so'zi hozirgi rus tilida ham mavjud bo'lib “hamyon” degan ma'noni bildiradi. Atoqli o'zbek toponimisti S. Qorayev esa Bodyyayi Xurdak asli “Ko'zacha” emas, balki “kichik dasht”, “kichik cho'l” demakdir, degan xulosalarni beradi. Chunki, bodya so'zining asl ma'nosi “cho'li biyobon” deganidir.

Nur – katta joy. Unda masjidi jome bor. U ko'pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko'p mubolag'a qiladilar; Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan (kishining) fazilatiga ega bo'ladi; u ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havoza band qilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar. Tobeinlardan (Muhammad payg'ambarni o'z ko'zi bilan ko'rgan (sahoba)larni ko'rgan kishilar) ko'p kishilar u yerga dafn etilganlar. Bu qishloq hozirgi Nurota shahriga to'g'ri keladi. Nurota toponimi esa olimlar ta'kidlashicha mog'ulcha “nuru” – “tog'” so'zidan olingan ekan. Bu fikr haqiqatdan yiroqroq. Sababi, mog'ullar kirib kelguniga qadar ham joy shunday atalgan.

Tavois – tarixiy adabiyotda ko‘proq uchraydigan to‘g‘ri atalishi “Tavovis”dir. Bu Buxoro viloyatlaridan bo‘lib, (asl) nomi Arquddir. U Raboti Malik cho‘lining g‘arbida joylashgan. Unda boy va zebu ziynatni sevuvchi kishilar yashaganlar. Zebu ziynatga berilganligidan har bir kishi ziynat uchun uyida bitta yoki ikkita tovus saqlagan. Arablar (bu yerga kelishdan) ilgari tovusni ko‘rmagan ekanlar, bu yerda ko‘p tovuslarni ko‘rib, u qishloqni “Zot ut-tavois” – “Tovuslar egasi” deb ataganlar, uning asl nomi esa unutilgan; undan keyinroq “zot” so‘zini tashlab, Tavois deb qo‘ya qolganlar. Unda masjidi jome bor, u katta bir shahristonga ega, qadimgi vaqtlarda (har) kuz faslida u joyda o‘n kun bozor bo‘lar edi. U bozorda shunday rasm bor ediki, (boshqa bozorlardan surilib qolgan) har qanday nuqsonli qullar, chorva mollari va boshqa aybli qoldiq narsalar bo‘lsa hammasi bu bozorda sotila berar va ularni qaytarib berishning hech iloj-imkoni bo‘lmas edi; na sotuvchi va na oluvchining hech bir sharti qabul qilinmas edi. Har yili (shu o‘n kunda) bu bozorga masalan, Farg‘ona, Choch (Toshkent shahrining ilk o‘rta asrlardagi nomi) va boshqa joylardan kelgan savdogarlar va turli hojatmandlardan o‘n mingdan ortiq kishi hozir bo‘lishar va ko‘p manfaat topib qaytar edilar. Shu sababli bu qishloqning aholisi boy kishilar edilar va boyliklari dehqonchilik tufayli emas edi. Tavois Samarqandga boriladigan katta yo‘l ustida bo‘lib, undan Buxorogacha yetti farsangdir.

Iskajkat. U bir katta kuhandizga (“kuhdiz” – qal‘a) ega. Uning aholisi boy kishilar bo‘lganlar; boyliklari dehqonchilikdan bo‘lmagan, chunki u qishloqning yerlari harob bo‘lib, yaxshi yerlari ming juftga (ya‘ni “qo‘sh ho‘kiz”, yer o‘lchovi sifatida ishlatilib, bir faslda bir juft ho‘kiz bilan ishlov berib hosil olinishi mumkin bo‘lgan yer miqdorini anglatadi) yetmagan. Uning hamma aholisi savdogarchilik bilan shug‘ullangan. U joyda ko‘p bo‘z (to‘qib) chiqarilar edi. Har payshanba kuni u yerda bozor bo‘lardi. U qishloq sultonlikka tegishli mulklar jumlasidandir. Dog‘uniy u joyga bir hammom qurdi va daryoning quyi tomon qirg‘og‘ida bir burchakka katta qasr bino qildi. U qasrnng qoldiqlari bizning zamonamizgacha saqlanib kelgan edi. Dog‘uniy qasri deb ataganlar; uni daryo suvi vayron qildi. Sahl ibn Ahmad Dog‘uniy uchun Iskajkat aholisi har yili o‘n ming dirham soliq to‘lashi shart edi. Bu soliqni hamma xonadonlarga taqsim qilib to‘lar edilar. Keyinroq borib aholi ikki-uch yil davomida soliqni to‘lamadi va podshohga murojaat qilib undan yordam so‘radi. Sahl ibn Ahmadning merosxo‘rlari amir Ismoil Somoniy davrida hujjat ko‘rsatdilar, u hujjatni ko‘rib, to‘g‘ri topdi. Lekin (ikki oradagi) xusumat uzoq davom etib shaharning ulug‘ kishilari qishloq aholisi bilan Dog‘uniy merosxo‘rlari orasiga tushib, bir yuz yetmish ming dirhamga sulh qildilar. Aholi qishloqni sotib olib (Dog‘uniy merosxo‘rlariga) soliq to‘lashdan qutuldilar va u mablag‘ni to‘ladilar.

Sharq‘ qishlog‘i Iskajkat ro‘parasidadir, ikkovining orasida katta daryodan boshqa hech bir bog‘ va bo‘sh yerlar yo‘q U daryoni Rudya Somjan deb ataganlar. Hozirda esa Sharq‘ daryosi, ba‘zi kishilar bo‘lsa, Haromkom deytilar. Bu ikki qishloq o‘rtasida dara ustida katta ko‘prik bor edi. Sharq‘ qishlog‘ida hech vaqt masjidi jome bo‘lmagan. Muhammad ibn Ja‘far (an-Narshaxiy)ning aytishicha, (bu joy aholisining) qadimgi vaqtlarda bir bozori bo‘lib, har yili qish o‘rtasida o‘n kun davom etar, (kishilar) uzoq viloyatlardan kelib savdo qilar edilar. Ko‘proq u joydan shinni bilan tayyorlangan mag‘izli holva chiqar edi, yana



u joydan ko'proq chiqadigan narsa qintoriy\* va cho'p (yog'och)lar, tuzlangan baliq, yangi baliq, qo'y va qorako'l terilaridan tikilgan po'stinlardan iborat edi; bu yerda ko'p savdo bo'lar edi. Bu Sharg' va Iskajkat Buxoroning eng yaxshi qishloqlari bo'lgan.

Zandana. Bu qishloq katta qal'aga, ko'pgina bozor joylarga masjid jomega ega. Bu yerda har juma kuni namoz o'qiydilar va bozor qiladilar. Bu qishloqda (to'qib) chiqariladigan narsa – bo'zni “zandaniychi”, ya'ni “Zandana qishlog'idan chiqadigan” deb ataydilar. Bu yerda u ham yaxshi, ham ko'p bo'ladi. Shu xil bo'zdan Buxoroning ko'p qishloqlarida to'qiydilar va buni ham “zandaniychi” deb ataydilar. Chunki u avvalo shu qishloqda to'qib chiqarilgan.

S.Qorayevning fikricha, bu hozirgi Peshku tumanidagi Zandoni qishog'i bo'lsa kerak. Bu tuman Buxoro viloyatiga qarashli bo'lib, 1989-yil 17-mayda tashkil etilgan. Mahalliy toponimistlarning fikricha, tuman nomi (“peshku”) “Peshi kuy” – “Katta yo'l ustidagi joy” ma'nosini bildiradi va shu nomdagi qishloqqa nisbatan ishlatilgan. Bu atamaning “peshi ko'h” – “oldindagi tog'” varianti ham bor.

Vardona. Bu katta bir qishloq bo'lib, kuhandizga, katta va mustahkam hisorga ega. U qadim vaqtlardan podshohlarning turarjoylari bo'lgan, (lekin) hozirda unda podshoh o'tiradigan qarorgoh yo'q. Vardona Buxoro shahridan qadimroq (barpo bo'lgan) uni Shopur Malik bino qilgan. U Turkistonning chegarasida joylashgan. U joyda har haftada bir kun bozor bo'lib savdogarlar ko'p kelar edilar. U yerdan chiqadigan narsa ham yaxshi xil “zandaniychi” bo'lgan.

Vardona toponimini Vardanze, Vardanzi, Vardani shakllari ham bor. Pahlaviy tilida “vard” – gul, “on” ko'plik qo'shimchasi, “ze” esa yer ya'ni “Vardonze” – “Sergul joy” degan ma'noni bildiradi. Yana bir boshqa manbada esa bu toponim sug'dcha “var” so'zi bilan bog'lanib, “qo'rg'on, podshohlarning maxsus qarorgohi” degan ma'nolarni bildiradi, deb ko'rsatiladi. Bu joy hozirgi Buxoro viloyati Shofirkon tumaniga to'g'ri keladi.

Afshina. Katta shahristonga va mustahkam hisorga egadir. Bir qancha qishloqlar unga mansubdir. U yerda har haftada bir kun bozor bo'ladi. Bu qishloqning ekin yerlari va biyobonlari madrasa talabalariga vaqf qilingan. Qutayba ibn Muslim u joyda masjidi jome bino qilgan. Muhammad ibn Vose ham bir masjid qurdirgan. Bu yer duo qabul bo'ladigan joy. Odamlar shahardan u joyga boradilar va uni tabarruk deb hisoblaydilar. Hozirda Romiton tumanidagi Afshana qishlog'idir.

Barkad. Bu qadimiy va katta bir qishloq; bir katta kuhandizga ega. Bu qishloqni “Barkadi alaviyon” – “Ali avlodning Barkadi” deb ataydilar. Bunga sabab shuki, amir Ismoil Somoniy bu qishloqni sotib olgan va olti bo'lakka ajratib, undan ikki bo'lagini Ali va Ja'far avlodiga, ikki bo'lagini darvishlarga va ikki bo'lagini o'z merosxo'rlariga vaqf qilgan.

Romtin (Romitan). Bu katta bir kuhandizga ega va mustahkam bir qishloq bo'lib, Buxorodan qadimyroqdir. Ba'zi kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ata-

\* Qintoriy Doziyning lug'atida “qintoriy” talaffuzi bilan o'qilib “o'q-yoy” yoki “nayza yog'ochi” deb tarjima qilingan. “Muhiti A'zam”da esa “qintoriy”ga “tutatiladigan ud” ma'nosi, “Burxon qote”da yong'oq daraxtining ildizi ichida paydo bo'ladigan yelimga o'xshash narsa deb izoh berilib, uning qon to'xtatish xususiyati bor deyilgan.

ganlar Bu qishloq qadim vaqtlarda podshohlarning turarjoylari bo'lgan. (keyinroq esa) Buxoro shahari bino bo'lgandan keyin, podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo'lganlar. (Bu yerlar) islom davlatiga o'tganda ham shunday bo'lib turgan. Marhum Abu Muslim Buxoroga kelganida shu qishloqda turgan. Bu qishloqni Afrosiyob bino qilgan. Afrosiyob har vaqt bu viloyatga kelganida shu qishloqdan boshqa joyda turmagan. Forsiylarning kitoblarida aytilishicha, Afrosiyob ikki ming yil yashagan. U jodugar bo'lib, Nuh podshohning bolalaridandir. U o'zining Siyovush nomli kuyovini o'ldirgan. Siyovushning Kayxusrav nomli o'g'li bo'lib, u otasining qonini talab qilib ko'p lashkar bilan bu viloyatga kelganida Afrosiyob shu Romtin qishlog'ini hisor qilib turgan. Kayxusrav o'z lashkari bilan ikki yil shu hisor atrofini o'rab turdi va uning ro'barasiga bir qishloq bino qilib, u qishloqni Romush deb atadi. Uni yaxshiligidan Romush deganlar. Bu qishloq hozirgacha obodondir. Kayxusrav Romush qishlog'ida otashparastlar ibodatxonasini qurdi: otashparastlarning aytishlaricha, bu ibodatxona Buxorodagi otashparastlar ibodatxonalarining eng qadimiysidir.

“Buxoro tarixi”ning Buxoroda bosilgan nusxasida Romtin (Romitan) qishlog'ining kelib chiqishi to'g'risida bir rivoyat keltiriladi. Aytadilarki, Afrosiyobning bir qizi bo'lib, uning doimo boshi og'rir edi. Romtinga kelib turib qolganidan keyin bu yerning havosi muvofiq kelib darddan halos bo'ldi va bu yerga “Oromi tan” – “Tan oromi” deb nom qo'ydi. Oddiy xalq buni Romtin deganlar. L. S. Tolstova Romitan toponimini ikki qismga ajratib, birinchi qism Ro – forscha rax “yo'l”, ikkinchisi mitan – qabila nomi bo'lsa kerak deb izohlaydi va Romitan “Mitan qabilasining yo'li” degan ma'noni anglatadi. Lekin bizningcha, bu fikr haqiqatdan yiroqroq. Chunki, mitan qabilalari bizning hududlarda yashagani yoki yurish qilgani to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Shuningdek, toponimning ikkinchi qismi etnik nom bo'lmay, balki o'rta asr fors tiliga mansub “Matean” – “yashash joyi, uy, qishloq” so'zi bilan aloqador bo'lishi mumkin. Bunda Romitan – “yo'l ustidagi qishloq” ma'nosini anglatadi.

Varaxsha. Bir nusxa (kitob) da Varaxsha o'mida Rajfandun deb yozganlar. Katta qishloqlar jumlasidan bo'lib, Buxoro singari edi: u Buxoro shahridan qadimyroqdir, u podshohlar turadigan joy bo'lib, mustahkam hisorga ega bo'lgan, chunki padshohlar (u hisorni) bir necha marta mustahkamlaganlar. Uning Buxoro shahrining devori singari devori ham bo'lgan. Rajfandun yoki Varaxshaning o'n ikkita arig'i bor. Bu qishloq Buxoro devorining ichkarisida joylashgan. Unda obod bir qasr bo'lgan, shundayki, go'zallikda uni namuna qilib ko'rsatar edilar. Unda Buxorxudot bino qilgan bo'lib, qurilganiga ming yildan ortiqroq vaqt o'tgan.

Varaxsha toponimi kelib chiqishi xususida aniq ma'lumot yo'q. Manbalarga ko'ra, Varaxsha ham ikki qismdan “var” – qo'rg'on, qal'a, axsha yoki axsi qabila nomidan tashkil topgan va “axsi (axshi)lar qo'rg'oni yoki qal'asi” ma'nosini anglatadi.

Baykand. Buni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar. Baykand aholisi, biror kishining Baykandni qishloq deb atashiga rozilik bergan emaslar. Agar biror baykandlik Bag'dodga borsa va undan “sen qayerdansen?” deb so'rasalar, u Baykandanman degan, Buxorodanman degan emas. Baykandda katta masjidi jome va oliy imoratlar bor. Muhammad ibn Ja'far (an-Narshaxiy) o'z kitobida

keltirishicha, Baykandda Buxoro qishloqlari sonicha, mingdan ortiq rabot bo'lgan. Buning sababi shuki. Baykand katta va yaxshi joy bo'lib. har bir qishloqning aholisi u yerda bir rabot qurib unga bir to'da kishilarni joylab qo'ygan va ularning nafaqalarini qishloqdan yuborib turgan. Qish faslida kofirlar (yig'ilib) hujum qiladigan vaqt bo'lganida har bir qishloqdan u joyga ko'p xalq to'planib g'azot qilganlar. (Shunda) har bir qavm o'z rabotiga kelib tushgan. Baykand aholisi hammasi savdogar bo'lgan. Ular Xitoy bilan va dengiz (orqali boriladigan) mamlakatlar bilan savdo qilganlar va juda boy bo'lganlar. Qutayba ibn Muslim Baykand juda mustahkam bo'lganligi sababli uni olishda ko'p qiyinchiliklar ko'rdi. Uni jezdan qurilgan shahriston der edilar. U Buxoro shahridan qadimiyroq. Bu viloyatda bo'lgan har bir podshoh, o'zi uchun Baykandni turarjoy qilar edi. Farabdan Baykandgacha o'n farsang masofa biyobon bo'lib, bu biyobon qumlik (cho'l)dir. Haromkom suvi Baykandga keladi. Baykandda qamishzorlar va katta-katta suv xalqoblari tutashadi; bularni "Borgini farox" – "Keng havz" deydilar va Qaroko'l deb ham ataydilar. Ishonchli kishilardan eshitganmanki. u (ko'l)ning kengligi yigirma farsangdir. "Masolik va mamolik" kitobida aytilishicha. uni "Buhayrayi Somjan" – "Somjan ko'li" deb ataydilar. Buxoro suvining ortiqchasi ham o'sha joyga yig'iladi. Unda suv jonivorlari bo'ladilar; butun Xurosonda bu yerdagidek miqdorda qush va baliq tutilmaydi.

Farab. Bu shaharlar jumlasidan bo'lib. alohida joylarga ega, Jayhun daryosi labidan to Farabgacha bir farsang, suv toshgan vaqtlarda esa yarim farsang keladi. Goho shunday ham bo'ladiki, Jayhunning suvi (toshib) Farabgacha borib yetadi. Farabda katta masjid jome bor, uning devorlari va tomi pishiq g'ishtdan bo'lib, unga sira yog'och ishlatilmagan. Farabning bir amiri bor ediki, u biror (zaruriy) hodisa yuzasidan ham Buxoroga kelishni lozim topmas edi. (U yerda) bir qozi bor ediki, u Shaddod kabi zolimona hukmlar yurgizar edi. Buxoro qishloqlarining soni ko'p. Bu (aytib o'tilgan) bir nechtasi mashhurroq va qadimiyroq bo'lgani uchun ular haqida to'xtab o'tdik.

Demak, Narshaxiy tomonidan asarda Buxoroda mavjud bo'lgan yirikroq va qadimiyroq jami 15 ga yaqin qishloq va shahar nomlari keltirilgan. Buxorodan qadimiyroq bo'lgan Nur. Romtin. Vardona. Varaxsha qishloqlari esa alohida ahamiyatga ega.

Asarda shu bilan birgalikda 12 ta turli ariq va anhor nomlari ham keltirilgan. Jumladan:

Birinchisi, Karmina anhuri: bu katta anhor.

Ikkinchisi, Shopurkom anhuri. Buxoronning avom xalqi buni Shofurkom deyishadi. Hikoyatda keltirishlaricha. sosoniylar sulolasidan bo'lgan Kisro'ning farzandlaridan biri o'z otasiga achchiq qilib. bu viloyatga kelgan; uning nomi Shopur edi. "Pur" Eron tilida "o'g'il" demakdir. U Buxoroga kelganida Buxorxudot uni yaxshi qabul qildi. Shopur ov qilishni yaxshi ko'rar edi. Bir kuni ovga chiqib u (Shopurkom) tomoniga borib qoldi. U vaqtlarda o'sha yerda hech bir qishloq va obod joy bo'lmay, yayloq va ov qilinadigan joy bo'lgan. Bu yer Shopurga yoqib qolib, uni obod qilish uchun ulush yo'sinida o'ziga berilishini Buxorxudotdan so'ragan. Buxorxudot bu mavzeni Shopurga berdi va Shopur u

\* Sosoniylar sulolasidan bo'lgan Kisro (Xisrav) I (531 – 578) yoki Xisrav II (590 – 628)

yerda katta anhor qazitib, uni o'z nomi bilan, ya'ni "Shopurkom" deb atadi va bu anhor (bo'ylab) qishloqlar va qasr bino qildi. Bu tevarakni "Obaviya qishloqlari" deydilar. Shopur yana Vardona qishlog'ini bino qildi va qasr qurib, uni o'zi uchun turarjoy qilib oldi. (Shunday qilib) u yerda katta bir mulk paydo bo'ldi va Shopurning vafotidan keyin qishloqlar uning avlodiga meros bo'lib qoldi.

Uchinchi anhorni Harqonat ul-Ulyo, to'rtinchisini Harqonrud, beshinchisini Ovxatfar, bu g'oyat keng va katta anhordir, oltinchisi Somjan, yettinchisini Baykonrud va sakkizinchisini Farovzi Ulyo deydilar; bu (sakkizinchi) anhor bo'ylab ko'p qishloqlar joylashgan. To'qqizinchisini Faroviz is-Suflo yoki Komi Daymus ham deydilar, o'ninchisini Arvon, o'n birinchisini Kayfur, o'n ikkinchisini Rudi Zar deydilar. Bu shaharni (sug'oruvchi) anhordir.

Biz aytib o'tgan anhorlarning hammasi sersuv bo'lib, ular (yoqasi bo'ylab) ko'p qishloqlar o'mashgan. Aytishlaricha, hamma anhorlarni xalq qazigan, ammo Ovxatfar anhorining qazilishida u yerning xalqi zahmat chekmagan, uni suvning o'zi o'yib qazigan. Hozir buxoroliklar uni Rudi Nafar deydilar.

**Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari va unda O'rta Osiyo toponimlari.** "Boburnoma" XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida O'rta Osiyo. Afg'oniston va Hindiston tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga doir qimmatbaho manbadir. Professor H. Hasanovning ta'kidlashicha, "Boburnoma"da 1000 ga yaqin geografik nom tilga olingan. O'rta Osiyoga doir nomlarning ko'pchiligi hamon o'shli davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi: Farg'ona, Samarqand, Badaxshon, Olmaliq, Turkiston, Andijon, Buxoro, So'x, Axbi, Koson, Ars, O'ratepa, Xovos, Hisor, Ispara, Oqqapchig'ay, Zomin, Qorako'l, Anna, Kandirlik (dovon), Qarshi, Shahrisabz, Qorabuloq, Yom. Pop, Darg'ali, Namangan, Sangzor, Alay (Oloy), Miyonkol, Piskent, Itono'tti, Ohangaron va hokazo. Ba'zi birlari esa shaklan o'zgarib yetib kelgan: Olmatu – Olmaota (to'g'risi – Olmati), Marg'inon – Marg'ilon, Toshkand – Tashkent, Chir suyi – Chirchiq, Bizak – Jizzax, Qubo – Quva, O'zgand – O'zgan, Oqar tuzi – Og'ar (tekislik), Tiraiz – Termiz, Quzor – G'uzor, Chorju – Chorjo'y kabi. Bir qancha joy nomlari esa butunlay boshqacha nom olgan: Sayxun daryosi, Xo'jand suyi – Sirdaryo, Baroko'q – Taxti Sulaymon va boshqalar. "Boburnoma"dagi joy nomlaridan ko'pchiligining ma'nosini o'zbek va tojik tillari yordamida tushunsa bo'ladi. Bir qancha toponimlarning etimologiyasini Boburning o'zi tushuntirib o'tgan. O'sha davrda Zarafshon Ko'hak deb atalgan: "Bu suv bila Samarqand orasida bir pushti tushubtur. Ko'hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko'hak suyi derlar" (Ko'hak tojikcha so'z bo'lib, ko'h – tog', -ak kichraytirish affiksi, "tog'cha", ya'ni "tepalik" demak, hozir Cho'ponota deb ataladi).

Asarda Konigil to'g'risida aytilgan gaplar ham e'tiborga molik. Ba'zi birovlar uni Koni gil, ya'ni "tuproq koni" desalar, boshqalar, chunonchi, Fazlulloh bin Ro'zbekxon "Mehmonomayi Buxoro" asarida Koni gul, ya'ni "gullar koni" deydi. Bobur esa "ohangning oti Koniobgir" deb yozadi. Bu esa haqiqatga yaqin. Chunki, Siyob suvining "atrofi tamom obgir", ya'ni botqoq bo'lgan (obgir atamasi "Boburnoma" da bir necha joyda uchraydi). Demak, Koniobgir asta-sekin o'zgarib Konigil shaklini olgan.

Keshning Shahrisabz deb atalishining sababi: "Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo'b sabz bo'lur uchun Shahrisabz ham derlar".

Qarshi shahri nomining etimologiyasi haqida "Boburnoma"da bunday deyilgan: "Qarshi mo'g'ulcha ottur, go'rxonani mo'g'ul tili bila qarshi derlar. Qadimgi turk tilida qarshi "ko'shk", "saroy", "xon qarorgohi" demak. Lekin XV-XVI asrlarda bu so'z "mo'tabar shaxslar qabriga qurilgan dahma maqbara" ma'nosini olgan.

Bobur Kashmir etimologiyasini quyidagicha taxmin qiladi: "...Bu tog' elini Kas derlar. Xotirg'a yettikim. Hindiston eli "shin"ni "sin" talaffuz qilur (ya'ni sh tovushini s talaffuz qiladilar). chun bu tog'da mo'tabar shahar Kashmirdur, balki Kashmirdin o'zga bu tog'da yana shahre eshitilmaydur. Bu jihattin bo'la olurkim. Kashmir demish bo'lg'aylar".

Himolay tog'larini Bobur bunday izohlaydi: "Bu tog'ni hind eli Savo lak parbat derlar, hind tili bila "savo" – rub' (chorak), "lak" – yuz ming, "parbat" – tog', ya'ni rub' va yuz ming tog'kim, yuz yigirma besh ming tog' bo'lg'ay".

Joy nomlarining grammatik xususiyatiga kelganda shuni qayd etish kerakki, "Devonu lug'otit turk"da uchraydigan toponimlarning aksariyati bir komponentli (bir tarkibiy qismlil) bo'lsa, "Boburnoma"dagi joy nomlarining ko'pchiligi ikki komponentlidir. Affiksli (qo'shimchali) toponimlar ham anchagina uchraydi. Affikslardan, -aa (yon), -ob, -tu, -ot eng harakterlidir: Ohangaron, Bog'izag'on, So'zangaron, Charmgaron, Valiyon, Bomiyon, Seyoron va boshqalar. Andarob, Serob (Sarob), Tangob, Murg'ob, Nilob, Balxoli, Astarob, Xushob, Siyofaob, Sarxob, Borixoli kabi. Olmotu, Chita, Samtu (Shamtu), Chatu, Ulobatu, Neratu, Jarg'ota, Qammotu, Qo'ratu va hokazo.

"Boburnoma"da geografik atamalar shu qadar ko'pki, ularning ko'pchiligi hozir ham mavjud, bir qanchalari faqat geografik nomlar tarkibida qolgan, ba'zi birlari butunlay iste'moldan chiqib ketgan. Jar, yayloq (yaylov), tangi, tog', tepa, dara, dasht, koriz, dovon, sahro, soy, shoxob, orol, sel kabi atamalar o'zbek geografik adabiyotida keng ishlatiladi. Kent, pushta, tuz, o'lang, takoh, bandar, band, qasaba, o'rdu (o'rda), yom, chordara, qorasuv kabi atamalar asosan joy nomlari tarkibida qolgan yoki boshqa tillarda, chunonchi, tojik tilida uchraydi. Burong'or, juvong'or, tunqotar kabi harbiy atamalar ham bir qancha toponimlar hosil qilgan.

"Boburnoma"da tilga olingan asosiy geografik atamalar quyidagilar: tarnov (ariq), kasaba (shaharcha), kent, ko'hpoya (tog' etagi), pushta (tepalik), jar, yayloq (yozgi qo'nish joyi), botqoqlik, qorasuv, tuz (tekisiik), tangi (tor dara), obgir (botqoqlik), qo'ruq (qo'riqxon), o'rchin (okrug), uchma (tik yonbag'ir), yoz (ko'klam), dobon (dovon), ko'tal (dovon, oshuv), julga (vodiy, soylik), qol (soy), quruq qo'l (quruq soylik), dara, soy, tepa, tumshuq, bandar (savdo shahri), takob, tagob (o'zan, zax yer), pargana (viloyat), band (dovon, tog' yoli), dara, parcha tog', gardona (bo'yin), liyor (yo'l), suvsiz qo'l (soylik), o'lang (o'tloq, ko'kalamzor), aymoqot, quruq rud (quruq o'zan), tog' kamari, chig'ir (chiyir, tor yo'l), kimson (oltin), chopqun (bo'ron), uchma (tik yonbag'ir), langat, yozi (dala, dasht), o'rdu (o'rda), dasht, kadxudo, oila (xo'jalik), shoxob, jar, yakraqa (yolg'izoyoq yo'l), sahro, biyobon, balandi (tepalik), koriz, tog' etagi, yurt (qo'nish joyi), ushoq tog'lar, jangal (o'rmon), la'limi (bahorikorlik), jazoyir (orol), birinj (bronza), sel, ko'ra, chiyni (chini), qiyo (qoya), yomchi (yom xodimi), chordara (korovulxona), to'qay (daryo tirsagi), orol, jar, balchiq, sol.

O'simlik hamda hayvonlarning bundan besh asr oldin qanday nomlar bilan atalishi ham toponimika uchun ahamiyatlidir. Bobur zamonida kark (karkidon), qulon, bug'u mara, kiyik kabi hayvonlar juda serob bo'lgan va bir qancha joylar shu hayvon nomlari bilan atalgan. Karkxona. Qulonlisoy. Maralboshi. Kiyikli va hokazo. Bobur davridan hozirgacha deyarli o'zgarmagan hayvon nomlari: bo'dana (bedana), kiyik, maral, qulon, qo'ton, qoz (g'oz), tovuq, qarqara, qarchig'ay, tuyg'un (oq qarchig'ay), fil, arqar, kish (sobol), shag'al (chiyabo'ri), sor, olaqarg'a, qarlug'och (qaldurg'och), zog'cha, itning kuchugi (it-vachcha) va boshqalar. Ba'zi hayvonlar hozir boshqacharoq nom bilan ataladi: ars – oqsuvsar yoki oqsichqon, govmish – buyvol, kark – karkidon, bag'riqaro – qorabovur, buqalamun – hameleon, uy – sigir va hokazo. Bulardan tashqari shahboz (qush), dang (qush), tupchoq ot, sahroyi qo'tos, yozi galahrasi, shorak, dariy, durroj, pulpakor, sahroyi tovuq, chalsiy, shorn, chir, harchal, charz, lug'dor, soras (teva-turna), uqor, bo'zak, zumaj, shahroh, sherri obiy, kels, sepsar, xuki obiy, karyol kabi ko'pdan ko'p hayvon nomlari tilga olingan. Bular asosan Afg'oniston va Hindistonda uchraydigan hayvonlar.

“Boburnoma”da o'simliklardan searga, tobulg'u (tovilg'i), qorayig'och (qayrag'och), chilg'o'za, sanjid, norunj (apelsin), turunj, amluk, emluk yig'ochi, butaki (betaga), xanjak (janjaq), qulon quyrug'i, ko'k shivoq (shuvoq), sunbul, omonqora, bodinjon (baqlajon), kish-mish-maviz (mayiz), tol, g'aynolucha, funduk, biqi, g'o'za, limu (limon), qizilgul (atirgul), obnus yig'ochi kabilar qayd qilingan. Bu o'simlik nomlaridan ko'plari hozir boshqacha ataladi.

Bobur juda ko'p urug', qabilalar nomini tilga oiadi. Shunisi harakterliki, kishi ismi bilan birga ko'pincha uning qaysi urug'dan ekani aytib o'tiladi: Masalan, Ibrohim soru minglig' urug'idan edi. Amir mo'g'ul, Zunnun arg'un va o'gii Shoh Shujo' arg'un, Qosim qavchin, Oq qo'y-luk Uzun Hasan, Hamzabiy mang'it, Shayx Abdulla barlos, Qosim jaloyir, Tohir do'lday va hokazo. Barlos, jaloyir, do'lday qabilalari ayniqsa tez-tez tilga olingan, chunki Bobur qo'shinlarining asosini ana shu uch qabila vakillari tashkil etgan. Bobur qabilalarning qaysi tilda gaplashishiga ham e'tibor bergan. “Boburnoma”dagi kishi nomiari maxsus tadqiqot manbayidir.

### **Tayanch iboralar:**

Abu Rayhon Beruniy, “Saydana”. “Qonuni Ma'sudiy”, “Hindiston tarixi”, “Hudud ul-olam” (“Dunyoning hadlari”), O'zgand (O'zgan) suvi, Buxoro daryosi, “Buxoro tarixi”, Karmina, Nur, Zandana. “Boburnoma”, Konigil, Qarshi, Kashmir, Himolay.

### **Nazorat savollari:**

1. Abu Rayhon Beruniyning “Qonuni Ma'sudiy” kitobida nechta joy nomlari tilga olingan?
2. “Hudud ul-olam” asarida tilga olingan geografik nomlardan misol keltiring?
3. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Buxoro toponimiga qanday ta'rif berilgan?
4. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini toponimika fani uchun ahamiyatini aytib bering?

## TARIXIY KARTALARDA MAKROTOPONIM VA GIDROTOPONIMLAR

### Raja:

1. O'rta asr arab muarrixlarining asarlari va tarixiy kartalarida O'rta Osiyo to'g'risidagi ma'lumotlar.
2. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida va "Jahon tasviri" tarixiy kartasida toponimik ma'lumotlar.
3. Yevropada yaratilgan tarixiy kartalarida O'rta Osiyo toponimlari.

**O'rta asr arab muarrixlarining asarlari va tarixiy kartalarida O'rta Osiyo to'g'risidagi ma'lumotlar.** O'zbekistonning VII asr oxiridan boshlab XII asrgacha bo'lgan tarixi ko'proq va deyarli arab tilidagi yozma manbalarda yoritilgan va bu an'ana keyinchalik ham temuriylar davrigacha davom etgan. Bu davrda yurtimiz avval Arab xalifaligi tarkibida so'ngra somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, xorazmshohlar davlatlarini boshdan kechirdi.

O'zbekiston joy nomlarining o'rganilishiga "arab geograflari" nomlari bilan mashhur olimlar katta hissa qo'shgan. Arab geografiyasi ayniqsa X asrda keng rivojlandi. Bu davrda Muqaddasiy, Istaxriy, Ibn Havqal, Ibn Rusta, Ibn Xurdodbeh kabi olimlar yetishib chiqdi. Mazkur muarrixlar yurtimiz hududini umummusulmon olami. Arab xalifaligi bir qismi sifatida yoritganlar. Arablar tomonidan yurtimizga berilgan nom Movarounnahr – daryoning u yog'idagi mamlakat mazmunini bildiruvchi jug'rofiy nom bizgacha yetib kelgan bo'lib, asosan arab mualliflari asarlarda keltirib o'tilgan.

Quyida arab geograflari asarlardagi toponomik ma'lumotlarni keltirib o'tamiz:

Yirik arab geografi va sayyoh olimi Muqaddasiy to'liq ismi sharifi Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ahmad Ibn Abu bakr al-Muqaddasiydir. Olim 947-yilda Quddusi sharifda tug'ilgan, butun dunyo musulmon mamlakatlari bo'ylab sayohat qilgan va 1000-yilda vafot etgan.

Al-Muqaddasiy sayohat vaqtida to'plagan hamda boshqa manbalardan olingan aniq ma'lumotlar asosida 985-yilda "Ahsan at taqosim fi ma'rifat al-aqolim" ("Iqlimlarni o'rganish uchun eng yaxshi qo'llanma") asarini yozgan. Kitobning ikkita tahriri mavjud: birinchi tahriri 986-yilda amalga oshirilgan bo'lib, somoniylarga, 989-yildagi ikkinchisi esa fotimiylarga bag'ishlangan.

Asar muqaddima va ikki qismdan iborat. Muqaddimada muallif asarning yozilish tartibini bayon etgan va o'zidan avval o'tgan geograf olimlarning asarlariga to'xtalib o'tgan. 14 ta bobida esa Arab xalifaligiga kiruvchi viloyatlarning geografik holati, tabiiy sharoitlari, yirik shaharlari, me'moriy yodgorliklari, aholisi, xo'jaligi, karvon yo'llari, urf-odatlarini, soliq va jarima turlari, har bir mamlakatning mashhur kishilariga doir aniq ma'lumotlar berilgan.

Asarning keyingi boblarida ajam mamlakatlari (Xuroson, Seyiston, Movarounnahr) tavsiflangan. Birinchi qismida arab mamlakatlari, Arabiston yarim orolida joylashgan mamlakatlar: Iroq, Mesopotamiya, Suriya, Misr, Mag'rib hamda Kichik Osiyoning geografik holati, mashhur shaharlari osori-atiqlari har bir mamlakat va viloyatning ma'muriy tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

“Ahsan at-taqosim” ijtimoiy-iqtisodiy tarixiy hamda madaniy hayotga oid qimmatli ma’lumotlari bilan boshqa geografik asarlardan ajralib turadi va arab mamlakatlari, shuningdek O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bu asarda ko‘plab toponomik ma’lumotlar rivoyat va afsonalar keltirilgan. Jumladan, Xorazm toponimi haqida shunday rivoyat keltirilgan. Podsho g‘azabnok bo‘lib, o‘zining bebosh fuqarolarini kimsasiz uzoq joyga badarg‘a qilinishini buyuradi. Lekin bu yerda o‘tin va go’sht (ya’ni Amudaryoda baliq) ko‘p bo‘lganligidan ular omon qoladilar. Musofirlar bu o‘lkani obod qilib, Xorazm deb atadilar (xovar-go’sht, azim-o‘tin).

Farg‘ona so‘zi haqida ham rivoyatlar bor. Masalan, Farg‘onani Nushirvon (Anushirvon) bunyod qilgan va podsho bu yerga har bir joydan bittadan qabila olib kelgan ekan. Shunday qilib, turli joylardan kelgan kishilar imoratlar qurib, ekinlar ekkan. Kishilar ularni turli joylardan kelganligidan “Az, har, xona” – “turli xonadonlardan kelganlar” deb atay boshlaganlar. So‘ngra az qo‘shimchasi tushib qolib, Harxona bo‘lib ketgan, bu esa bora-bora Farg‘ona shaklini olgan emish.

Bundan tashqari, Muqaddasiy ma’lumotlariga ko‘ra, Chag‘aniyonda 1600 ga yaqin qishloq bo‘lgan. Sayyoh Farg‘onada Axsikat, O‘zgand, O‘sh, Qubo, Marg‘inon, Rishton, Koson, Bob (Pop), Asht, Avval, Andukon (Andijon), Huqand (Qo‘qon) kabi 40 ta shahar hamda jomiy masjidli qishloqni sanab o‘tadi. Muqaddasiy va arab geograflarining asarlarida nomlari hozirgacha saqlanib qolgan toponimlar tilga olingan: Zomin, Jizzax, Sobot, Xovos, Kurkat, Samg‘ar, Xo‘jand va boshqalar.

Bu kabi ma’lumotlar Vatanimiz toponimiyasini qamidiy ekanligini ko‘rsatadi.

Mashhur arab geograf olimi va sayyohi Istahriy yoki Abu Is‘hoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiydir. Taxminan 850-yilda Eronning Fors viloyatida tug‘ilib, taxminan 934-yilda vafot etgan. U 915-yildan boshlab Eron, Movarounnahr, Suriya, Misr va Mag‘rib bo‘ylab sayohat qilgan. Mana shu sayohat vaqtida to‘plangan boy daliliy material va zamondoshi Abu Zayd Ahmad ibn Sahl al-Balhiyning “Suvar al-aqolim” (“Iqlimlar surati”) kitobi asosida 930–933-yillarda o‘zining “Kitob masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlarga boriladigan yo‘llar haqida kitob”) nomli qimmatli asarini yozgan.

Asar yigirma bobdan iborat. Unda musulmon mamlakatlari (Arabiston, Mag‘rib, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Movarounnahr), shuningdek, Hindistonning chegaralari, iqlimi, ma‘muriy bo‘linishi, mashhur shaharlari, ularga olib boriladigan yo‘llar, aholisi va uning mashg‘uloti, atoqli kishilari, savdo-sotiq va boshqa masalalar bayon etilgan. O‘lkalar tavsifiga ularning haritalari ham chizib, ilova qilingan. Movarounnahr tavsifi va haritasida O‘rta Osiyoning suvlari (Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, kanallar), aholi maskanlari kabilar to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.

O‘z davrining ko‘zga ko‘ringan yirik geograf olimi va sayyohi bo‘lgan Ibn Havqalning to‘liq ismi Abulqosim ibn Havqal an-Nisibiy bo‘lib, nasabiga ko‘ra, olim Shimoliy Mesopotamiyada joylashgan Nasibin shahridan chiqqan.

Ibn Havqal 943-yildan boshlab savdogar sifatida turli mamlakatlar: Markaziy Afrika, Ispaniya, Italiya, Eron va Hindiston bo‘ylab sayohat qilgan. U



Istahriy bilan shaxsan uchrashgan. Uchrashuv vaqtida Istahriy go'yoki undan o'z asaridagi xato va chalkashliklarni xalos qilish va qaytadan ushlashni iltimos qilgan.

“Men, – deb yozadi Ibn Havqal, – uning kitobidagi bir emas, bir necha haritalarni tuzatdim, so'ngra ushbu o'z kitobimni yozishga qaror qildim. Istahriy kitobida uchragan xatolarni tuzatdim, kitobimga bir nechta haritalarni ilova qildim va ularni izohlab berdim”.

Ibn Havqalning asari “Kitob ul-masolik va-l-mamolik” (“Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob”) yoki qisqacha “Kitob surat al-ard” (“Yerning surati”) nomi bilan mashhur bo'lib, Hamadoniylardan Sayfulla Ali I (945–967)ga bag'ishlangan. Uni yozishda muallif sayohatlari vaqtida to'plagan. savdogarlardan so'rab-surishtirib yiqqan materiallardan hamda Ibn Xurdodbeh, al-Jayhoni, Qudama asarlaridan foydalangan. Kitobda tavsiflangan har bir mamlakat va viloyatning haritasi ham belgilab berilgan. Masalan, Movarounnahr qismiga ilova qilingan haritada Jayhun (Amudaryo), Buxoro, Samarqand, Ushrushona (O'ratepa), Ispijob (Sayram), Shosh va Xorazm shaharlari va viloyatlari tasvirlangan. Asarda turk va g'uzzlar, ularning mashg'uloti, shuningdek, Movarounnahr shaharlari, xalqlari xususida keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda qimmatlidir.

“Kitob ul-masolik val-mamolik” asarining arabcha matni ikki marta M. Ya. de Guye (1878) hamda Kramers tomonidan (1938 – 1939) chop etilgan. Kramers nashri (u 1086-yilda ko'chirilgan va hozir Istanbul kutubxonalaridan birida saqlanayotgan qo'lyozmaga asoslangan) birmuncha noyob nashr sifatida qadrlanadi.

Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy kabi arabnavis olimlarning asarlari Toshkent shahri toponimlarini o'rganish bo'yicha ham muhim manba hisoblanadi. Jumladan, olimlar o'z asarlarida Shosh viloyatining markazi Binkat shahri deb ko'rsatgan. Binkat hozirgi Eskijo'va va Chorsu oralig'ida bo'lgan. Binkat nomi fors-tojikcha bo'lib, “ko'rimli shahar demakdir”. Istahriy o'z asarida Shosh viloyatidagi 27 ta shahar va qishloqni nomini tilga olgan. Ohangaron vodiysida qayd qilingan 14 ta shahar-qishloqning 7 tasi “kat” qo'shimchali nomlardir.

**Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'otit turk” asari va “Jahon tasviri” tarixiy kartasida toponimik ma'lumotlar.** Buyuk adabiyotshunos Mahmud Qoshg'ariy ijodida ham O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlar keng yoritilib berilgan. U o'zining “Devoni lug'atit turk” (Turk tilining lug'ati) asarida O'rta Osiyo shaharlarining turkiy nomlarini keltirib o'tgan. XI asrda yashab ijod qilgan Mahmud Qoshg'ariyning hayoti va ijodiy faoliyati to'g'risida to'liq ma'lumot bizgacha yetib kelmagan. Shu bois olimning tug'ilgan yili va vafoti ham ma'lum emas. Mahmud Qoshg'ariy turkiy xalqlar tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlarini puxta o'rganish maqsadida butun O'rta Osiyoni kezib chiqdi. O'zi to'plagan boy dalillar asosida “Devoni lug'otit turk” asarini yozgan. Asar 1074 – 1075-yillarda yozilgan. Bu haqda asarning o'zida quyidagi fikrlar bayon etilgan: “Bu kitobni yozgan yilimiz to'rt yuz oltinchi yilning muharram oyida ilon yili kirgan edi”. Bu nodir qo'lyozma asar hozir Istanbulda saqlanmoqda.

“Devon”dagi toponimik ma'lumotlarni bir necha turga bo'lish mumkin:

1. “Devon”da tilga olingan joy nomlari.

2. Etnonimlar, ya'ni turli xalq, elat, qabila, urug` nomlari.
3. Antroponimlar, ya'ni kishi ismlari.
4. Geografik atamalar, o`simlik hamda hayvon nomlari.

Asar muqaddima va lug`at qismidan iborat bo`lib, madaniy merosimizda alohida o`rinni egallaydi.

Biz bilamizki, "Devon"ga doira deb atalgan harita ilova qilingan. "Devoni lug`otit turk"da jami 160 dan ortiq toponim tilga olingan lekin asarda ayrim joy, o`simlik va hayvon nomlari takroran berilgan.

Asarda turkiy qavm urug`lar: qipchoqlar, o`g`uz, yamak, boshqirt, bosmil, qay, yaboku, tatar, qirg`iz, chigil, yag`mo, tuxsi, igroq, jaru, jamil, uyg`ur, tangut, tabg`ochlardan tashqari yana fors, arab, xitoy, rus xalqlari haqida ham ma'lumotlar bor. Qoshg`ariy "Devon"idagi haritada tilga olingan nomlar to`g`risida I. I. Umnyakov, S. Umrzoqov, H. Hasanov kabi olimlar asarlar yozganlar. Nemis sharqshunosi A. German asarga ilova qilingan kartadagi joy nomlarining ro`yxatini tog`lardan boshlagan. keyin daryo va ko`llarni, so`ngra mamlakatlar va shaharlarni yozgan. I. Umnyakov esa ro`yxatni Saddi Zulqarnayn, Mosin, Sarondib, Bolasog`un va hokazo deb boshlagan "Devon"dagi nomlarning asosiy qismi O`rta Osiyoga oid turkiy nomlardir. Olimning tasvirlashicha, O`rta Osiyo yer yuzasi jihatdan tog`lik va tekislik qismlardan iborat: uning tog`lik qismi hozirgi Qozog`iston, O`zbekiston hududlariga to`g`ri keladi. Shimoli-g`arbda faqat bitta tog` – Jaboli Qorachiq berilgan. Yer yuzasining markazi qilib qoraxoniylar davlatining poytaxti Bolasog`un shahri olingan. Chunki X-XI asrlarda Bolasog`un yirik shahar bo`lgan.

Ko`pchilik olimlarning fikricha mazkur shahar Qirg`izistondagi To`qmoq shahri yonida bo`lgan. Bolasog`un shahrining qadimgi nomi Biklig, mo`g`ulcha nomi G`ubolig` (go`zal shahar), mahalliy (Chig`il va arg`ucha) nomlari Quzulish. Quzordu shahar yonida, tog`lar orasidagi ko`l bo`yida Barsg`on shahri ham bor. Aniqlanishicha, Barsg`on yoki Barsxon hozirgi Issiqko`l bo`yida – uning janubi-sharqiy burchagida Qo`ysara yaqinida bo`lgan. Bundan tashqari, "Devon"da Issiqko`l haqida aniq ma'lumotlar berilgan. "Issiqko`l – Barsg`onda bir ko`l, uzunligi 30 farsax, eni 10 farsax". Agar farsaxni km ga aylantirsak, ko`lning uzunligi 180 km, eni 60 km bo`ladi. Qoshg`ariy kartasida O`rta Osiyo quyidagicha tasvirlangan: "Sirdaryo, garchi nomi yozilmagan bo`lsa ham, juda aniq chizilgan. U ikki tog`dan suv oladi, bir irmog`i – "Yaboqu suvi" Qoshg`ar tog`laridan chiqib, Farg`ona bilan O`zgand orasidan oqadi, bu – hozirgi Qoradaryo; ikkinchi irmog`i shimoldagi Ko`chinkorboshi yonidagi tog`lardan boshlanib, Koson yonidan o`tadi. So`ngra ular birlashib, Farg`ona vodiysining Marg`ilon, Xo`jand shaharlari oralig`idan oqib o`tib, shimolga buriladi. Amudaryo ham yirik irmoqlardan hosil bo`lgan: ulardan biri Qoshg`ar chegarasidagi tog`lardan (Surxob-Vaxsh), ikkinchisi Kashmir chegarasidagi tog`lardan (Vaxondaryo-Panj) boshlanib, Afg`oniston chegarasida qo`shilib, shimoli-g`arbgga oqadi va Xorazm yonidan o`tadi. Bu ikkala daryo o`rtasidagi uzun tog` Oloy, Turkiston, Zarafshon tizmalari, Jayhun g`arbidagi qumlar – Qoraqum".

Olimning haritasida yo`l qo`yilgan xato-mazkur daryolarning Obiskur (Kaspiy) dengiziga quyulishidir. Qoshg`ariy haritasining markaziy qismida Osiyo

qit'asining sharqiy mamlakatlari tasvirlangan. Uyg'ur viloyatida 5 ta shahar bo'lib, bular: Sulmi, Qo'ju, Jonbaliq, Beshbaliq, Yangibaliq shaharlaridir. Ularning eng katta shahri Beshbaliqdir. "Baliq" so'zi turklar va uyg'urlar tilida "shahar" ma'nosida ishlatilgan. Beshbaliq – "besh shahar", Yangibaliq – "yangi shahar" kabi. Bundan tashqari Mahmud Qoshg'ariy asarida Turkistondagi ba'zi shahar nomlarining izohlari berilgan. Jumladan, unda Toshkent "Tarkent" tarzida ko'rsatiladi va "Tarkent" Shoshning ismi, asli Toshkent "Tosh shahri" demakdir. Samarqandning asli nomi "Samizkand" – katta shahar deb ta'riflanadi.

"Devon"dagi nomlarning asosiy qismi O'rta Osiyoga oid turkiy nomlardir. Bu toponimlarning bir qanchalari hamma uchun tushunarlidir. Chunonchi, Oqsoy, Oqterak kabi nomlarni hozir ham uchratish mumkin. Buxoro, Farg'ona, Samarqand, Xo'jand, Xorazm, Talas, Tarina, Sayram, Manqishloq, Issiqko'l kabi toponimlar deyarli o'zgarishsiz yetib kelgan. Qorayalg'a, Ala, Ertisli kabi nomlar fonetik jihatdan biroz o'zgarib ketgan va hozir Hi, Qorajllg'a, Olay, Irtish shaklida yoziladi. Beshbaliq, Yangibaliq, Tunkand, Yankand, O'zkand kabi shahar nomlari, Badalart, Buqachart, Zanbiat, Qavaqart, Yafg'uart kabi dovonlar, Ikkio'kuz, Qoraqosh O'kuz, O'rungqosho'kuz kabi daryolar etimologiyasiga "Devon"ning o'zidan javob topish mumkin.

Ma'lumki, toponimikada turli afsonalar ham inobatga olinadi va o'rganiladi. Lekin joy nomlari etimologiyasi to'g'risida Mahmud Qoshg'ariy keltirgan ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish zarur.

"Devonu lug'otit turk"dagi toponimlarning biz uchun yana bir qimmatli tomoni ularning grammatik xususiyatlaridir. Ma'lumki, joy nomlarining etimologiyasidan tashqari grammatik tuzilishiga qarab ham ularning qaysi tilga, qaysi davrga oid ekanligini ma'lum darajada aniqlash mumkin.

Hozirgi turkiy toponimlarning asosiy qismi ikki va uch komponentdan, ya'ni tarkibiy qismdan iborat. "Devon"dagi joy nomlarining yarmidan ko'pi bir komponentli nomlar. Masalan, Yamak, Yofinj, Alusli, Azig', Abul, Etil, Udun, Yamar, Ala, Urang, Qo'jn, Bukur, Talas, Qatas, Quya, Toman, Koson, Xazar, Chog'la, Barxaa, Sabran, Sitg'un, Tovg'ach, Barjug', Tartuq, Tayiz, Ko'rung, Oazvin kabilar ana shular jumlasidan. Ikki komponentlilar u qadar ko'p emas: Ikkiko'z, Oqsoy, Oqterak, Olayig'och, Beshballq, Yangibaliq, Qorayig'och, Badalart, Buqachart, Boyyig'och, Yulduzko'l kabilar. Bu toponimlarning birinchi komponenti sifat, ikkinchi komponenti esa ot (geografik atama). Ikki komponentlilar grammatik tuzilishi jihatidan hozirgi toponimlardan farq qilmaydi. Uch komponentlilar esa atigi bir nechta: D'rungqosho'kuz, Qeraqosho'toaz, To'rig'arttayiz...

"Devon"da juda ko'p xalq, qabila, toifa nomlari – etnonimlar tilga olingan. Mahmud Qoshg'ariy "Devon"ning bosh qismida turk qabilalari haqida so'z yuritib: bajanak, qipeboq, o'g'uz, yamak, basmil, qay, yabaku, tatar, qirg'iz, chigil, taxi, yag'ma, ig'roq, jaruq, jumul, uyg'ur, tangut, xitoy. Kitobning lug'at qismida esa kenjak, bayot, sag'doq, uch, qorluq, o'groq, kucha, balaq, kalach, aramut, turkman, qiniq, salg'ar kabi etnonimlarni ham tilga olgan.

"Devon"dagi kishilar ismlari shu jihatdan qimmatliki, bir nechta arabcha ismlarni istisno qilganda, kishi ismlarining deyarli hammasi qadimiy turkiy bo'lib, hozirgi vaqtda iste'moldan chiqib ketgan. "Devonu lug'otit turk"dagi 60

dan ortiq kishi ismlari orasida xonlarning, pahlavonlarning, urug' boshliqlarining, oddiy kishilarning ismlari, laqablari bor

"Devon"da qaraqan (qarag'an), anduz (andiz), alrrta, alrnla (olma), arpag'an, burchaq (lo'viya), sarmusaq (sarimsoq), apshan (yavshan-shuvoq), yilg'un (yulg'un), yandaq (yontoq), qaramuq kabi o'simlik nomiari keltirilgan. Mahmud Qoshg'ariy davridan buyon ularning shaklida deyarli o'zgarish bo'lmagan. Ayni paytda qazin (qayin), charun (chinor), avya (ayva - behi), yag'aq (yong'og'), armut (Navoiyda -umrud, Radlovda - urmud), olmurut (nok, nashvati), azriq (ayrih) ajriq, egir, igir - iyir singari o'simlik nomlari esa fonetik o'zgarish yoki metateza (harflarning o'rni almashishi) bilan yetib kelgan. Aruk (eruk) bir necha mevali o'simlikning nomi bo'lgan: sariq aruk - o'rik, qora am - olxo'ri, tulug (ehtimol, tuklik) aruk - shaftoli; Asarda ishg'un, ushg'un, qashg'un - ravoch, jag'mur hamda jamg'ur - sholg'om (uyg'ur va qirg'iz tillarida chamg'ir - turp, rediska), turma - turp, sarig' turma - sabzi (Mahmud Qoshg'ariy arg'ular sabzini "kizri", o'g'uzlar "kashur", "gashir" deyдилar deb yozadi) kabi o'simlik turlari izohi ham keltirilgan.

"Devon"da o'simlik nomlariga qaraganda hayvon nomlari ancha ko'p. Arslon, lochin, qulon, kirpi (tipratikon), qarg'a, burqa, tilku (tulki), quzg'un, qarsaq (tulkining bir turi), tartar (qush), tavishg'an (quyon), qoraqush, bars (qoplonning bir turi), it, to'ng'iz, o'q yilon (o'q ilon), atari (axta tuya) kabi hayvon nomlari hozir ham shu shaklda talaffuz qilinadi. Ko'pgina hayvon nomlari hozirda boshqacharoq talaffuz etiladi: tishak (ikki yoshli qo'y), hozir - shishak, chazan hozir chayon, chafli - chovli, qatir - xachir, qo'tuz - qo'tos, qo'ch, qo'chngar - qo'chqor, azig' - ayiq, azg'ir - ayg'ir, taqag'u - tovuq, qirqo'y - qirg'iy, sig'ir - sigir, eshkak, qashg'olaq - qashg'aldoq va hokazo.

**Yevropada yaratilgan tarixiy kartalarda O'rta Osiyo toponimlari.** XIV - XV asrlarga kelib Yevropada savdogarlar va tadbirkorlar tabaqasi ehtiyojlarini qondirish maqsadida savdo yo'llari haqidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan haritalar yaratilgan. Xususan, Sharq mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyo hududlarini o'zida aks ettirgan Katalon (1375) va Fra Mauro (1459) haritalari yuzaga kelgan. Bu haritalar yaratilishida bevosita Rossiya va Sharq mamlakatlarida bo'lgan sayyoh va elchilar ma'lumotlari, shuningdek, rus haritalari muhim o'rin tutgan. Biroq, rus haritashunoslari Rossiyaning hududiy joylashuvidan kelib chiqqan holda ko'proq shimoliy o'lkalarini aks ettirgan haritalar chizishgan. Ularda janubiy o'lkalarning yaxshi tasvir etilmaganligi o'sha davrda bu hududlarni o'rganilmaganligidan dalolat beradi. Yevropada yaratilgan shu davrga oid haritalarda esa qit'ani Sharq bilan bog'lovchi tranzit savdo yo'li o'tgan Rossiyaning janubiy o'lkalari yaxshi aks ettirilgan.

Yevropada O'rta Osiyoning aniq tasviri aks etgan tarixiy haritalar XVI asr so'nggi choragiga mansub bo'lib, ular flamand kartografi Avraam Orteliy (1527 - 1598) tomonidan Antverpenda 1579-yili yaratilgan. Antverpen yirik ilm-ma'rifat markazi bo'lmasa-da, savdo va sayohatlarni amalga oshirish talabi asosida bu yerda kartografiya paydo bo'lgan va shahar yirik haritashunoslik markaziga aylangan.

XIV asrdan boshlab, yevropaliklar Yevropa va Osiyoni bir-biridan ajratib turuvchi Ural tog'idan sharqda joylashgan Tinch okeanigacha bo'lgan hududlarni

“Tatariya” (Tartariye) oʻlkasi deb atay boshlaganlar. Ushbu hududda yashovchi aholi esa alohida ajratilgan holda, “Tatariya noʻgʻoylari”. “Tatariya moʻgʻullari”. “Tatariya oʻzbeklari” (Tartars Usbeks) kabi nomlar bilan atalgan. Kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan Rus va Gʻarbiy Yevropa adabiyotlarida kelib chiqishi tatar-moʻgʻul koʻchmanchilariga borib taqaluvchi Don daryosidan sharqda yashovchi xalqlarni umumiy nom bilan “tatarlar” deb qayd etilgan. Ularning tarkibiga noʻgʻaylar, oʻzbeklarning avlodlari kiritilgan. Keyinchalik Oʻrta Osiyo haqidagi maʼlumotlar kengayishi va ularga aniqlik kiritilishi tufayli Yevropada Oʻrta Osiyo aholisi haqida “Chigʻatoy tatarlari” va “Tartarie Independence” (Mustaqil tatarlar) atamaları keng qoʻllanila boshlangan. “Chigʻatoy tatarlari” nomi yevropaliklarning Oʻrta Osiyo haqidagi ilk maʼlumotlar va yozma matnlar bilan hududning Chigʻatoy ulusi tarkibida boʻlgan davrida tanishganligidan guvohlik beradi. Yevropaliklar nazdida moʻgʻullar hukmronligi Movarounnahrda XVI asrga qadar davom etgan. Chunki, ular amalda mustaqil boʻlgan temuriylar davlatini ham moʻgʻullar davlatining merosxoʻri va izdoshi sifatida baholar edilar. Shu sababdan XVI asrdan boshlab Movarounnahrda mustaqil davlatlar – Buxoro va Xiva xonliklarining vujudga kelishi bilan adabiyotlarda “mustaqil tatarlar” iborasi paydo boʻlgan.

1664 – 1665-yillarda Rossiyaga tijorat ishlari bilan kelgan golland savdogari N. K. Vitsen Oʻrta Osiyo hududi haqida qimmatli maʼlumotlar yigʻishga muvaffaq boʻlgan. U “Tatariya” hududiga Kama, Volga daryolari va Kaspiy dengizi qirgʻoqlaridan Tinch okeani sohillarigacha qadar juda katta hududni kiritgan. N. K. Vitsen Amsterdam burgomistri lavozimida (1692 – 1714) faoliyat yuritgan davrda Oʻrta Osiyo tarixi, iqtisodiy imkoniyatlari ustida jiddiy izlanishlar olib borgan. Natijada uning “Shimoliy va Sharqiy Tartariya” asari va unga ilova sifatida Oʻrta Osiyo haritasi vujudga kelgan. Asarda “Oʻzbekiya” deb nomlangan katta bob mavjud, unda Oʻrta Osiyoning geografik joylashuvi, tarixiy yodgorliklari haqida keng maʼlumotlar berilgan. Muallifning Oʻrta Osiyoga bagʻishlangan haritasida esa Kaspiy dengizining sharqiy qirgʻoqlari va Xiva xonligi tasvirlangan.

XVII asr boshlarida Rossiyada birinchi bor yirik haritalar toʻplami “Книга Большого чертежа” (Katta chizmalar kitobi. 1627-yil) tuzildi. Unda nafaqat Moskva davlati tarkibiga kiruvchi hududlargina emas, boshqa qoʻshni mamlakatlar ham oʻz aksini topgan edi. Toʻplamga Forslar mamlakati, Qora dengizning Turkiyaga qarashli qirgʻoqlari, Qozoq Dashti, Urganch podsholigi (Xiva). Buxoro va boshqalar haqida qimmatli maʼlumotlar va haritalar kiritilgan.

Portugallar Hindistonni kashf etib (1498), unda mustahkam oʻrnashib olganlaridan soʻng, mamlakat shimolida joylashgan hududlar va ular orqali Xitoyga borish yoʻllarini izlay boshlagan. Hindiston bilan Oʻrta Osiyo davlatlarining qadimdan rivojlanib kelgan oʻzaro savdo-iqtisodiy aloqalari natijasida bu ikki

\* Tartar – tatar etnonimining etimologik maʼnolaridan biri. Dastlab M.Parijskiy (1200 – 1259) bu nom kelib chiqishini Sharqdagi afsonaviy Tar (yoki Tartar) daryosi nomi bilan bogʻlagan. Keyinchalik bu etnonim Frantsiya qiroli Lyudovik IX (1226 – 1270) ning “Tartar (doʻzak)dan chiqqanlar” shaklidagi kesatiqli soʻzi asosida keng tarqalgan. Ammo, aslida bu atama Xitoy shimolida yashovchi xalqlarning Xitoy manbalarida “ta-ta” deb nomlanishidan kelib chiqqan. Ularga nisbatan moʻgʻul atamasi ilk bor Plano Karpini asarlarida tilga olinadi. Shu davrdan boshlab oʻrta asr lotin adabiyotida moʻgʻul va tartar etnonimlaridan bir-birini toʻldiruvchi soʻz sifatida foydalanilgan.

hududni bir-biri bilan bog'lab turgan savdo yo'llari mahalliy aholiga ma lum edi. Hindistonlik savdogarlarning Xitoy va O'rta Osiyoga savdo maqsadida uyushtirgan sayyohatlarida qatnashgan yevropaliklar tomonidan savdo yo'llari, hududning tabiiy, geografik va iqtisodiy imkoniyatlari haqida ma'lumotlar to'plangan. Natijada Hindistondan O'rta Osiyo va Xitoyga olib boradigan yo'llarning janubiy tarmog'idan XVI asrda portugallar, keyingi asrlarda inglizlar unumli tarzda foydalangan. Portugal iyezuiti Benedikt Goes bu yo'ldan birinchi bo'lib foydalangan ilk yevropalik hisoblanadi. Uning Xitoyga safari savdo karvoni bilan Lahordan boshlanib, Kobul, Badaxshon, Qashqar shaharlari orqali o'tgan. Safar davomida u Samarqand, Buxoro, Jalolobod, Olmaliq (Almalek)\* shaharlari haqida ma'lumot to'plab, yo'l kundaligiga qayd etib borgan.

O'rta Osiyo hududlarini o'rganish asosida ma'lumotlar to'planishida nemis tadqiqotchilari ham faol ishtirok etgan. Ular bu hudud bilan XV asrda bavariyalik Iogann Shil'tberger ma'lumotlari asosida ilk bora tanishgan edilar. Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng nemis kartografi Gerard Merkatoming (1512–1595) 1595-yilda yaratgan kartografik to'plami – “Atlas” ularning O'rta Osiyo haqidagi tasavvurlarini yanada boyitgan. “Atlas”ga qo'shimcha ravishda unda aks ettirilgan mamlakatlarni tasvirlovchi matnlar ham mavjud bo'lgan. 1637-yilda rus tilmochlari Bogdan Likov va Ivan Dorn matnlardagi eski ma'lumotlar o'miga Osiyo haqidagi yangi rus ma'lumotlaridan foydalanib, uni qayta ishlaganlar. XVII asr boshiga mansub Osiyoga oid rus chizmalaridan maxfiy ravishda nusxa ko'chirilib, Yevropaga olib ketilgan. Ulardan biri 1692-yilda G. Shleyssing tomonidan Germaniyada nashr etilgan.

XVIII asr oxiri – XIX asrdagi nemis sayyohlari va olimlari boshqa Yevropa mamlakatlari tadqiqotchilaridan farqli ravishda o'z e'tiborlarini Farg'ona vodiysiga qaratganlar. Bu bilan ular O'rta Osiyoda muhim o'rin tutgan bu hudud orqali boshqa qo'shni davlatlarga borishda foydalanishni ko'zda tutgan bo'lishlari ehtimoldan holi emas.

Dunyo okeanlarida jahon savdosi rivojlanishi bilan Osiyo qit'asida katolik cherkovi josuslarining missionerlik faoliyatlari ham kuchayib borgan. Xitoyda faoliyat olib borgan katolik iyezuitlari d'Aroxoy, Espin'e va Gellershteyn Sin (1644-1911) imperatori Szyan'-Luyanning (1736-1796) topshirig'iga ko'ra, imperiya haritasini tuzish uchun mamlakat hududida izlanishlar olib borganlar. Tadqiqotlar XVIII asrda Xitoy tomonidan bosib olinigan Jung'or xonligi va sharqiy Farg'ona hududlarida olib borilib, xitoylik yer tuzuvchilari yordamida amalga oshirilgan. Farg'ona vodiysi va Issiqko'l atroflarida to'plangan ma'lumotlar 1776-yilda Parijda “Pekin missionerlarining Xitoy tarixi, fani va san'ati haqida asarlari majmuasi” nomi bilan nashr etilgan. Ushbu asardagi ma'lumotlar asosida 1837-yilda fransuz kartografi d'Anvil O'rta Osiyo haritasini yaratgan.

XIX asr ikkinchi yarmida polyak sharqshunosi I. Lelevel Beruniy jadvali asosida O'rta Osiyoning kartasining tuzishga muvaffaq bo'ldi. U o'z kartasida 40 ta shahar va daryoning hamda 8 ta viloyatning nomini yozib qo'dirgan. Biroq

\* Olmaliq – Sharqiy Yettisuvda joylashgan qadimiy shahar. Hozirgi G'ulja shahrining shimoliy-g'arbida, Oltin O'rda va Movarounnahrda Xitoyga olib borib boruvchi karvon savdo yo'li ustida joylashgan Chig'atoy xonlarining qarorgohi hisoblanib, Urganchdan 85 kunlik, Pekindan 70 kunlik masofada joylashgan. Ilk marotaba 1375-yilda Katalon xaritasida tasvirlangan.

kartada ham kamchiliklar bo'lib, unda O'rta Osiyoga tegishli nomlarning yarmi keltirilgan. Bundan tashqari, jadvalda noto'g'ri yozilgan raqamlar tuzatilmasdan ko'chirilgan. Natijada Lelevel kartasi Beruniy kartasiga, O'rta Osiyoning asl qiyofasiga ham to'g'ri kelmagan. Masalan, jadvaldagi Bonqishloq (Manqishloq) va Bolxon nomlari kartaga tushirilmagan.

#### **Tayanch iboralar.**

Muqaddasiy, Istahriy, Ibn Havqal, Ibn Rusta, Ibn Xurdodbeh, "Kitob ul-masolik va-l-mamolik", Xotunkat, Jinanjkat, "Devoni lug'otit turk", A. German, "Yaboqu suvi", "Tarkent", Avraam Orteliy, "Tatariya", "O'zbekiya". Benedikt Goes.

#### **Nazorat savollari.**

1. Arab geografi va sayyohi Al-Muqaddasiyning qaysi asarida O'rta Osiyo toponimlari haqida ma'lumotlar mavjud?
2. Al-Muqaddasiy o'z asarlarida Chag'oniyonda joylashgan nechta qishloq nomlarini keltirib o'tgan?
3. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarini o'rgangan va u asosida asarlar yozgan olimlarni ayting?
4. O'rta asrlarda qaysi yevropalik olimlarning asarlarida O'rta Osiyo va uning geografik hududlari tasvirlangan?

### **TARIXIY TOPONIMIYANI O'RGANISHNING NAZARIY, ILMIY VA USLUBIY ASOSLARI: HUDUDIYLIK, TARIXIYLIK VA TIL JIHATDAN MANSUBLILIK**

#### **Reja:**

1. Tarixiy toponimiyani o'rganishda hududiylik, tarixiylik va til jihatdan mansublilik.
2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston toponimiyasidagi o'zgarishlar.

**Tarixiy toponimiyani o'rganishda hududiylik, tarixiylik va til jihatdan mansublilik.** Geografik nomlar muayyan hududda ajralgan holda emas, balki o'sha hudud bilan, u yerdagi tabiiy-tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Ayni vaqtda tevarak-atrofdagi hudud, o'lkalarning tabiati, tarixi hamda toponimiyasi ham hisobga olinishi kerak. Chunki, geografik nomlar uzoq davrlar mahsuli bo'lgani bois vaqt o'tigni bilan ozmi-ko'pmi shaklan va mazmunan o'zgarishi, xalqlarning ko'chib yurishi natijasida esa bir joydan ikkinchi bir joyga o'tib qolishi mumkin.

Toponimlar til-lug'at fondining bir qismi, biroq ular lug'at tarkibidagi boshqa so'zlardan uzoq vaqtgacha o'zgarimasdan turishi bilan farq qiladi. Iste'moldan butunlay chiqib ketgan yoki kichik bir hududda uchraydigan so'zlar ko'pincha geografik nomlar shaklida saqlanib qolgan bo'ladi. Bir vaqtlar keng iste'molda bo'lgan bulan (los), do'lta (sirtlon), buqalamun (hameleon), kish (sobol) kabi hayvon nomlari, baraz (tog' tepasidagi kichikroq tekis maydoncha), bo'ktar (tog' etagi), qo'l (soy), qasaba (shaharcha), qora suv (buloq suvi), chordara (qorovul budkasi), hisor (qo'rg'on), to'rtko'l (aynan-chordevor) "shahar vayronasi" kabi geografik atamalar hozirgi davrda O'zbekistonda butunlay

ishlatilmaydi yoki kichik-kichik hududlardagina saqlanib qolgan. Biroq, bu soʻzlardan tuzilgan toponimlarni topsa boʻladi. Ana shuning uchun ham joy nomlari tilning turli tarixiy davrlardagi lugʻat tarkibini oʻrganishda qimmatli manba hisoblanadi.

Oʻzbekistonning geografik nomlari, yaʼni toponimiyasi Oʻrta Osiyo toponimiyasining bir qismi sanaladi. Oʻrta Osiyodagi geografik nomlarning asosiy qismini hozirgi oʻzbek, turkman, qirgʻiz, qoraqalpoq, qozoq hamda tojik tillari yordamida osongina tushunish mumkin.

Mashhur toponimist olim E. M. Murzayev qayd qilganidek, toponimlar hozirgi mintaqaviy yoki etnografik chegaralarni tan olmaydi. Buning maʼnosi shuki, tojikcha toponimlar Oʻzbekiston, Turkmaniston va Qirgʻiziston hududlarida, oʻzbekcha va qirgʻizcha nomlar esa Tojikiston haritasida ham maʼlum miqdorda mavjud.

Oʻrta Osiyoga turkiy xalqlar kelmasdan oldin, hozirgi Oʻzbekiston hududidagi vohalarda yashagan mahalliy xalqlar va qabilalar – xorazmiylar, sugʻdiylar Choch (Toshkent) atroflari hamda Fargʻona vodiysi (qadimgi Parkan) aholisi saklar (shaklar) oʻzbeklarning eng qadimiy ota-bobolari hisoblangan va sharqiy Eron tillarida soʻzlashganlar. Shunday qilib, Oʻzbekiston hududida eroncha nomlar substrat toponimlar, yaʼni oʻzbeklar tomonidan assimilyatsiya qilingan tub nomlar hisoblanadi. Samarqand, Xorazm, Jizzax, Qoʻqon kabi koʻp sonli qadimiy nomlar ana shunday substrat toponimlardir.

Yunonlarning Oʻrta Osiyoga kirib kelishi toponimiyada biron bir sezilarli iz qodirmagan. Tojikistondagi Iskandarkoʻl nomining Iskandar Zulqarnayn ismiga hech aloqasi yoʻq. Chunonchi, Bobur bu koʻlni tilga olganda uning biron-bir nomini keltirmaydi. Bundan tashqari, Iskandar, Iskandardaryo, Iskandarquduq kabi toponimlar anchagina uchraydi. Tarixchi A. Muhammadjonovning taʼkidlashicha, Oʻzbekistonda Iskandar nomli quduqlar anchagina. Xalq bu quduqlarni makedoniyalik Iskandar nomi bilan bogʻlaydi.

Aslida bu nomlarning koʻplari keyingi paytlarda paydo boʻlgan. Masalan, Toshkent yaqinidagi Iskandarariq xalq orasida Iskandartoʻra laqabi bilan mashhur boʻlgan Rossiya imperatori Nikolay Nikolayevich nomi bilan maʼlum.

Turkistonda arablarning uzoq davr davomida hukmronlik qilishi joy nomlarida oʻz aksini topgan. Bunda arab tilining adabiy til boʻlib xizmat qilishi katta rol oʻynagan.

Arablar bilan bogʻliq nomlar orasida avliyolar, paygʻambarlar va har xil diniy eʼtiqodlar bilan bogʻliq boʻlgan nomlar alohida oʻrin tutadi. Arablar davridan qolgan toponimlarning eng koʻp sonlisi rabotlardir. Arablar oʻzlari bosib olgan joylarda harbiy punktlar – koʻpdan-koʻp rabotlar (ribotlar) qurgan. Chunonchi, Buxoro biqinidagi Boykand (Paykand) yaqinida 1000 dan ortiq rabot boʻlgan. Bu rabotlarda turkiy xalqlarning hujumlariga qarshilik koʻrsatadigan qoʻshinlar turgan. Rabot nomli toponimlar Oʻzbekiston hududida hozir ham kam emas. Masalan, Rossiya imperiyasining harbiy olimi N. F. Sitnyakovskiyning 1899-yildagi “Roʻyxat”ida Zarafshon vodiysining faqat Buxoro qismida Balandrabot, Beshrabot, Yettirabot, Deganrabot, Kaltarabot, Kattarabot, Oltirabot, Oqrabot, foshrabot, Chuqurrabot, Qoʻshrabot, Rabot, Rabotioʻzbek, Rabotimulla, Raboti Yusuf, Navrabot, Yangirabot kabi 160 dan ortiq qishloq, bundan tashqari.



shu qishloqlar nomi bilan atalgan bir necha o'n ariq qayd qilingan. Shuningdek, bob (bobil), nahr, tal (tepa), masjid (machit), madrasa kabi arab atamalari geografik nomlar tarkibida ko'p uchraydi.

Qashqadaryo viloyatida Maymanak degan qishloq bor. Maymanak arabcha so'z bo'lib, "o'ng" tomon. "o'ng qo'l" degan ma'noni bildiradi.

Shuni aytish kerakki, aslida arabcha bo'lsa ham turkiy xalqlar tillarining lug'at tarkibidan o'rin olgan bu kabi so'zlardan tarkib topgan toponimlarni turkiy nomlar deyish to'g'ri bo'ladi.

Turkiy geografik nomlar O'zbekistondagi toponimlarning asosiy qismini tashkil etadi. Lekin, o'zbekcha geografik nomlarning ko'pchiligi keyingi asrlarda vujudga kelgan.

Shu bilan birga O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda arablardan oldin paydo bo'lgan nomlar ham bor. Masalan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida tilga olingan bir qancha nomlar Buxoro atroflarida hozirgi kunlarda ham uchraydi. Shopurkon, Karmana, G'ijduvon, Ishtixon kabi qadimiy ariq hamda qishloqlar ana shular jumlasidan.

O. D. Chexovich XIV asrdagi Buxoro shayxi Sayfiddin Boharziy xotirasiga bag'ishlangan vaqf hujjatlarini o'rganib, Buxoro atrofidagi ko'pgina geografik nomlar hozir ham mavjud ekanligini aniqladi.

Mo'g'ullarning kirib kelishi O'rta Osiyo toponimiyasini yanada murakkablashtirib yubordi. Bulung'ur, Darxon, Norin, Norinko'l, Norinkapa kabilar mo'g'ulcha nomlardir. Shunisi qiziqki, Norinko'l degan ariq N. F. Sitnyakovskiyning "Ro'yxati"da ham uchraydi. Dovon, ko'tal, to'qay, shiber, qapchig'ay kabi mo'g'ulcha atamalar O'rta Osiyo turkiy xalqlari tillari leksikasidan va toponimiyasidan mustahkam o'rin olgan.

Respublikamizda mo'g'ulcha nomlar ham ko'p uchraydi. Farg'ona vodiysidagi Pochchaota soyidan chiqarilgan bir ariq Barangar deyiladi, bu nom esa mo'g'ul tilida (barangdor) "o'ng qo'l, o'ng tomon" degan ma'noni bildiradi. Samarqand viloyatidagi Bulung'ur tumani va kanalining nomi mo'g'ulcha "loyqa suv" degan ma'noni anglatadi.

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekistondagi ruscha nomlar turli yo'llar bilan paydo boigan. Vannovskiy, Vladikino, Vrevskaya, Obruchevo, Ursatevskaya kabi temir yo'l stantsiyalari Rossiya imperiyasi hukumati hokimlarining qarorlari bilan qo'yilgan rasmiy nomlar edi.

Rus dehqonlari ko'chirib keltirilgan joylarda anchagina ruscha nomlar paydo bo'lgan. Mirzacho'lga rus dehqonlari dastlab 1886-yilda ko'chirib keltirilgan. O'sha yili bu yerda to'rtta posyolka vujudga kelgan. Bular Zaporozskiy, Nadejdinskiy, Romanovskiy va Sretenskiy posyolkalari edi. 1898-yilga kelganda Sirdaryoning har ikkala sohilida 9 ta rus posyolkasi bunyod etildi. Bundan keyin paydo bo'lgan ruscha geografik nomlar ham Rossiyadagi nomlardan farq qilmas edi, boshqacha aytganda, ruslar o'zlaraj yashab kelgan yoki o'zlariga tanish bo'lgan joy nomlarini qo'ygan edilar.

Sho'rolar davrida paydo bo'lgan geografik nomlar aksari sobiq proletariat dohiylari, sho'ro davlati va kommunistik partiyaning rahbarlari va partiya hamda davlat yugurdaklarining nomlaridan iborat mafkuraviy nomlar edi.

Xususan, Toshkent ko'chalarining soni va nomlari har doim o'zgarib turgan. Poytaxt ko'chalari nomi va sonini Toshkent shahar Obodonlashtirish Bosh boshqarmasi tomonidan 1978-yilda nashr etilgan ma'lumotnoma bilan oradan chorak asr o'tgandan keyingi ro'yxat materiallarini solishtirsak, katta tafovutni ko'rish mumkin.

1978-yilgi nomlarning ko'pchiligi kommunistik mafkura, ruslashtirish siyosati ruhi bilan sug'orilgan edi. Ma'lumotnomada jami bo'lib 3253 ko'cha soni keltirilgan. Lekin mustaqil nomlar soni 1500 dan oshmaydi. Buning sababi shundaki, katta ko'cha ham, tor ko'cha ham, berk ko'cha ham bir nom bilan atalgan; masalan, bitta ko'cha, 2 ta tor ko'cha, 2 ta berk ko'cha Ashrafiy nomi bilan atalgan.

Guliston nomi ko'chalar bo'yicha eng ko'p takrorlangan. Bosh Guliston ko'chasining yonida 1-Guliston, 2-Guliston, 3-Guliston.. 10-Guliston ko'chalari, shuningdek, 4 ta Guliston tor ko'chalari va bitta Guliston berk ko'chasi mavjud bo'lgan.

1500 nomning uchdan bir qismi antropotoponimlar – kishilarning ism-familiyalari, laqablari, taxalluslari bilan atalgan toponimlar edi. Shu 500 nomdan aksari qismi – 280 ga yaqini rus familiyalari edi, ular orasida partiya va davlat arboblari, fan va madaniyat arboblari, qahramonlar, Rossiya imperiyasi generallari asosiy o'rin tutar edi. Jumladan, Aleksandrov, Babushkin, Blyuxer, Budyonniy, Vereshchagin, Vrevskiy, Vishinskiy, general Petrov, Grishin, Dobrolyubov, Jdanov, Jukovskiy, Ilich, Kadishev, Kalinin, Kirov, Kotovskiy, Kuropatkin, Krenkel, Krupskaya, Kuybishev, Kutuzov, Lazo, Lenin, Malinovskiy, Shumilov va hokazo.

Toshkentda kishi nomlari bilan atalgan 500 ko'chada o'zbekcha antroponimlar soni 130 dan oshmagan. O'zbekiston tarixi, madaniyati va adabiyotida ulkan rol o'ynagan shaxslardan anchagina qismining nomlari poytaxt ko'chalarida o'z aksini topgan. Lekin o'sha vaqtdagi hukmron mafkura va siyosat nuqtayi nazaridan o'nlab buyuk namoyandalarning nomlari Toshkent ko'chalaridan o'rin olmagan.

O'zbekiston poytaxti ko'chalaridan 250 tasi ruscha so'zlar bilan atalgan edi: Abrikosoviy, Agroshkola, Bogarnaya, Vishnevaya, Vostochnaya, Golubaya, Gornaya, Groznaya, Dalnaya, Duboviy, Jarkiy, Zapadnaya, Zimnyaya, Industrialnaya, Kalinovoy, Kischechniy kabi. Bu kabi toponimik nomuvofiqlikka mustaqillik yillarida chek qo'yildi.

**Mustaqillik yillarida O'zbekiston toponimiyasidagi o'zgarishlar.** Sovet davlati parchalanib ketgandan keyin joy nomlari milliy qadriyat qatlamlaridan biri sifatida qaralib, mustaqil toponimik siyosat yurgizila boshlandi, xalq, tarixi, madaniyati, tiliga aloqador bo'lmagan shahar va qishloqlar, ko'chalar va boshqa geografik ob'yektlar nomlari o'zgartirila boshlandi, tarixiy nomlar tiklandi, qayta nomlandi.

1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi geografik ob'yektlarni nomlash va qayta nomlash siyosatida ham burilish nuqtasi boldi, toponimlarni milliy lashtirish harakati boshlandi. 1990-yilda "Moskva" mehmonxonasining shu joyning tarixiy nomi bilan "Chorsu", Kalinin deb atalib kelingan ko'chani

azaliy nomi Eski Jo'va deb nomlanish bu borada qo'yilgan dastlabki qadam bo'ldi.

Mustaqillik yillarida "qizil" toponimlar bekor qilinib, joylarning tarixiy nomlari tiklandi va sof xalqona toponimlar paydo bo'ldi.

Toshkent shahar hokimligi qoshida Toponimiya komissiyasining tuzilishi, unga taniqli olimlar – toponimshunolar, tarixchilar, tilshunolar, shuningdek, yozuvchi-shoirilar va boshqa jonkuyar mutaxassislarning jalb qilinishi (1992) komissiya ishining jonlanishiga imkon berdi.

1989-yildan 2003-yil oktabr oyigacha Toshkentdagi mustaqil nomlarga ega bo'lgan ko'chalardan 1000 ga yaqin ko'cha qayta nomlandi.

Nomi o'zgartirilgan ko'chalarning qariyb uchdan bir qismiga Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Imom at-Termiziy, Mahmud Torobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur, Husayn Boyqaro, Teimur Malik kabi buyuk shaxslarning nomlari berilib poytaxt toponimiyasida abadiylashtirildi. Shu bilan birga Muxtor Avezov, Betxoven, Mahatma Gandi, Neru, Lev Tolstoy, Chexov, Shota Rustaveli kabi klassiklarining nomlari Toshkent ko'chalarini bezab turibdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng toponimika fani yanada rivojlana boshladi. Shuningdek, yurtimiz toponimlarining nomlanishiga ham jiddiy e'tibor berila boshlandi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik ob'yektlarning nomlarini tartibga solish to'g'risida" 1996-yil 31-maydagi 203-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlarga va boshqa toponimik ob'yektlarga nom berish ishlarini tartibga solish to'g'risida" 2004-yil 11-avgustdagi 383-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son qaroriga asosan "Geografik ob'yektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 41-42-son, 483-modda) fikrimizning isbotidir. E'tiborlisi, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son Qaroriga asosan, "Geografik ob'yektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga 2014 – 2015-o'quv yilidan boshlab 5440500 – "Geografiya" ta'lim yo'nalishlari asosida "Toponimika" mutaxassisligi bo'yicha magistraturada kadrlar taybrlashni boshlash to'g'risida takliflar kiritish haqida ko'rsatib qo'yilgan.

O'z navbatida, mustaqillik yillarida O'zbekiston toponimikasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Sobiq ittifoq davrida yurtimizdagi qishloq, shaharcha, ko'cha va boshqa joy nomlari Lenin, Marks, Engel's, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin, Frunze, Qizil maydon va boshqa nomlar bilan atalib kelingan. Shunisi ajablanarliki, bu shaxslarning ba'zilari umrida bir marta ham yurtimizga qadam qo'ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kimsalar edi. Yoki shaharlardagi aksariyat turar joy mavzeleri "S-1", "S-2", "T-3" degan, odamda hech qanday his-tuyg'u, xotira uyg'otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelingan.

Hozirda bunday nomlar o'rnini tariximiz bilan bog'liq, chuqur ma'noli nomlar egalladi. Masalan, Toshkentning o'zida shaharning qadimgi 12 darvozasi nomi bilan ko'cha, mahallalar paydo bo'ldi: Samarqand, Beshyog'och, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar. Shuningdek, aholining yashash sharoiti va mashg'ulotlaridan kelib chiqqan nomlar yana qayta tiklandi. Masalan, Toshkentning eski shahar qismidagi Pichoqchilik, Charxchilik, Ko'nchilik, Degrezlik, Taqachi, Egarchi, O'qchi, Zargarlik, Parchabof va hokazo. Shuningdek, keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo'lgan, yuqorida zikr etilgan yasama, siyosiy nomlar o'rniga Mirobod, Rakat, Mingo'rik, Darxonariq, Shayxontoxur, Yakkasaroy, Zarqaynar, Uchtepa kabi asl nomlarning tiklanganini, eng muhimi, bunday ishlar mamlakatimizning barcha mintaq va hududlari miqiyosida amalga oshirilayotganini ta'kidlash joiz. Hozirda bunday toponimik o'zgarishlarni yurtimizning barcha viloyatlarida ko'rish mumkin. Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda geografik ob'yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalarini ko'rib chiquvchi, shuningdek, "Geografik ob'yektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablarining bajarilishini nazorat qiluvchi komissiyalar – maxsus organlar tashkil etildi.

#### **Tayanch iboralar:**

Iskandar Zulqarnayn, N. F. Sitnyakovskiy, Maymanak, O. D. Chexovich, Bulung'ur, Zaporozskiy, Nadejdinskiy, Guliston, mustaqillik yillarida joy nomlaridagi o'zgarishlar, "Moskva" mehmonxonasi, Chorsu, qaror va qonunlar, Samarqand, Beshyog'och, Ko'kcha.

#### **Nazorat savollari:**

1. Yunonlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi yurtimiz toponimiyasida qanday iz qodirgan?
2. Arablar bilan bog'liq joy nomlari orasida qanday nomlar nisbatan ko'proq uchraydi?
3. Mustaqillik yillarida O'zbekiston toponimiyasida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
4. Mustaqillik yillarida O'zbekiston joy nomlari to'g'risida qanday qaror va qonunlar e'lon qilindi?

### **TARIXIY TOPONIMIYANING SUBSTRATI – O'ZAGI HAMDA NOM YASOVCHI LEKSEMA – KOMPONENTLARI**

#### **Reja:**

1. Toponimlarning tarixiy imlosi.
2. Geografik nomlarning yozilishi.

**Toponimlarning tarixiy imlosi.** Toponimlar shunday so'zlarki, ular uzoq davr davomida iste'molda bo'lganidan grammatik va fonetik jihatdan o'zgarishlarga uchragan. Ana shu o'zgarishlarning xarakteri haqida tasavvur hosil qilish toponimlarning, aytaylik, bundan bir necha asr oldin qanday talaffuz

qilinganini aniqlashda juda qo'l keladi. Chunki, toponimlarning ko'hna yodgorliklardagi shakli ularning dastlabki holatini aniqlash uchun qo'shimcha material bo'lib xizmat qiladi. Masalan, O'zbekistonda Vohim, Vahim, Uvaqim kabi toponimlar bir necha marta takrorlanadi.

F tovushining turkiy ffillarda harakterli emasligini hisobga olsak, V tovushining so'z boshida kelmasligini, shuningdek, f tovushining p tovushiga, so'ngra b tovushiga, hatto m tovushiga aylanishi munikin ekanligini tasavvur qilsak, yuqoridagi toponimlarning arabcha vaqf ("diniy muassasa ixtiyoriga o'tkazilgan mulk yoki daromad") atamasi ekanligi ayon bo'ladi. Yoki Namangan viloyatidagi Pop shahri arab geograflari asarlarida (XI – XII asrlarda) Bob (arabcha "darvoza") shaklida qayd qilingan. "Boburnoma"dan boshlab esa Pop shaklini olgan va transformatsiyaga uchragan. Andijon shahri esa arab geograflari asarlarida va boshqa ko'hna tarixiy manbalarda Andiyon, Andikon, Andigon shakllarida tilga olingan, Bobur zamonida Andijon deb "turkiy" shakl olgan.

Samarqand shahri yaqinida Samarqand hokimi Gurakning ukasi Ofaran tomonidan bunyod etilgan (VII asr) Ofarinkat shahrining nomi fonetik o'zgarishga uchragan va dastlab Farankat, Frinkent, so'ngra Prinkent, nihoyat Primkent shaklida talaffuz qilinadigan bo'lgan (Oqdaryo tumanidagi hozirgi Primkent qishlog'i). Bunda kat unsurining keyingi asrlarda turkiylashib "kentlahish" jarayoni yaqqol ko'rinadi.

Qashqadaryo viloyatidagi Shahrisabz tarixi manbalarda Kesh shaklida berilgan. Uni Kesh deb o'qishadi. To'g'risi Kash bo'lsa kerak, chunki shaharning epiteti "Kashi – dilkash" bo'lgan.

Yana bir misol. Samarqand bilan Xo'jand shaharlari oralig'idagi tarixiy o'lka arabinavis va forsnavis manbalarda Istaravshan, Osrushona, O'srushona, Sutrushna, Ustrushna, Ustaravshon, Ustrushona, Sutrushana kabi shakllarda qayd qilingan. Eronshunos V. A. Livshits Mug' tepaligidan (Tojikiston) topilgan sug'd hujjatlari (VIII asrning birinchi choragi) asosida o'lkaning asl nomi Strushna ekanligini aniqladi.

Arab geograflari Istaxriy, Ibn Havqal asarlarida Samarqand viloyatining 12 ta rustoqlaridan (dahalaridan) biri Sanjarfagn deb atalgan. Akademik V. V. Bartol'd va tarixchi V. L. Vyatkin o'sha Sanjarvagn toponimi Yangiariq kanalining o'ng tomonidagi Zanjirbog' qishlog'i nomida saqlanib qolgan, degan edi. Vaqf hujjatlarida ham "Sanjarvagn degan joy Zanjirbog' nomi bilan mashhurdir" deyiladi. Bu fikrni tarixchi O. I. Smirnov ham tasdiqlaydi.

Tildagi har qanday tovush o'zgarishlari faqat fonetik tadrijiylik oqibati emas. Til tarixiga oid har qanday asarlardan fonetik qonuniyatlarning buzilishiga, butun bir bo'g'inlar, hatto tarkibiy qismlar (unsur)larning tushib qolishiga, urg'ular o'rning almashishiga oid ko'plab misollar topish mumkin.

Nutqda lisoniy vositalarni tejash qonuniyati toponimiya sohasida ayniqsa yaqqol seziladi.

XI–XII asrlarda Buxoroda biron kishiga qarashli yer asbob deyilgan (bu arabcha so'zning birligi – sabab). XVI–XVII asrlarda yerdan tashqari mulk asbob deb atala boshlagan. Bu so'zning hozirgi ma'nosi (qurol-yarog' yoki buyum) keyingi asrlarda paydo bo'lgan va mazkur atama tarixiy nomlar tarkibida ko'p uchraydi. Chunonchi, Jo'ybor shayxlari (Buxoro) arxivlarida Asbobi Ali Yomchi,

Asbobi Bog'ikalon, Asbobi Ibrohim, Asbobi Kofiron, Asbobi Sho'rcha kabi bir qancha joy nomlari tilga olinadi. Ko'rinadiki, asbob so'zidan keyin bu yer kimning yoki qanday joy ekanligini bildiradigan aniqlovchi bo'lgan. Masalan, Asbobi Kofiron, ya'ni "Kofirlar yeri" kabi. Keyingi asrlarda aniqlovchi so'zi tushib qolib, asbob atamasi toponimga aylangan. Shunday qilib, bunday toponimlar 6–7 asr oldin paydo bo'lgan. Ko'rinadiki, bu o'rinda fonetikaning roli yo'q.

Cho'lda gala-gala bo'lib, uchi yuradigan qorabovur degan qush bor (bag'ri, ya'ni ko'kragi qora bo'lgani uchun shunday deb ataladi; qorabayir zotli ot nomi ham shu so'zdan kelib chiqqan). Qorabovur yoki qorabayir degan urug' ham bo'lgan. Qorabayir nomli qishloqlar shu urug' nomi bilan atalgan. Qorabovur qushi ilgarilari bag'ri qaro ham (masalan, "Boburnoma"da) deb atalgan. Har ikkala tarkibiy qismi o'zbekcha, faqat o'rin almashgan, bag'ri qaro shakli esa tojik tili gramatikasiga xos. Buxoro viloyatida Bag'riqaro degan joy ham bor. So'zlarning tojik tiliga xos o'rin almashuvi toponimikada uchraydi. Masalan, Xorazmning qadimiy poytaxti Kot shahri yaqinida Amudaryodan chiqarilgan katta bir ariq Qorasuv deb atalgan. Shu kanal XIII asr muallifi Ibn al-Asrning arab tilida yozilgan bir asarida Suvqora deb atalgan va kanalning nomi "qora suv" degan so'z deb izohlab ham qo'yilgan.

Komponentlarning almashib turishiga toponimiyadan emas, antroponimiyada ham ko'plab misollar keltirish mumkin: Qo'rg'ontepa – Tapaqo'rg'on, Sar(i)bozor – Bozorboshi, Sariqo'rg'on – Qo'rg'ontagi, Alisher – Sherali, Alibek – Begali, Boy sari – Sariboy va h.k.

Yuqorida qayd qilinganidek, bundan bir necha asr oldin bitilgan yodnomalarda qayd qilingan toponimlar joy nomlarining qadimiy shakllarini bilib olishga yordam beradi. Biroq O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston sharoitida qadimiy qaydlar doim ham toponimlarning dastlabki shaklini aniqlash uchun ishonchli manba bo'lavermaydi. Chunki, Movarounnahrni arablar bosib olgandan so'ng barcha yozma yodgorliklar arab yozuvida yozilgan edi (yunon, sug'd, qadimgi turk va boshqa yozuvlarda ayrim geografik nomlargina qayd etilgan). Xitoy manbalarida mualliflar O'rta Osiyo joy nomlarini o'z tiliga moslab, butunlay buzib yozishgan. Masalan, xitoychada Samarqand Si, Toshkent Shi, Qanguy davlati Yuni shakllarida qayd etilgan.

Samarqand shahri yunon tarixchilari asarlarida Marakanda ko'rinishida yozilgan. Biroq undan keyingi barcha manbalarda bu shahar nomi S harfi bilan boshlangan. Chunonchi, sug'd hujjatlarida bu tarixiy shahar nomi Smarakans deb bitilgan.

Tilni tushunmaydigan kishi so'zni noto'g'ri eshitadi degan fikr bor. Bizning fikrimizcha, yunonlar ham mahalliy so'zlarni, jumladan, nomlarni g'alati eshitishgan va shahar nomini quloqlariga chalinganday, S harfisiz yozishgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda ming yildan ortiq davr davomida barcha yozma yodgorliklar arab yozuvida, ko'p hollarda arab tilida yozilgan. Arab yozuvi turkiy tillarning imlosi ehtiyojlariga to'la javob bermas edi.

Ana shuning uchun ham arab mualliflari, shahar-qishloqlar, daryolar va boshqa geografik ob'yektlarni yozishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yganlar. Masalan, "Arab geografllari kutubxonasi" seriyasiga oid (IX – XI asrlar) mashhur tarixiy geografik asarlarda Movarounnahr, jumladan, O'zbekistondagi bir necha

yuz geografik nom tilga olingan. Boshqa manbalardan farqli o'laroq, bu seriyadagi "Kitob ul-masolik va ul-mamolik" (Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob) nomli asarlar to'plamida (mualliflar Ibn Xurdodbeh, Ibn Havqal, Istahriy, Muqaddasiy asarlari) shahar-qishloqlar, daryo va tog'lar, shahar darvozalari, bozorlar, tarixiy-me'moriy va boshqa yodgorliklarning nomlarida unli tovushlarni berishda zeru zabardan ham foydalanilgan va mahalliy talaffuzni to'g'riroq ifodalashga harakat qilingan. Shunga qaramasdan, joy nomlarining yozilishi milliy talaffuzni to'la aks ettira olgan emas. Nomlarning haqiqiy talaffuzini aniqlash shuning uchun ham qiyinki, arab mualliflari bu nomlarni arabcha talaffuz qonunlariga bo'ysundirishga harakat qilganlar, holbuki arabcha talaffuzda cho'zinchoq unidan so'ng ikki undoshning va qisqa unidan keyin ham uchta undoshning kelishi mumkin emas. Shuning uchun ham Sam'oniyy Sangbad o'miga Sangabad, Surxkat o'miga Surxakat, Sutxon o'miga Sutaxon deb yozishgan. Ko'pgina nomlar tarkibida takror-takror uchraydigan oxirgi qo'shimchalarning talaffuzini aniqlash ayniqsa muhim. Chunki bular turdosh otlar. Sug'dcha joy nomlari tarkibida keladigan varq (to'g'on) so'zi arab geograflari asarlarida varaq deb, fag'an "ibodatxona" so'zi esa fag'an shaklida yozilgan.

Shundan ko'rinadiki, arab mualliflari, hatto arab yozuvida yozgan mahalliy mualliflar ham geografik nomlarni yozishda mahalliy sharoitni, milliy talaffuzni yetarlicha inobatga olishmagan. Bunda turkiy tillar uchun xos bo'lmagan tovushlarni ifodalaydigan harflarning ishlatishi ham rol o'ynagan.

Arab yozuvining katta kamchiliklaridan biri shu ediki, so'zlarni, jumladan, atoqli otlarni yozishda bir qancha hollarda unli tovushlar o'z aksini topmas edi. Masalan, Samarqand harfma-harf o'qiganda, Smrqnd, Buxoro – Bxoro, Farg'ona – Frg'ona shakllarida yozgan. Joy nomlarini yozishda, ayniqsa, u qadar mashhur bo'lmagan geografik nomlarni xatga tushurishda muayyan qonun-qoidalarga amal qilinmas, ko'pgina hollarda har bir xattot o'z bilganicha yozar edi. Buning ustiga topommlarning mahalliy talaffuz shakli inobatga olinmas edi: Qo'qon – Xo'qand, Xuvaknd, Jizzax – Dzak, Zarafshon – Zrfshon, Toshkent – Toshknd, Nayman – Nyman, Quva – Qubo, Tuyamo yin – Tva buyni yoki fuyamuin hoida yozilar edi.

"Arab yozuvi tufayli, – degan edi akademik V.V.Bartold shaharlarning va boshqa ob'yektlarning nomlari tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketadi".

Gap shundaki, sho'rolar davrida (1923-yilda) isloh qilinmasdan oldin bu yozuvda ch bilan i, k bilan g, o' bilan u va v, ye bilan e va hatto i tovushlari bir xil harflar bilan ifoda etilar edi. Shunday qilib, geografik nomlarning yozma shakllari ularning talaffuz o'zgachaliklarini to'la aks ettira olmas edi.

Arab yozuviga ko'proq to'xtalishimizning sababi shundaki, tarixiy toponimlarning ko'pchiligi, arab grafikasida yozilgan edi.

Lotin grafikasiga, keyinroq esa rus alifbosiga o'tilishi bilan ahvol o'zgardi: yer-suv nomlarining yozma shakli ularning talaffuziga yaqinlashdi.

Shunga qaramasdan, geografik, nomlarning, xususan, yirik ob'yektlar nomlarining yozma shakli ko'proq tarixiy an'ana mahsuli bo'lib, mahalliy talaffuzdan hamon yiroqdir. Masalan, andijonliklar o'z shahrini Anjan, namanganliklar Nomongon, farg'onaliklar – Parg'ona, toshkentliklar – Toshkand, nukusliklar – No'kis, termizliklar – Tirmiz, hazoraspliklar – Hazaras deyishadi va hokazo. Bu bejiz emas, albatta. Mahalliy talaffuz zamirida qandaydir tarixiy haqiqat, qonuniyat

yotadi. Yana shuni ham eslatib o'tish kerakki, an'ana shaklini olmagan kichik ob'yektlar nomlarining mahalliy talaffuz shakli ularning imlosi uchun asos hisoblanishi kerak.

Ko'pgina geografik nomlarning o'zbek tilida hozirgi yozilishi tarixiy shakldan farq qiladi. Masalan, Jizzax shahri arab yozuvi bekor qilingunga qadar Dizak deb (to'g'risi ham Dizak "qo'rg'oncha", "qasrcha", "qal'acha"), Xorazm esa Xuvarazm deb, Qo'qon yuqorida aytilgandek, Huqand, Huvaqand shaklida, Sho'rchi, esa Sho'rja, G'uzor shahri nomi Huzor, Chotqol tog'lari nomi Jidg'ol, So'qoq qishlog'i va tog'i So'xox shaklida yozib kelingan va hokazo.

Bekobod shahri qadimda Begovot deb yozilar edi. Begovot nomli qishloqlar O'zbekistonda bir nechta bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bek shaklida talaffuz qilinadigan so'zning to'g'risida asli beg bo'lgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida bu so'z beg shaklida yozilgan. Akademik V. V. Bartol'd ham bu so'zni beg shaklida yozish va talaffuz qilish to'g'riroq deb yozadi. Bu kabi misollar toponimlarning hozirgi o'zbekcha yozilishi mukammal emasligini ko'rsatadi.

Demak, toponimlarning turli davrlardagi o'zbekcha yozma shakllari bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qiladi.

Masalan, arab yozuvidagi manbalarda, jumladan, Xudoyorxon arxivida hozirgi Buvayda qishlog'i – Bibi Ubayda (hijjalab o'qilganda Bibi Abida), Marg'ilon shahri – Marg'inon (harfma-harf o'qilganda Marg'non), Yozyovon – Yoziyobon. Laylakxona – Laklakxona, Yaypan – lyfon, Qaqir – Qqir, Baliqchi – Bliqchi, Nayman – Niyman-Nmin yozilgan.

Respublikamizdagi joy nomlarining hozirgi imlosi ularning an'anaviy shakliga, ba'zan asliyatiga, mahalliy talaffuziga yaqin bo'lsa ham, hamon ultirning imlosi uzil-kesil tartibga solingan deb bo'lmaydi.

Bir qancha hududlarda esa joy nomlaridan ma'no qidirib, yozishga intilish hollari uchraydi. Masalan, turklashgan mo'g'ul qabilasi nomi bilan alaladigan Sulduz qishlog'ini Suvyulduz, Kampirak devorini Kandipirak, Beshog'ochni – Beshyog'och, Begovatni Bekobod, Molguzar tog'ini Morguzar (yonidagi Ilon o'tti darasiga ma'nodosh deb hisoblab), Yalama (Jalama) qishlog'ini ashula nomiga o'xshatib Yallama tarzida yozigh hollari uchraydi.

Shahar, qishloq nomlari, umuman geografik nomlarning o'zbekcha imlosi o'sha davrda hech kimni qiziqtirmagan. Geografik nomlarning ruscha yozuvi haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Shunday qilib, geografik nomlarning ruscha yozilish shakli u yoqda tursin, milliy, o'zbekcha yozilishi ham talaffuzidan jiddiy farq qilardi. Buning asosiy sabablaridan bin shundaki, topografik haritalar, geografik haritalar ham, ulardagi boshqa yozuvlar bilan bir qatorda geografik nomlar ham, aholi punktlari ro'yxati kabi maiumotlar odatda ko'pincha o'zbek tilini yaxshi bilmaydigan kishilar tomonidan rus tilida to'ldirilardi edi. Keyinchalik zaruriyat tug'ilgan paytda ro'yxat o'zbekchaga "tarjima" qilinar edi. Oqibatda mahalliy sharoit hisobga olinmasdan ko'plab xatolarga yo'l qo'yilgan.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek till tarixiy fonetikasining muhim muammolaridan biri shu tillar uchun harakterli bo'lmagan tovushlar (fonemalar)ning o'zaro munosabatidir. Bu o'rinda birinchi galda sug'dcha toponimlar tarkibida



tez-tez uchraydigan tovushlar – tishlar orasidan sirgʻalib chiqadigan s tovushi bilan bogʻliq. Hozirgi vaqtda kat, kent (kand) shaklida uchraydigan formant sugʻd tilida kens (kans) tarzida talaffuz qilingan va “uy”, “qishloq” maʼnolarini anglatgan. Aksari shahar, qishloq nomlari tarkibida keladigan bu qoʻshimcha arabcha-forscha manbalarda arab grafikasida kand deb yozilgan. Arabcha se tovushi sugʻd tilidagi 5 tovushiga aynan toʻgʻri keladi (soʻz oxiridagi harf se). Yuqorida aytilganidek, ana shunday sugʻdcha toponimlar turkiy xalqlar yashaydigan oʻlkalarda kat (ket), kent (kant, kand) shakllarida oʻzlashgan. Biroq bu leksema oxiridagi tovush turdosh otlar taikibidagi d yoki y, shuningdek, t yoki s tovushiga aylangan. Masalan, “oila boshligʻi”, “qishloq oqsoqoli”, “qabila boshligʻi”, “davlat boshligʻi” maʼnolaridagi tojikcha-oʻzbekcha leksema katxudo (sugʻdchasi kasxudo, “uyning xoʻjayini”) yoki “uy bekasi” maʼnosidagi kaybonu, kayvoni (sugʻdcha shakli kasbonu) soʻzlarini eslang. Oʻzbek tilida kasana, kasanachilik (“uyda ishlab berish”) degan soʻzlar bor. Bu soʻzlar ham sugʻdcha kas-kat un-surining oʻzgarish shaklidir. Qiyoslang: lotinchadan kas “kulba”, “qishloq uyi”. “xutor” fransuzcha kasa – “kulba”, italyancha kasa – “uy”, “bino”, “oila”, “roʻzgʻor”, dastlab “uy”, “oila”, “qabila” keyinchalik, “qalʼa”. “qishloq” maʼnolarini bildirgan, qadimiy eroncha (parfyancha) misan (bunda s tovushi tishlar orasida sirgʻalib chiqadi) soʻzi ham xuddi shunday fonetik oʻzgarishjitrga uchragan. Endilikda bu atama mitan, meton kabi koʻpgina toponimlar tarkibida uchfaydi.

Z, d, j, t, y tovushlarining oʻzaro almashishi va munosabati ham toponimda katta ahamiyatga ega. Masalan, Ozoq – odoq – etak – oyoq. Yoki afsonaviy paygʻambar nomi Hizr, bir qancha shevalarda Xidir shaklida talaffuz etiladi. Xidirota, Xidireli, Xidirsho nomli qishloqlarning nomlari ham shu soʻzdan olingan.

Dizak nomining Jizzax shaklini olishi ham ana shu qonuniyat mahsulidir.

Shuni aytish kerakki, joylarga nom qoʻyishda xalq ijodi va jonli til katta rol oʻynaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, geografik nomlarda shevaning izlari sezilarli darajada saqlanib qolgan. Tojikcha “yangi ariq” maʼnosidagi Jui nav toponimi bir joyda Jeynav yoki Jenov shakllarida uchraydi. Yoki ikki suv qoʻshilgan joyi tojikchasiga Duob deyiladi. Bu toponim bir joyda Duob, boshqa joyda Duoba, uchinchi bir xil yerda Dugʻoba yoki Duvova tarzida talaffuz qilinadi. Bu kabi xilma-xilliklarni bartaraf qilish oson emas.

Kitobiy tilda shalola deb yosaladigan geografik atama respublikaning turli joylarida sharilloq, sharildoq sharillovuq, sharlovuq kabi shakllarda talaffuz qilinadi va shu kabi toponimlar hosil qilgan. Respublikada Jarboshi, Yorboshi, Yortepa, Jartepa, Oqjar, Oqyor degan qishloqlar bor.

Bunday nomlar tarkibidagi yor komponenti jar soʻzining shevadagi shakli. Xuddi shuningdek, Bonli – Jilonli, Ilontamgʻali – Jilon tamgʻali, Yoyitma – Jayilma degan qishloqlar bor.

Umuman olganda, atoqli otlar, jumladan antroponimlar, xususan, toponimlarning yozilishi va talaffuzidagi xilma-xilliklar faqat shevalar oqibatigina emas, balki turli tillarga oid leksik birliklarning boshqa lisoniy sharoitlarda qoʻllanishi, ishlatilishi natijasida fonetik va boshqa grammatik jihatdan oʻzgarishi samarasi hamdir. Bunday farqlanishni bir necha turga bolish mumkin. Masalan, arabcha geografik, ijtimoiy atamalar Oʻzbekiston sharoitida transformatsiyaga uchragan.

Namangan viloyatidagi Pop shahri bundan ming yilcha oldin bitilgan yodgorliklarda Bob shaklida bitilgan, "Boburnoma"da Pop (qo'rg'on) shaklida tilga olingan. Arabcha bob – "darvoza" degan so'z (ko'chma ma'noda islom dinini tashviq-targ'ib qilgan mashhur ulamolar ham bob deyilgan). Bob bora-bora Pop shaklini olgan.

Arabcha shayx so'zi (aynan "keksa", "oqsoqol") islom mamlakatlarida ulamolar, ruhoniylarni bildirgan. O'rta Osiyoda shayx deganda ko'proq muqaddas mozorlarda va qabristoalarda sadaqa va nazr-niyoz hisobiga kun ko'radigan ruhoniyalar nazarda tutilgan.

O'zbekiston hududida bu so'z shayx, shix, shex, sheyx shakllarida toponimlar hosil qilgan. Shu bilan birga o'zbeklar, turkmanlar tarkibida shix (shex, shayx) nomli qavm ham bo'lgan. Bu qavm vakillari o'zlarini ulamo shayxlar, xojalar, sayyidlarning avlodlari deb bilishgan.

Arabcha amir so'zi ("lashkarboshi", "amru farmon beruvchi") O'rta Osiyoda mir shaklini olgan. Bu o'z ma'nosidan tashqari O'zbekistonda ijtimoiy guruhni, Turkmanistonda kichik bir guruhni bildirgan va bevosita yoki kishi ismlari orqali amir va mir shakllarida bir qancha toponimlar uchraydi.

Tall atamasi arab tilida "tepalik" degan so'z. O'rta Osiyoda, jumladan. O'zbekistonda, xususan, Zarafshon vodiysida tal, tol shakllarida ko'plab toponimlar hosil qilgan (Tolimarjon, Tollimoron, Tolloqo'rg'on, Tolimarjon, Talaktepa, Toliborzu, Tallak, Tollig'ulon va hokazo). Tal yoki tol deganda tepalik, qo'rg'on-tepa, mozorqo'rg'on tushuniladi.

Arabcha robot (ash ribot) deganda dastlab harbiy istehkomlar tushunilgan. O'rta Osiyoda ikki shahar tashqarisidagi shahar rabod deyilgan (Aslida raboz – zot harfi bilan yozilgan. Keyinchalik bu ikki so'z birlashib ko'proq karvonsaroylarni bildirgan. Robot, Rabotak, Rahotixo'ja, Rabotcha, Ravot, Ravotobod, Ravotcha kabi toponimlar Robot, Robod, Ravot shakllarida uchraydi. Turbat (arabcha – "qabr") toponimining turvat shakli ham uchraydi.

Bu misollar ana shu arabcha atama bilan va tol daraxti nomi bilan atalgan tarixiy toponimlarni farqlash oson emasligini ko'rsatadi.

**Geografik nomlarning yozilishi.** Toponimlar geografik haritalar va planlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda talay toponimlar qonuniy hujjatlarda, hukumat qarorlarida, ma'muriy boshqaruv organlari faoliyatida, transport, aloqa ishlarida, xilma-xil ma'lumotnomalarda, ilmiy, ta'lim, axborotga oid va boshqa nashrlarda ko'plab uchrab turadi.

Geografik nomlarni nuqsonsiz to'g'ri yozish umumiy imloviy savodxonlikning uzviy bir qismidir.

Geografik nom – toponim ham so'z, lekin biron ob'yektni ifodalaydigan atqli ot. O'zbekiston hududidagi barcha geografik nomlar o'zbek tili imlosining amaldagi qoidalari asosida yoziladi.

O'zbek tilida ikki va undan ortiq so'zlardan (turdosh otlardan) iborat (murakkab) geografik nomlar qo'shib yoziladi. Bunga misollar keltiramiz.

Ot+ot. Abdiqishloq, Qorovulbozor, Qumgo'rg'on.

Sifat+ot. Yomonjar, Mamaqishloq, Qiziljar, Qoratog', Uzunsoy, Sovuqbuloqchi, Torariq, Egriko'l.

Son+ot: Beshbuloq, Qo'shrabot, Yolg'iztol, Mingchuqur, Qo'shko'prik, To'qsonkamar, O'ttizadir.

Ot+fe'l; Soykeldi, Qo'yqirilgan, Tangatopdi, Qozonketgan.

Birinchi tarkibiy qismi sifatdan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: Balandmachit, Balandravot, Oyoqishloq, Oqqo'rg'on, Oqtapa, Ko'kbuloq, Ko'kgumbaz, Sarisuv, Sariqtepa, Qizilsuv, Qizilsoy, Qizilqum, Yuqoriovul, Etakovul, Quyimahalla, O'rtachek, O'rtasaroy kabi yoziladi.

Birinchi tarkibiy qismi sondan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda Beshariq, Beshayvon, Yolg'izbog', Yolg'izqum, Yakkasaroy, Yakkatol shaklida yoziladi.

Birinchi tarkibiy qismi tartib sondan, ikkinchi qismi geografik atamadan iborat bo'lgan hollarda Ikkinchisolma, Yettinchiqo'tir shaklida yozish maqsadga muvofiqdir.

Geografik nomlar quyidagi hollarda qo'shib yoziladi:

O'zbek tilida ikki va undan ortiq so'zlardan iborat qo'shma (murakkab) geografik nomlar qo'shib yoziladi.

Ot+ot: birinchi tarkibiy qismi kishj ismi (familiyasi)dan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: Abdiquishloq, Shofayziquloq, Rahimobod, Ismoiltepa.

Ot+ot: birinchi tarkibiy qismi etnonimdan, ikkinchi tarkibiy qismi esa geografik atamadan iborat bo'lganda: Naymanqishloq, Do'rmonariq, Qozoqovul, Yobuqo'rg'on, Arabband, Ka'rpamahalla.

Ot+ot: har ikkala tarkibiy qism ham atamalardan – geografik va jtimoiy-iqtisodiy atamalardan iborat bo'lganda: Qumqo'rg'on, Bozorjoy, Qorovulbozor, Toshbuloq, Qumquduq, Sharloqsoy (sharloq, sharilloq-sharshara):

Sifat+ot: birinchi tarkibiy qismi sifatdan, ikkinchi qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: Balandmachit, Balandravot, Bo'laksuv, Kattabuloq, Kichikqishloq, Yangibozor, Oyoqbog', Oqqo'rg'on, Ko'kbuloq, Sarisuv, Eskiquduq, Tozayop, Qiziljar, Qoratog', Uzunsoy, Sovuqbuloq, Torariq, Egriko'i, Sho'rquduq, Yuqoriovul, Etakmahalla, Pastqishloq.

Son+ot: birinchi tarkibiy qismi sondan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: Beshbuloq, Yolg'izqum, Yakkasaroy, Qo'shrabot, Qo'shko'prik, Mingchuqur, To'qsonkamar, O'ttizadir kabi.

Ikkinchi tarkibiy qismi o'simlik yoki hayvon nomidan iborat bo'lganda: Qo'shtol, Beshqayrag'och, O'narcha, Beshechki, Yolg'iztol.

Quyidagi hollarda ajratib yoziladi:

Geografik nom oldida qandaydir sifat kelganda:

- a) Katta Oqtapa, Katta Beshkapa, Katta Qorabog', Katta Naymancha;
- b) Kichik Aravon, Kichik Qo'rg'oncha, Kichik Amirobod, Kichik Toshloq, Past Olaqarg'a, Past Oqqo'rg'on, Past Burqut, Past Sho'robod;
- d) Pastki Oyoqchi, Pastki Qoraqiya, Pastki Sariqamish, Pastki Uyshun;
- e) Quyi Janafar, Quyi Beshravot, Quyi Sho'robot, Quyi Navmetan;
- f) Eski Haytobod, Eski Elbayon, Eski Xo'jaobod, Eski Haqqulobod;;
- g) Etak Boybo'ta, Etak Saroy, Etak Oqqo'rg'on, Etak Qoramozor.
- h) O'rta Qorabog', O'rta Rahimobod, O'rta Sho'rchi, O'rta Saydov;
- i) Yuqori Arabxona, Yuqori Olot, Yuqori Qoraqiya, Yuqori Jirmiz;

j) Yangi Naynova. Yangi Baliqchi. Yangi Gulbog', Yangi Mirishkor.

Kishilarning ism-familiyalaridan, taxalluslaridan iborat geografik nomlar alohida (ayrim holda) yoziladi: Kimyoxon Xo'jayeva, Parda Tursun, Usmon Yusupov, Hamza Hakimzoda, Alisher Navoiy ko'chasi Habib Abdullayev ko'chasi kabi.

General Uzoqov ko'chasi, Buyuk Ipak yo'li bekati, O'zbekistonning besh yilligi, Istiqlolning o'n yilligi shirkat xo'jaliklari kabi ko'p so'zii nomlar ayrim-ayrim yoziladi.

Quyidagi hollarda qo'shtirnoq ichiga olinadi:

Zavod-fabrikalar, shirkat xo'jaliklarining, firmalarning nomlari qo'shtirnoq bilan yoziladi: "Toshkent" shirkat xo'jaligi, "Zomin" jamoa xo'jaligi, "Malika" fabrikasi.

Geografik ob'yektlarning, matbuot organlarining nomlari bilan atalgan toponimlar haritalarda qo'shtirnoqsiz yoziladi: O'zbekiston ovozi gazetasi, ko'chasi, Movarounnahr ko'chasi.

Sonlar bilan yozilish tartibi:

Geografik nomlar tarkibiga kirgan tartib sonlar nomining oldida birinchi o'rinda so'z bilan yoziladi: Yettinchi qo'tir (ruscha xutor so'zidan). Beshinchi brigada kabi.

Geografik atamalar.

Geografik ob'yektning turini bildiradigan so'zlar geografik atamalar hisoblanadi. Masalan, kol, cho'l, tog', adir, ariq, oral, quduq, muztik, botqoqlik, qirg'oq, sharshara, qir, botiq, vodiy, soy, kanal, tekislik va b.

Geografik atamalar turdosh otlar bo'lganida geografik nomdan keyin kichik harflar bilan alohida yoziladi.

Geografik atamalar toponimlar tarkibiga kirganda qo'shib yoziladi va shu geografik nomlardan keyin yana takrorlanishi mumkin: Qora-tog' tog'i, Oqtepa tepaligi, Sirdaryo daryosi, Kattaqishloq qishlog'i, Oqkon koli, Tandirqum qumligi kabi.

Haritalarga aholi punktlarining nomlari yonida ularning turlarini bildiradigan so'zlar (shahar, qishloq, ovul, shaharcha va boshqa) yozilmaydi.

Davlat hokimiyat organlari va o'z-o'zini boshqarish organlarida, aloqa, transport, statetika muassasalari, ommaviy axborot vositalarida, geografik haritalar va atlaslarda hamda boshqa nashrlarda, shuningdek, iqtisodiyot, fan, madaniyat, jamoat birlashmalari xodimlari, yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan har qanday geografik nom – toponimning qat'iy bir shaklda, standartlashtirilgan holda yozilishiga erishish davlatning suverenligini ko'rsatuvchi dalillardan biridir. Boshqacha qilib aytganda, har bir geografik ob'yekt nomining rasmiy va umumiste'molda bir xilda yozilishini qat'iy lashtirish, qonunlashtirish geografik homlarni standartlashtirish deyiladi.

Agar bunday vazifa birgina davlatning manfaatini ko'zlab bir til (ko'p millatli davlatda bir necha til) vositasida amalga oshiriladigan bo'lsa, bu geografik nomlarning milliy standartlashtirilishi deb yuritiladi. Bordi-yu bu ish xalqaro aloqalar tobora avj olayotgan hozirgi davrda ayni vaqtda bir necha davlatning mushtarak manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilsa, o'z-o'zidan

geografik nomlarning xalqaro standartlashtirilishi vujudga keladi. Bunda ham xalqaro standartlashtirish milliy standartlashtirishga asoslanadi.

Hozirgi vaqtda geografik nomlarni milliy standartlashtirish rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida amalga oshirilmoqda. Ko'pgina mamlafatlarda davlat kartografiya xizmatlari (chunonchi, mahkamalararo geografik nomlar komissiyasi) ishlab turibdi. Geografik nomlarni standartlashtirish muammolari milliy tashkilotlarninggina emas, balki xalqaro ilmiy va hukumatlararo tashkilotlarning ham diqqat-e'tiborini tobora ko'proq o'ziga jalb qilmoqda. Xalqaro onomastika fanlari komiteti (IGOS), Xalqaro fonetika assotsiyatsiyasi (IPA), Antarktikani o'rganish Ilmiy komiteti (SOAR), Xalqaro gidrografiya tashkiloti (IHO), Xalqaro fuqarolar aviatsiyasi tashkiloti (IGAO), Jahon pochta uyushmasi (UPI), Xalqaro aloqa uyushmasi (ITV), Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) ana shular jumalasidandir.

Keyingi yillarda geografik nomlarni standartlashtirish muammolariga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) katta ahamiyat bermoqda. BMT tomonidan chaqirilgan va geografik nomlarni standartlashtirishga bag'ishlangan bir necha konferensiya, BMTning geografik nomlar bo'yicha Ekspertlar guruhlari faoliyati shuning dalilidir.

Ma'lumki, uzoq vaqtlar mustamlaka bo'lib kelgan va mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan bir qancha mamlakatlarda geografik ob'yektlarning nomlari topografik kartalarda metropoliyalardan kelgan mutaxassislar va topograflar tomonidan aniqlangan shakllarda muhrlanib qolgan edi. Mustamlaka qaramligidan ozod bo'lgan mamlakat xalqlarining milliy ongi, madaniyatining o'sishi oqibatida geografik nomlarning milliy talaffuz va yozilish shakllarini tiklash jarayoni boshlandi. Chunki toponimlarning milliy doirada tan olingan shakllari xalqaro iste'mol uchun tavsiya etiladi.

Respublikamizda ham bu ishga qo'l urildi. Mamlakatimizda birinchi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Bosh boshqarmasi (O'zgcodexkadastr)ning Geoinformatika va kadastr milliy markazi Toponimika laboratoriyasi Respublikamiz geografik ob'yektlarining standartlashtirilgan, qat'iylashtirilgan nomlar lug'atini yaratish ustida ishlamoqda.

Chunki O'zbekistonning geografik nomlari ilmiy manbalarda ham, rasmiy hujjatlarda ham, biron marta ham milliy shakllarda to'laroq raqamlangan emas. To'g'ri, geografik nomlar borasida bir qancha tarixiy, lisoniy, rasmiy manbalar ma'lum. Chunonchi, Turkiston, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududi joy nomlari ko'hna yodnomalarda ham qayd qilingan. Masalan, IX – X asrlarda yashab ijod etgan, shu diyorda ham bo'lib o'lkaning bir qancha geografik nomlari haqida malumotlar bergan, arab geograflari Ibn Xurdodbeh (820-913), Ibn Havqal (tug'ilgan yili noma'lum – 976-yilda vafot etgan), Istahriy (850-934-yillar), Muqaddasiy (946-1000) va boshqalarning 8 jildli "Arab geograflari kutubxonasi" nomi bilan mashhur asarlari, eronlik olim Rashid ad-dinning (1247-1318) "Solnomalar majmui", noma'lum muallifning "Hudud ul-olam" (982- 983-yillarda bitilgan), Narshaxiyning "Buxoro tarixi" va bir qancha tarixiy asarlar shular jumlasidan.

XIX asr oxirida arab alifbosida bitilgan va talay geografik nomlarni o'z ichiga Zarafshon vodiysi shahar va qishloqlari ro'yxati alohida diqqatga sazovor. Biroq arab imlosida raqamlangan yozma yodgorliklarni fonetik jihatdan ishonchli manba deyish qiyin. Chunki eski arab yozuvida ba'zi bir qisqa unli tovushlar va o'zbek tili uchun xarakterli bo'lgan ayrim undoshlar (masalan ch, p tovushlari) o'z aksini topmagan.

Lotin alifbosining qabul qilinishi (1929-1930), keyinroq (1940) rus yozuviga o'tilishi bilan ahvol butunlay o'zgardi, joy nomlarining yozuv shakllari ularning taiaffuziga ancha mos kela boshladi

Barcha turdagi geografik nomlar rus tilidagi topografik haritalarda deyarli to'liq o'z aksini topgan edi. Biroq rus topograflari o'zbek tilini bilmaganlaridan nomlarni ko'pincha o'z tili qoidalariga moslashtirishga harakat qilganlar. Oqibatda talay geografik nomlar geografik haritalarda buzib qayd qilingan. Masalan, Kirakash ruscha Karakash deb yozilgan, bu o'zbekchaga qayta Qoraqosh shaklida "tarjima" qilingan. Yoki olaylik, Qorasuv nomli soylar, ariqlar, buloqlar O'zbekistonda juda ko'p. G'orasuv bir o'rinda ruschada Karasu o'miga Karasi bo'lib ketgan. natijada buni baliq nomidan olingan bo'lsa kerak degan taxmindan Karas qilib o'zgartirishgan. Ba'zan joy nomlarini milliyalashtirish o'miga buzish hollari ham uchraydi. Farg'ona shahri yaqinidagi bir qishloq nomi Qo'qon xonligi arxivlarida arab yozuvida Kirgili, Kirgil shaklida qayd qilingan. Keyinchalik shu qishloq o'mida paydo bo'lgan shaharcha Qirguli deb yoziladigan bo'ldi.

Respublikamizda qabila nomi bilan atalgan Sirgali, Sirgeli degan qishloq, ovul, mahallalar uchraydi. Toshkent shahridagi Sergeli mahallasining Sirg'ali deb atalishi noo'rin.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, Respublikamiz hududidagi minglab geografik ob'yektlarning nomlarini standartlashtirish oson ish emas. Buning uchun mamlakatimiz hududidagi jamiki geografik nomlarni to'plab muayyan til qonun-qoidalariga asosida qat'iyalashtirish kerak bo'ladi.

Toponimika laboratoriyasida keyingi yillarda 1:1000000, 1:500000 va 1:200000 mashtablardagi topografik haritalarda uchraydigan barcha geografik nomlar qog'oz kartochkalarda va kompyuter xotirasida hisobga olindi. Ana shu axborotlarda geografik ob'yektning o'mi, turi, nomining davlat tilida kirill va lotin yozuvlaridagi shakllari aniqlandi. Bu esa Respublikamizdagi yirik ob'yektlar nomlarining qat'iyalashtirilgan shakllari yuzasidan davlat hokimiyati organlari va kartografik korxonalarining ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi.

Yaqin yillarda 1:100000 mashtabdagi topografik harita varaqalarining geografik ob'yekt nomlari, so'ng 1:50000, mashtabdagi topografik kartalarining geografik nomlari borasida ma'lumotlar jamlanadi.

Shunday qilib, Geografik nomlarning avtomatlashtirilgan davlat katalogi vujudga keladi. Bunday katalogni yaratish jaiayonida uning axborot, dasturiy va texnikaviy ta'minotlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Axborot ta'minoti deganda hujjatlarning ko'rsatkichlari, axborot kodlari va geografik nomlarning majmuyi, shuningdek, ularni uyushtirish, saqlash va nazorat qilish usullari tushuniladi.

Dasturiy ta'minot katalogning bekamiko'st ishlab turishiga imkon beradigan dasturiy vositalarni o'z ichiga oladi.

Texnikaviy ta'minot axborotlarni kiritish. saqlash va qayta ishlashga mo'ljallangan va bir-biriga ulangan texnikaviy vositalar, jumladan, eng yangi kompyuterlar yig'indisi nazarda tutiladi.

Geografik nomlarning yozilish shakllarini standartlashtirish, ya'ni harita, atlas, rasmiy hujjatlar, ilmiy asarlar, darsliklar, matbuot organlarida bir xilda yozilishini ta'minlash mamlakatimiz tarixida birinchi bor amalga oshirilayotgan o'ta qiyin va mas'uliyatli vazifa.

Bu ishning qiyinligi shundaki, necha minglab joy nomlari shaklida uchraydigan yoki ularning tarkibida keladigan ijtimoiy-iqtisodiy, geografik atamalar, o'simliklar va hayvonlar, urug'-aymoq nomlari, hatto kishi ismlari ham turli joylarda turlicha fonetik, semantik shakllarda muhrlanib qolgan. Boz ustiga toponimlar tarkibidagi qadimiy so'zlar hozirgi vaqtda butunlay tushunarsiz bo'lib qolgan.

Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ilmiy, madaniy, turistik aloqalar o'rnatayotgan ekanmiz, yurtimizdagi geografik nomlarning milliy shakllarini, o'zbek tilida va yangi yozuvimizda yetkazish kerak bo'ladi.

#### **Tayanch iboralar.**

V. A. Livshits, Ibn Xurdodbeh, Ibn Havqal, Istahriy, Muqaddasiy, "Arab geograflari kutubxonasi", Kofiron, Qorabovur. "Qutadg'u bilig", shayx, Geografik nomlarning yozilishi, Geografik atamalar, Kartografiya va davlat kadastr Bosh boshqarmasi (O'zgeodezkadastr)ning Geoinformatika va kadastr milliy markazi Toponimika laboratoriyasi.

#### **Nazorat savollari.**

1. Tall atamasi qo'shilgan joy nomlari yurtimizning qaysi hududida ko'proq uchraydi?
2. Rabot atamasi qo'shilgan joy nomlari yurtimizning qaysi hududida ko'proq uchraydi?
3. Geografik nomlar qanday hollarda qo'shib yoziladi?
4. Geografik nomlar qanday hollarda ajtarib yoziladi?

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ETNONIM, ORONIM VA GIDRONIMLARI**

#### **Reja:**

1. O'zbekiston etnonimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
2. O'zbekiston oronimlari.
3. O'zbekiston gidronimlari.

**O'zbekiston etnonimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.** O'zbek xalqi barlos, nayman, saroy, qo'ng'iro't kabi urug'-qabilalar o'z navbatida, bir qancha to'p, tira, shox, avlod, qavm kabi tarmoqlarga bo'linadi. Ana shu har bir bo'limning o'z nomi bor. To'p, to'par, shox, tira, jamoa, toifa, avlod, qavm, urug', qabila, elat, xalq, millat nomlari etnonimlar deyiladi. Etnonim yunoncha etnos – "xalq" va onim – "nom" so'zlaridan tarkib topgan. Etnonimlar mazmuni etnonimiya, etnonimlarni o'rganadigan fan etnonimika deyiladi.

Etnonimlar etnonimika. etnografiya. tarix. tilshunoslikning hali yaxshi o'rganilmagan sohasi bo'lib. xalqlar. millatlar etnogenezini yanada chuqur tahlil qilishga katta yordam beradi.

Har qanday etnonimning o'z ma'nosi bor. Ba'zi bir etnonimlar juda qadimiy so'zlar bo'lganidan ma'nosini tushunish qiyin. Odatda xalqlar, millatlar, shuningdek, qabilalar, yirik urug'larning nomlari qadimiy bo'ladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq kabi millat nomlari, qo'ng'iroq, mitan, qangli, qipchoq, uyshun, qarluq, xalaj kabi urug'-qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari ilmiy asosda uzil-kesil hal qilingan emas. O'zbek – “o'ziga bek”, qirg'iz – “qirg qiz”, qozoq – “qo-choq”, mitan – “mo'ytan” (serjun), qangli – “qanqli” (aravali), qorluq – “qorliq” (qorda qolgan), xalaj – “qol och” (och qolgan), qalmoq – “chetda qolgan” (islom diniga kirmay qolgan) degan ma'noni bildiradi deyish g'ayriilmiy, asossiz izohdir.

Kishilar bir necha ming yillar davomida ayrim-ayrim holda urug' bo'lib, keyinchalik esa hududiy-dialektal umumiylik hosil qilib, qabila-qabila bo'lib yashaganlar. “Odam”, “inson”, “o'zimizning kishilar” kabi ma'nolarni anglatgan ar (er), man (men) kabi etnonimlar ana shu qadim davrlarda paydo bo'lgan. Bir qancha etnonimlar chindan ham “odam”, “rostakam inson” degan ma'nolarni bildiradi. Masalan, udmurtlar (janubiy udmurtlar) tarixiy manbalarda ar “odam” shaklida tilga olingan. Tatar, hazar, arlat, ag'ar, majar, mishar, avar, bulg'or kabi xalq va qabila nomlari tarkibidagi ar (er), ir qo'shimchasi eroniy tillardan birida “odam” degan ma'noni bildirgan va keyinchalik turkiy tillarga o'tgan. Ariy (oriylar), iron (osetinlarni bir qabilasi) va hatto Eron so'zlari ham o'sha ar (ir) “odam” so'zidan tarkib topgan bo'lsa ajab emas. Turkman, qaraman, aqman, sarman, quman kabi etnonimlar tarkibidagi man qo'shimchasini olimlar ayrim hind-yevropa tillaridagi man – men “odam” so'zidan kelib chiqqan, deydi.

Shu bilan birga bir qatorda ko'pgina etnonimlarning kelib chiqishi, etimologiyasi hamon ma'lum emas. Masalan, “o'zbek” so'zining kelib chiqishi to'g'risida turli fikrlar bor. Ko'pchilik olimlar ko'chmanchi o'zbeklar Oltin O'rda xoni O'zbekxon (1312 – 1340) ismi bilan atalgan deyishadi. Holbuki, O'zbekxon Oltin O'rda (Ko'k O'rda) da xonlikka ko'tarilgan, o'zbek atamasi esa Oq O'rdada paydo bo'lgan. Ya'ni XIV – XV asrlarda O'rta Osiyo tarixchilari Oq O'rdaning barcha turk-mo'g'ul qabilalarini o'zbeklar deb atashgan. Bundan tashqari, O'zbek ismi O'zbekxondan oldin bitilgan asarlarda ham uchraydi. Demak, o'zbek etnonimi O'zbekxon ismidan kelib chiqqan, degan fikr to'g'ri emas. Bu so'z “o'zi bek” degan ma'noni bildiradi, deyish ham ilmiy dalil emas. O'zbek o'z (uz) qabilasi nomi bilan bog'liq degan fikr ham isbot talab. Umuman, hozircha “o'zbek” so'zining etimologiyasi ham aniq emas.

Boshqa ko'pgina turkiy xalqlar kabi o'zbek xalqi ham qabila-urug'lardati tarkib topgan. Akademik V. V. Bartol'd so'zlariga qaraganda, dastlab 32 o'zbek urug'i bo'lgan. Lekin XVI asrdayoq farg'onalik Mulla Sayfiddin Axsikandiy “Majmuat – tavorix” asarida 92 o'zbek urug'i (elatiya) ni tilga olgan. XIX asrning 60 – yillarida bitilgan “Tuhfatit-tavorixi xoniy” qo'lyozmasida ham (muallifi farg'onalik Mulla Avaz Muhammad Attor) o'zbek urug'larini 92 ta deb ko'rsatilgan. N. Xanikov o'zining “Buxoro xonligi tasviri” kitobida (1843-yil) 97 o'zbek urug'ining ro'yxatini keltirgan.



O'zbek urug'lari nomlari (etnonimlar) ning o'ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ham eng qadimiy sanaladi. Ular majusiylar davrida paydo bo'lgan. Urug'larning muqaddas hayvonlari (totem) bo'lib, kishilar o'zlarini shu hayvondan tarqalgan, deb hisoblaganlar. Masalan, jifondi (ilonli), jilontamg'ali (ilontamg'ali), qulon, oqbura, qorabura, (bura, buvra, bug'ra – bichilmagan erkak tuya), qarg'a, shag'al (shaqal – chiyabo'ri), echki. ho'kiz etnonimlari shular jamlasidandir. Hayvon nomlari bilan atalgan etnonimlar ba'zan shu urug' ajdodining laqabi ham bo'lishi mumkin.

Ko'pgina etnonimlar urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Ya'ni har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Masalan, mollarini, otlarini boshqalarnikidan farq qilish uchun tamg'alab qo'yishgan. Bolg'ali, kosovli, qaychili, taroqli, cho'michli. qirg'ili kabi urug'larning tamg'alari shaklan ana shu uy-ro'zg'or asboblarga o'xshash bo'lgan. Etnonimlar orasida kishi ismlari ham uchraydi: amir – temir. bo'ronboy, jalmat, ollaberdi, fozil, chig'atoy; joy nomlaridan kelib chiqqan etnonimlar ham bor: beshqo'ton, buloqboshi, soylik, urganji, qayirma, qorabuloq, sharqiyalik (Shohruhiyalik – Shohruhiya – Ulug'bekning otasi Shohruh nomi bilan atalgan shahar nomidan) va boshqalar. O'zbek etnonimlarini semantik jihatdan bir necha guruhga bo'lish mumkin. Chunonchi, biron kasb-hunar nomi bilan yuritiladigan etnonimlar: qirsadoq (sadoq – o'qdon), iyarchi (egarchi – egarsoz), gilambosli – (gilam to'quvchi), sayot – (sayyod - ovcbi), tulkicili, zargarlik, mirishkor, po'latchi va boshqalar.

Kattami-kichikmi, har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman toponimiyasidan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. O'zbekistonda etnotoponimlar juda katta o'rin tutadi.

O'zbekiston urug'chilik qoldiqlari yaqin vaqtlargacha ham mayjud bo'lgan va har bir urug' yoki uning tarmoqlari yashagan qishloq o'sha urug' yoki shoxning nomi bilan atalgan.

Manbalarda 92 o'zbek urug'i bor deb qayd etilgan. Bundan tashqari, har bir urug' o'z navbatida yanada mayda guruhlarga bo'linib ketadi. Etnograf K. Shoniyo zovning ta'kidlashicha, birgina qo'ng'iroq urug'i 200 dan ortiq kichik shox – to'plarga ajralib ketadi.

Shunday qilib, o'zbek millati turli qabila va urug'lardan tarkib topgan. Bu qabilalardan turklar qabilasi Xonaqodaryo havzasida, Kofirnihonning yuqori oqimida, Qizilsuv, Yaxsuv daryolarining vodiylarida hamda ularning irmoqlari bo'ylarida, Qoradaryo vodiysida, Surxondaryoning yuqori va o'rta oqimlarida, Buxoro yaqinida esa Shahrud kanali bo'yida, Samarqand atrofidagi tog'larning etaklari hamda yonbag'irlarida yashagan. Turklarning ancha qismi Andijon viloyatining Xo'jaobod va Marhamat tumanlari, O'sh viloyatinitg Aravon rayonida, O'ratepa atroflarida, Qashqadaryo vodiysidagi O'radaryo bo'ylarida, Sheroboddaryo atroflaridagi tog'larda yashab kelganlar.

Movarounnahr turklarining talay qismini qarluqlar tashkil etgan. Ular Surxondaryo bo'ylarida, Qoratog'daryoning bo'ylarida, Kofirnihon, Vaxsh vodiylarida, Yovonsuv boshlarida, Vaxsh bilan Qizilsuv oralig'ida, Ko'lob vodiysi hamda Panj daryosining o'ng sohilida, Qashqadaryoning quyi oqimida, Zarafshonning quyi oqimida (Shahrud kanali bo'ylarida) yashashgan.

Barlos – o‘zbek qabilalaridan biri. Barloslar Respublika hududida ko‘chmanchi o‘zbeklardan (XV – XVI asrlardan) oldin yashab kelgan qabilalardan biridir. Hozirgi paytda barloslarning avlodlari Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida yashaydi. Barlos so‘zi Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon fikricha “qo‘mondon”, Alisher Navoiy asarlariga yozilgan “Badoye ul-lug‘at”ga ko‘ra, “bahodir” degan ma‘noni bildiradi.

Kaltatoylar – Surxondaryoning yuqori va o‘rta oqimlarida, Nurota va Molguzar tog‘lari yonbag‘irlarida, Turkiston tog‘lari etaklarida, Qashqadaryo vodiysidagi Kitob shahri atroflarida istiqomat qilganlar.

Musobozorlar – Hisor vodiysida, Hisor tog‘larining shimoliy yonbag‘irlarida (Xonaqodaryo va Qoratog‘daryo havzalarida), Qashqadaryoning bosh tomonidagi Forob, Denov, Sumsar qishloqlari atroflarida, ulardan pastroqda – Miraki qishlog‘i yaqinida ham yashashgan.

Mo‘g‘ullar kamroq bo‘lib, Panj daryosining o‘ng sohilidagi Chubak qishlog‘i atroflarida, Jilg‘asoy vodiysida o‘rnashib qolganlar. Hisor vodiysida. Janubiy Turkistonning ba‘zi bir joylarida ham mo‘g‘ul qishloqlari unda-bunda uchraydi. Mo‘g‘ullarning ko‘pchilik qismi Shimoliy Afg‘onistonda ham mavjud.

Qo‘ng‘irotlar – Amudaryo bo‘ylarida, Qashqadaryo, Surxondaryo vodiylarida yashab kelganlar. Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand, Buxoro, Qorako‘l vohalarida ham yakkalanib qolgan qo‘ng‘irot urug‘i guruhleri bor.

Mang‘itlar – Zarafshon vodiysida, qisman esa Xiva xonligida, so‘ngra Qarshi vohasida. shuningdek Amudaryoning chap sohilida – Chorjo‘y yaqinlarida yashab kelgan. Mang‘itlar bir qancha yirik va mayda urug‘larga bo‘lingan. Eng yirik urug‘lar: oq mang‘it, qora mang‘it, och mang‘it, chala mang‘it, boyg‘o‘ndi mang‘it. Bulardan tashqari, yana temirxo‘ji, isoboy, gavlak, ko‘sa, toz, qorabayir, baqirchi, kula, tamg‘ali mang‘it, qozoq, o‘n ikki, cho‘qay, gala-botir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay kabi urug‘lar ham bo‘lgan.

Naymanlar – Zarafshon vodiysida. Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand atroflarida, shuningdek, Buxoro va Karmana vohalarida o‘rnashib qolganlar. Xiva vohasi va Farg‘ona vodiysida ham bir oz miqdorda naymanlar bo‘lgan.

XIX asr oxirlarida naymanlar 3 ta yirik urug‘dan iborat bo‘lgan. Bular – qo‘sh tamg‘ali, sadirbek va uvox-tamg‘ali. Ulardan tashqari nayman qabilasi ag‘ran, ayronchi, badir, biya, bog‘onali, boltali, bo‘qalay, burunsov, jag‘albayli, jastavon, jilonli (ilonli), jumaloq-bosh, oltio‘g‘il, oqto‘nli, po‘lotchi, segizuruv, sarinayman, to‘rttuul (to‘rto‘g‘il), to‘rt tamg‘ali, urguch, ukrash, changali, cho‘michli, g‘ozoyoqli, qoranayman, qoragadoy, qorasirak, qarg‘ali, qiltamg‘ali, qoltamg‘ali kabi tarmoqlarga ham bo‘lingan.

Saroylar – Buxoro, Karmana, G‘ijduvon, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand va Jizzax atroflarida, Qarshi, Shahrisabz vohalarida, qisman Farg‘ona vodiysida yashagan. Saroylar tarkibida bir qancha katla-kichik qabilalar bo‘lgan: azsaroy, qipchoqsaroy, qirg‘izsaroy, qo‘ng‘irotsaroy, majarsaroy, qorabog‘saroy, naymansaroy va boshqalar. Bularning har bin o‘z navbatida yana bir qancha urug‘larga bo‘lingan.

Kenagaslar – Shahrisabz, Buxoro, Karmana, Denov vohalarida, laqaylar Kofirnihon, Vaxsh, Qizilsuv havzalarida zich yashaganlar. Kenagaslar ochamayli, kirey, abak kirey, ovoqli, taroqli, chuyut, qayri soli kabi kichik qabila va

urug'larga: laqaylar esa esonxo'ja, bodroqli, bayram, to'rtovul kabi urug'larga (bo'laklarga) bo'lingan.

Qatag'onlar birmuncha keng maydonda – Farg'ona vodiysining Namangan bilan Qo'qon shaharlari orasidagi tumanlarida o'rashib qolganlar. Qatag'onlarning asosiy qismi Ko'hitang tog'larining sharqiy yonbag'irlarida, Sherobodaryo havzasida, Surxondaryoning o'ng sohilida, Vaxsh daryosi etaklarida, Panjning o'ng sohilida va Yaxsuv vodiysida g'uj yashagan. Qashqadaryo havzasida, Zarafshon etaklarida, Buxoro hamda Karmana yaqinlarida ham qatag'anlar bo'lgan. Shimoliy Afg'onistonda ham talay qatag'anlar yashaydi.

Qipchoqlar – Samarqand bilan Kattaqo'rg'on o'rtasidagi tumanlarda, Amudaryoning o'ng sohilida, Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy qismlarida o'troqlashib qolganlar. Quramalar – Ohangaron havzasida, Andijon bilan Namangan orasida turib qolganlar.

Bulardan tashqari, O'zbekistonning turli joylarida qirq, yuz, ming, qo'shchi, tuyoqli, qovchin, qang'li, daemon, yurchi, chimboy, mitan kabi ko'plab urug'lar bor.

Respublikaning turli tumanlarida ko'chmanchi o'zbeklarning o'troqlikka o'tishida farq bo'lgan. Masalan, Zarafshon vodiysida bir xil urug' yoki to'p, shox nomlari bilan ataladigan mayda qishloqlar juda ko'p. Buning sababi shuki, Xiva xonligiga qarshi o'laroq, Buxoro xonligida ko'chmanchilar butun urug'i bilan emas, balki kichik-kichik bo'laklarga bo'linib o'troqlikka o'tishgan. Buxoro xonligida beklklarga nom bergan yirik shaharlar orasida urug' nomi bilan atalgan bironta ham shahar yo'q, holbuki Xiva xonligida bunday shahar uchta – Mang'it, Qipchoq, Qo'ng'iroq, V. V. Bartol'd bu shaharlarning paydo bo'lishiga Xiva xonligida urug'chilikning kuchli bo'lganligini sabab qilib ko'rsatadi va ular jumlasiga Nukus shahrini ham qo'shadi.

Etnonimlarni bilmasdan turib, O'zbekiston toponimikasi bilan shug'ullanish mumkin emas. Chunki urug', qabila nomlari ko'pincha muayyan ma'noni anglatadi. Masalan, o'zbek urug'larini bilmagan kishi O'roqli, Cho'michli, Qarg'ali, Oytamg'ali, Qaychili, Uchtamg'ali kabi etnonimlarni "li" affiksli toponimlarga kiritishi mumkin. Ming, yuz urug'lari joy nomlari tarkibida kelganda sonni bildirmaydi, albatta. Holbuki, Jizzax viloyatining Zomin tumanida o'zbek urug'larining kuchukboy, oqtosh, yamioq, kal, kabi kichik guruhchalari, qirg'iz urug'laridan esa chopon (asli – Xonkel chapani), hirquloq, eshqora, qozoq, jinni, to'qim kabi to'plari bo'lganligi ma'lum.

O'zbek etnonimlari to'grisida gap borganda shuni aytish kerakki, respublika hududida tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlarning urug'-aymoqlari ham bo'lganidan o'z-o'zidan ma'lumki, ana shu xalqlarning urug'lari nomlari bilan atalgan joylar ham bor.

Quyida O'zbekiston haritasida hozirgacha shahar va qishloqlarning nomlari shaklida uchraydigan etnooykonimlarning qisqacha ro'yxatini keltiramiz:

Abdal, Ayronchi, Arab, Arabon, Arablar, Arabxona, Arlot, Afg'on, Afg'onon, Axtachi, Axtaxi, Axtixona, Achamayli, Baday, Badal, Badroqli, Boy, Boyovul, Boymoqli, Bahrin, Boyqut, Boy to'pi, Bolta, Boltako'l, Boltali, Boltaqir, Baliqchi, Baroq, Barlos, Baxmal, Bahrin, Baxshi, Bachqir, Boyovut,

Begavlot, Bektemir, Beshog'och, Beshbola, Beshqozon, Beshkal, Beshkaltak, Beshkapa, Beshsari, Bo'ston, Gala, Galabotir, Gumbaz, Gurlan, Dalvarzin, Darxon, Do'rmon, Dumar, Yettiqashqa, Yetimshoh, Yettiurug', Jag'altoy, Jaloyir, Juz, Ilonli, Kal, Kallar, Kaltatoy, Kapa, Kasovli, Kelachi, Kenagas, Kesaklar, Kesakli, Kesavli, Lag'mon, Laqay, Langar, Lug'umbek, Mazang, Moylibolta, Mang'it, Mang'itlar, Machay, Mergancha, Merkit, Ming, Minglar, Mug'ulon, Mug'ulkent, Mug'ultoy, Musobozori, Nayman, Naymanovul, Naymanbo'ston, Naymansaroy, Norin, Nukusovul, Nukuslar, Nukusli, Nekuz, Nukusyop, Ovchi, Oytamg'ali, Oqbosh, Oqbo'yra, Oqqoyli, Oqqipchoq, Oqmang'it, Oqto'nli, Oqtumar, Oqchelak, Oqchepkan, Olaqarg'a, Olot, Olchin, Orol, Po'lotchi, Po'stinli, Puchug'ay, Sayid, Sayidobod, Sayidkent, Sayidlar, Sanchiqul, Sanchiqli, Saroy, Saribag'ish, Sayoq, Sirg'ali, Toqchi, Tojik, Tojikkishioq, Tojiklar, Tojikmahalla, Tojikravot, Tayloq, Tamg'ali, Tarag'ay, Taroqli, Tatar, Turk, Turkiston, Tumor, Turkovul, Turkon, Turkman, Turkmanovul, Turkravot, To'rtota, Tuyoqli, Tuyachi, Uzun, Uyg'ur, Uyshin, Uysun, Urganji, Urganjibog', Xalach, Xo'ja, Xo'jalar, Chag'atay, Chaqmoqli, Chalaqozoq, Chalaqarg'a, Cholmang'it, Chandir, Chig'atoy, Chimboy, Chinoz, Shag'al, Shirin, Eloton, Yuzlar, Yuzqishloq, Yuziya, Oymovut, O'ris, O'risqazg'an, O'risqishloq, O'tarchi, Qozoq, Qozoyoqli, Qayirma, Qalmoq, Qang'li, Qatag'on, Qashqar, Qorakaltak, Qorakesak, Qorako'sa, Qoraqushchi, Qoraqipchoq, Qoramang'it, Qoramo'yin, Qoramurt, Qoranayman, Qorateri, Qorato'nli, Qoraxitoy, Qorayantoq, Qarg'alar, Qorliq, Qarsoqli, Qatag'on, Qovchin, Qashtamg'ali, Qipchoq, Qirg'iz, Qirg'izovul, Qirg'izqo'rg'on, Qirg'izlar, Qirg'izmahalla, Qiyonni, Quva, Qo'g'ay, Qo'ng'iro't, Qo'ng'iro'tovul, Qurama, Qirqlar, Qishliq, Qiyot, G'alcha va hokazdo.

Bu etnonimlar joy nomlari shaklida qayta-qayta uchraydi, Masalan, ayronchi, arg'in, achamayli, bag'anali, beshbola, burqut, galabotir, kenagas, tama, ming, mitan, oytamg'ali, sayat, tortuvli, o'ymovut, o'tarchi, uyas, qutchi kabi etnonimlar qishloq-shahar nomlari tarkibida 5 martadan 10 martagacha, bolg'ali, bolta, bahrin, bo'ston, qangli, qoraqalpoq, uyg'ur, qashqar, qiyot, qurama, qirq, mirishkor, mug'ul kabi etnonimlar 11 – 20 martagacha, beshkapa, do'rman, jaloyir, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq, qo'ng'iro't, mang'it kabi etnonimlar 21 martadan 30 martagacha, qipchoq, saroy etnonimlari 31 – 40 martagacha takrorlanadi. Arab etnonimi esa 80 dan ortiq oykonim hosil qilgan.

**O'zbekiston oronimlari.** Oronimiya yunoncha oros – tog, ya'ni yer yuzasining relief shakllari – tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlarini organadi. Oronimlarga, tog'u toshlargina emas, balki re'lefning salbiy shakllari – vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, o'yiqlar, shuningdek, tekislik, past tekisliklar va qumliklar ham kiradi.

O'zbekiston yer yuzasi tekisliklar va adir-tog' qismlardan iborat. Tekisliklar (shimoli-g'arbda) Turon tekisligining bir qismidir. Orol bo'yidagi janubi-sharqda (Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida) Qizilqum cho'li joylashgan. Qizilqumning g'arbiy chekkasida Sulton Uvays tizmasi, markaziy qismida esa Bo'kantov, Tomditov, undan janubda Muruntov, janubi-g'arbda Quljuqtov va boshqa pastak tog'lar bor. Qizilqumda berk botiqlar va soyliklar ham uchraydi (Mingbuloq, Oyoqog'itma botiqlari va boshqalar).

O'zbekiston hududidagi tog'lar Tyanshan va Hisor-Oloy tog' tizmasiga kiradi. G'arbiy Tyanshan tizmalaridan Qorjontov, Ugom, Piskom, Chotqol, Qurama tizmalari O'zbekiston hududida. Farg'ona vodiysining sharqida Farg'ona tizmasi, janubida Oloy tizmasi va uning g'arbiy davomi – Turkiston tizmasi joylashgan. Turkiston tizmasining tarmog'i bo'lgan Molguzar tizmasi Nurota tog'laridan Ilono'tti darasi orqali ajralib turadi. Nurota tog'laridan janubdagi tog'lar Zarafshon tizmasiga kiradi. Respublikaning eng janubidagi Hisor tizmasi Tojikiston bilan bo'lgan chegara bo'ylab cho'zilgan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududida Yakkabog', Chaqchar, Boysuntog', Qo'hitang, Surxon, Bobotog' tizmalari bor.

Barcha tog' tizmalari va tizmalarini pasttekisliklar, soyliklar, daryo vodiylari ajralib turadi. Bundan tashqari tekisliklarda ham ko'plab adirlar, jarliklar, tepaliklar bor.

Toponimlarning boshqa turlariga qaraganda oronimlar eng kam o'rganilgan sohadir.

Ma'lumki, toponimlar zamirida mahalliy geografik atamalar yotadi. Tog'lik o'lka, xususan aholi yashaydigan va xo'jalikda keng foydalaniladigan past tog'lar, oronomik atamalarga boy bo'ladi. Bunday atamalar esa tekislikda yashovchi aholi uchun jumboq bo'lishi mumkin.

Tog'-tosh nomlarida adir, aqba – ovg'a, bel, buloq, gaza, dara, dovon, jaylov – yaylov, jar, kam – kamchik, kamar, nov, nova, nura, oshuv, sang, soy, suv, tangi, tepa, tov – tog', tosh, chag'at, cho'qqi, qir, qiya, qoq, qo'l – g'o'l (tog' tarmog'i, kichikroq dara, soy ma'nosida), qashqa, qo'rum, qo'rg'on, qo'ton, ungur kabi atamalar ko'p uchraydi.

Tog'larning atalish (nominatsiya) qonuniyatlaridan biri shuki, tog'liklar yon-veridagi ayrim cho'qqi, qoya, yonbag'ir, zovlarning nomlarini yaxshi bilganlari holda butun bir ulkan, tog'lar tizimining umumiy nomini bilishmaydi. Tog' so'zini deyarli ishlatishmaydi. Tog' so'zi o'rniga "tosh" atamasi ishlatiladi. Ayritosh, Qoratosh, Oqtosh deganda cho'qqi, ayrim qoya katta tog'ning bir bo'lagi tushuniladi.

O'zbekiston hududining 1/5 qismi tog'lardan iborat. 1: 200000 masshtabli topografik haritalarda mamlakatlarimizdagi 700 dan ortiq oronimlar – tog'li o'lkalar, ayrim tog'lar, cho'qqilar, qoyalar, dovonlarning nomlari qayd qilingan (biz bunda tog'lardagi daralar, soyliklar, jarliklar, tekislik o'lkalardagi tepaliklar, do'ngliklar, salbiy re'lef shakllarini hisobga olmadik). Respublikamizda G'arbiy Tyanshan tog'lari tarmoqlari bo'lgan Hisor-Oloy tog'lari (Hisor, Zarafshon, Turkiston tizmalari tarmoqlari) o'rin olgan.

Surxondaryo viloyati oronimlarga boyligi jihatidan (150 ga yaqin oronim) birinchi o'rinda turadi (mashhur Hisor tizmasi va uning tarmoqlari Boysuntog', Qo'hitangtog', Bobotog'). Qashqadaryo viloyatida 145 oronim, Navoiy viloyatida 105, Toshkent viloyatida 103, Samarqand viloyatida 59, Jizzax viloyatida 52 ta oronim qayd qilingan. Boshqa viloyatlar aksari tekislikda joylashganidan oronimlarga boy emas. Xorazm viloyatida 1 oronim uchraydi: Sirdaryo viloyatida esa umuman tog', binobarin oronim yo'q.

Oronimlar leksikasida, yuqorida aytilganidek, geografik atamalar katta o'rin tutadi. Oq, qora, sariq, qo'ng'ir kabi rang simvolikasi ham keng tarqalgan.

O'simlik nomlaridan archa, betaga, gujir, anjir, yong'och, zardolu, olma, piyoz, pista, sarimsoq, terak, tol, o'rik, irg'ay, hayvon nomlaridan ariston (arslon), baliq, do'lta, to'ng'iz-cho'chqa, jayron, chivirtka (chig'irtka), qoplon, quyon, qoraqush (burgut), qarchig'ay, etnonimlardan afg'on, gumma, olchin, turkman, chandir, chig'atoy qayd qilingan.

Oronimlar orasida metaforik-majoziy nomlar ayniqsa, keng tarqalgan, egar (egarbel), dastar "salla" (Dastarqozi), moya "urg'ochi tuya" (Qatormoya), qizemchak, bukir (Bukritog'), yetimtog' (kichik-roq yolg'iz tog'), semiztepa, belisiniq, tuyatosh va hokoza. Aziz-avliyolarning qadam joylari sifatida bobo, ota atamaları ishlatilishini ham aytib o'tish kerak. Tog'larni kishilarning nomlari bilan atash O'zbekistonda, umuman O'rta Osiyoda qadimdan keng rasm bo'lgan emas.

Bir qancha tog'lar suv ob'yektlarining nomlari bilan atalgan. Masalan: Yonarbuloq, Ko'kbuloq, Ka'ksuv, Sovuq buloq tog'lari va tog' ob'yektlari nomlari bilan atalgan gidroob'yektlar ham uchraydi: Chotqol daryosi, Obi Ko'hak (Zarafshon daryosi) va boshqa.

O'zbekistonda tog' va tov shakllarida uchraydi. Shunisi qiziqki, tog'liklar tov deb talaffuz qiladilar. Turkiy xalqlar yashaydigan hududlarning g'arbiy qismlarida (Afg'oniston, Qrim, Kavkazda, Ozarbayjon, Turkmaniston) dog' (dag), O'zbekistonda tog' (tov), Qozog'istonda tau, Qirg'izistonda to'o', Sibirda tu, tuu, tia shakllarida talaffuz qilinadi. O'zbekiston orografik atamalarga nisbatan boy. Buni yuqorida keltirilgan raqamlardan bilsa ham bo'ladi.

Quyida oronimik atamalar ro'yxati keltiramiz: aydar – tepasida bir uyum tosh terilgan qir, balandlik; ayloq – tog' yaylovi; ayri, ayrilish – ikkiga ajralgan (tog', qir); ayg'ir – ulkan, katta (qoya, tosh); alan – ariq chetiga chiqarilgan tuproq uyumi (Xorazm); anna – jar; arna – jarlik; bel – tog' qirrasining pastroq qismi, dovon; belas – yassi tog' tarmog'i; beshiktosh – shaklan beshikka o'xshagan qoya; boldir – do'ng, tumshuq; guldirama, guldirov, guldirovuk, gurillovuk, gurkirov – sharshara; gum, gumsoy – chuqur, gir atrofi baland soylik; dalvarzin, dilvarzin, do'lbo'rjun – choldevor, imorat vayronasi; darboza – daradan o'tgan tog' yo'lining kambar joyi; yetimtov – yakka turgan pastroq tog'; yorma, jorma – yerni chuqur yorib ochiladigan kanal, ariq; zakan – zovur; zaxbar, zaxbur – zovur; zovlin – jarlik; kindik – adir-qirlarning markaziy qismi; ko'tal – dovon; ko'tarma – tuproq, toshdan yasalgan tepalik; odamtosh – shaklan odam gavdasiga o'xshagan qoya; oynatosh – ko'ziga o'xshash yaltiroq tosh; oqqum – o'simliksiz yalang ko'chma qum; regzor – qumlik; registon – qumli cho'l; sang – tosh, qoya; sangzor – toshloq maydon (relief shakli); sangiston – toshloq soylik; tarnov – ariqcha; teva – tepa, tepalik; tuyamo'yin; tuyamoyin – tuya bo'yiga o'xshash egri-bugri soylik va anhor (meandr); tuyatosh – tuyadan ham katta harsang tosh; xandaq – uzun chuqurlik, transheya; o'ra – chuqurlik, xandaq, jarlik; qoratorv – past tog'; qo'ton – tog' adirlarda qo'y otarlari qishlashi uchun qulay pana joy.

Quyida O'zbekiston hududidagi ayrim oronimlar ning kelib chiqishi bilan tanishib o'tamiz:

Tyanshan – Toshkent viloyati hududining shimoliy va shimoliy-sharqiy qismida joylashgan tog' tizmasi. Tyanshan oronimi qadimiy xitoycha nom bo'lsa ham, hozirgi zamon faniga rus olimlari tomonidan ikki asrcha oldin

kiritilgan. Bu tog'ning turkiy nomi Xontangri yoki Tangritov bo'lgan degan fikrda jon bor, chunki xitoycha Tyanshan – "osmon tog'lari" demakdir. Qirg'izlar Tyanshanni Olatov deyishadi. Akademik Radlov, turkiy al-ol so'zi "yuksak", "buyuk", "dahshatli" ma'nolarini anglatishini ta'kidlagan. Olatovni "ola-bula", "qorli tog'" deyish ham mumkin. G. Miller bu tog'ni "Muztog' tizmasi" deb atagan. Potanin esa "Qirg'iz olatovi" deb atagan. Tyanshanning yana Kungay tog', Ketmon tog', Holiq tog', Qorli tog' degan nomlari ham bor. Demak Tyanshan – "baland, osmon o'par tog'" ma'nosida.

Sulton Uvays – Amudaryoning o'ng sohilidagi tog'lar. O'rta Osiyoda tasavvuf targ'ibotiga asos solganlardan biri arab Uvays Qorniy nomi bilan atalgan. Sulton unvoni unga keyinchalik O'rta Osiyo xalqlari tomonidan berilgan. Tizmaning janubiy-g'arbiy yon bag'rida Sulton Uvaysning ziyoratgoh afsonaviy qabri bor.

Bo'kantov – Markaziy Qizilqumdagi tog'. V. V. Radlovning yozishicha bo'kan so'zining "to'g'on, to'siq, bukri, past" kabi ma'nolari bor. Shunday ekan. Bo'kantov "bukri tog', past tog'" demakdir.

Yetimtog' – Samarqand viloyatidagi qoldiq tog'. Nurota tog'idan shimoli-sharqqa kirib boradigan tekislikda joylashgan. Buxoroda ham shu nomdagi tog' bor. Yetimtog' "boshqa tog'lardan ajralib turgan yakka cho'qqi, tog'" degan ma'noni bildiradi.

Zirabuloq – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi tog' nomi. Xalq orasida toponimning zarbuloq degan izohi keng tarqalgan. "Zarbuloq" toponimi zir so'zi yordamida yasaliib, "quyi buloq, pastdagi buloq" ma'nolarini bildiradi. Qishloq nomiga asoslanib tog' ham shunday nomlangan.

Obdon – Toshkent viloyatining Piskent tumanida joylashgan tog'. Toponim "ob" – suv va "dona" – xona, saqlagich so'zlari orqali yasaliib, "suvxona" degan ma'noni bildiradi.

Nurota – Navoiy viloyatida joylashgan tog'. Ayrim toponimistlar Nurota "nur" (yorug'lik) va "ota" (ziyoratgoh joylar nomiga qo'shiladigan qo'shimcha) so'zlaridan yasalgan deydi. H. Hasanov toponimning asli nomi Nur bo'lib, uni ulug'lab Nurota deganlar. Oftob nuri ham eng avvalo shu tog' tepasida ko'rinadi, deb yozadi. Nikonovning fikricha Nurota mo'g'ulcha Nuru "tog' tizmasi" va Tau yoki Tov so'zlaridan tuzilgan. Tarixiy manbalarda Oltoy tog'lari Oltoy – Nuru deb atalgan. Shunday qilib Nura, Nuru so'zining "tog', tog' tizmasi, cho'qqi, baland tog'" kabi ma'nolari bor. Nurota "baland tog', cho'qqili tog'" degan ma'noni bildiradi.

G'ajirqoya – Surxondaryo viloyatidagi tog'. Tog' nomiga G'ajir qushi oti asos bo'lgan deb hisoblaydilar. G'ajir – tik qoyalarda yashovchi qush. Shunday ekan G'ajir so'zining asl ma'nosi "tik, baland, quruq" dir. Qushga ham shu nom asos bo'lgan.

Zambar – Samarqand viloyati Nurota tumanidagi tog'. Biron narsaning o'rta qismi chuqur, ikki chekasi baland bo'lsa zambar (zanbar, zambil) deyiladi.

Yurtimiz hududi orooykonimlarga boy hisoblanadi. Orooykonimlar, ya'ni rel'ef shakllari nomlarini bildiradigan oykonimlar tarkibida adir, bel, dara, dahana, do'ng, jar – yor, kamar, ko'tal, tall, tepa, teva, tosh, tog' – tov, chosh, oy, qap-

chig'ay, qo'ton, qiya, qir, qum kabi atamalar (indikatorlar) qayd qilinadi. Jar terimini 60 martadan ko'proq, tosh atamasi esa qariyb 100 marta takrorlanadi. Bu borada tepa atamasi "rekord" qo'yan. Buning asosiy sababi shundaki, urug'-aymoq ma'nosida to'p – to'pa – to'ba atamasi jonli tilda tepa bo'lib ketgan (masalan, Do'rmonto'pa – Naymanto'pa, Do'rmontepa – Naymantepa shaklini olgan).

Rel'ef shakllaridan nom olgan orooykonimlar: adir – Bo'lakadir, Adirmoq; bel – Beltov, Beltepa, Belariq; dara – Omondara, Palandara; dahana – Oqdahana, Qoradahana; do'ng – Do'ng, Do'ngariq, Do'ngovul; jar (yor) – Ko'kjar, Omborjar, Jomonjar, Ko'yganyor, Oqvor; kamar – Zarkamar, Kamar, Kamarqishloq, Qorakamar; ko'tal – O'zbekko'tal, Tojikko'tal; tal – Tallak, Tallashqon; tepa – Bo'ritepa, Oqtepa, Zartepa; tosh – Dovtosh, Qoratosh; tog' (tov) – Bobotog', Yetimtog'. Qiziltov, Saritov; Choshtepa "sun'iy tepalik" – Oqqapchig'ay, Qapchug'ay; qo'ton ("shamol kam tegadigan chuqurroq soylik") – Jarqo'ton, Qoraqo'ton; qiya – Ayriqiya, Qoraqiya; qir – Jetimqir, Qoraqir va hokazo.

**O'zbekiston gidronimlari.** Barcha suv ob'yektlarining nomlari gidronimlar deyiladi (yunoncha "hidro" – suv, "nom" – nom). Okean, dengiz, ko'l, soy, jilg'a, quduqning har biri suv ob'yektidir.

Toponimikaning bo'limi – gidronimika suv ob'yektlarining nomlarini, ularning kelib chiqishini, atalish qonuniyatlarini o'rganadi.

Yer shari yuzasining qariyb 71 foizini 4 ta – Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy muz okeanlari egallagan. Okeanlarning ayrim qismlari dengiz deyiladi. Quruqlikdagi suv to'lib qolgan chuqurlilar ko'llar deb ataladi. Ba'zan o'ta katta ko'llar dengizlar ham deb yuritiladi (Kaspiy dengizi, Orol dengizi, Shimoliy Amerikadagi Buyuk ko'llar, Rossiyadagi Baykal ko'li).

Oqar suvlar katta-kichikligiga qarab bir necha turga bo'linadi. Yer osti va yer usti suvlaridan hosil bo'ladigan katta oqar suvlar daryolar deyiladi. Dunyodagi eng katta daryolar sifatida Janubiy Amerikada Amazonka, Shimoliy Amerikada Missisipi, Xitoyda Yansizi, Rossiyada Ob, Yenisey, Volga, O'rta Osiyoda Amudaryo, Sirdaryo qayd etilgan.

Kichikroq daryolar soylar, kichik soylar esa jilg'alar deyiladi. Daryo yoki soyga qo'shiladigan suvlar irmoqlar, daryo yoki soydan ajralib chiqadigan ariq yoki suvlar esa tarmoqlar deb yuritiladi.

Qo'lda qaziladigan katta suv yo'li kanal yoki anhor deb, kichik sun'iy suv yo'li ariq, rud (ro'd) deb ataladi.

Bu so'zlardan har biri Respublikamiz hududida bir qancha gidronimlar tarkibida uchraydi. Masalan, nahr atamasi nar yoki nor shaklini olgan. Hozirgi Samarqand viloyatidagi Zarafshon daryosidan boshlangan Narpay kanali o'rta asrlarda Nahri Fay deb atalgan, undan sal yuqoriroqdan suv oladigan bir kanal hozir Payariq deb yuritiladi, bu – Nahri Fay gidronimining o'zbekcha shaklidir.

Andijon viloyatida Shahrixon soyidan suv oladigan Ulug'nor kanali asli Ulug'nahr demakdir.

Toponimistlar gidronimlarni eng qadimiy toponimlar deb baholashadi. Haqiqatdan ham shunday. Masalan, Amudaryo bilan Sirdaiyoning qadimiy nomlari har qanday osori atiqa yodgorliklarining yoshi bilan bellasha oladi.

O'rta Osiyodagi eng yirik daryo – Amudaryo qadimgi yunon tarixchisi Gerodot (miloddan avvalgi V asr) asarlarda Araks deb, keyinroq (miloddan



avvalgi I asr – milodning I asrida) oʻtgan yunon tarixchilari asarlarida Oks (yoki Oksos) deb atalgan. Olimlar ana shu Oks (baʼzan Akes) Amudaryoning qadimiy turkiy nomi – Oʻkuz “daryo” soʻzining oʻzginasi deb hisoblaydi. Zardoʻshtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” va boshqa tarixiy manbaalarda Amudaryoning Arang, Raxa, Ranxa, Aranxa degan qadimiy nomlari ham uchraydi. Arablar uni Jayhun “joʻshqin (daryo)” deb atashgan. Jayhun yahudiylarning muqaddas kitobi “Tavrot”da tilga olingan Jixon daryosiga nisbat berib atalgan, degan fikr ham bor.

Rus olimi V. V. Bartolʻd arablar Jayhun bilan Sayxun (Sirdaryo) nomlarini Shimoliy Suriyadagi Jayxon va Sayxon daryolari nomlari bilan atashgan boʻlsa kerak deydi. Oʻrta asr tarixchisi Gardiziy “Jayhun har qanday katta daryoni bildiradigan turdosh ot” degan edi. Bu toʻgʻri fikrga oʻxshaydi. Masalan, Zarafshondan tarqalib, Buxoro shahrini suv bilan taʼminlab turgan Shahrud (Shohrud emas) – “rudi shahri Buxoro” ning qisqartirilgan shakli. Aslida Shahrud (“shaharga – suv beradigan anhor”) ning quyi qismi Jayhun deb atalgan. Shahrud kanalidagi uchta toʻgʻon boshining biri ham Jayhun deyilgan.

Amudaryoning qadimiy eroniy nomi Vaxsh (Vaxshob) boʻlgan. Daryoning yirik irmoqlaridan biri hozir ham Vaxsh deb ataladi. Abu Rayhon Beruniy Vaxsh xorazmliklarda suv parisi – malak nomi deb yozgan. Professor H.Hasanov maʼlumotlariga qaraganda, Pokistonda Amudaryoni hozir ham Vakshu-nada deb atashar ekan. Oʻrta Osiyoda Vaxsh, Vaxshivar, Vaxshivardara degan bir nechta joylar bor.

Amudaryoning hozirgi nomi oʻrta asrlarda mavjud boʻlgan Omul (Omuy, Omuyya) shahri (hozirgi Chorjoʻy) nomidan olingan deyishadi. Shahar daryodan nom olgan boʻlishi ham mumkin. Akademik V.V.Bartold “Bu soʻz ariylardan ham oldingi amard xalqi nomidan kelib chiqqan boʻlsa kerak” degan farazni oldinga suradi.

Mahmud Qoshgʻariy asarlarida har qanday sokin, barqaror, turgʻun narsaning amul deyilishini aytib oʻtgan.

Tarixiy manbalarda Amudaryoning Termiz daryosi, Kalif daryosi, Arang, Raxa, Aranga, Urganch daryosi, Xorazm daryosi kabi nomlari uchraydi.

Sirdaryoning nomlari ham koʻp boʻlgan. Qadimgi yunon tarixchilarining asariarida Yahartes (Yaksart), baʼzan Tanais, zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da Danu, Yaosha, X asrda yozilgan “Hudud ul-olam” qoʻlyozmasida Xashart, Runik turkiy yozuvlarda Yenchaoʻgaz, Firdavsiyning “Shohnoma” sida va Hamdalloh Qazviniyning “Qalblar huzuri asarida Gul-zarriyun, arablar kelgandan keyingi koʻpgina solnomalarda Sayxun, arab geografi Ibn Xurdodbeh asarlarida (IX asr) Hishart yoki Qanqar, Beruniyda Xasart shakllarida tilga olingan. Shu bilan birgalikda u qaysi yerdan oqib oʻtishiga qarab, Obi Fargʻona (Fargʻona daryosi), Oʻzgan daryosi, Obi Xoʻjand, Nahr ash-Shosh (Shosh yoki Choch daryosi), Banokat daryosi kabi nomlar bilan atalgan.

S. G. Klashtorniyning fikricha, yunonlar tomonidan aytilgan Yaksarta nomi Eron tilida “Asl marvarid” degan maʼnoni bildiradi.

Sirdaryoning hozirgi nomini quyidagicha izohlaydilar. Baʼzi olimlar (V. V. Bartolʻd, S. G. Klyashtorniy, H. Hasanov) Silis – Sir soʻzining aynan oʻzginasi deb biladilar. Demak, Sirdaryo qadim zamondanoq, oʻrta va yuqori oqimlarida Yaksart, quyi oqimida Silis (Sir) deb atalgan. XIII – XIV asrlarda Sirdaryo

etagida Janet shahri yaqinida Jo'jixonning o'g'illari va nabiralarning o'rdasi Siro'nda deb atalgan. Bu faktlar daryoning qadimiy nomlaridan biri 2000 yil davomida xalq og'zida saqlanibgina kelmasdan, ko'chmanchi o'zbek qabilalari Movarounnahrni bosib olgach, asta-sekin daryoning asosiy nomi (Sirdaryo) bo'lib qolganini ko'rsatadi.

Plano Karpini va Astelin XIII asrda bu o'lkaga safar qilganda ushbu daryoni nomi bilan qiziqadi mahalliy xalq "sari yoki sariq daryo" deb javob beradi. Koybuchayev Sirdaryo "tez oqar, tez daryo" deb izohlaydi.

Sirdaryo so'zining ma'nosi sir, ya'ni "rang, bo'yoq", "Sariq daryo (loyqa suvli daryo)". "Serob (Sersuv)" degan ma'noni bildiradi deyuvchilarning fikri noto'g'ri ekanligini professor H. Hasanov aytib o'tgan edi. Bu azim daryo shu atroflarda yashagan Sar (silis - sir) qabilasi nomi bilan atalgan deyish ancha haqiqatga yaqin. Xalq orasida "sirli daryo" deb ham atalgan.

Zarafshon" daryosi XVIII asrdan boshlab tilga olingan bo'lib, qadimda bu daryo yunonlar tomonidan "Politemit" (hurmatli, ulug', azim), o'rta asrlarda arab muarrihlari asarlarida "Mosaf" yoki "Mosif", "Vodiy us- Sug'd", "Nahr us Sug'd", "Naxr ul- Buxoro" va "Ko'hak" nomlari bilan ham atalib kelgan.

"Zarafshon" toponimi fors tilida "zar" – "oltin", "afshon" – "sochuvchi" degan ma'nolarni bildiradi. Daryoning Zarafshon deb atalishi yuzasidan quyidagi afsona bor: "Qadim zamonlarda hozirgi Buxoro shahri joylashgan hudud va uning atroflari Zarafshon daryosining toshqin suvlari qoplagan ko'l va botqoqliklardan iborat bo'lgan. Makedoniyalik Iskandar bu hududlarni quritish maqsadida daryoning bosh olgan qismiga oltindan to'g'on qurdirib, suvni bog'lagan. Natijada daryoning oqimida katta ko'l xosil bo'lib, uni quyi oqimidagi botqoqliklar qurigan. Ammo oltin qo'rg'ondan oqib o'tgan suv, uni yuvib mayda oltin zarrachalarini o'zi bilan quyiga olib ketgan. Shuning uchun daryo "Zarafshon" – "oltin keltiruvchi" nomini olgan. Zarafshon nomi qanday kelib chiqqanligidan qat'iy nazar, daryoning "oltin keltiruvchiligi" faqat uning nomiga asoslanmay, balki suvining voha uchun hayotbaxsh roliga monanddir.

Qashqadaryo – Qarshi vohasidagi daryo. Daryo qadimda Koshkirud ya'ni "Kesh Shahrisabz suvi" deb yuritilgan. V. V. Bartol'dning fikricha, Qashqadaryo Keshkirudning fonetik o'zgargan shaklidir. Ishayev toponimning asosini "qashqa" so'zi tashkil etadi, qashqa – "qashshamoq, qurib qolmoq" degan ma'noni bildiradi degan fikri ilgari surdi.

H. Hasanov "daryoning tabiiy xususiyatida ham qashqalik bor. Qarshidan keyin daryoning suvi kamayib o'zani ola-chalpoq – qashqa holiga keladi", – deb yozadi.

S. Qorayev "Qashqa" so'zining bir necha ma'nolarini keltiradi. Etnik nom: tiniq, tez oqar, yoqasida o'simlik o'smaydigan, yalang, yolg'iz tepa va hokazo.

X asr arab geograflari asarlarida Qashqadaryo "Keshkirud" deb atalgan. Temur davrida Xashqarod deb aytilgan va keyinchalik Qashqadaryo holiga kelgan.

Surxondaryo – Surxondaryo viloyatidagi katta daryo. Amudaryoning o'ng irmog'i. Eron tillarida "surh" – "qizil" degan ma'noni bildiradi, tojikcha "qizil suv" bo'lsa "surxob" deb atalishi kerak edi.

E. Mirzayevning fikricha, “surxon” – “qizg‘ish, qizilroq” degan ma’nomlarni bildiradi. Surxondaryo bosh oladigan tog‘ tizmalari, daralar, tog‘ jinslarida qizil ranglar mavjud. Suv bu jinslarni o‘zi bilan oqizib kelganligi sababli qizil tusli tuyuladi. Shuning uchun yerli xalq tomonidan qizil daryo – surxon daryo deb aytilgan.

O‘rta asr yozma manbalarida daryo Chag‘onrud deb atalgan. Bartol’d mo‘g‘ul tilida “chag‘on” – oq, “rud” – daryo degan ma’noni bildirishini aytib o‘tgan.

Norin – O‘zbekiston va Qirg‘izistondagi daryo. Markaziy Tyanshandan boshlanadi. Uzunligi 807 km. havzasining maydoni 59.9 ming km. Daryo Norin shahridan 44 km sharqda Katta Norin va Kichik Norin daryolarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Namangan shahri yaqinidagi Baliqchi qishlog‘i yonida Norin Qoradaryo bilan qo‘shilib, Sirdaryoni hosil qiladi. Norin qor-muzlik suvlaridan to‘yinadi. Katta Fargona, Katta Andijon, Shimoliy Farg‘ona, Katta Namangan kanallari shu daryodan suv oladi. Norin juda katta energiya zaxiralari ega. Daryoda Uchqo‘rgon GES, To‘qtagul GES qurilgan. Norin bo‘yida Norin, Toshko‘mir, Uchqo‘rg‘on shaharlari joylashgan.

Norin – daryosi o‘rta asrlarda Xaylam nomi bilan mashhur. Gidronimning kelib chiqishi haqida turli fikrlar bor E. va V. Murzayevlar Norin mo‘g‘ulcha bo‘lib, Nar (Naran) “Quyosh” so‘zi bilan aloqador, deb izohlaydi. Ular daryo suvining rangiga nisbatan shunday deb ataganlar Ba‘zi tadqiqotchilar qirg‘iz tilida ham Norin so‘zi bor, “tor, sayoz” degan ma’noni bildiradi. Gidronim shu so‘z bilan aloqador deydilar. Ammo uning geografik tuzilishi “tor, sayoz” degan sifatlarga to‘g‘ri kelmaydi. Daryo ancha keng va katta. Shuningdek, Norin so‘zining tarqalishi areali juda katta – To‘va ASSRdan Kaspiy bo‘ylarigacha boradi. O‘zbekistonning ko‘p viloyatlarida Norin suv va joy nomi sifatida uchraydi. Masalan, Noring‘ul, Norinkapa, Norin va boshqalar. Shunday ekan, Norin so‘zini mo‘g‘il tili asosida izohlash unchalik to‘g‘ri emas. Norin nahr “daryo” so‘zi bilan aloqador bo‘lsa kerak. Tyanshanning ichki rayonlarida Norinni Dayra (daryo) deb ataydilar.

Chirchiq – Sirdaryoning o‘ng irmog‘i. Toshkent vohasini sug‘oradi. Qadimda Parak yoki Obi Parak deb atalgan. Parak so‘g‘d tilida “shahar atrofidagi devor, to‘siq, g‘ov yoki qo‘rg‘on” kabi manolarga ega. Demak Obi Parak “qo‘rg‘onga oquvchi suv” ma’nosida. Chirchiq nomi keyinchalik turkiy xalqlar tomonidan berilgan. Bu so‘z “gurillagan, burqiragan, tezkor” ma’nomlarini bildiradi E. Mirzayev, H. Hasanov “tezoqar”, “shovullagan” deb izohlaydi. Daryo haqiqatan ham yuqori qismida tez, toshdan-toshga urilib oqadi.

Chirchiq nomi sir nomi bilan aloqador bo‘lib, -chiq, -jiq turkiy tillarda kichiklik bildiruvchi qo‘shimcha. Chirchiq “Kichkina Sir” yoki “Sirning irmog‘i” ma’nosida keladi.

Respublikamiz daryolarini havzalarga bo‘lsak, ko‘pchilik daryolar Sirdaryo (Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Ohangaron, Kalas, Aravonsoy, Oqbura, Isfarasoy, Shohimardon, So‘x, Isfara, Xo‘jabaqirg‘an, Oqsuv, Poshshota, Oqsuv, Kosonsoy, G‘ovasoy) va Amudaryo havzasiga (Zarafshon, Qashqadaryo, G‘uzordaryo, Surxondaryo, To‘polondaryo, Sheroboddaryo) kiradi.

Bu daryolar, soylarning qancha irmoq va tarmoqlari bor. Bulardan tashqari, qancha ko'llar (Orol dengizi, Arnasoy ko'llari va b.), suv omborlari (Kattaqo'rg'on, Janubiy Surxon, Chimqo'rg'on, Chorvoq, Toshkent dengizi, Quyimozor va b.), son-sanoqsiz quduqlar ham mavjud.

Quyida, yurtimizdagi ko'llar, kichik daryolar, soylar, kanallarga ham qisman to'xtab o'tishni lozim topdik:

Orol dengizi. Orol dengizi nomining kelib chiqishi haqida bir qancha fikrlar bayon etilgan. Xiva xoni, yirik tarixchi olim Abulg'ozzi Bahodixon Amudaryo dengizga quyiladigan joyni, del'tani Orol deb atagan. Ana shu yerda orolliklar degan xalq yashagan. L. Berg o'zining "Orol dengizi" degan asarida (1908) Orol o'sha yerda yashagan xalq – orolliklar nomidan kelib chiqqan deb yozadi va Richkovning (1755) "Ko'lda orollar ko'p" bo'lganligidan u shunday atalgan" degan fikrini o'rtaga tashlaydi. Chindan ham ushbu dengizda 300 dan ortiq orol bo'lgan.

Tevarak-atrofdagi o'zbeklar, qozoqlar dengizni Orol (Aral) deb atasa, qoraqalpoqlar Aral yoki Atau deb atashar ekan. Qoraqalboq toponimisti Q. Abdimuratov Orol dengizi chindan ham orol "suv o'rtasidagi quruqlik" so'zidan kelib chiqqan degan fikrni bildiradi.

Ohangaron – Sirdaryoning o'ng irmog'i, daryo. Gidronim "Iloq" shaklida ham uchraydi. Iloq turk va tatar tillarida "tiniq suv" degan ma'noni bildiradi. Xoja Ahrorning vaqf hujjatlarida Soyi Ohangaron, Obi Ohangaron, Daryoi Ohangaron shakllarida tilga olingan. "Boburnoma"da Ohangaron julg'asi shaklida tilga olingan. Ohangar – "temirchilar" degan ma'noni bildiradi. Lekin gidronimni "temirchilar daryosi" deb emas, "Ohangaron shahri daryosi" deb atash maqsadga muvofiq.

Otaliqarna – Xorazm viloyatidagi kanal. Hozirgi kunda Mang'it arna deb ataladi. Yahyo G'ulomov o'zining "Xorazmning sug'orilish tarixi" nomli asarida "Arna Xeva xonligining bir otalig'i tomonidan qazilganligi uchun Otaliq arna deb" atalgan deydi. Arna – kanal, daryodan suv oladigan katta ariq ma'nolarini bildiradi.

Ulug'nor – Fag'ona viloyatidagi kanal. 1868–1871-yillarda Xudoyorxon tomonidan qazdirilgan. "Ulug' kanal" degan ma'noni bildiradi. Mahmud Qoshg'ariyning yozishicha, ulug' – har bir narsaning kattasidir.

Xonariq – Toshkent viloyati To'ytepa yaqinida Chirchiqdan boshlangan kanal. Bu kanal XIX asrning 40-yillarida Qo'qon xoni Madalixon davrida qazilgan va xon sharafiga shunday nom olgan.

Suv ob'yektlari nomlarini – gidronimlarni hosil qiladigan atamalar: Ariq (ar – qadimiy eroniy tillarda oqmoq fe'lining o'zagi, ya'ni "suv") – suv yo'li; Artezian quduq parmalab kovlangan va suv otilib chiqadigan teran quduq; Balhiq – suyuqroq loy; Band – to'g'on; Botqoq – doimo yoki uzoq vaqt zax bo'lib yotadigan joy; Buloq – yer ostidan chiqadigan suv manbai; Vodoprovod – tindirilib, xlorlangan va kislorodga boyitilgan hamda ichishga yaroqli suv oqiziladigan truba; Guzar – daryodan kechib o'tiladigan joy, kechuv; Dam – suv ravon oqmaydigan, damlanib qoladigan joy; Daryo – tabiiy o'zandan oqadigan katta suv; Daryoliq – bir zamonlar daryo oqqan soyluk; Darg'ot – suv taqsimlagich inshoot; Dengiz – O'zbekistonda keng maydonni egallagan suv

havzasi (Orol dengizi); Jilg'a – jildirab oqadigan soy; Jo'ybor – ariqsoy, ariq soylar ko'p joy; Jo'yak – ikki pushta orasidagi ariqcha; Zax, zak (Xorazmda – zey) – sernam joy; Kavsar – toza, zilol suv; Kechik-kechuv – daryodan, katta soydan kesib o'tiladigan joy; Kom – ariq (Buxoro); Koriz – bir-birlari bilan yer ostida birlashtirilgan quduqlar, yer osti kanali; Ko'k suv – zilol suv, tiniq suv; Ko'l – kichikroq tabiiy suv havzasi; Kolmak – halqob suv; Nahr – katta ariq; Nova – suv oqadigan ariq, mol suv ichadigan yog'och ariq; Ob – suv, daryo, soy; Obxona – quduq yonidagi hovuz; Sel – toshqin suv; Selbur – sel urib ketgan joy; Selxona – toshqin suv to'planib qoladigan soylik; Soy – kichik daryo; Suv – tabiiy suyuqlik; daryo, soy (tarixiy asarlarda su varianti ham bor: Ko'hak suvi – Zarafshon, Xo'jand suvi – Sirdaryo); suv ombori (obi ombor) – ko'p suv to'planadigan chuqur joy; Tomchi – suvi qoyadan tomchilabgina tushadigan buloq; O'kuz, o'giz, o'g'iz – katta oqar suv, daryo hamda Amudaryoning qadimiylar turkiy nomi: Qaynar buloq – suvi otilib qaynab chiqadigan buloq; Quduq – yer ostidan suv olinadigan chuqurlik. Quduqcha – quduq ko'p joy.

Yurtimiz hududida gidrooykonimlar ham ko'plab uchraydi. Gidrooykonimlar, ya'ni suv ob'yektlariga qarab atalgan aholi punktlari nomlari tarkibida anhor, nahr, arna, ariq bodoq, buloq, gurillovuq ("sharshara"), daryo, joy, joy bor, jo yak, kanal, koriz – keriz, ko'l, mashat – bashat, ob, ro'd, ro'dbor, sardoba, sel, soy, suv, tagob, chashma, sharshar (sharshara, sharloq, sharillovuq), o'zak, qoq, quduq kabi atamalar uchraydi. Bunday oykonimlarni Respublikaning hamma joyida uchratish mumkin, chunki aholi punktlari suv bor joyda barpo etiladi. Qishloq va shaharlarning ariq-soylar bilan atalishi ham shundan. Ariq, buloq, ko'l, soy, suv, quduq kabi atamalar aholi punktlari nomlari tarkibida 50 martadan 100 martagacha takrorlanadi.

Suv ob'yektlaridan nom olgan gidrooykonimlar: anhor – nahr – Anhor, Ulug'nor; arna – Arna, Arnasoy; ariq – Ariqboshi, Beshariq, Jarariq; buloq – Jarbuloq, Oybuloq, Oqbuloq; daryo – Daryobo'yi, Daryoliq, Sirdaryo; yop – Bo'z-yop, Kattayop, Qumyop; kana – Kanalboyi, Kanalobod, Kanalpasti, koriz – Saksonkoriz, Koriz, Keriz; ko'l – Ayronko'l, Oydinko'l, Oqko'l; mashat – (asli-boshot) "suvi qumga singib ketadigan kichik buloq" – Mashat, Uchmashat; ob – Labiob, Duoba, Obiravon, ro'd, ro'dbor "daryo", "kanal", Ro'dak, Labiro't, Ro'dasoy; sardoba – Sardoba (bir necha qishloq nomi); saqa "kanalning bosh inshoti" – Toshsaqa, Saqachi; soy – Bo'stonsoy, Ilonsoy; suv – Bo'zsvu, Bo'laksuv, Qorasuv; chashma – Sarchashma, Chashma; sharshar (sharilloq, sharillovuq) "sharshara" – Sharshar, Sharilloq; o'zak "suvi ba'zan qurib qoladigan kichik ariq" – Ko'ko'zak, Sariqo'zak; quduq – Botirquduq, Oltinquduq, Otquduq va hokazo.

### **Tayanch iboralar:**

Etnonimlar, "o'zbek" atamasi, 92 o'zbek urug'i, mang'it, barlos, qo'ng'irot, mo'g'ul, arab, ming, yuz, saroy, qaipchoq, etnooykonilar, oronimlar, Qizilqum, Qurama, Tyanshan va Hisor-Oloy tog' tizmalari, Nurota, Hisor, Sulton Uvays, tov, orooykonimlar, gidronimlar, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Qashqadaryo, Surxondaryo, gidrooykonimlar.

### Nazorat savollari:

1. "O'zbek" atamasining paydo bo'lishi haqida qanday qarashlar mavjud?
2. Yirik o'zbek urug'larini sanab bering?
3. Yurtimiz hududida oronimlarga boy viloyatlar qaysi?
4. O'zbekiston hududida mavjud orooykonimlarga misol keltiring?
5. Yurtimiz hududidagi eng qadimiy gidrotoponimlarga misol keltiring?

## O'ZBEKISTON SHAHARLARI TOPONIMIKASI

### Reja:

1. Andijon va Farg'ona viloyatlari shaharlari toponimikasi.
2. Toshkent viloyati va Zarafshon vodiysi shaharlari toponimikasi.
3. Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlari shaharlari toponimikasi.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati shaharlari toponimikasi.

**Andijon va Farg'ona viloyatlari shaharlari toponimikasi.** Mamlakatimiz juda uzoq tarixga ega ekanligi hech kimga sir emas. Yurtimizning qadimiy Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Qo'qon shaharlari kabi ko'plab qadimiy shaharlarimiz mavjud. Yoshi 2000 yildan kam bo'lmagan shaharlar O'zbekiston hududida juda ko'plab topiladi.

Yurtimizda o'ziga xos mavqega ega bo'lgan hududlaridan biri bo'lgan Farg'ona vodiysi qadimiy va hamisha navqiron shaharlarga boy hisoblanadi. Farg'ona vodiysi shaharlari toponomikasida ham o'ziga xosliklar mavjud.

Xususan, O'zbekistonning yirik shaharlaridan biri, hozirda Farg'ona viloyatining markazi hisoblanadigan Farg'ona shahriga 1877-yilda asos solingan bo'lib, 1907-yilgacha Yangi Marg'ilon. 1907–1924-yillarda Skobelev nomlari atalgan bo'lsa-da, Farg'ona toponomikasi tarixi ancha qadimiy bo'lib, Farg'ona vodiysi nomi bilan uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan.

Yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, qadim zamonlarda O'rta Osiyoda Parikan degan qabila bo'lgan. Sanskrit tilida Parkana deb kichik viloyatga aytilgan. Shuningdek, Parkana – Pari xona, ya'ni "go'zallar yurti" degan ma'nosi ham bor. Boshqa man'balarda, parand (arabcha farand) – "shoyi", "ipak" so'zlaridan kelib chiqqan (farandxona – ipakxona degani), o'z navbatida qadimiy fors-tojikchada pargona "tog oralig'idagi vodi" degan ma'noni bildiradi. Sharqshunos N. G. Malliskiy, parkana – qadimgi tojik tilida "berk vodi" degan so'z degan fikrda. Professor M. S. Andreyev esa, Pomirdagi rushon shevasida parkana deb "har tarafi tog', bir yonigina ochiq bo'lgan vodiya aytiladi" degan fikrni bildiradi.

"Farg'ona" toponimi haqida ham rivoyatlar bor. Masalan, rivoyatlarga ko'ra, Farg'onani sasoniy hukmdori Nushirvon (Anushirvon) bunyod qilgan va podsho bu yerga har bir joydan bittadan qabila olib kelgan ekan. Shunday qilib, turli joylardan kelgan kishilar imoratlar qurib, ekinlar ekan. Kishilar ularni turli joylardan kelganligidan "Az har xona" – "turli xonadonlardan kelganlar" (qurama) deb atay boshlaganlar. So'ngra az qo'shimchasi tushib qolib, Harxona

bo'lib ketgan, bu esa bora-bora Farg'ona shaklini olgan emish. Huddi shu rivoyat arab geografi Ibn Xurdodbehning "Kitob ul-masolik val-mamolik" asarida (X asr). Hamidullah Qazviniyning "Nuzhat ul-qulub" asarida (1340-yil) va boshqa tarixiy yodgorliklarda ham keltirilgan.

Yurtimizdagi qadimiy shaharlar qatoriga Marg'ilon shahrini ham kiritishimiz mumkin. Ayniqsa Marg'ilon shahrini YUNESKO e'tiboriga tushib, uning 2000 yillik yubileyini nishonlashga qaror qilinganligi alohida e'tiborga loyiq.

Marg'ilon Farg'ona vodiysi sharqiy yarmining janubiy qismida joylashgan. Marg'ilon va uning o'tmish tarixiga oid ma'lumotlar juda kam. Marg'ilonning toponomikasi haqida so'z ketganda Ishoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asari etiborlidir. Bu asarda Marg'ilon shahrining paydo bo'lishida "Forsistondan muhojir bo'lib kelib, o'ltirg'on bechora dehqoni bodyashinlar"ning roli katta bo'lganligi ta'kidlanadi. Shahar nomining kelib chiqishini ham forsiy tilidagi "murg'u non", ya'ni "tovuq va non" so'zi bilan bog'laydilar. Ishoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida Marg'ilon shahriga aynan mana shu forsistonliklarning talabi bilan asos solingan, deb keltiriladi va Marg'ilonga asos solinishini Iskandar Zulqarnayn bilan bog'laydi. Emishki, Iskandar Zulqarnaynning sharqqa qilgan yurishlari davrida Farg'ona yerida ishlovchi forsistondan kelgan aholi uning yo'lga tovuq va non bilan peshvoz chiqib, undan bir shahar bunyod etib berishini so'rganlar. Makedoniyalik larning "bu nima?" degan savoliga ular "Murg'u non" deb javob bergan ekanlar.

Ammo tarixiy manbalardan bizga ma'lumki, makedoniyalik Iskandar sharqqa yurishlari davrida Xo'jandga kelgani aniq. Ammo undan sharqqa Farg'onaning ichiga o'tolmagan. Shuning uchun ham yunon-makedon manbalarida Farg'ona viloyati haqida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Faqat "Yaksart orqasida" allaqanday o'troq aholi borligi qayd etilgan xolos.

Ayrim kishilar Iskandarning Marg'ilonga kelganligini Marg'ilondagi Iskandar qabri bilan isbotlashga urinadilar. Bu qabriston haqida Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida shunday ma'lumot bor: "...Marg'ilonida podsho Iskandar degan iyidgoh mozor bordur, ul kishi tushgan yerlardur".

A. Nabiyevning "Tarixiy o'lkashunoslik" kitobida Marg'ilon haqida antik dunyo tarixchilarining ma'lumotini keltiradi. Unga ko'ra parfiyaliklar bir paytlar skif qabilalari orasidan quvilgan qabila edilar. "Parf" so'zi skifcha "quvilgan kishilar" degan ma'noni anglatadi. Ularning kiyinishi, tillari bir-biriga juda yaqin. parfiyaliklar ham, marg'ilonliklar ham mohir chavandoz bo'lganlar. Ular gaplashganda bir-birlarini tushunganlar. Shundan kelib chiqib muallif "Farg'ona" nomi Parfiyona – Parfona – Farg'ona bo'lmaganmikan, degan fikrni beradi.

Manbalar, Marg'ilon shahrining paydo bo'lish davrini miloddan oldingi davrlarda ekanligini ko'rsatadi. Marg'ilon shahri haqidagi aniq ma'lumotlar X asrdan boshlab yozma manbalarda yozilgan bo'lsada, bu shaharning bino bo'lgan davrini yuqoridagi dalillarga asoslanib 2000 yildan oshiqroq deb ayta olamiz.

Shuningdek, H. Hasanov o'zining "Tarixiy-geografik nomlar izohoti" nomli asarida "Marg'ilon" so'zini Mari, Marg'ilon, Murg'ob toponimlari sistemasida izohlaydi va kitob muallifi shunday yozadi: "Murg'-ob" ni "Qo'sh-

suv` deb izohlash mumkin. Aslida unday emas. Murg`ob, Mari, shuningdek, Marg`ilon nomlarining asosi qadimiy "marg`" so`zidan yasalgan.

Tarixda marg`i qabilasi ham bo`lgan. Ular o`tloq suvlik yerlarda yashaganlar, Marg`zor deganda o`rmoncha, yashil yer, o`tloq joy tushuniladi. Marg`ilon nomi tarixda ko`p shakllarga ega bo`lgan. Masalan: Marg`inon, Marg`ilon, Murg`inon kabilar shular jumlasidandir.

Toponimist E. M. Mirzayevning ma`lumotiga qaraganda, Marg`ilon "Marg`inob" shakliga ham ega bo`lgan. E. M. Mirzayev Marg`ilon nomini tojikcha "marg`", ya`ni "o`tloq" so`zidan olingan degan fikrni bildiradi va uni Marg`, Murg`ob, Marg`on, Marg`itta, Marg`ub singari toponimlar bilan o`zakdosh deb hisoblagan.

Suyun Qorayevning fikricha, Marg`inon nomining Marg`ilon shakli o`zbeklar talaffuzi natijasida keyinchalik vujudga kelgan. Samarqand yaqinida ham Marg`ilontepa deb yurituvchi toponim bo`lgan. Marg` so`zi qadimgi so`g`d tilida "buloq" ma`nosini ham anglatadi. Tojik mumtoz adabiyoti tilida qadimdan mavjud bo`lgan murg` so`zi: o`t, maysa, alaf, maysazor, ya`ni marg`zor, chamanzor ma`nolarini anglatgan. Shuningdek, murg` o`sha shaklda Murg`ob shahrining nomini ham ifodalagan. Marg`, marg`zor so`zi eski o`zbek tilida, jumladan Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi: marg` – o`t, hayvonlar yeydigan o`simlik, marg`zor – o`tloq, hayvonlar o`tlaydigan joy. "Navoiy asarlari lug`ati"da marg`, marg`zor so`zlarining arabcha deb belgilanishiga qo`shilib bo`lmaydi.

Marg`ilon, Marg`inon toponimlarini marg` – o`tloq so`ziga bog`lash ba`zi shubhali tomonlarga ham ega. Chunki, o`sha joy marg` – o`tloq deb nomlangan bo`lsa, uning atroflarida boshqa marg` – o`tloqlar bo`lmaganmi? Shuningdek, Marg` – o`t, o`tloq bo`lsa, Marg`inondagi Marg`-i-non, Marg`i-non, Marg`-inon – non komponentlari nimani anglatadi?

Bordi-yu, Marg`ilon, Marg`inon, marg` nomli qabila nomi bilan aloqador bo`lsa, unda toponimning ikkinchi komponenti fors-tojikcha – on (yon) ko`plik qo`shimchasiga aloqador deb taxmin qilinishi mumkin. Bu holda Marg`inon – Marg`iyon – Marg`on – Marg`ion – Marg`inon – Marg`ilon, ya`ni marg`lar yashovchi joy, marg`lar shahri ma`nosini anglatgan bo`lishi ehtimol.

Ba`zi rivoyatlarga ko`ra, Marg`ilonda go`yo Iskandar Zulqarnayn qabri bo`lib, uning bayrog`i masjidida saqlangan emish. Shu paytgacha bir ko`chaning podshoi Iskandar degan nomi saqlanib qolgan. Ayrim kishilar "Marg`ilon" so`zi Makedonskiy (Makedoniyalik Iskandar) nomidan kelib chiqqan deb tahmin qilishadi: Makedon – Makenon – Marginon – Marg`ilon.

Xulosa qilib shuni qayd qilish mumkinki, Marg`ilon toponimining etimologiyasi hozircha noma`lum va yana qo`shimcha ilmiy tekshirishlarni talab qiladi.

Farg`ona vodiysining eng qadimgi shaharlaridan yana biri Qo`qon shahri hisoblanadi. Ho`qandi latif azaldan madaniyat va ma`rifat maskani bo`lib rivojlanib kelgan, ota-bobolarimizdan bizga meros bo`lib qolgan va bugungacha sayqallanib, kelayotgan urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimizning rivojlanishda qadimiy shahrimizning o`rni beqiyos.

Qo`qon shahri toponomikasi haqida ham turli xil ma`lumotlar mavjud. Xususan, qirg`iz xalqining "Manas" eposida Toshkent, Samarqand, Jizzax hamda



vodiyning Qo'qon, Andijon va Namangan shaharlari hamda ularning aholisi, xo'jalikning ayrim turlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Shuningdek, Qo'qon shahri X asrda bitilgan "Hudud ul-olam" qo'lyozma asarida, arab geograflaridan Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Ho'qan (Xuvoqand), Ho'qand (Xuvoqand) shakllarida qayd qilingan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Bobumoma" asarida Xo'qon viloyati tilga olingan. Hozirgi Qo'qon shahri tarixiy Ho'qand o'rnida XVIII asrda boshlarida o'zbeklarning ming urug'i boshlig'i, Qo'qon xonligi asoschisi Shohruhbiy tomonidan barpo etilgan. Akademik V. V. Bar'tol'dning fikricha, shaharning adabiy nuqtai nazardan to'g'ri shakli Ho'qand bo'lib, Qo'qon jonli tilda talaffuz etilishidir.

Qo'qon shahri haqida ma'lumotlar XII asrga oid ma'lumotlar marokashlik sayyoh Al-Idrisiyning "Nuzxat af-mushtoq fi xtirak ul-afoq" ("Jahon bo'ylab kezib holdan toyganning ovunchig'i") asarida ham uchraydi. XIII asrga oid bir asar sayyoh Yoqud Hamaviyning "Mu'jam al-buldon" ("Mamlakatlar ro'yxati") asaridagi Havoqand (Qo'qon) haqidagi ma'lumotlari biz uchun muhimdir. E'tiborli tomoni shundaki, dastlabki manbalarda Qo'qon, Havoqand, Huvaqan, Huvakent, Quqand kabi nomlar bilan uchraydi. O'z navbatida Qo'qon atamasining ma'nosi haqida esa, asosan 3 xil faraz mavjud:

1. "Xuk kand" tojikcha "to'ng'iz kavlagan" ma'nosini anglatadi. Bunday qarashning paydo bo'lishiga sabab manbalarda ko'rsatilishicha, shahar o'rni qamishzor bo'lib, bu yerda yovvoyi cho'chqa (to'ng'iz) lar ko'p bo'lgan.

2. "Yaxshi", "latif" ma'nosini anglatadi. Chunki, shahar bahavo, chiroyli joyda joylashgan.

3. "Yaxshi", "latif" shahar aholisiga nisbatan ishlatilgan bo'lib, qo'qonliklarning fe'li yaxshi bo'lgan.

Shuningdek, Qo'qon toponimiga nisbatan, "Havokent" – "shamollar shahri", "Ko'p qon" – "ko'p qon to'kilgan joy", "Qopqon" – "pistirma" va boshqa nomlar uchraydi.

Rivoyatlarga ko'ra, shaharni "Xuk kand", ya'ni "to'ng'iz kavlagan" deb atalishining asosiy sababi, shahar barpo etilmasdan bu joylar botqoqlik bo'lgan, bu yerda ko'p to'ng'izlar yashagani uchun shunday nomlangan degan qarashlar mavjud. Bu haqida rivoyat Ishoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida ham keltirgan.

Qo'qon toponimining "Ho'qand" (yoqimli, latif shahar, yaxshi shahar) so'zlaridan kelib chiqqanligini isbotlovchi bir afsona bor. Shaharni qurish zarurati paydo bo'lganda tajribali ustalar – shahar quruvchi va ularning rejalarini tuzish bo'yicha mutaxassislar o'zlarining hokimiga eng qulay bo'lgan toza suvli va soy orasidagi joyni tanlab olish kerakligini maslahat qilganlar. Bu joyda ko'plab bog'lar va polizlar bor edi. Yerning o'zi esa hosildor edi. Dushmanlarni bosib olishdan shaharni tabiiy to'siq – ikkita soy himoya qilgan. Bundan tashqari, bu hududda Xitoy va boshqa mamlakatlarga boruvchi karvon yo'llari tutashgan edi. Bularning hamasi shaharni Ho'qand deb atashga asos bo'ladi.

Boshqa bir rivoyatga ko'ra shahar nomi "Havokent" (shamollar shahri) so'zidan kelib chiqqan. Chunki, shahar qurilgan paytda istiqomat qiluvchi aholi shamolning tez-tez bo'lishini, poyalar, daraxt tanalarning doimiy kuchli shamollar

ta'sirida bir tomonga egilganligini ta'kidlashadi. Shuning uchun shahar "Havokent" (shamollar shahri, tez-tez havoni o'zgartiruvchi, iqlimni salqin qiluvchi, baxri-dilni ochadigan, sof bo'lishini ta'minlovchi ma'nosida) deb atalgan.

Boshqa bir rivoyaga ko'ra shaharning nomi "Qopqon" (ko'p qon to'kilgan joy) so'zidan kelib chiqqaligi ta'kidlanadi. Afsonaga ko'ra, uzoq o'timishda, bu hududda shahar qurilgan paytda tez-tez urushlar bo'lib turgan. Bu urushlar natijasida ko'plab insonlar xalok bo'lgan va ko'p qon to'kilgan. Shu sababli shaharni qonli "ko'p qon" ataydilar. Keyinchalik talaffuzda "P" tushib qolib, Ko'kon, so'ngra, "K" ning "Q" ga o'zgarishi natijasida Qo'qon deb atay boshlaydilar.

Boshqa rivoyatda esa, shahar "Qopqon" (qopqon, tuzoq, pistirma) deb atalganligi ta'kidlanadi. Ilgarigi vaqtlarda ajnabiylar shaharni talon-taroj qilish va uning aholisini qulga aylantirish uchun tez-tez hujum qilgan. Lekin ularning barcha urinishlari behuda ketgan. Bir so'z bilan aytganda, bosqinchilar pistirmaga uchrab mag'lub bo'lganlar. Shuning uchun ham shaharni "Qopqon", ya'ni tuzoq deb ataydilar. Keyinchalik "Qopqon" fonetik o'zgarishlar natijasida "Qo'qon", "Qo'qand" bo'lgan.

Qo'qon hududlari va shaharlari, aholisi va xo'jaligi haqidagi ma'lumotlar mo'g'ullar, temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davrida yozilgan manbalarda ham uchrab turadi. Lekin bu ma'lumotlar yaxlit tarzda emas.

Quva. Quva shahri yozma manbalarda "Kubo" va "Kubod" singari ikki xil nom bilan tilga olinadi. Shaharni Kubo nomi bilan atalganligi haqidagi dastlabki ma'lumotlar IX–X asrlardan boshlab arab manbalarida uchraydi. Jumladan, Tabariy, Istahriy, Abdulkakim ibn Havqal, Muhammad al-Muqaddasiy asarlarida shu nom bilan tilga olinadi. XIII asrda yozilgan yozma manbalarda Kubodan yetishib chiqib "Kuboviy" nisbasi bilan mashhur bo'lgan allomalar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan Abu nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al Kuboviy bunga misol bo'la oladi.

Ishoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Quva shahrini sosoniylar hukmdori Nushirvon (Anushirvon)ning otasi Kubod barpo etgan va shahar uning nomiga Kubod deb qo'yilgan. Keyinchalik shahar xalq orasida Quva nomi bilan atalgan va Quvaga aylanib ketgan. Quva toponimining ma'nosi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Biroq bu haqiqatdan yiroq. Chunki, Firdavsiyning "Shohnoma" asarida yozilishicha, Eron hukmdori kayoniylar sulolasidan Kay Kubod eramizdan avvalgi 782-yilda tug'ilgan va 100 yil podsholik qilgan. Kay Kubod nomi qadimdan mashhurligi uchun shaharlarni uni nomi bilan atash o'rta asrlarda an'anaviy tus olgan. Shuningdek, sosoniylar hukmdori Kubod (488 – 531) Farg'onada o'z nomiga shahar barpo etganligi ham haqiqatdan ancha yiroq. Chunki, Kubod o'sha davrda O'rta Osiyoda hukmronlik qilayotgan eftaliylar yordamida taxtni qo'lga kiritgan bo'lib, O'rta Osiyoda shahar qurdirishi mumkin bo'lmagan. Chunki, o'sha davrda O'rta Osiyo Eronga qaram emas edi.

Shuningdek, Quvani Kubo deb atalishini arxeolog B. Matboboyev qadimgi Quva xudosi bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, "...turkiy xalqlardan biri

no'g'aylarda Quva xudosi bo'lgan. Unga ma'lum vaqtlarda samoviy otlarni qurbon qilganlar. Shulardan kelib chiqib "Kubo" – "Quva" nomi ana shu Quva ilohiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Shuningdek, turkiy xalqlardagi qo'ng'iroq qabilasining Oytamg'ali aymog'i tarmog'idan biri ham Quva deb atalgan. Biroq bu fikrlar haqiqatdan yiroq. Chunki shahar IX asrdan Quva deb atala boshlangan.

Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra, shaharni "Kubo" nomi bilan atalishi arablarning Movarounnahrqa qilgan yurishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki, shaharning go'zalligi va kengligi arabcha "Kubo" – "keng" degan sifatlarga bilan mashhur bo'lishiga olib kelgan.

Abu Mansur as-Saolibiy o'zining "Kitob latoif al maorif" asarida keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Quva o'zining geografik joylashuvi jihatidan Farg'ona vodiysidagi shaharlarni o'rtasida joylashganligini nazarda tutsak arabcha "Kabo", ya'ni "o'rtasidagi, oraliqdagi" shahar degan ma'nolarni ham bildirishi mumkin.

Shu o'rinda A. Muhammadjonovning "Kubo – Quva demakdir" nomli maqolasida keltirilgan fikrlar e'tiborga loyiq. Unga ko'ra, Quva – Farg'onaning qadimgi poytaxti. Quvaning qadimgi nomi Kubo deb atalganligi ham haqiqatga yaqin. Chunki, fors tilida "Quva" so'zi "kuch-quvvat" degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, "Quvo" so'zi "mustahkam qal'a" ma'nosini anglatadi.

Shuningdek, A. Xodjeyev tadqiqotlariga ko'ra, xitoy manbalarida eramizdan avvalgi II asrlarda Davan (Farg'ona) davlatining poytaxti bo'lgan Guysuan, Gesay nomlari qayd etilgan shahar aslida Quvasoy bo'lish mumkin.

Yurtimizning qadimiy shaharlaridan yana biri Andijon hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, "Andijon" toponomikasi turk-mo'g'ulcha "soy bo'yidagi makon" degan ma'noni bildirgan. Haqiqatdan ham Andijon shahri shu nom bilan ataluvchi soy bo'yida joylashgan.

Andijon shahri haqida arab geograflari asarlarida va boshqa ko'hna tarixiy manbalarda Andiyon, Andikon, Andigon shakllarida tilga olingan. Zahiriddin Muhammad Bobur zamonida Andijon deb "turkiy" shakl olgan.

Ishoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida Andijon toponomiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlar mavjud: "Bu Andijon avvalda Andigon bo'lib, arabiyga olganda Andijon bo'lur, chunonchi "kofi" forsiy arabda "jim" o'qilur. Mana, farangi lafzi arabda afranjiy, bangni banj. Kofi forsiy arabda "j" bo'lib, Andigon bo'lgan bo'lsa kerak. Andigon andlar degan so'z. Anda turklar urug'ini o'zbeklar aytur. Andijon O'g'uzxon davrida ham mashhur ekan. Tarixi "Qutadg'u" dan mustazod bo'lurki, Afrosiyob Turon shohi bo'lib, Andijonin poytaxt qilib, Ko'nikdo'z shahridan Toshkand va Andijon kelib yurar ekan. Ammoki, afvohi nosda qariyalar so'zidurki, Andijon aslida Oadinajondur. Oadinajon Afrosiyobni qizidurki, anga o'rda va bog' bino qilib berib, ani ismiga tasmiya qilib edi. Oadinajonini tilda buzib, Andijon qilg'on deydilar".

Asaka. Asaka nomining kelib chiqishi haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Professor T. Tursunov ma'lumotlariga ko'ra, "Asaka" nomini Farg'onada miloddan avvalgi VI – V asrlarda yashagan sak qabilalari bilan bog'laydi. Chunki bu qabila ba'zi joylarda "assakenlar" nomi bilan ham yuritilgan, ularda "asvaka" – ot, "assaka" – otliqlar ma'nosini bildiradi.

Axeolog B. Matboboyev yuqoridagi fikrni vodiyning sharqiy qismida topilgan toshlardagi otlar tasviri bilan asoslashga harakat qilgan va shu joylarda nasldor otlar yetishtirilgan degan fikrni ilgari surgan.

Shuningdek, toponomist olim S. Qorayev Asaka tumanidagi "Axtachi" qishlog'i nomi mo'g'ulcha bo'lib, "ot tabibi (sinchi)", "otboqar" degan ma'noni bildiradi deb ta'kidlab, yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Asaka haqida ma'lumotlar XIX asr tarixchisi Avaz Muhammad Attorning "Tarixi jahonnoma" va "Tarixi Ho'qand" asarlarida tilga olingan. Uning yozishicha Asaka shahri hududida Qo'qon xoni Xudoyorxon qal'a qurdirgan va bu yerda xonning dala hovlisi ham bo'lgan. Qo'qon xonligi davrida qazilgan Shahrixonsoy kanali shaharning rivojlanishiga katta ahamiyat kasb etgan.

Shahrixon. Shahrixon Qo'qon xonligi davrida asos solingan va asta-sekin yirik iqtisodiy markazlardan biriga aylangan. Qo'qon xoni Umarxon (1810 – 1822)ning zamondoshi Dilshodi Barmoning "Tarixi Muhojiron" asaridagi ma'lumotga ko'ra, Umarxon Shahrixonga 1821–1822-yillarda asos solgan. Umarxon yangi shaharga asos solganidan so'ng xonlikning turli hududlaridan hunarmandlarni ko'chirib keltirgan va bu yerda savdoni rivojlantirish maqsadida savdogarlardan bir necha yil boj olmaslikni buyurgan. Shuningdek, Umarxon Shahrixonsoy kanalini qazdirganidan so'ng ko'p yerlar o'zlashtirilgan va Shahrixon yanada kengaygan. Tarixchi Mirzo Olim Mushrif, "Shahrixon obod bo'lib, g'allasi Ho'qand askariga kifoyat qilib, yana ziyodasi ombor qilinur edi", – deb yozgan edi. Shahrixon toponimi ham asos solgan hukmdor nomi bilan bog'liq – "Shahrixon", ya'ni "xon shahri".

Xo'jabod. Shu nomdagi tuman markazi. Shahar nomining kelib chiqishini mahalliy tarixchi va toponomistlar Xoja Abdullo Mavloniy Qozi nomi bilan bog'laydilar.

**Toshkent viloyati va Zarafshon vohasi shaharlari toponimikasi.** Toshkent viloyati va Zarafshon vohasi shaharlarga boy hududlar hisoblanadi. Ular orasida qadimiy va yangi barpo etilgan shaharlarni ham uchratish mumkin. Bu shaharlar orasida poytaxtimiz Toshkent alohida ahamiyat kasb etadi.

Qadimiy va hamisha navqiron Toshkent shahri mamlakatimiz hayotida katta o'rta tutadi. Avvalambor, u Vatanimizning poytaxti, ulkan iqtisodiy, siyosiy, madaniy markaz. Poytaxtimizni turlicha ulug'laydilar: "Toshkent – non shahri", "Toshkent – tinchlik shahri". "Toshkent – bog'-rog'lar shahri", "Toshkent – do'stlik shahri", "Toshkent – jasorat shahri" va hokazo.

Toshkent o'rta asr yozma manbalarida Choch (arabcha Shosh yoki Joj), Tarbend, Tarkan va Binkent nomlari bilan atalgan.

Toshkent toponimini ko'p adabiyotlarda "Tosh shahar" deb izohlanadi. Shu so'zda ma'lum ma'noda shahar tarixi ham o'z aksini topgan. Arxeologik izlanishlar natijasida shahar hududida tosh asriga oid buyumlar ko'plab uchragan. Toshkentdagi qabristonlardan birida topilgan haft jo'sh (bronza) ko'zgular, turli mamlakatlarning tangalari shaharning kamida 2000 yillik tarixidan darak beradi. Xususan, Vatanimiz poytahti Toshkent shaharining YUNESKO e'tiboriga tushib, 2009-yilda 2200 yillik tavallud kunining nishonlanishi alohida e'tiborga loyiq.

Toshkent haqidagi birinchi tarixiy ma'lumotlar milodning dastlabki asrlariga to'g'ri keladi. Chunonchi, shaharning geografik o'rniga oid ma'lumotlar yunon

olimi Klavdiy Ptolemeyning “Geografiyadan qoʻllanma” asarida uchraydi. Ptolemey bu asarida yer sharining obod qismini 26 haritada tasvirlagan. Shu haritalardan birida Oʻrta Osiyo va uning atrofidagi oʻlkalar tasvirlangan. Unda Xitoyga boradigan savdo yoʻli ustida, aniqrogʻi Yaksart (Sirdaryo) havzasining sharqida Terri Lapideya degan joy koʻrsatilgan. Olimlar ana shu yunoncha nomni “Tosh qoʻrgʻon” deb tarjima qilib, Toshkentga nisbat berishgan.

Toshkent shahrining nomi yozma manbalarda Choch, Chochiston, Shosh, Shoshkent shakllarida ham uchraydi. “Choch” soʻzi ham sugʻd tilida “tosh” demakdir. Shosh esa Choch nomining arabcha shaklidir. Choch yoki Shosh deganda Toshkent hamda uning atroflari tushunilgan.

Yozma manbalarda keltirilishicha, Toshkentning qadimgi nomi “Choch” boʻlgan. Toshkent arablar tomonidan bosib olingach, arab alifbosida “ch” harfining yoʻqligi bois, asarlarda “Shosh” deb yuritilgan. Ilk oʻrta asrlarda shahar “Choch”, “Shosh”, “Shoshkent” deb nomlangan.

X asrda nomaʼlum muallif tomondan fors-tojik tilida yozib qoldirilgan “Hudud ul-olam” (“Dunyoning sarhadlari”) nomli asarda bunday deyiladi: “Choch katta viloyat, xalqi jangovar, boy va sahiydir. U yerda oʻq-yoy tayyorlanadi. Binkat Chochnmg poytaxti. Bu katta shahar, ayni vaqtda podshoning qarorgohidir”.

Arab olimlaridan Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy va boshqalar (IX – X asrlar) oʻz asarlarda Shosh viloyatining markazi Binkat shahri deb koʻrsatganlar. Binkat hozirgi Eski joʻva va Chorsu oraligida boʻlgan. Binkat nomi forscha-tojikcha boʻlib, “koʻrimli shahar demakdir (“bin” – “koʻrinish, “koʻzga tashlanish”, “kat” – sugʻdcha “shahar, qishloq, manzilgoh” degan maʼnoni bildirgan).

Buyuk Abu Rayhon Beruniy oʻzining “Qonuni Masʼudiy” asarida “Binkat – bu Shoshning poytaxti, turkiy tilda “Toshkand”, yunonchadan arabchaga tarjima qilsang, – “Buri al-hijori” (“Tosh minora”) deb yozgan. Beruniyning soʻzlarini boshqa olimlar ham tasdiqlagan. Masalan, Mahmud Qoshgʻariy oʻzining “Devonu lugʻotit turk” asarida “Tarkan – Shoshning nomi, uning asli nomi Toshkand boʻlib, “gʻishtdan qurilgan shahar demakdir”, deb yozgan. Demak, poytaxtimiz nomining “Toshkent” shakli birinchi bor Abu Rayhon Beruniy asarlarida uchraydi va shahar boshqa nomlar bilan ham atalgan, nihoyat hozirgi nomi tilimizda qatʼiy oʻrin olgan.

Toshkent haqida ozmi-koʻpmi maʼlumotlar XIV – XIX asrlarda Oʻrta Osiyoning siyosiy, harbiy va madaniy hayoti haqidagi asarlarda ham uchraydi.

Shaharning XIX asr tarixi, topografiyasi (geografiyasi), jumladan uning toponimlari haqida maʼlumotlar Muhammad Solihning “Tarixi jadidayi Toshkand” (“Toshkentning yangi tarixi”) asarida uchraydi. Qoʻlyozma fors-tojik tilida bitilgan boʻlib, xozirda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Asar asli Toshkent viloyati tarixi haqida bolib, muallif shahar tarixini butun oʻlkada kechgan voqealar koʻlankasida yoritgan.

Ohangaron. Toshkent viloyatining yirik shaharlaridan biri. Ohangaron toponimi forscha-tojikcha – “ohangar” “temirchi” degani, - on - koʻplik affiksi (“Ohangaron” “temirchilar”). Ohangaron toponimi dastlab Xoja Ahrorning vaqf hujjatlarida (XV–XVI asr boshlari) – Soyi Ohangaron, Daryo Ohangaron

shakllarida tilga olingan. Zahiriddin Muhammad Bobur Ohangaron julg'asi (vodiysi) deb yozgan. Mo'g'ullar kelmasdan oldingi manbalarda Iloq daryosi deb atalgan. Bu vodiya qadimdan temirchilik rivojlangani uchun daryo Ohangaron – "temirchilar" deb nom olgan. Keyinchalik vodiya tashkil topgan shaharga ham Ohangaron nomi berilgan.

Parkent. Mahalliy talaffuzi Parkat. Arab geograflari asarlarida (IX – XI asrlar) Barskat shaklida tilga olishgan. Yoqut Hamaviyning "Mu'jam ul-buldon" lug'atida (XII – XIII asrlar) qayd qilingan. Shuningdek, sharqshunos V. V. Bartol'd o'rta asrlarda tilga olingan Sarskat shahrini hozirgi Parkent bo'lsa kerak, deydi. O'z navbatida "Parkent" toponimi Bars (tog' yo'lbarisi) nomidan olingan degan fikr ham bor. Parkent tarixiy manbalarda "Faraakas" tarzida ham uchraydi.

Piskent. Dastlab arab geograflari Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy (X – XI asrlar) asarlarida Biskat shaklida tilga olingan, mahalliy xalq hozir ham Piskat deydi. U "bis" (tojikcha) "yigirma" so'zidan kelib chiqqan degan fikrlar ham bor. Bu haqida mahalliy aholi orasida quyidagicha rivoyat bor: "Bobur Hindistonga yurishidan boshlashidan bir oz oldin qo'shni Piskent tumaniga kelib to'xtaydi. Bu yerda 20 kanizagini 20 nafar xizmatkorga nikohlab beradi. Bobur Hindistonga yo'l olgach, 20 nafar xizmatkor shu yerda qoladi va Piskent (forscha "bis" – "yigirma", "kent" – "qo'rg'on") vujudga kelishiga sababchi bo'ladilar.

Bekobod. Bekobod shahri qadimda Begovot deb yozilar edi. Begovot nomli qishloqlar O'zbekistonda bir nechta bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bek shaklida talaffuz qilinadigan so'zning to'g'risida asli beg bo'lgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida bu so'z beg shaklida yozilgan. Akademik V. V. Bartol'd ham bu so'zni beg shaklida yozish va talaffuz qilish to'g'riroq deb yozadi. Bu kabi misollar toponimlarning hozirgi o'zbekcha yozilishi mukammal emasligini ko'rsatadi. Umumiy olganda "Bekobod" – "Bek obod qilgan maskan" deb izohlanadi.

Angren. Angren toponimi Ohangaron "temirchilar" so'zining buzilgan shakli. Ko'plar buni ruscha talaffuz oqibati deyishadi. Aslida quramalar shunday talaffuz qilganlar. Zomin tumanida ham Angren degan joy bor.

Bo'ka. Qadimgi turk tilida, hozirgi ba'zi bir turkiy xalqlar (qozoqlar, qirg'izlar) tilida "bo'ka" – "pahlavon" degan ma'noni anglatadi. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida "Bo'ka" toponimi haqida quyidagicha ma'lumot keltirilgan: Sulton Ahmad Mirzoning eshik og'asi Jonibek Do'ldoy g'arib ahloq va atvorlik kishi bo'lib, u haqida xalq orasida turli rivoyatlar yurar edi. Kunlarning birida Samarqandga Sulton Ahmad Mirzo qoshiga o'zbek Shayboniyxondan elchi keldi. "O'zbek zo'r kishini bo'ka der emish. Jonibek derkim: Bo'kamusen. Bo'ka bo'lsang, kel kurashamiz".

Shuningdek, Bo'ka degan unig' ham bo'lgan. Masalan, qang'lilarning bo'ka-qangli urug'i qayd qilingan.

"Bo'ka" toponimi "qudratli", "pahlavon" ma'nolarini bildirib, qadimgi turkiy qabila nomidan kelib chiqqanligi haqiqatga yaqinroq. Chunki, bu hududda Bo'ka, Murotali, Achamayli kabi bir qator qabilalar yashagan. Hozir ularning nomi o'zlari yashagan joy nomlari bilan ataladi. Ya'ni, etnonimlar yillar o'tishi bilan toponimga aylangan. Tarixchi Ye. Shavanin "Bo'ka" toponimini "dono.

bilimdon” deb tarjima qilgan bo`lsa, taniqli rus olimi L. N. Gumelev va xitoy olimi M. V. Xvan bir qator turkiy unvonlarni birga o`rganib, “Bo`ka” toponimi ma`nosini “qudratli” deb tarjima qilgan.

Chinoz. Arab geograflari Istahriy, Ibn Havqal. Muqaddasiy asarlarida tilga olingan Jinanjkat (Chinochkat) shahrini V. V. Bartol`d hozirgi Chinoz deb qayd etgan. Manbalarda Chinos varianti ham uchraydi. Shuningdek, “Chinos” degan urug` ham bo`lgan (mo`g`ulchada “chin”– “bo`ri”). Rashiduddin Fazlulloh (XIV asr)ning “Jome ut-tavorix” tarixiy asarida yozishicha, “Chinoz” atamasi mo`g`ullarning tayjuit qabilasi tarkibidagi urug`lardan birini anlatadi. Keyinchalik chinozlar tayjuitlardan ajralib, mustaqil qabila bo`lganlar. XIII – XIV asrlarda Chinoz qabilasi ham boshqa bir qancha mo`g`ul qabilalari kabi Dashti Qipchoqning sharqiy tomoniga, so`ngra Qarshi va Toshkent vohasiga kelib o`troqlashganlar.

Toshkent viloyatidagi shaharchalardan biri Qibray hisoblanadi. Qozoqlarning dulat qabilasining bir urug`i qibiray deb atalgan. Bu urug` vakillari afsonaviy Qibiray botirdan tarqalgan ekan. Sadir Sadirbekovning 1994-yilda “O`zbekiston” nashriyotida qozoq tilida bosilgan “Qozoq shajarasi” kitobida shu haqda gap boradi.

Qo`yliq – Toshkent shahri mavzalaridan biri. H. Hasanov Qo`yliqni “quyilik”, “pastlik” deb izohlagan. Yana shuni aytish mumkinki, o`zbeklarda ham, qozoqlarda ham qo`yli degan urug` bo`lgan. Qo`yli keyinchalik Qo`yliq bo`lib ketgan bo`lishi ham mumkin. Bundan tashqari, mo`g`ul sarkardalaridan birining ismi Qo`yliq bo`lgan ekan. Mo`g`ul sarkardalarining nomlari O`rta Osiyo toponimiyasida uchrab turadi (Chig`atoy, Ko`kcha, Bo`ka va b.).

G`azalkent. Ayrim olimlar arab geograflari asarlarida qayd qilingan Gazak shahri hozirgi G`azalkent bo`lsa kerak, degan fikr bildirishadi. Professor H. Hasanov G`azalkent toponimi “g`izol” – “ohu” so`zidan tarkib topgan degan fikrni bildirgan.

Chimyon. Toshkent viloyatining tog`li qismidagi ko`pgina joy nomlari Farg`ona vodiysidan ko`chib kelgan aholi tomonidan qo`yilgan degan ma`lumot bor. Zarkat (Zarkent), Parkat (Parkent), Nanay, Burchmulla kabi nomlar shular jumlasidan. Farg`ona tumanida Chimyon shaharchasi, Qo`rg`ontepa tumanida Chimyon qishlog`i bor. Farg`onadagi Chimyonni tojikcha talaffuz asosida ruslar Chimion, Bo`stonliqdagi Chimyonni esa o`zbekcha talaffuz asosida Chimgan yozib kelishadi. Chim-chem unsuri o`zbekchada ko`p marta takrorlanadi. Chem (chim) sug`d tilida “g`ov”, “to`siq”, “ihota”, “qo`rg`on” degani. H. Hasanov Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asaridagi “o`tloq” ma`nosidagi “chimgan” so`ziga nisbat berib, Chimyon toponimini “serchim joy” deb izohlagan.

Zarafshon vohasi shaharlari toponomikasiga to`xtalishdan oldin Zarafshon toponimiga to`xtalishni joiz deb topdik. Zarafshon vohasining nomi Tojikiston va O`zbekiston hududidan o`tuvchi shu nomdagi daryoning nomidan olingan. Bu hududlarni o`zlashtirilishida va taraqqiyotida Zarafshon daryosining o`rni katta. “Zarafshon” daryosi XVIII asrdan boshlab tilga olingan bo`lib, qadimda bu daryo yunonlar tomonidan “Politemit” (hurmatli, ulug`, azim), o`rta asrlarda arab muarrihlari asarlarida “Mosaf” yoki “Mosif”, “Vodiy us- Sug`d”, “Nahr us Sug`d”, “Nahr ul- Buxoro” va “Ko`hak” nomlari bilan ham atalib kelgan.

“Zarafshon” toponimi fors tilida “zar” – “oltin”, “afshon” – “sochuvchi” degan ma’nolarni bildiradi. Daryoning Zarafshon deb atalishi yuzasidan quyidagi afsona bor: “Qadim zamonlarda hozirgi Buxoro shahri joylashgan hudud va uning atroflari Zarafshon daryosining toshqin suvlari qoplagan ko’l va botqoqliklardan iborat bo’lgan. Makedoniyalik Iskandar bu hududlarni quritish maqsadida daryoning bosh olgan qismiga oltindan to’g’on qurdirib, suvni bog’lagan. Natijada daryoning oqimida katta ko’l xosil bo’lib, uni quyi oqimidagi botqoqliklar qurigan. Ammo oltin qo’rg’ondan oqib o’tgan suv, uni yuvib mayda oltin zarrachalarini o’zi bilan quyiga olib ketgan. Shuning uchun daryo “Zarafshon” – “oltin keltiruvchi” nomini olgan. Zarafshon nomi qanday kelib chiqqanligidan qat’iy nazar, daryoning “oltin keltiruvchiligi” faqat uning nomiga asoslanmay, balki suvining voha uchun hayotbaxsh roliga monanddir.

Shuningdek, yurtimizning Navoiy viloyatida Zarafshon nomidagi shahar ham mavjud. Zarafshon Sho’ro hukumati davrida, ya’ni 1967-yilda Muruntov oltin koning ishga tushirilishi munosabati bilan shaharcha tarzida vujudga kelgan.

Zarafshon vohasining eng qadimiy shaharlaridan biri Samarqand shahridir. Samarqand jahonning eng qadimiy shaharlaridan bo’lib, 2700 yildan ortiq tarixga ega hisoblanadi. Xususan, Prezidentimizning “Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlash to’g’risida” gi qaroriga ko’ra, ana shu qutluq sana 2007-yilda bayram qilingan.

Samarqand shahri Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) yilnomalarida Maroqanda, sug’d yozuvlarida Smarakans, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg’ariy, Zahiriddin Mahammad Bobur, Mirxond (XV asr. Amir Temur saroyiga kelgan ispan elchisi Ruyi Gonsales de Klavixo (XV asr) asarlarida Semizkent, Chingizxon haqidagi mo’g’ul hikoyasida Semizgen kabi bir qancha variantlarda uchraydiki, bularning hammasi Samarqand nomi juda qadimiy ekanligini va uning kelib chiqishi (etimologiyasi) hamon uzil-kesil hal bo’lmaganligini ko’rsatadi. Bunday misollarni ko’plab keltirish mumkin.

Shuningdek, Samarqand to’g’risida o’rta asr mualliflari Muhammad al-Nasafiy “al-Qand zikri ulamoi Samarqand”, Haydar as-Samarqandiy “Qandiyai Xurd”, Abu Tohirxo’ja Samarqandiy “Samariya”, Xitoy tarixchisi Chjan Syan, yunon va rimlik tarixchilar Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf asarlarida ham ma’lumotlar mavjud.

“Samarqand” toponomikasining kelib chiqishi to’g’risida turli xil qarashlar va ma’lumotlar mavjud. Xususan, Sharq mualliflari “Samarqand” so’zining birinchi qismi “Samar” so’zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan shaxsning nomi bilan bog’liq deb hisoblab, bir qancha suniy ta’riflarni bildirganlar. Biroq tarixda bunday ismli kishi haqida ma’lumotlar uchramaydi. So’zning ikkinchi qismi “kent” (qand) – “qishloq, shahar” degan ma’noni bildiradi.

Abu Tohirxo’ja Samarqandiyning “Samariya” asarida (XIX asr) “Samarqand” toponimikasi to’g’risida “Burxonni Qote” kitobidagi ma’lumotlarni keltirib o’tgan: Samar ismli bir kishi kelib, o’z atrofiga xalqini to’plagan. Shuning uchun bu yer “Samarkent” deb atalgan. Shuningdek, “Samariya” asarida sayyoh Abu Isxoq Ibrohim Istahriyning “Masolik ul mamolik” (X asrda yozilgan) asarida yozilgan “Samarqand” toponimining paydo bo’lishi haqidagi ma’lumotlar ham



keltiriladi. Asarda Samar bokir ismlik bir xon Farg'ona va Qashqar tomondan kelib, bu viloyat xalqiga dushmanlik yuzasidan shaharning devorini buzgan edi. Shuning uchun shahar "Samar qozdi" ma'nosida bo'lgan.

Ba'zi yevropalik olimlar "Samarqand" toponomikasi – bu qadimdan qolgan sanskritcha "Samariya"ga yaqin, ya'ni "yig'ilish, yig'in" degan so'zlardan kelib chiqqan deb izohlaydilar.

Antik muarrihlarning asarlarida shahar Maroqanda deb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin. Maroqanda – Samarqand atamasining yunoncha atalishidir. Xususan, yunon mualliflari Arrian, Strabon va Kvint Kurtsiy Rufflarning ma'lumotlariga ko'ra, miloddan avvalgi 329-yilda Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari Hindikushdan oshib o'tib, Maroqandani zabt etib, vayron qilgan. Samarqandning Maroqanda nomi XVII asrdan so'ng Yevropa tarixchilarining asarlari orqali kirib kelgan.

Samarqand shahri yunon tarixchilari asarlarida Maroqanda ko'rinishida yozilgan. Biroq undan keyingi barcha manbalarda bu shahar nomi S harfi bilan boshlangan. Chunonchi, sug'd hujjatlarida bu tarixiy shahar nomi Smarakans deb bitilgan.

XI asr olimlari Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg'ariyning Samarqand nomini kelib chiqishini "Semizkent", ya'ni "Semiz qishloq" deb buzib talaffuz qilinishi bilan tushuntiradilar.

Jomboy. Ma'lumotlarga ko'ra, "Jomboy" tumani turkiy tilda so'zlashuvchi shu nomdagi urug' nomidan kelib chiqqan.

Urgut. Urgut – Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida, XVIII asrga oid tarixiy hujjatlarda "Arkut" qishlog'i sifatida tilga olingan. "Urgut" – O'rkent so'zining keyinroq o'zgarigan yasamasi, "o'r" – "balandlik", "kent" – "shahar", ya'ni balandlikdagi shahar ma'nosini anglatadi degan ma'nolar bor. Tarixchi Muhammad Ya'qub Buxoriy o'zining "Gulshan ul-mulk" asarida 1797 – 1798- yillardagi kuchli zilzila oqibatida Urgut qo'rg'onini vayron bo'lganligini yozadi.

Bulung'ur. "Bulung'ur" – mo'g'ulcha "loyqa" suv" degan ma'noni bildiradi. Hududda Bulung'ur nomli Zarafshon daryosidan suv oluvchi qadimgi kanal ham mavjud.

Toyloq. "Toyloq" toponimi o'zbeklarning shu nomdagi urug' nomidan kelib chiqqan.

Buxoro shahri ham yurtimizning qadimiy va hamisha navqiron shaharlaridan biri hisoblanadi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro shahriga miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida asos solingan. Ma'lumotlarga ko'ra, uning nomi ilk o'rta asr Xitoy manbalarida An, Ansi, Buxu, Buku, Buxe, Buxer, Buxala va boshqa nomlar bilan atalgan.

"Buxoro" atamasi sanskritcha "Vixora" so'zining turk-mo'g'ulcha shakli "Buxor", ya'ni "ibodatxona" nomidan kelib chiqqan deb tahmin qilinadi. Shuningdek, ba'zi tadqiqotlarda bu atama so'g'dcha "bug'", yoki "bag'", ya'ni "tangri" hamda "jamol" so'zlaridan iborat bo'lib, "tangri jamoli" degan ma'nolarni bildiradi degan fikrlar ham ilgari surilmoqda. Darhaqiqat, Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro va uning atrofidagi yerlar qadimda

nihoyatda hushmanzara boʻlgan va bu maʼlumotlarni tarixchi Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridagi maʼlumotlar ham tasdiqlaydi.

Gazli. Oʻzbekistonning yirik iqtisodiy markazlaridan biri. Shahar 1977-yilda Qizilqum sahrosida yirik gaz konlarining topilishi natijasida paydo boʻlgan. “Gazli” nomi ham “gaz topilgan hudud”, “gazli joy” degan maʼnolarini bildiradi.

Gʻijduvon. “Gʻijduvon” toponimining kelib chiqishi haqida mahalliy aholi orasida turli rivoyatlar mavjud. Shulardan “Kish tuvon” (tojikcha “kish” – “ekin ekuvchi”, “tuvon” – “manzil”), yaʼni ekin ekiladigan dehqonlar manzili yoki “Gʻujudehqon” – “koʻp qishloqlardan tashkil topgan joy” degan maʼnolar bilan izohlaydilar. Gʻijduvon qishloq sifatida X asrdan boshlab tilga olinadi.

Vobkent. Yurtimizdagi koʻhna shaharlardan biri. XIV asr hujjatlarida oʻz qozisiga ega boʻlgan qasaba, yaʼni shahar sifatida Vobkana nomi bilan tilga olinadi. XVI asrdan boshlab Vobkent ikki nom – Vobkana va Kamot nomlari bilan yuritila boshlagan. “Vobkent” toponimi oʻgʻuz shevasida “vob” yoki “vahobkent” – “boʻz, qoʻriqdagi qishloq” maʼnolarida qoʻllaniladi.

**Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlari shaharlari toponimikasi.** Oʻzbekistonning janubiy viloyalarida koʻplab qadimiy shaharlar mavjud. Bunday shaharlar qatoriga Qarshi, Termiz, Shahrisabz, Denov, Kitob va boshqa shaharlarni kiritishimiz mumkin. Bu shaharlarni har birining toponomikasida oʻziga xosliklar mavjud.

Yurtimizning eng qadimiy shaharlaridan biri – Qarshi hisoblanadi. Qarshi qadimda Naxshab (“suv obod qilgan, suv naqsh bergan manzil”) yoki Nasaf deb nomlangan boʻlib, shahar qoldiqlari dastavval A. I. Terenojkin, S. K. Kabanov va M. E. Masson kabi arxeolog olimlar tomonidan oʻrganilgan. Nasaf shahri tarixi boʻyicha jiddiy tadqiqotlar XX asrning 70-yillaridan boshlab Oʻzbekiston FA Arxeologiya institutining maxsus ekspeditsiyalari tomonidan olib borilgan.

Yozma manbalarda Naxshab IV–V asrlarda bunyod etilgan yirik va mustahkam qalʼa sifatida, VII–VIII asrlarda esa vohaning poytaxt shahriga aylangani haqida maʼlumotlar keltirib oʻtilgan. IX–X asrlardan boshlab Nasaf gullab-yashnagan oʻrta asr shaharlaridan biri sifatida yodga olinadi. Ushbu davrda ham shahar Buxoro – Balx karvon yoʻlida joylashgan. Shaharda qalʼa va rabad mavjud boʻlgan hamda shahar toʻrtta darvozaga ega mudofaa devori bilan oʻrab olingan. XIII asrda esa Naxshabni moʻgʻul bosqinchisi Chingizxon bosib olgach, yondirilib, butunlay vayron etilgan.

Tarixchilarning fikricha, yangi Qarshi shahrining vujudga kelishi Kebekxon faoliyati (1318 – 1326) bilan bogʻliq. XIV asrda qadimgi Nasafdan 5 km shimolda – hozirgi Qarshi shahri oʻmida Chigʻatoy urugʻidan boʻlmish Kebekxon tomonidan saroy bunyod etilgan va yangi shaharga asos solingan.

Qarshi atamasi barcha olimlar tomonidan birday qabul qilinmagan. Xususan, yozma manbalarda shaharning eski nomlari bilan – Nasaf, yoki Yerqoʻrgʻon deb yuritilgan. Shahar nomi turli davrlarda turlicha nomlangan boʻlsa-da, u Naxshab vohasi poytaxt shahrining turli davrlardagi taraqqiyot bosqichlarini oʻzida mujassam etgan.

Tarixchilarning fikricha, “Qarshi” soʻzining maʼnosi xususida quyidagi fikrlar mavjud: M. Ye. Masson va V. V. Bartolʼd moʻgʻulcha “Qarshi” soʻzi

“saroy” ma’nosini anglatadi, chunki mo’g’ul xonlari rasmiy yig’inlari o’tkaziladigan saroy “Oltin Qarshi” deb nomlangan, degan ma’lumot keltirgan.

Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida “Qarshi” atamasi – “Saroy va “qarama-qarshi turish” ma’nolarini bildiradi deb yozilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida “Qarshi” so’zi mo’g’ulcha “go’rxona”, ya’ni maqbara degan ma’noni bildirishini va bu nom mo’g’ullar istilosidan keyin paydo bo’lganini ta’kidlab o’tgan. T. Nafasov yozganidek, XV–XVI asrlarda xon avlodi, ulug’ ruhoniy va boshqa mo’tabar shaxslar qabri uchun qurilgan dahma, maqbara ham “Qarshi” deyilgan, chunki o’sha davr odatiga ko’ra bunday kishilar jasadi maqbara ichiga qo’yilgan, maqbara esa saroy, ya’ni “Qarshi” ichida bo’lgan. Muhammad Yoqub Buxoriy “Gulshan ul-muluk” asarida esa “Qarshi” so’zi uyg’urcha “saroy” ma’nosini bildirishini qayd etilgan.

Shunday qilib, Qarshi shahrining nomini Kebekxon saroyi yoki uning xilxonasi nomidan kelib chiqqan deyish mumkin.

XVI asrlardayoq Qarshi shahri ichki qo’rg’onga ega bo’lgan mustahkam shahar bo’lgan. Asr oxiriga kelib Abdullaxon II tomonidan shaharda bir qator yangi binolar – madrasa, masjid, karvonsaroylar, sardoba, hammomlar va gumbazli savdo inshooti – chorsu, bozorlar hamda Qashqadaryo ustidan ko’prik barpo etilgan. Mahmud ibn Valining yozishicha, bu katta va saranjom shahar jahonning katta shaharlari bilan tenglasha olgan. P. P. Ivanovning ta’kidlashicha, XIX asr boshlarida Qarshi shahri Buxoro va Samarqanddan so’ng uchinchi o’rinda turgan yirik shahar bo’lgan.

Shahrisabz. O’rta asrlarda Kesh deb nomlangan Shahrisabz vohasi Zarafshon tog’lari etagi va G’uzordaryo atrofida joylashgan tumanlarni o’z ichiga olgan. Arxeologlarning ta’kidlashicha, voha poytaxti ham Kesh nomi bilan atalgan. U Kitob va Shahrisabz o’rtasida joylashgan. XIX – XX asr boshlarida Kesh vohasida Shahrisabz va Kitob alohida markazga ega yirik shaharlardan hisoblangan.

Manbalarda Shahrisabz shahri “Kesh-Kashsh”, “Kas” va “Kis-Kis” shakllarida tilga olingan. Akademik V.V. Bar’told Kesh shahri nomi asli Kash bo’lgan, chunki shaharning epiteti “Kashi – dilkash” edi degan fikri e’tibirlidir. Shahrisabz atamasi ham shaharning qadimiy nomi bo’lib, “yashil shahar” ma’nosini bildiradi.

Shahrisabz ilk o’rta asrlarda Kitob shahri o’rnida joylashgan. Keyinchalik shaharning mudofaa devori bilan o’rab olinishi va mustahkamlanishi Amir Temur faoliyati bilan bog’liq. Shahrisabz bu davrda aniq rejali, baland himoya devori va mustahkam minoraga ega bo’lgan shaharga aylangan.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil 29-martda Shahrisabz shahrining 2700 yilligini nishonlash to’g’risida qaror qabul qilindi va tantanalarda YUNESKO vakillari ham ishtirok etdi.

Kitob shahri Qashqadaryo vohasida joylashgan yana bir muhim markaz hisoblangan. Manba’larda keltirilishicha, qadimgi va ilk o’rta asrlarda Kesh vohasining markazi Kitob shahri o’rnida joylashgan. XVIII asrlarda ilk o’rta asrlarga oid shahar harobalari o’rnida Kitob qo’rg’oni barpo qilingan. Uning

atrofiga ko'plab aholi ko'chib kelib joylashishi natijasida, yangi shaharga asos solingan va bu shahar asta-sekin rivojlana borgan.

Tarixchilarning fikricha, "Kitob" atamasining ma'nosi haqida quyidagi fikrlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar shahar nomini Qashqadaryoning yuqori oqimidagi Kashaf jilg'asi nomi bilan bog'laydi. Boshqa bir guruh tojikcha "kift" – "elka", "ob" – "suv", ya'ni "elkadagi suv" degan ma'noni bildiruvchi "kiftob" so'zidan kelib chiqqan desa, yana bir guruh tadqiqotchilar joy ma'nosini anglatadigan so'g'diycha "xat" va "suv" ma'nosini beruvchi tojikcha "ob" so'zidan, ya'ni "suv bo'yidagi shahar" ma'nosidagi "katob" birikmasidan kelib chiqqan deb ta'kidlashadi.

Ma'lumki, XVIII asrning birinchi yarmida Qashqadaryo vohasining sharqiy qismida Sangfurush, Ulash, Kitob kabi qo'rg'onlar vujudga kelgan bo'lib, keyinchalik ular orasida faqatgina Kitob qo'rg'oni taraqqiy etgan hamda shahar darajasiga ko'garilgan.

Chiroqchi. Chiroqchi qadimdan mohir usta va hunarmandlar shahri bo'lgan. Shuning uchun Chiroqchi shahri nomi – "chiroq yasovchi hunarmandlar" kasbi bilan bog'liq.

Termiz – O'zbekistondagi eng qadimiy shaharlardan biri va Surxondaryo viloyatining markazi. Shahar miloddan avvalgi IV – III asrlarda 10 gektar maydonni egallagan. Mashhur tarixchi Hofizi Abro'yning yozishicha, shahar nomi Amudaryoning narigi tarafidalgiga qaratilib, baqtriyacha "Taramastxa" ("narigi sohildagi manzil") so'zidan olingan va asrlar davomida turlicha atalib kelingan. Masalan, Antioxiya, Demetrais, Tarmid, Tarmiz, Tami, Tamo va hokozo. Shahar X asrdan boshlab Termiz deb atala boshlagan.

Denov. Kattaligi va aholisining soni bo'yicha Surxondaryo viloyatida Termizdan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi shahar. Denov shahri yozma manbalarda XIV asrdan boshlab forscha "Dehnav" shaklida, ya'ni "Yangi qishloq" mazmunuda tilga olingan. XVII asr muallifi Mahmud ibn Valining yozishicha, Dehinav ajoyib bozori, katta masjidi va xonoqosi bo'lgan mustahkam qal'a hisoblangan. Ba'zi tadqiqotchilar Chag'aniyon shahri Denov o'rnida bo'lgan deb hisoblab kelishadi. Arxeologik topilmalar esa denov XV asrga oidligini, uni mustahkam qo'rg'on bo'lganligini tasdiqlaydi.

Boysun. Miloddan avvalgi I asrda Boysun o'rnida Poikalon nomli mustahkam shahar-qal'a mavjud bo'lgan. Milodiy VI – XIII asr boshlarida Boysun o'rnida Chag'aniyon shaharlaridan biri – Bosand joylashgan. Abu Ishoq Istahriyning "Kitob masolik al mamolik" ("Mamlakatlar yo'llari to'g'risida kitob") asarida ham Bosand deb ta'riflangan. "Hudud ul-olam" asarida Bosand ko'p sonli va jangovor aholili mustahkam joydir deyilgan. Arxeologik manbalarga ko'ra, Bosandda hayot ilk o'rta asarlardan mo'g'ullar istilosigacha davom etgan. Mo'g'ullar bosqinida vayron bo'lgan shahar keyinroq qayta tiklangan. Boysun toponimi bo'yicha quyidagi fikrlar mavjud: Chig'atoy ulusi tarkibiga mansub ko'chmanchi turk qavmlari unga "Boysun" deb nom berganlar. "Boysun" atamasi qadimgi turkiycha "boy" va "sin"dan olinib, "ulug' tog'" yoxud "katta tog'" ma'nosini anglatgan. Qadimgi turkiy qavmlarda turli sanalarga sig'inishlar qatorida toqqa sig'inish ham mavjud bo'lib, tog'lar muqaddas sanalgan. Mahalliy

rivoyatlarga ko'ra, bu yerda qadimdan turkiy qavmlarning badavlat kishilari yashagan bo'lib, "Biysun" atamasi "boylar qishlog'i" ma'nosini anglatgan.

Jarqo'rg'on. "Jarqo'rg'on" toponimi qadimda "jar yoqasida joylashgan qo'rg'on" nomidan kelib chiqqan. Arab-fors manbalari bergan ma'lumotlarga ko'ra, Jarqo'rg'on shahri o'rnida VIII – XII asrlarda Charmangan (Sarmangan) shahri mavjud bo'lgan. Bu davrda Jarqo'rg'on vohada mavqei jihatidan Termizdan keyingi ikkinchi shahar bo'lgan.

Jizzax – O'zbekistonning qadimiy va navqiron shaharlaridan biri hisoblanadi. Jizzax shahri hozirda shu nomdagi viloyat va tuman markazi hamdir. "Jizzax" toponimi haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, yunon solnomachilari qayd etgan, Aleksandr Makedonskiy yurishlari davridagi Kiropol va Gazo shaharlaridan biri aynan Jizzax shahriga to'g'ri keladi. Yurtimiz arxeologlari Gazo shahrini o'rnini aniq tayin etmasalar-da, tarixiy manbalarda uni Samarqand va Toshkent oralig'ida joylashganligini inobatga olib, qadimgi Jizzax bo'lsa kerak deb taxmin qiladilar. Shahar ilk bor arab geograf olimlari va sayyohlari Abulqosim ibn Havqal va al-Muqaddasiylarning asarlarida Ustrushonaning Faknon viloyatidagi shahar deb tilga olinadi. Shahar arablar istilosidan oldin ham mavjud bo'lgan.

Toponomist olimlar ma'lumotlariga ko'ra, "Jizzax" o'rta asrlarga oid tarixiy manbalarda "Dizak" nomi bilan atalgan. "Dizak" nomi esa "Kichik qal'a" mazmunini bildiradi. Ma'lumotlarga qaraganda, Dizak X asrda kattaligi jihatidan Ustrushonaning Panjikent va Zomindan keyingi uchinchi shahri bo'lgan.

Abulqosim ibn Havqal, al-Muqaddasiy, al-Istahriy, Yoqut, "Hudud ul-alam"ning noma'lum muallifi va boshqa o'rta asr geograf-sayyohlari asarlarida Jizzax nomi "Dizak" shaklida ifodalangan. So'nggi o'rta asr yozma manbalarida bu atama "Dizaq", "Dizzaq", "Dizdak", "Dizax", "Dizzax" shaklida yozilgan.

X – XVI asrlar orasida yaratilgan tarixiy, jug'rofiy, badiiy-tarixiy asarlarda "Dizak" atamasi ma'lum joy o'rni, shaharning nomi sifatida tilga olingan. "Dizak" atamasi asosi – "diz" so'zidir. So'g'd tilida "diz" – "qal'a", "qo'rg'on" ma'nosini anglatadi. Atamashunos T. Nafasovning ta'kidlashicha, "diz" so'zining nomlar yasash doirasi, tarqalish hududi o'rta asrlarda ancha keng miqyosda bo'lgan. IX – XIII asrlar solnomalarida "diz" asosida yasalgan qator qal'a, qo'rg'on, shaharcha va yirik qishloq nomlari uchraydi. Aksariyat hollarda "diz" o'zagiga – a – affiksi qo'shilib, yangi so'z yasalgan. "Diz" – "diza" atamasi ishtirokida nomlangan maskanlar ma'nosi turar joylarning o'ziga xos xususiyatini ifodalagan. Jumladan, Kuhandiz – shahar qal'asi, Navdiz – Yangi qo'rg'on, Sangdiza – Tosh qo'rg'on, Bardiza – Baland qo'rg'on, Chokardiza – Navkarlar qo'rg'oni va h.k. Jizzax so'zining etimologiyasiga alohida to'xtalgan T. Nafasovning yozishicha, "diza" so'ziga – k - qo'shimchasi qo'shilib, dizak (diz-a-k) so'zi yasalgan. Dizak – kichik qal'a, qal'acha, kichik qo'rg'on yoki qo'rg'oncha ma'nosini bildirgan. O'zbekcha "qo'rg'on" so'ziga fors-tojik – "ak" qo'shimchasini qo'shib, "qo'rg'onak" tarzida qo'rg'oncha ma'nosini beruvchi so'zlar ham yuzaga kelgan. O'zbekistonda aynan qo'rg'on, qo'rg'oncha nomi bilan atalgan joy nomlari ma'lum darajada keng tarqalgan.

Tadqiqotlardan ma'lumki, o'rta asrlarda Dizak hozirgi Jizzax shahrining sharqiy qismida joylashgan Qaliyatepa harobalari o'rnida bo'lgan. Arxeologik

ma'lumotlarga qaraganda Qaliyatepada hayot miloddan avvalgi III – II asrlardan boshlanib, ba'zi bir uzilishlar bilan so'nggi o'rta asrlargacha davom etgan. Qaliyatepada arxeologik tadqiqotlar o'tkazgan olimlarning fikricha, Qaliyatepa nomining izohi aynan Dizakdan kelib chiqqan, zero bu ikki so'z bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Demak, Diz – qal'a. Dizak – kichik qal'a ma'nosida bo'lib, Muhammad Solihning "Shayboniyнома" asarida "Qal'ai Dizzaq", "Mulki Dizzax" shaklida ham berilgan. Qal'a so'zi esa turkiy xalqlar tilida "istehkomli turar joy" ma'nosini beradi. "Qal'a" so'zi ishtirokida yasalgan shaharlar sonini ko'plab keltirish mumkin. Masalan. Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Ichanqal'a, Ellikqal'a va h.k. Shuningdek, hozirgi qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq singari qardosh turkiy xalqlar shaharni to'g'ridan - to'g'ri "qal'a" deb atashadi. Fikrimizcha, XV – XVI asrlarda o'troqlashgan qabilalarning yangi-yangi turar joylarining qad ko'tarishi bilan joy nomlarini ham turkiycha atash keng rasm bo'la boshlagan. Mazkur jarayon uchun Shayboniyxon yurishlari davrida Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan "qirq" urug'i kattagina guruhining Jizzax vohasida muqim o'troqlashuvi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Aynan ushbu davrdan Qaliyatepa, ham "Dizak", ham "qal'a" shaklida atala boshlagan. Bu hol yozma manbalarda unchalik sezilmasada, xalq og'zaki muloqotida ommalashib borgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, XVII asrning boshlarida "Dizak" – "qal'a"da hayot butunlay to'xtagan. Jizzaxdagi shahar hayoti Qaliyatepadan 6 km shimoli-g'arbda joylashgan O'rdaga ko'chgan. Eski shahar "Dizak" – "qal'a" imoratlari nurab, tepaliklarga aylangach, u "Qal'atepa" deb atala boshlagan. Qal'atepa atamasi esa bizning davrimizgacha Qaliyatepa shaklida yetib kelgan.

Zomin. Zomin tarixiy shahar bo'lib, qadimda Sarsanda, Suvsanda, Sabza nomlari bilan atalib kelingan. Ma'lumotlarga qaraganda, Zomin eramizning II asridan boshlab shu nom bilan atala boshlangan. "Zomin" atamasi haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Xususan, "Zomin bo'lish", "zam" – "chorraha". Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarida "Zomin" so'zi "tog' oralig'i, o'rtaliqdagi makon" ma'nolarini beradi. Zomin toponimi to'la xulosalanmagan.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati shaharlari toponimikasi.** Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududlarida yurtimizning ko'plab qadimiy va navqiron shaharlari mavjud. Bu hududlarda shaharlar Farg'ona vodiysi, Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalariga nisbatan kamroq bo'lsa-da, o'ziga xos suronli tarixga ega. Shuningdek, bu shaharlarni har birining toponomikasida o'ziga xosliklar mavjud.

Xususan, Nukus shahri Qoraqalpog'iston Respublikasining poytahti, muhim siyosiy va iqtisodiy markaz hisoblanadi. Nukus toponomiyasi haqida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Xususan, e'tibor beradigan bo'lsak, nekuz degan urug' bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Nukus (no'kis) urug'i surgun qilingan to'qqizta qizning o'g'illaridan tarqalgan kishilarning avlodi bo'lib, "to'qqiz kishi" demakdir (tojikcha "no'h" – "to'qqiz", "kas" – "kishi"). Bu rivoyat, xolos. Toponimning etimologiyasi hamon noma'lum.

Nukus qabilasi "neko'z" shaklida turk-mo'g'ul urug'lari tarkibida qadimgi tarixiy manbalarda, chunonchi, Rashid ad-dinning "Jome at-tavorix" asarida ham tilga olingan. Nukus urug'i nukas ("yangi qishloq") degan ma'noni anglatadi

degan fikr ham bor. Nrtus (Nikuz) degan joy nomlari Respublikamizning boshqa yerlarida ham uchraydi.

Mo'ynoq. Mo'ynoq quyidagi tarkibiy qismdan iborat: "mo'yin" – "bo'yin". "oq" kichraytirish qo'shimchasi. Mo'ynoq – "kichik bo'yin". "bo'yincha" demakdir.

Taxtako'pir. "Taxtako'pir" toponimining kelib chiqishini XX asrning boshlarida Quvonchayorma kanalining davomi bo'lgan Bosay kanali ustida xashar yo'li bilan qurilgan taxta (yog'och)dan qurilgan ko'prik (shevada ko'pir) bilan bog'laydilar.

To'rtko'l. To'rtko'l Qoraqalpog'iston Respublikasining birinchi poytahti hisoblanadi. To'rtko'l toponimi e'tibor beradigan bo'lsak, shahar qa'tiy plan asosida to'rtburchak (to'rt gul – kvadrat) shaklda qurilganligi uchun shunday nom olgan. Shuningdek, mahalliy rivoyatlarning birida shahar nomi "Durgil" bo'lib, forsiyda "Durri gil" – "serhosil, oltin tuproq" ma'nosida ham talqin etiladi.

Xo'jayli. "Xo'jayli" atamasi XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida poydo bo'lgan. XIX asr 70-yillarida O'rta Osiyoda bo'lgan rus olimi A. L. Kunning ma'lumotlariga ko'ra, Xo'jayli qal'asini Turkiston shahridan ko'chib kelgan eshon Alamin Xo'ja qurdirgan. Shuningdek, mahalliy aholi orasida shaharga so'fiylarning Yassaviylik oqimiga mansub xo'jalar tomonidan asos solingan degan rivoyat ham bor. Shahar atrofida miloddan avvalgi IV–III asrlarda aholi yashaganligini arxeologik qazishmalar tasdiqlaydi.

Qo'ng'iro't. Qo'ng'iro't arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, 2500–2600 yillik tarixga ega. Qoraqalpog'istondagi beshta tarixiy qal'aning biridir. Qo'ng'iro't haqida akademik V. V. Bartol'd. Ya. G'ulomov, venger olimi G. Vamberi va boshqalar yozib qoldirganlar. Qo'ng'iro't toponimi esa o'zbek xalqi tarkibidagi qabilalardan birining nomi. Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda Oltoy, Mo'g'ulistonning shimoliy qismida yashaganlar. Qo'ng'iro'tlarning ayrim guruhleri XIV – XVI asrlarda O'rta Osiyo va Xuroson hududlariga kelib joylashganlar. Xorazm hududiga o'tgan qo'ng'iro'tlar Xorazmning siyosiy hayotida faol ishtirok etganlar. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Xiva xonligini qo'ng'iro'tlar sulolasi boshqarganlar. Qo'ng'iro'tlar 5 ta katta urug'ga: vaxtamg'ali, qo'shtamg'ali, qonjig'ali, oyinli va tortuvli kabi urug'larga bo'lingan. Qo'ng'iro't etnonimi keyinchalik toponimga aylanib ketgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi shaharlari toponimlari haqida so'z ketganda. Orol dengizi toponimiga ham to'xtalib o'tish kerak deb hisoblaymiz. Orol dengizi nomining kelib chiqishi haqida bir qancha fikrlar bayon etilgan. Nega dengiz (katta ko'l) Orol deb atalgan? Orol suv o'rtasidagi quruqlik-ku! Xiva xoni, yirik tarixchi olim Abulg'ozzi Bahodixon Amudaryo dengizga quyiladigan joyni, del'tani Orol deb atagan. Ana shu yerda orolliklar degan xalq yashagan. L. Berg o'zining "Orol dengizi" degan asarida (1908) Orol o'sha yerda yashagan xalq – orolliklar nomidan kelib chiqqan deb yozadi va Richkovning (1755) "Ko'lda orollar ko'p" bo'lganligidan u shunday atalgan" degan fikrini o'rtaga tashlaydi. Chindan ham ushbu dengizda 300 dan ortiq orol bo'lgan.

Tevarak-atrofdagi o'zbeklar, qozoqlar dengizni Orol (Aral) deb atasa, qoraqalpoqlar Aral yoki Atau deb atashar ekan. Qoraqalboq toponimisti Q.

Abdimuratov Orol dengizi chindan ham orol “suv oʻrtasidagi quruqlik” soʻzidan kelib chiqqan degan fikrni bildiradi.

Xorazm – Oʻzbekistondagi viloyatlardan birining nomi boʻlib, Xorazm toponomikasi tarixi ancha qadimiy va uzoq tarixni bosib oʻtgan. Xorazm toponimi haqida ham rivoyatlar bor. Chunonchi, oʻrta asr arab olimlaridan Muqaddasiy va Yoqut Hamaviy asarlarida bu haqida shunday rivoyat keltirilgan. Podsho gʻazabnok boʻlib, oʻzining bir qancha bebosh fuqarolarini kimsasiz uzoq joyga badargʻa qilishni buyuradi. Lekin bu yerda oʻtin va goʻsht (yaʼni Amudaryoda baliq) koʻp boʻlganidan ular omon qoladilar. Musofirlar bu oʻlkani obod qilib, Xorazm deb atadilar (“xovar” – “goʻsht”, “azm” – “oʻtin”). Bu bir rivoyat xolos. Xorazm toponimi ming yillar davomida sayqallanib, bizning bugungi kunimizga qadar yetib kelgan.

Xiva – Oʻzbekistonning qadimiy shaharlaridan biri boʻlib, arxeologik maʼlumotlarga koʻra, shahar miloddan avvalgi V asrda barpo etilgan. Maʼlumotlarga koʻra, uning nomi shaharning qadimiy qismida joylashgan Xivaq (Xivaq) qudugʻi nomi bilan bogʻliq. Baʼzi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tilga yaqin qadimgi asetin tilidagi “xiauv” – “qalʼa” soʻzidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan oqib oʻtgan Xeykaniq (hozirgi Polvonyop) kanalining oʻzgartirilgan (Xeykaniq – Xeyvaniq – Xeyvaq – Xiva – Xiva) nomidan kelib chiqqan deydi.

Xorazmlik tarixchi-solnomachi Xudoyberdi Qoʻshmuhammad oʻzining 1831-yilda yozgan “Dili gʻaroyib” asarida Xorazmning qadimiy shaharlarini nomma-nom sanar ekan, “bu mamlakatning yana bir qalʼani Som ibn Nuh asos solgan, u hozirgi Xivaq nomi bilan mashhurdir” deb maʼlumot beradi.

Xalq rivoyatlarida ham Xiva shahrining bunyod etilishi Nuh zamonlariga borib taqaladi. Bunga Nuhning oʻgʻli Som boʻlajak shahar yoniga kelib quduq qazdirgan va shu bilan Xivaga asos solgan. Haqiqatdan ham Xivaning Ichan qalʼasida qadimgi Xeyvaq (Xivak) qudugʻi saqlanib qolgan.

Xiva shahri toʻgʻrisidagi dastlabki ishonchli maʼlumotlar X asrdan boshlab arab-fors tilidagi tarixiy-geografik manbalarda uchraydi. Istahriy (930) Xivani oʻsha davrdagi eng yirik 30 ta shahar roʻyxatiga kiritgan. Yoqut Hamaviy (XIII), Nizomiddin Shomiy (XIV) asarlarida ham karvon yoʻlida joylashgan shahar sifatida tilga olingan.

Xivaning jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan oʻrni YUNESKO bosh konferensiyasining (1995-yil oktabr – noyabr) 28-sessiyasida alohida qayd qilindi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 3-yanvardagi Qarori bilan Xivaning 2500 yilligi 1997 yilda jahon miqyosida keng nishonlandi.

Urganch – yurtimizdagi qadimiy va navqiron shaharlardan biri hisoblanadi. Urganch (Gurganch) shahri qadimda joylashgan hudud hozirgi Turkmaniston (Toshhovuz viloyati) tarkibida boʻlib, hozir Koʻhna Urganch nomi bilan ataladi. Koʻhna Urganch shahriga asos solinganiga 2000 yildan ortiq vaqt boʻldi. Oʻzbekiston hududidagi Urganch shahriga 1646-yilda Xiva xoni Abdulgʻoziy Bahodirxon tomonidan asos solingan. XVI asr ikkinchi yarmida Amudaryo oʻz oʻzanini oʻzgartirib, Orol dengiziga oqa boshlaganidan soʻng Gurganch shahri (hozirgi Koʻhna Urganch) suvsiz qolgan. Abdulgʻoziy Bahodirxon Gurganch, Vazir qalʼalarida va ularning atroflarida tarqoq holda yashagan aholini koʻchirib



Amudaryoning janubiy qismlarida joylashtirgan va aholi o'rnamashgan hudud atrofini qal'a devori bilan mustahkamlab, unga "Toza Urganch", ya'ni "Yangi Urganch" deb nom bergan. Shundan so'ng, Gurganch shahrining nomi Ko'hna Urganch bo'lib qoldi.

Urganch shahri nomini kelib chiqishi yuzasidan bir necha xil qarashlar mavjud. Shaharning paydo bo'lishi miloddan avvalgi VII–VI asrlarga borib taqaladi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da Burunash (Orol) dengizi bo'yida Urga (Urva) shahri bo'lganligi qayd etiladi. Tabiiy ofatlar (suv toshqini, qurg'oqchillik) tufayli shahar hozirgi Ko'hna Urganch shahri hududiga ko'chirilgan. Shahar VIII asrgacha "Gurganj" nomi bilan yuritilgan. 712-yilda arablar tomonidan bosib olinganch "Jurjoniya" deb atala boshlanadi. 1221-yilda mo'g'ullar tomonidan bosib olinganidan so'ng shahar Urganch shaklida yuritila boshlanadi. Shuningdek, Urganch shahri miloddan avvalgi I asr Xitoy yilnomalarida Yue-Tan yoki Yue-Tsyan shaklida ham qayd etilgan. XIV asrga oid Yevropa manbalarida Urganch – Vrgant shaklida tilga olinadi.

Hazorasp. Hazorasp X – XI asrlardagi arab geograflari Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida "mustahkam qal'a" deb tilga olingan. "Hazorasp" toponimining kelib chiqishi yuzasidan ham turlicha qarashlar mavjud. Tarixchi, tilshunos va toponomist olimlar Yahyo G'ulomov, S. T. Tolstov, F. Abdullayev, O. Madrahimov va boshqalarning ta'kidlashlaricha, "Hazorasp" qadimgi xorazmiy tilida "ming ot", ya'ni "hazor" – "ming", "asp" – "ot" yoki ming otliq degan ma'noni bildiradi. O'tmishda olimlar bu shaharni "Qal'ai Sulaymon" deb ham ataganlar. Tarixchi olim M. Ishoqov taxminiga ko'ra, "Xozorasp" atamasi "Aturaspend" – "muqaddas olov manzili", "otashdosh" ma'nolarini bildiradi. "Xazorasp" toponomiyasiga oid afsona va rivoyatlar ham mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, Xazorasp Xorazmning chekkasidagi himoya istehkomi bo'lib, bu yerda mingga yaqin otliq qo'shin Xorazmga sharqdan kelishi ehtimolda tutilgan dushmanlardan muxofaza etgan.

Boshqa bir rivoyatga ko'ra, qal'ani bahaybat dev qurgan ekan. Dev bu yerga suv ichgani keladigan 1000 ta qanotli otini ushlab olib, qanotlarini kesib tashlagan emish. Otlar tufayli mashhur bo'lgan qal'a Hazorasp "ming ot" (forscha-tojikcha) deb atalgan. Bu rivoyatning haqiqatga to'g'ri kelmasiigi o'z-o'zidan ravshan. Hozirgi Hazorasp qishlog'i nomini mahalliy xalq Hazaras shaklida talaffuz qiladi. Bu esa aslga yaqin. Qal'a milodning boshlarida Sharqiy Yevropada, jumladan Volganing quyi oqimida yashab xoqonlik barpo qilgan turkiy xalq – hazarlar nomi bilan atalgan bo'lsa ajab emas. – as qo'shimchasiga kelganda shuni aytish kerakki, etnograflardan R. G. Kuzeyev va B. X. Karmishevaning fikricha, tarkibida – as (az) komponenti bo'lgan etnonimlar va toponimlar nihoyatda katta hududda – Oltoydari Uralgacha, Kavkaz va Qrimgacha uchraydi. Ba'zi bir olimlar – as II – IX asrlarda quyi Volga bo'yi, shimoliy Kavkazda yashagan alan qabilasining ikkinchi nomi yoki qabila ajdodlari bo'lgan deb hisoblasalar, boshqa bir tarixchilar as Orxon-Yenisey yodgorliklarida tilga olingan az (as) xalqi nomining in'ikosi bolishi mumkin deb biladi. Boshqird etnografi, tarix fanlari doktori R. G. Kuzeyev har ikkala holda ham azlar (aslar) VIII – IX asrlarda turkiy qabilalar bo'lgan deydi.

### **Tayanch iboralar:**

Parkana, "Az har xona", Yangi Marg'ilon, "Murg'u non", Ho'qand, Kubo, Andigon, Choch, Binkent, Binkat, Chinoz, Mosaf, Vodiy us-Sug'd, Semizkent, Maroqanda, Vixora. Naxshab, Kesh-Kashsh", Kashaf, "Dehnav", Dizak, Nikuz, Xeyvaq, Burunash dengizi, Hazorasp.

### **Nazorat savollari:**

1. Farg'ona shahriga qachon asos solingan?
2. "Qo'qon" toponimi haqida qanday farazlar mavjud?
3. "Toshkent" toponimi ilk bor qachon va kimning asarlarida tilga olingan?
4. Samarqand shahri qachondan shunday nom bilan atala boshlangan?
5. Nukus toponimi haqida ma'lumot bering?

## **NAMANGAN VILOYATI SHAHAR VA QISHLOQLARI TOPONIMIKASI.**

### **Reja:**

1. Namangan shahri toponimikasi.
2. Namangan, Uychi va Uchqo'rg'on tumanlari shahar va qishloqlari toponimikasi.
3. Chortoq, Yangiqo'rg'on, Norin tumanlari shahar va qishloqlari toponimikasi.
4. Pop va Chust tumanlari shahar va qishloqlari toponimikasi.
5. Mingbuloq, To'raqo'rg'on, Kosonsoy tumanlari shahar va qishloqlari toponimikasi.

**Namangan shahri toponimikasi.** Yurtimizda o'ziga xos mavqega ega bo'lgan hududlaridan biri bo'lgan Namangan viloyati ham qadimiy va hamisha navqiron shahar va qishloqlarga boy hisoblanadi. Namangan viloyatida 11 ta tuman (Namangan, Pop, Chust, Kosonsoy, To'raqo'rg'on, Chortoq, Yangiqo'rg'on, Uychi, Norin, Mingbuloq, Uchqo'rg'on), 8 na shahar (Namangan, Pop, Chust, Kosonsoy, To'raqo'rg'on, Chortoq, Uchqo'rg'on, Haqqulobod) mavjud.

Namangan viloyatida ham Namangan, Pop, Chust, Kosonsoy, To'raqo'rg'on kabi qadimiy shaharlar, Olmos, Karkidon, Iskovot, Poromon, Nanay, Mamay, Navkent, Sang, G'urumsaroy, Chodak, Chorkesar, Peshqo'rg'on, Koroskon, Shahand, Qizilrovot, Qo'g'ay, Qayqi va boshqa qadimiy qishloqlar mavjud. Namangan viloyati shahar va qishloqlari toponomikasida ham o'ziga xosliklar mavjud.

O'zbekistonning yirik shaharlaridan biri Namangan yurtimizning qadimiy va navqiron shaharlaridan hisoblanadi. Shahar ko'chmanchi chorvadorlar va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi yashaydigan chegarada vujudga kelgan. Namangan qishlog'i haqidagi dastlabki ma'lumot XIV asr oxiriga tegishli.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida Namanganni qishloq sifatida eslatib o'tgan. 1620-yil Farg'ona vodiysining qadimgi poytaxti Axxi (Axxikant) zilzilardan vayron bo'lgach, uning aholisi yaqinroq joylashgan

Namanganga ko'chib o'tadi va Namangan kengayib, mavqei ortib boradi. Xususan, Namangan 1643-yilgi vaqf hujjatida shahar deb ma'lumot berilgan.

Qo'qon xonligi davrida Namangan xonlikning yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylangan. Qo'qon xoni Umarxon hukmronlik yillarida, ya'ni 1819 – 1822-yillari Namanganda Yangiariq kanali qazilib, shaharning suv ta'minoti ancha yaxshilanadi. 1842 – 1845-yillarda shahar atrofi mustahkam devor bilan o'rab olindi.

Namangan nomining paydo bo'lishi to'g'risida uzoq yillar davomida aniq bir to'htamga kelinmagan bo'lib, ilmiy talqin hanuzgacha yo'qligini afsus bilan ta'kidlashga to'g'ri keladi. Hamon ilmiy adabiyotlarda "Namangan" so'zining etimologiyasi umumiy ma'lumotlarga, turli talqinlarga ega hisoblanadi. Xususan, shu paytga qadar Namangan nomi "Namakkon", ya'ni forscha "tuz koni" talqini bilan ko'p tarqalgan. Ishoqxon Ibrat ham o'zining "Tarixi Farg'ona" asari Namangan toponimi haqida quyidagicha ma'lumot beradi: "Namangon aslida namongon emasdur. Forsiy lafzi birla namakon – namak kondur. Muni ma'nisi shuki, bizni Chig'atoy tilida asli gon yo'q ekan, bu shevai forsiydir. Namangon avvali holda, ya'ni mundan to'qqiz yuz yil ilgari yerlarda hech kim bo'lmay yotgan biyobon-ko'ltuz bo'lib, ul vaqtda Buxoro xonlaridan Abdullohxon bu Farg'ona tarafdorga kelib, har yerga goh sardobalar kavlab, saqqoyi mo'minga chohlarni tepasiga gumbazlar qilib, ko'p xalqqa naflik ishlarni qilgan xon ekan. Ul kishi bul Namangonni yeriga kelib, alholda darhol sardoba kavlatib, necha kunlar tutib, bir tarafi daryo va bir taraf tog' xavosi yaxshi uchun bir shahar bino qilmoq bo'lib o'z ichlaridan bir og'oliq mansabida turgan kishini amr qilib, shahar qilmoq bo'lganda, o'shal yerni daryo tarafi butun sho'r ko'l bo'lib tuz yotgan ekan. Binobarin namak kon deb, ya'ni tuz kon deb atagan ekan. Bu namak kon lafzini forsiyda gon qilib yozub, namakkonni namangon deb. bir nuni zoida ilan namangon bo'ldi. asli namakondur".

Ammo XX asr 70-yillarida olib borilgan arxeologik qazishlar chog'ida va mustaqillik yillaridagi shahar obodonchiligi bilan bog'liq qazishmalarda hech qanday tuz koni qoldiqlari yoki alomatlar topilmadi. Ammo bu degani tuz koni talqiniga oxirgi nuqta qo'yildi degani ham emas. Ayrim tarixchilar Namangan so'zini etimologik jihatdan "Novmakon", ya'ni "yangi joy" talqinida izohlaydilar.

Qadimdan Namangan hunarmandlar shahri hisoblangan va bu yerda munchoq ko'zmo'nchoq ishlab chiqarish, marjonga ishlov berish tarqqiy etgan. Shu ma'noda, Namanganga "Namang-marjon", "Namangon-marjon koni" tariqasidagi izohlar ham bor. Venger tarixchichi A. Vamberi Namangan toponimi "Namang – marjon", Namangon – marjon" degan ma'nolarni bildiradi degan fikrlarni bildirgan. Yuqorida keltirilgan turli talqinlarga asoslangan Y. Qosimov "Namangan"ga nisbatan qora marvarid, marjon yoxud ko'zmunchoq tayyorlovchilarga nisbatan aytilgan deyish bilan birga, yana ramziy jihatdan "qora ko'zli zarzi" degan ma'no degan o'z talqinini keltiradi.

Shuningdek, Namangan toponimining "Namoyon" – "o'zini ko'z-ko'z qilgan", "Navmangan" – "Soy bo'yidagi yangi saroy", "Daryo bo'yidagi yangi qasr" degan ma'nolari ham mavjud. Xususan, A. Muhammadjonov ma'lumotlarga ko'ra, Namangan "nav+man+gon" so'zlari birikmasidan yuzaga kelgan. Nav – "yangi", man – "saroy", va g'on, gon. – "suv" yoki soy demakdir.

Shular, dastlab Novmangon deb talaffuz qilingan. Professor H. Hasanov gona komponentini “daryo, suv” deb tahmin qilib. Namanganni “sho’rsuv”, “mineral suv”, “moyli suv” degan ma’noni bildiadi degan fikrni ham o’rtaga tashlagan. Sharqshunos A. Juvomardiyev Namangan toponimi – “Nomiyyon”, ya’ni “nomdor va aziz kishilar shahri” degan so’zdan olingan fikri ham e’tiborga loyiq. Zahiriddin Muhammad Bobur va Mashrab Namanganni – G’aznai Namangan deb ulug’laydilar. Qadimdan Qo’qon shahrini – Ho’qandi Latif, Buxoro shahrini – Buxoroi Sharif deb sharaflaganlari kabi Namangan shahrini Namangoni Eshoniy nomi bilan atalgani tarixdan ham ma’lum.

Yuqorida keltirilgan tarixiy talqinlar qanchalik “haqiqat”ga yaqin ekanligi shu kunga qadar o’z ilmiy asosiga ega emas. Shuning uchun ham, shu paytgacha qadar turli talqinlarga ega bo’lib kelayotgan “Namangan” so’zining etimologiyasi tarixi jumboqligicha qolmoqda.

**Namangan, Uychi va Uchqo’rg’on tumanlari shahar va qishloqlari toponimikasi.** Namangan tumani viloyatning eng unimdor va aholisi zich tumanlaridan hisoblanadi.

Toshbuloq – Namangan tumani markazi, shaharcha. Shaharcha hududida suvlari shifobaxsh hisoblangan 12 ta buloq mavjud. Qishloq nomi ham mana shu buloqlarning birini nomidan kelib chiqqan.

Tepaqo’rg’on. Namangan viloyatida Tepaqo’rg’on nomi ataluvchi qishloqlar Chust va Pop tumanlarida, shuningdek, Andijon viloyatida ham mavjud. Tepaqo’rg’on toponimiga e’tibor beradigan bo’lsak, qadimdan O’rta Osiyo hududida “Sun’iy tepalik”lar mavjud bo’lgan va bu tepaliklar yaqinlashib kelayotgan dushmandan ogoh bo’lish uchun bir-biridan ko’rinadigan tepaliklarda olov yoqish, tutun chiqarish yoki boshqa bir yo’l bilan xabar berilgan. Tepaqo’rg’on toponimi ham shunday tepaliklar bilan bog’liq bo’lishi ham mumkin. Shuningdek, ma’lumotlarga ko’ra, qishloq o’rni qadimda to’qayzor bo’lgan. Bu yerdan o’tgan soy bo’yidagi tepalikka odamlar kelib yashay boshlaganlar. Tepalik ustidagi qo’rg’onlar nomidan kelib chiqib qishloq Tepaqo’rg’on deb atalgan.

Irvodon. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloq nomi “Elobodon” so’zining vaqtlar o’tishi bilan buzilgan shaklidir.

Rovuston. Bugungi kunda Namangan tumanida joylashishiga qarab Pastki Rovuston va Yuqori Rovuston deb nomlanuvchi qishloqlar mavjud. Aytishlaricha, qishloq Qo’qon xoni Xudoyorxon davrida tashkil topgan. Nomi esa “rohi bo’ston” – “bog’ yo’li” degan iboradan olingan.

Langarbobo. Langar – “mazor”, “g’aribxona”, “karvonsaroy” degan ma’nomlarni bildiradi.

Kichik Qurama. Qishloq nomining kelib chiqishi haqida aniq ma’lumotlar yo’q. Tarixchilarning fikricha, Qurama, Katta Qurama, Kichik Qurama kabi toponimlar urug’-qabilalar nomlaridan kelib chiqqan.

Mullakuding. Rivoyat qilishlaricha, bu yerda mashhur bo’z to’quvchi bo’lib, u to’qigan matolarni kudunglash – jilo berish san’atini ham kashf etgan. Bo’zchilar turli taraflardan kelib, matolarini mana shu ustaga tekislatib, kudunglatib ketishgan. Qishloqning nomi ham shundan kelib chiqqan. Ishoqxon Ibratning “Tarixi Farg’ona” asarida qishloq nomi Malakdo’ng sifatida keltirilgan.

Mirishkor. Qishloqning nomi dehqonlarning mirishkorligi – usta dehqon ekanligi bilan bog‘liq.

Qiyot. Qiyot atamasi qishloqning geografik o‘rniga qarab, “qiyalik joy”, “qiya” so‘zlaridan kelib chiqqan degan fikrlar mavjud. Shuningdek, qiyot – o‘zbek urug‘laridan birining nomi hamdir.

Shishaki. Qishloq aholisining aytishicha, qishloq nomi suv o‘lchovi bilan bog‘liq. Ilgari qishloq ahli Kosonsoydan suv olgan, ularning cheki bir shishak, ya‘ni bir tegirmon (165 litr) bo‘lgan. Suv uch kun oqib turgan, hovuzlar va xonadonlardagi idishlar suvga to‘ldirilgach, 20 kungacha to‘xtatilgan. Natijada, qishloq nomi ham Shishaki deb atalgan.

G‘irvon. G‘irvon qishlog‘i XV – XVI asrlardan ma‘lum. Aytishlaricha, qadimda bu yerlarda tez-tez suv toshqini bo‘lib turgani uchun, qishloq aholisi doim taxlikada, soy bo‘yiga chodir qurib omonatgina yashagan ekanlar. “Bu yerda kimlar yashaydi?” – deb so‘raganlarida, “tabiiy ofatdan zarar ko‘rganlar, “g‘aribon” ya‘ni g‘ariblar deb javob berishgan ekan. G‘irvon atamasining kelib chiqishini ana shu “g‘aribon” so‘zi bilan bog‘laydilar.

Kurmak. Qadimdan qishloq hududida sholi ko‘p ekilgan. Qishloq yerlarining suvga yaqin bo‘lgani, kurmak o‘ti ko‘p bo‘lgani uchun qishloq nomi ham Kurmak deb atalgan.

Ne‘matjon. Ma‘lumotlarga qaraganda, qishloqqa Qo‘qon xonligida e‘tiborli odamlardan bo‘lgan Ne‘matjon ismli kishi asos solgan. Hatto, Qo‘qon xoni ham qishloqqa dam olish uchun kelar ekan. Qishloq unga asos solgan inson ismi bilan Ne‘matjon deb qo‘yilgan.

Ovul. Ma‘lumotlarga qaraganda, qishloq aholisi Qo‘qon xonligi davrida Boysun tomonlardan ko‘chib kelgan ekan. Ovul deb atalishiga sabab esa, bochqa manzillarga nisbatan chetda joylashganligidir. Shuningdek, atrof qishloqlarda bu qishloqni Yomon Ovul deb ham ataydilar. Aholining aytishicha, bir kuni Ovul qishlog‘i ko‘chalaridan begona odamlar qo‘shiq aytib o‘tishgan. Buni eshitgan Ovul erkaklari bizning ayollarimizni yo‘ldan urgani kelishgan deb o‘ylab, ularni qattiq kaltaklab, qishloqdan quvib yuborishgan. Shuning uchun qishloqni Yomon Ovul ham deb atab keladilar.

G‘alcha. Ma‘lumotlarga ko‘ra, qishloq bundan 300 yilcha muqaddam paydo bo‘lgan. G‘alcha so‘zining forsiydagi ma‘nolaridan biri – “tog‘lik”dir.

Olahamak. Yerlarida qovun, tarvuzdan yaxshi hosil olingan. Qishloq nomini kelib chiqishini ham shunga bog‘laydilar. Lekin Olahamak XVII asrda bu yerlarga ko‘chib kelgan qipchoqlarning Olahamak urug‘i nomidan olingan degan fikrlar ham mavjud.

Xonobod. Aytishlaricha, Qo‘qon xonlari shu taraflarga kelishganda qishloqqa to‘xtab dam olishgan. Xonning manzilgohi bo‘lgani uchun bu yer boshqa qishloqlarga nisbatan obod bo‘lgan. Qishloq nomining kelib chiqishi mana shundan.

Xo‘jaqishloq. Qishloqqa XVII asrda Tapaqo‘rg‘ondan ko‘chib kelgan bir necha xo‘ja oilalari asos solishgan. Nomining kelib chiqishi ham shunga bog‘liq.

Sho‘rqo‘rg‘on. Yerlari sho‘r, qoratuproq bo‘lganligi uchun qishloq shunday atalgan.

Guldirov. Qishloq nomini kelib chiqishini shu yerdagi katta ariq suvining duryoga guldirab oqib turishi bilan bog'laydilar. Shuningdek, Mingbuloq neft koniga yaqin bu joyning nomini keksalar yer osti guldirashlari bilan ham izohlaydilar.

Qirg'izqo'rg'on. Qishloq nomining kelib chiqishi to'g'risida ikki xil ma'lumot mavjud: birinchisida aytilishicha, qachonlardir bu yerlarda bir-biridan suluv qirg qiz yashagan ekan. Qishloqni ularning xotirasiga Qirqqizqo'rg'on deb atushgan emish. Vaqtlar o'tishi bilan qishloq nomi Qirg'izqo'rg'onga yalanib ketgan ekan. Boshqa bir rivoyatga ko'ra bu qishloqning dastlabki aholisi qirg'izlar bo'lgan. Shu sababli qishloq nomi Qirg'izqo'rg'on ekan.

Oqbuloq. Ma'lumotlarga qaraganda, bir paytlar bu qishloq hududida buloq mavjud bo'lgan va aholini suv bilan ta'minlagan. Rivoyat qilishlaricha, dastlab bu buloqdan suv emas sut chiqqan emish. Kimdir bolasining oyoq-qo'lini bu yerda yuvganidan so'ng, yana sut o'rniga suv chiqa boshlagan. Davrlar o'tib bu buloqning ko'zi bekilib ketgan bo'lsada uning nomi qishloq nomida saqlanib qolgan.

Uychi – Namangan viloyatidagi shaharcha, shu nomdagi tuman markazi. Ma'lumotlarga qaraganda Uychi toponimi "O'tov (bo'z uy, qora uy) yasovchi usta" ma'nolarida qo'llaniladi. Rivoyatlarga qaraganda, odamlar qadimdan bu yerlarda qamishdan uy yasab, yashaganlar. Yana aytadilarki, shaharcha o'rnida – yo'l bo'yida faqat bitta uycha bo'lgan. Yo'lovchilar o'sha uychada to'xtab, dam olib, tunab ketganlar. Shuningdek, qadimda bu yerliklar uy qurishga moxir bo'lishgan, shu sababli shaharcha nomi "uy quruvchilar", "uychilar" so'zidan kelib chiqqan degan farazlar ham mavjud. O'z navbatida, ba'zi ma'lumotlarda uy termini "sigir, qoramol" ma'nolarini bildirgan. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida qo'tosni uy deb atagan. Qirg'izlar sigimi hozir ham uy deb ataydilar.

Qizilrovot. Ma'lumki, XIX asr boshlarida Norin daryosidan suv olish uchun hashar yo'li bilan Yangiariq kanali qazilgan. Qishloq nomini shu voqea bilan bog'laydilar. Rivoyat qilishlaricha, Yangiariq kanalining rejasi qurilish, yer tuzish va boshqa muhandislik qonun-qoidalariga javob beradigan qilib, shunchalik puxta tuzilganiga sabab, bu ishning Hazrati Xizr alayhissalom duosi, yordami bilan amalga oshirilgan ekan. U zot yo'l-yo'lakay butalarning uchini birin-ketin bir biriga bog'lab ariq yo'lini belgilab bergan ekanlar. Shu bois, kanal boshidagi qishloq dastlab "Xizirobod" deb atalgan. Sho'ro davrida bu so'z buzilib, "Qizilrovot" shaklini olgan. Boshqa bir ma'lumotga ko'ra, qishloq hududidagi adirliklardan Xitoy va boshqa Sharq mamlakatlarni bog'laydigan karvon yo'l o'tgan. Yangiariq bo'yidagi yo'l chetlariga karvonsaroylar, mehmonxonalar, rabotlar qurilgan. Qishloqning nomi ham shundan kelib chiqib, "Xizrravot" deb atalgan ekan.

Mashad (yoki Mashat). Mashad toponimi, arabcha "mashhad" so'zi "biror kimsa shahid bo'lgan joy" yoki "shahid ko'milgan joy" degan ma'noni bildiradi. Bunda mashhad so'zi mashad yoki mashhat bo'lib ketgan deyish mumkin. Aytishlaricha, qishloq nomi bu yerda XIX asrda diniy mazhablar tarafdorlari orasida o'tgan janglarda shahid bshlganlar mozori bilan bog'liq. Rivoyatlarga ko'ra, bu janglarda 7 og'a-ini turli joylarda halok bo'lgan. Bu joylar Mashhad deb

atalgan. Vaqt o'tgan sari, "Mashhad" atamasi buzilib, "Mashad"ga aylanib ketgan. Biroq qirg'izlar yashaydigan hududlarda odatda toshlar orasidan chiqadigan kichik buloqlar bashat yoki mashat deb ataladi.

Jiydakapa. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloq hududida qadimda ko'plab yovvoyi jiyda daraxtlari zich. kapa hosil qilgan. Namangan – Marg'ilon – Andijon – O'sh yo'lida yuruvchi yo'lovchilar "Jiydakapada to'xtab, dam olaylik" deb ko'p takrorlashgan. Natijada qishloq nomi ham Jiydakapa deb atalgan.

Birlashgan. Qishloq nomi asli "Chekqishloq" bo'lib, ma'lumotlarga qaraganda, Yo'ldosh ko'sa degan odam asos solgan. U qaramog'idagi yerlarni odamlarga chek qilib bergan ekan. Qishloq nomi ham shuning uchun ham "Chekqishloq" deb atalgan. Sho'rolar davrida amalga oshirilgan jamoalashtirish siyosati natijasida "Chekqishloq" atrofidagi bir-necha qishloqlar birlashtirilgan va qishloq ham Birlashgan deb atalgan.

Dahyakota. Dahyakota toponimi dahyak ("o'ndan bir") – daromadning o'ndan biri qismi hisobida to'lanadigan soliqlardan olingan. Shuningdek, ba'zi bir madrasa talabalari va mudarrislariga yiliga to'langan nafaqa ham dahyak deyilgan. Dahyakota esa xon xazinasidan dahyak (nafaqa) olib turgan mashhur shayh yoki diniy ulamo. Shuningdek, Dahiyak – o'n bir ota degani bo'lib, o'z navbatida – Dahyaota – tirik-g'oyib, aslida barhayot bo'gan kishi demakdir. Rivoyatlarga qaraganda, Dahyaota 11 og'aynining eng kenjasi bo'lgan. Kattalari Ovchi buva (O'nhayatda), Buva ota va Podsho ota buvalar (Qirg'izistonning Aqsu tumanida), Ko'k to'nli buva, Mashhad buva (O'nhayatda) va boshqalar. Norin daryosi Ovchi buva degan manzilga yaqin joydan oqqan. Og'a-inilar nomozni Ovchi buva huzurida o'qishgan. Bir kuni toshqin tufayli Dahyaota namozga kechikib boradilar. Jamoat duo qilishib, Allohdan daryoni sal naridan oqishini so'rganlar. Daryo nariroqdan oqa boshlaydi va "Norin" nomini oladi. Shuning uchun aytiladiki, Dahyaotada toshqin bo'lmaydi.

Yorkatay. Qishloq nomi katak, tor, kichkina uycha degan so'zlardan kelib chiqqan. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloq avvallari qo'shni Yorqo'rg'on qishlog'i bilan birga bo'lgan. Lekin maydoni nisbatan kichkina, mo'jaz bo'lgani uchun "Yorkatak" deb atashgan. Keyinchalik, bu atama buzilib, Yorkatay bo'lib ketgan.

Fayziobod. Qishloq nomining kelib chiqishini Norin daryosi bo'yidagi qamishzorlarga o't qo'yib, yer ochgan, keyin u yerga qopda tuproq tashib ekinzor qilgan va shu zaylda qishloqqa asos solgan Fazliddin degan kishining nomi bilan bog'laydilar. Boshqa bir rivoyatga ko'ra, bu obod maskandan o'tib ketayotgan xon qishloq ahlining ehtiromi, mehmondorchiligidan xursand bo'lib, "Qishlog'ingiz bundan ham fayzli, obod bo'lsin", deb duo qiladi. Qishloqni shundan boshlab Fayziobod deb atay boshlangan ekan.

Mirzaravot. Ma'lumotlarga qaraganda, bu yerlarda Uchqo'rg'on – Namangan arig'i (Yangiariq, XIX asr) qazilgunga qadar aholi yashamagan. Ariq qazilgach, turli hududlardan qazuv ishlariga jalb qilingan ishchilar bu yerlarga joylashib qolganlar. Ishboshilardan biri – Qulmirza ismli kishi dastlab bu yerga uy quradi. Qishloq nomi ham mana shu Mirza ismli kishi nomi bilan bog'liq.

Olmurut. Mahalliy aholining fikricha, bundan bir necha yuz yillar oldin qishloq hududida olmurut daraxti juda ko'p bo'lgan va qishloqni nomi aynan olmurut daraxti bilan bog'laydilar.

Rovot. XVIII asming oxirlarida bu yerdan katta yo'l o'tgan. Namangandan Uchqo'rg'on, Chortoq tomonlarga boradigan yo'lovchilar, g'alla ekish va o'rim puytida adirga qatnagan dehqonlar shu yerdagi Ravot (Rabot, guzar)ga qo'nib dum olganlar. Qishloq nomi shu bilan Ravot nomi bilan atalgan.

Soku. 1929-yilda O'rta Osiyo kommunistik universiteti (SAKU) nomi bilan atalgan. Mahalliy aholi tilida Soku nomini olgan.

Chek. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloq asoschilaridan biri – Yo'ldosh ko'sa degan kishi o'z yerlarini odamlarga chek sifatida bo'lib bergan. O'sha davrda qazilgan ariqlar, o'rnatilgan quvurlarga ham Yo'ldosh ko'saning nomi qo'shib aytilgan. Qishloq shu tariqa Chek nomi olgan.

Churtuk. Aytishlariga qaraganda, 1620-yildagi zilziladan keyin Axsikent shahri aholisi to'rt tomonga tarqalib ketgan. Turk millatiga mansub to'rt kishi hozirgi Churtuk qishlog'i o'rniga ko'chib kelib o'rnatilgan. Qishloq nomi shu voqea bilan bog'liq, "chor turk", ya'ni "to'rt turk".

O'nhayat. Rivoyat qilishlaricha, XVII asrda Norin daryosi bo'yidagi Issiqqo'rg'on tepaligida 10 ta katta hayot (hayot – dala) paydo bo'lgan. Qishloqning dastlabki aholisi tomonidan o'zlashtirilgan bu joylar uning nomiga asos bo'lgan.

Uchqo'rg'on – Namangan viloyatidagi shahar. Shu nomdagi tuman markazi. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloq hududida miloddan avvalgi IV asrlarda ham odamlar yashagan. Qadimda Norin daryosi o'ng qirg'og'ida uchta qo'rg'on mavjud bo'lgan. Bu qo'rg'on egalari XIX asrda yashab o'tgan. Qo'rg'onlar XX asr 20-yillarida yo'qolib ketgan. Bu qo'rg'onlar ikkitasining harobalari Mug'degan maskanda (hozirgi Qirg'iziston hududi) va Qizilrovot qishlog'i (Uychi tumani) hududida bo'lgan va ularning qoldiqlari hozirgacha saqlanib qolgan. Uchqo'rg'on toponimi mana shu uchta qo'rg'on nomidan olingan.

Qayqi. Qishloq nomining kelib chiqishiga Norin daryosining shu yerlarga kelganda qayrilib, alohida o'zan tashkil etgani sabab bo'lgan degan taxminlar majud. Ma'lumotlarga qaraganda, qayqi – qirg'izlarda ikki tog' oralig'idagi pastlik, botiq degan ma'nolarni bildiradi. Shuningdek, qozoqlarning alimuli, o'shaqti qabilalari tarkibida qayqi urug'i qayd etilgan.

Qo'g'ay. Farg'ona qipchoqlarining qo'g'ay degan urug'i bo'lgan. Shuningdek, qirg'izlarning so'lto' qabilasi tarkibida qo'g'ay urug'i qayd etilgan. Boshqa bir ma'lumotga ko'ra, qo'g'ay atamasi ma'nosi "yashil" so'zidan, yana "qo'g'a" degan o'simlik nomidan olingan ham deyishadi. O'z navbatida, qishloqni mo'g'ul urug'larining birini nomidan olingan degan ma'lumotlar ham mavjud.

Yashiq. Yashiq toponimi Farg'ona vodiysida yashovchi qipchoq urug'laridan birining nomidan olingan.

Yettiqashqa. Qashqa so'zining bir nechta ma'nosi bor. Xususan, qirg'izlarda beklarni, sarkardalarni qashqa deyishgan. Shuningdek, qirg'izlar va Farg'ona vodiysi qipchoqlarida yettiqashqa degan urug' ham bo'lgan. Mulla Sayfiddin Axsikandiyning "Majmua at tavorix" asarida (XVI asr) yozilishicha, yettiqashqa qavmi Dashti Qipchoqdagi Qulon shahridan chiqqan Oqtemir Qipchoqning yettita



ko'kqashqa ot minib yurgan yetti o'g'lining avlodidir. Yettiqashqa qishlog'i toponimi haqida shunday farazlar mavjud.

Katta Chek. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloqqa bundan 300 – 350 yil oldin asos solingan. Qishloq hududi dastlab, Qayqilik boylarga tegishli o'zlashtirilmagan qo'riq va to'qayzor bo'lgan. Hozirgi Norin tumanida joylashgan O'lmas qishlog'idan bo'lgan Mulla Abdulla degan kishi bu yerlarni chek sifatida sotib olgan va birodarlari, qarindoshlari bilan o'zlashtirgan. Aholi yangi o'zlashtirilgan maskanni Mulla Abdullaning cheki deb atay boshlagan. Keyinchalik, vaqtlar o'tishi bilan qishloq toponimida o'zgarish ro'y bergan va Katta chek deb atala boshlagan.

Uchyog'och. Qadimda qishloq hududi cho'l bo'lgan. Yaqin atrofdagi qishloq aholisi bu yerlarda suniy tepalik barpo etishgan va ustiga uchlari birlashtirilgan uchta yog'och o'rnatishgan. Yog'ochlar nima maqsadda o'rnatilganligi haqida ma'lumot yo'q. Qishloq nomining kelib chiqishi mana shu voqea bilan bog'liq. Ayrim tadqiqotchilar bunday tepaliklar qo'shni hududlar bilan aloqa o'rnatish uchun barpo etilgan degan fikrdalar.

Uchko'prik. Qishloqning shimolida uchta ariq bo'lib, ularga uchta ko'prik qurilgan. Qishloq nomiga mana shu ko'priklar asos bo'lgan.

Elatan. Elatan turkiy urug'larning birini nomi bo'lib, qishloqqa ham shu urug' vakillari asos solgan. Qishloq nomi ham ularni nomi bilan – elatan deb atalgan.

Parakanda. Aytishlaricha, yerlik aholi ilgari Haqqulobod arig'idan suv ichgan. Suv uchun bo'lgan janjallardan birida bir inson xalok bo'lgan. Janjalni tinchitib, odamlarni murosaga keltirish uchun atrof hududlardan kelgan odamlar va noiblar bu vazifani uddalay olmaganlar. Qishloq aholisining turli tomonlardan kelib qolganini bilishgach, "parokanda ekansizlar", deb ketganlar. Bu voqea natijasida qishloq ham Parokanda deb atala boshlagan.

**Chortoq, Yangiqo'rg'on, Norin tumanlari shahar va qishloqlari toponimikasi.** Chortoq – Namangan viloyatidagi shaharlardan biri bo'lib, IX – X asrlarda yashagan arab sayyohlari Ibn Hurdodbeh va Istahriy tomonidan yozilgan yozma manbalarda "Chortoq" so'zi "to'rt taxt" deb atalgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida "Chortoq" toponomiga to'xtalib, bu so'z o'zaro aloqalarni mustahkamlash vositasi ekanligiga ishora qilgan: "Muhammad Maxsi Mir edi. Qandaxorni unga berib edi. Hariga keltirganda ulug' to'y qilib yaxshi Chortoq bog'ladi". Bu yerda "Chortoq" atamasi "to'rt burchakli chodir", "to'rt gumbaz" ma'nolarini bildirishi ifoda etilgan. Tushunarli qilib aytganda, Chortoq toponimisi – chor (to'rt) va toq (ark, gumbaz) so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, "to'rt go'shali", "gumbaz" demakdir. Toq so'zi O'rta Osiyoning qadimiy me'morchilik terminlaridan bo'lib, "ravoqli bino" demakdir. O'z navbatida otashparastlarning ibodatxonalari ham chortoq deyilgan.

Shuningdek, Chortoq tog' orasida joylashgani uchun tojikcha chor – "tort" toq – "tog" ma'nolarida keltirilib, "gir atrofi (chor atrofi) tog'" degan ma'noni bildiradi degan tahminlar ham mavjud.

Chortoq tumanidagi yirik qishloqlardan biri – Koroskon nomini kelib chiqishi haqida xalq orasida uchta rivoyat bor :

1. Xuroson. Aytishlaricha, dastlab qishloq hududiga xurosonliklar kelib oʻtmashganlar va ularning nomiga nisbat berilib qishloqni Koroskon (Xurosonning buzib aytilgan shakli) deb ataganlar. Lekin rivoyat haqiqatga uncha yaqin emas, chunki uzoq Xurosondan chekka bir qishloqqa odamlar ne-ne mashaqqatlar bilan koʻchib kelishiga xojat ham, biror asos ham yoʻq edi.

2. Harosgan. Rivoyatlarga qaraganda, qadim zamonlarda bir eshonvachcha qishloqqa kelibdi-yu, namoz oʻqigani toʻxtabdi va eshagini shamoldan yiqilgan bir daraxtga bogʻlabdi. Namoz tugagach, qarasa daraxt koʻtarilib, eshagi esa uning uchida osilib turgan emish u dargʻazab boʻlib: “xa har osgan!” degan ekan. Shu-shu boʻlibdi-yu qishloqning nomi Harosgan (Koroskon) boʻlib ketibdi, lekin bu rivoyat ham haqiqatga yaqin emas. Avvalo, qishloqning nomlanishi qayerdandir kelib namoz oʻqigan kishining uch kalima soʻzi bilan bogʻliq boʻlmaydi. Ikkinchidan, rivoyatda risolaga sigʻmaydigan yolgʻon aralashganki sech vaqt shamoldan yiqilgan daraxt yana qayta tiklanib, boz ustiga yuz ellik ikki yuz kilogrammcha keladigan eshakni koʻtarib qaddini rostlab ololmaydi.

3. Koroson. Qadimda Koroskon qishlogʻining baʼzi kishilari ogʻir mehnat bilan shugʻullanmagan, kori(ishi) oson boʻlgan. A. Juvonmardiyevning kitobida keltirilgan juda koʻp yorliqlar, shajaralar tarixi ham buni. “Koroskon saidlarining shujaralari”da ham sulton Said Ali va uning xotini Fotimaning avlodi boʻlib chiqqanligi yoziladi. Demak, Koroskon sayidlari “Paygʻambar avlodlari” kori-ishi oson (sayidlar uchun) boʻlgan. Qishloq nomini esa Koroson (Koroskon) deb atala boshlangan. Shuni taʼkidlash kerakki, bu rivoyatda ozmi-koʻpmi haqiqat bor. Chunki, yuqorida qayd etilganidek, sayidlar paygʻambar avlodlari boʻlgani uchun bu yerdagi aholi ularga ilohiy kuch sifatida sigʻinganlar. Natijada sayidlarga sajda qilgan kishilarning kori-ishi oson, hojati ravon boʻlgan.

Peshqoʻrgʻon. Qishloqning nomlanishi haqida turlicha maʼlumotlar mavjud. Xususan, vatandoshimiz, ulugʻ shoh va shoir Zaxiriddin Muhammad Bobur Fargʻona taxti uchun kechgan urushlar vaqtida qishloqqa kelgan va uni Peshxoron deb atagan. Mahalliy aholining aytishicha, Zaxiriddin Muhammad Bobur qishloqqa kirib kelayotganida uning yoʻlidan qoʻrgʻon peshvoz boʻlib chiqqani uchun uni Peshqoʻrgʻon deb atagan emish. Shuningdek, Peshqoʻrgʻon – peshi Karan, “Karan arigʻining oldi, yoki qoʻrgʻon oldi” degan fikrlar mavjud.

Arbagʻish. Qishloq XVI asrda paydo boʻlgan. Arbagʻish aholisi oʻzbek va qirgʻizlardan iborat boʻlib, qirgʻizlarning bagʻish (bugʻu) urugʻi ilk bora qishloq hududidagi suvga serob, unumdor yerga joylashgan. Keyinchalik bu yerga oʻzbek va boshqa qirgʻiz urugʻlari ham kelib joylashganlar. Qishloq esa bu yerdagi ariq boʻyiga birinchi joylashgan urugʻ nomi bilan – Ariqbagʻish deb atala boshlagan. Yillar oʻtishi bilan Ariqbagʻish – Arbagʻishga aylanib ketgan.

Hazratishoh. Qishloqning nomlanishi haqida shunday rivoyat mavjud: Aytishlaricha, Said Abdullo Qalandar at-Termiziy, yaʼni Said Abdullo milodning taxminan VIII asrlarida Termiz shahrida podsholik qilgan kezlari tushlarida taxtni tushlab ketish, hukmdorlikdan voz kechish haqida daʼvat boʻlar edi. Said Abdullo shunga amal qilib, mulkini tark etib yoʻlga tushadi. Bir necha yil qalandirlikda yurib, ustozlar taʼlimini oladi, kamolotga erishadi va Hazratishoh qishlogʻi hududiga kelib oʻtmashadi. U kishi zehni oʻtkir, aql-zakovatli boʻlgani sabab

hamma hurmat yuzasidan “Hazratishohim” deb ataydilar. Qishloq nomini shu rivoyat bilan bog’laydilar.

Alixon. Alixon XVII asrda qishloq sifatida shakllangan. Ma’lumotlarga ko’ra, qishloq o’rni qadimda to’qayzor bo’lagan. Ilk bora Alixon ismli kishi ovchilik qilgani kelib, shu joyga o’rmashib qoladi. Keyinchalik qishloq nomi shu ovchi nomi bilan atala boshlangan.

Beshtol. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloq hududi bundan bir necha yuz yillar avval to’qayzor bo’lgan va bu yerdagi ko’l bo’yida besh tup tol bolgan. Natijada, keyinchalik paydo bo’lgan qishloq nomi ham besh tol deb atalgan.

Guldirov. Ma’lumotlarga qaraganda, o’tmishda qishloq hududida ko’plab ming ko’zli buloqlar bo’lgan. Ularadan ko’p miqdorda suv xosil bo’lib, balandliklardan va odamlar o’rnatgan novlardan sharsharaday shovqin solib oqqan. Qishloq nomi ham shu bilan bog’liq bo’lib, “Guldir-ob”dan olingan.

Muchum. Ma’lumotlarga qaraganda, qadimda bu yerda Hazratishohbuva degan kishi yashagan. Uning uch o’g’li bo’lib, yer, mol-mulkini o’limi oldidan ularga “Bu sening muchang, mana bu seniki” deya bo’lib bergan. “Mucha” so’zi “bo’lak”, “tegishli”, “qarashli” ma’nolarini anglatgan. Davrlar o’tgan sari “mucha” so’zi ham o’zgarib, “muchum” shaklini olgan.

Ko’shan. Qishloq hududida Sovuqbuloq, Qozonbuloq, Saratonbuloq kabi o’ndan ortiq buloq mavjud bo’lgan. Qishloq shu buloqlardan suv ichadi va bu buloqlar qishloqning tashkil topishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ma’lumotlarga qaraganda, dastlab qishloqqa Jiydakapa tomondan to’rtta oila ko’chib kelib joylashgan. Bahavo va yerlari unumdor bo’lgani uchun ular nima eksa mo’l xosil olaverishgan. Shuning uchun aholi qishloqni Gulshan deb ataganlar. Vaqtlar o’tishi bilan bu so’z Ko’shanga aylanib ketgan.

Laskidon. Qishloqning nomlanishi haqida ma’lumotlar kam. Ma’lumotlarga qaraganda, qadimda bu qishloq hududida hech qanday ekin bitmagan. Keyinchalik odamlar ko’chib kelib, suv chiqarishgan, dehqonchilik qilib yerga don sepishgan. Hosil mo’l va sifatli bo’lgan. Shunda, bu yerlar “asli don” yetishtiradigan joylar ekan, deyishgan. “Laskidon” nomi mana shu “asli don” iborasidan kelib chiqqan degan fikirlar bor.

Oyqiron (Ayqiron). Rivoyatlarga qaraganda, o’tmishda qishloq o’rni ko’l, qamishzor va to’qayzorlardan iborat bo’lib, ayiqlar uchun makon hisoblangan. Asta-sekinlik bilan aholi ko’payib, ayiqlar yo’qolib ketgan. Shu tariqa qishloq Ayqiron (ayiqlarga qiron kelgan) deb atala boshlagan.

Oqterak. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloq taxminan 220 yil ilgari paydo bo’lgan. Nomlanishi Oqterakota ismli avliyo nomi bilan bog’liq. Bu qishloqda Oqterakota nomli qabriston ham mavjud.

Prat. Tabiati so’lim, 20 dan ortiq buloqlari mavjud. Shu sababli bu yerni Sutlibuloq qishlog’i ham deb atashadi. Aytishlaricha, Avliyo Sultoni Vaysning onalari Bibiroxat shu yerda yashaganlar. Odamlar Sultoni Vaysni ziyorat qilgani uning xuziriga kelganlarida u kishi “Mendan oldin pirimiz-onamizni ziyorat qilinglar, chunki pir-hayot demakdir” der ekanlar. Prot – “Pir – hayot”so’zidan kelib chiqqan deyishadi.

Yangiqo’rgon tumanidagi yirik qishloqlardan biri Nanay hisoblanadi. Nanay O’rta Osiyodagi qadimiy nomlardan biri. Nanay (Nanayya, Nani) Mesopota-

miyada iloh hisoblangan. Keyinchalik, O'rtasiy zardushtiylari uni unumdorlik xudosi deb tan olganlar. Nanay toponimi Nanay xudosi nomidan olingan bo'lishi mumkin.

Iskovot. Manbalarga ko'ra, qishloq XVI asr o'rtalarida paydo bo'lgan. Iskovot toponimi esa "Eski obod" atamasining buzilgan shakli hisoblanadi. Ya'ni, qadimda barpo etilgan yer demakdir.

Qizilyozi. Qishloqda lolazor, ko'ngilyozar joylar ko'p bo'lganligi uchun shunday atalgan degan fikrlar mavjud. Shuningdek, Qizilyozaning lug'aviy ma'nosi, qizil dasht, qizil sahra, qizil cho'l demakdir.

Qizariq. Rivoyat qilishlaricha, Qorapolvon bobo ismli zot shu yerlarda yashagan va 40 yigitni qishloq yaqinidagi buloqlar suvini olib kelish uchun ariq kavlashga jalb etadi. Buvicha ismli qiz ularga ovqat pishirib beradi. Yigitlar dam olayotgan vaqtda Buvicha ketmon bilan ariqni kovlab bitiradi va suvni qishloqqa kirishini ta'minlaydi. Ariq, keyinchalik mazkur qishloq uning nomi bilan ataladi.

Qoramurt. Qoramurt degan o'zbek urug'i mavjud. Qoramurt – "qora mo'ylov" degan ma'noni bildiradi.

Bekobod. Ma'lumotlarga ko'ra, bundan 300 yil oldin bu qishloqqa ko'chib kelgan beklar avlodidan bo'lgan Saidbobo, Saidkalon Termiziyilar asos solgan. Qishloq ularning sharafiga Bekobod deb atala boshlagan.

Zarkent. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloqqa bundan 900-1000 yil oldin asos solingan. Zarkent toponimini Zarharid, Zarkon, Zarlikent atamalari bilan bog'laydilar.

Poromon. Poromon toponimi "Poranon", "Qoranon" nomlaridan kelib chiqqan degan fikrlar mavjud. Shuningdek, qishloq toponimi uning joylashgan o'rtasidan kelib chiqib, ayvondagi piramonga o'xshashligiga qarab shunday atalganligi ham qayd etilgan.

Ko'kyol. Ko'kyol toponimini "ko'k jarlik" nomidan olingan fikrlar mavjud. Shuningdek, ko'kyol nomi shu nomli urug' nomidan olingan bo'lishi mumkin.

Dehqonobod. Qishloqqa 1981-yilda tumandagi "Gulshan" davlat xo'jaligi rahbari Dehqonboy Boltaboyev tashabbusi bilan asos solingan. Qishloq nomi shu odamning ismidan olingan.

Nov. Qishloqning nomi nov, tarnov degan so'zlardan olingan. O'ng'or, Sulon kabi tog'lardan oqqan sel Qoraqurum soyidan juda tez o'tishi va qishloqqa Eshonariq suvining yog'och nov orqali o'tkazilganligi uchun shunday atalishiga sabab bo'lgan.

Oqtom. Mahalliy aholining aytishicha, qishloq nomi 1300 yilcha muqaddam Xazrat Alining do'sti – sahobai Oqtom ismli kishining jixod urushlari natijasida shu yerlarda vafot etishi va dafn etilishi bilan bog'liq.

Rovot. Rovot – rabot ya'ni qo'nalg'a, manzil ma'nosidan tashqari, forscha "roh", "rov" – yo'l va so'g'dcha "vot" – kesishish so'zlarining birkmasidan tuzilgan degan fikrlar ham mavjud. Qadimda karvon yo'llari kesishgan joy bo'lgani uchun shunday atalgan degan taxminlar mavjud.

G'ovazon. Aytishlaricha, Podshootasoy XIX asrning boshida o'zanini o'zgartirib, atrofga katta zarar yetkazgan. Aholi sel yo'lga g'ov – to'siq qurishga o'tlangan. Inshoot qurilishi ibtidosi yoki yakunlanishi azon paytida sodir bo'lgan.

Ana shu “Azondagi g’ov”, “g’ovi azon” birkmasidan qishloq nomi kelib chiqqan degan fikrlar mavjud.

Sangiston. Qishloq geografik o’rnidan kelib chiqqan xolda, sanglik – toshloq joy degan ma’noni bildiradi.

Dumar (Do’mar) – Norin tumanidagi qishloqlardan biri. Shuningdek, Uchqo’rg’on tumanida ham shunday qishloq mavjud. Dumar toponimi e’tibor bersak, Farg’ona vodiysi qipchoq urug’laridan biri dumar (tumar) deb atalgan. Shuningdek, qirg’izlarning bo’sto’n. jo’o’kesek qabilalarining ham bir urug’i dumar deb atalgan. Shuningdek, ma’lumotlarga qaraganda, qishloq hududiga Farg’ona viloyatining Besarang qishlog’idan bir g’uruh odamlar ko’chib kelib, qishloqqa asos solishgan. Ular orasida bo’lgan tojik millatiga mansub kishi bu yerda ikkita katta ilonni ko’rib qoladi va “Du mor” deb qichqirgan. Shu tariqa qishloq nomi Dumor, Do’mar bo’lib ketgan emish.

Norinkapa. Ma’lumotlarga ko’ra, qishloq toponimi Norin daryosi nomi bilan bo’g’liq. Toponimist E. M. Murzoyev fikricha, Norin toponimi mo’g’ul tilida “serquyosh, oftobro”, “go’zal joy” degan ma’nolarni bildiradi. Qirg’iz olimlari B. M. Yunisaliyev, S. Qudoyberganovlarning fikricha, Norin “tor kamar” degan so’z, shu bilan birga, norin degan etnonim ham bor: o’zbeklarning laqay, yuz qabilalari, shuningdek Farg’ona qipchoqlari tarkibida norin urug’i qayd etilgan. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloq XVIII – XIX asrlarda balchiq, botqoq yerlar va ko’llar o’rnida tashkil topgan. Baliqchi, Shaxand va boshqa qishloqlardan ko’chib kelgan kishilar Norin daryosi bo’yiga kapalar tikib ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik bilan mashg’ul bo’lganlar. Qishloqning nomi ni kelib chiqishi ana shu jarayon bilan bog’liq.

Katta O’lmas. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloqqa Qo’qonning shu nomdagi qishlog’idan ko’chib kelgan 200 ta oila asos solgan va qishloq nomi ham ko’chib kelgan aholining dastlabki qishlog’i nomidan olingan.

Marg’izor – Norin tumanidagi qishloqlardan biri. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloq aholisi Pop tumanidagi shu nomli qishloqdan ko’chib kelgan va uning nomi ham o’sha qishloq nomi bilan – Marg’izor deb atalgan. Marg’izor toponimi haqida turli xil farazlar mavjud. Tarixda marg’i qabilasi ham bo’lgan. Ular o’tloq, suvlik yerlarda yashaganlar, Marg’zor deganda o’rmoncha, yashil yer, o’tloq joy tushuniladi. Shuningdek, Marg’ so’zi qadimgi so’g’d tilida “buloq” ma’nosini ham anglatadi. Tojik mumtoz adabiyoti tilida qadimdan mavjud bo’lgan murg’ so’zi: o’t, maysa, alaf, maysazor, ya’ni marg’zor, chamanzor ma’nolarini anglatgan. Marg’, marg’zor so’zi eski o’zbek tilida, jumladan Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi: marg’ – o’t, hayvonlar yeydigan o’simlik, marg’zor – o’tloq, hayvonlar o’tlaydigan joy. “Navoiy asarlari lug’ati”da marg’, marg’zor so’zlarining arabcha deb belgilanishiga qo’shib bo’lmaydi.

Cho’ja. Qishloq qadimda daryo bo’ylab ancha masofaga cho’zilgan. Shuning uchun uni Cho’ziq deb ataganlar. Yillar davomida bu nom Cho’jaga aylanib ketgan.

Polvonko’l. Aytishlaricha, qishloq hududida oldinlari ko’l va qamishzorlar ko’p bo’lgan. Turli hududlardan kelgan aholi bu yerlarni o’zlashtirib, qishloqqa asos solgan va qishloq nomi uning o’rnidagi ko’llardan birining nomidan olingan.

So'zoqovul. Qishloq nomi bu yerga kelib, unga asos solgan So'zoqboy ismli boyning nomi bilan ataladi. Sho'rolar davrida qishloq Tel'man deb ham atalgan.

To'da. Qishloq nomining kelib chiqishi haqida turli xil farazlar mavjud. To'da toponimi – “bir to'da, bir guruh” ma'nosida qo'llaniladi. XIII asrda bu hududdagi xosildor yerlarga odamlar ko'chib kelishib, kapa qurib, to'da-to'da bo'lib yashaganlar. Shu tufayli qishloq To'da deb atalgan. Shuningdek, shu nom bilan ataluvchi etnonim ham mavjud. Kenagas o'zbeklarining bir urug'i to'da deb atalgan. Boshqa bir farazga ko'ra, qishloq aholisining asosiy qismi Pop tumanidagi To'da qishlog'idan ko'chib kelganligi sababli shunday atalgan.

Norin tumanidagi qishloqlardan biri – Yashiq hisoblanadi. Uchqo'rg'on tumanida ham shu nomli qishloq mavjud. Yashiq – o'zbeklarning qadimiy urug'laridan birining nomi. Mahmud Qoshg'ariyning ta'kidlashicha, yashiq – quyosh demakdir.

Xo'jaobod – Norin tumanidagi qishloq. Ma'lumotlarga ko'ra, bu qishloqqa Pop tumanida joylashgan Xo'jaobod nomli qishloqdan ko'chib kelgan aholi asos solgan va qishloqning nomi ham o'sha qishloq nomi bilan Xo'jaobod deb atalgan.

Qorateri. Aytishlaricha, qadimda avliyolar ot minib kelar ekanlar, ularning otlari shu yerga kelganda qora terga botib ketgan emish. Shu bois ular bu joyga tushib dam olish uchun manzilgoh barpo etganlar. Qishloq nomi shundan kelib chiqqan deyishadi.

O'lmas. Ma'lumotlarga qaraganda, istiqlochlilik harakati davrida (1917 – 1920) bir guruh vatanparvarlar bosqinchilardan yashirib tirik qolganlar va shu qishloqqa asos solganlar. O'lmas nomining kelib chiqishi bosqinchilar qirg'inidan o'lmay qolgan istiqlochlilarga atab shunday atalgan.

Qozoqovul. Ma'lumotlarga qaraganda, o'tmishda bu yerga kelib o'mashib qolgan qozoqlar qishloqqa asos solishgan. Shuning uchun qishloq nomi ham Ozoqovul deb atalgan.

Kemaboshi. Qishloq Qoradaryo bo'yida joylashgan bo'lib, qadimda kema yordamida Chinobod qishlog'i (Andijon viloyati) ga o'tib turilgan. Qishloq nomining kelib chiqishi shunga bog'liq.

**Pop va Chust tumanlari shahar va qishloqlari toponimikasi.** Pop – yurtimizdagi qadimiy shaharlaridan biri, Farg'ona vodiysi “darvozasi” hamdir. Pop toponimi haqida ham turli xil ma'lumotlar mavjud. IX – X asrlarda yashagan arab tarixchisi ibn Hurdodbeh va Istahriy tomonidan yozilgan asarlarda “Pop” so'zi “Bob” deb tilga olingan bo'lib, bu arabcha “darvoza” ma'nosini anglatadi.

983-yilda yozilgan noma'lum muallifning qalamiga mansub “Hudud-ul-olam” (“Olam chegaralari”) nomli asarning “Movarounnahr viloyati va uning shaharlari” deb nomlangan qismida “Pob” toponimi yozilib, bu o'lka Farg'onaning savdo yo'lida joylashgan obod shaharlardan biri sifatida ta'riflangan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining “Boburnoma” asarida ham Pop qo'rg'oni haqida so'z yuritiladi: “Axsining berk qo'rg'onlaridan biri Pop qo'rg'onidir...”.

Shuningdek, mashhur sharqshunos olim V. V. Bartol'd ma'lumotlariga ko'ra, o'rta asrlarda Turkistonda islom dinining tarqalishiga katta hissa qo'shgan kishi ismi oxiriga ham bob so'zi qo'shuv aytilgan. Misol uchun, Abdurahmon Jomiyning “Nafohotul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asarlarida

Hazrati Bob Fargʻoniy haqida maʼlumot berilib, ul zotning ismlari Umar ekanligi, Fargʻona vodiysi tomonlarda ulugʻ shayxlar, avliyolarni “bob” deb atalishini maʼlum qilingan. Hazrati Bob Fargʻoniy (X asr) Popga dafn etilgan.

Margʻizor. Margʻizor toponimi haqida turli xil farazlar mavjud. Tarixda margʻi qabilasi ham boʻlgan. Ular oʻtloq, suvlik yerlarda yashaganlar, Margʻzor deganda oʻrmoncha, yashil yer, oʻtloq joy tushuniladi. Shuningdek, Margʻ soʻzi qadimgi soʻgʻd tilida “buloq” maʼnosini ham anglatadi. Tojik mumtoz adabiyoti tilida qadimdan mavjud boʻlgan murgʻ soʻzi: oʻt, maysa, alaf, maysazor, yaʼni margʻzor, chamanzor maʼnolarini anglatgan. Margʻ, margʻzor soʻzi eski oʻzbek tilida, jumladan Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi: margʻ – oʻt, hayvonlar yeydigan oʻsimlik, margʻzor – oʻtloq, hayvonlar oʻtlaydigan joy. “Navoiy asarlari lugʻati”da margʻ, margʻzor soʻzlarining arabcha deb belgilanishiga qoʻshilib boʻlmaydi.

Chodak. Chodak toponimi joylashgan geografik oʻmiga qarab tojikcha “Chohi deh” – “chuqurdagi qishloq” maʼnosini qoʻllaniladi.

Gʻurumsaroy. Qishloq nomini kelib chiqishi haqida quyidagi rivoyat mavjud: Aysi, Munchoqtepa kabi harbiy istehkom uchun qulay bu qishloqqa minglar avlodidan boʻlgan beklar qoʻrgʻon qurishgan. Bu yerni “Gʻurumsaroy” yaʼni, gʻurum – yigʻin, sar – bosh, on – lar, yaʼni “Boshliqlari yigʻindagi joy” deb ataganlar. Yana boshqa bir rivoyatga koʻra, Sirdaryoning oʻng qirgʻogʻida jolashgan Gʻurumsaroy qishlogʻi Buyuk ipak yoʻlida joylashgan va turli sayyoh va savdogarlarning toʻplanib karvon hosil qilish joyiga aylangan edi. Bundan xabar topgan Qoʻqon xoni togʻ joyi undirish va oʻz nazoratida ushlab turish maqsadida Xurram ismli xizmatchisini yuboradi. U saroy qurdirib, yoʻlovchilar uchun sharoit yaratadi va tildan-tilga, yurtdan-yurtga “Xurram-saroy” nomi bilan oʻtib, bizga Gʻurumsaroy boʻlib yetib kelgan.

Botir boʻtka. Qishloqning tashkil topishi va rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan Botirali Doʻltayev nomidan olingan.

Beshsari. Beshsari nomli qadimgi qoraqolpoq urugʻi mavjud boʻlgan. XVII – XVIII asrlarda Fargʻona vodiysiga qoraqalpoq urugʻlari koʻchib kelib, Sirdaryo boʻylariga joylashgan. Qishloq nomi ham unga asos solgan qoraqalpoqlarning beshsari urugʻi nomidan olingan.

Iskovut. Maʼlumotlarga qaraganda, qishloqning qadimiy aholisi XIX asr ikkinchi yarmida Sirdaryo boʻyidagi Gadoytopmas qishlogʻidan koʻchib kelgan. Qishloq atrofidagi yerlar bu vaqtlarda “Eski obod” deb yuritilgan. Natijada, bu yerga koʻchib kelgan Gadoytopmasliklar bu yerni “Eski obod” deb, yaʼni qadimda obod etilgan yer deb ataganlar. Keyinchalik, Eskiobod soʻzi Iskovutga aylanib ketgan. Shuningdek, Iskovut soʻzi “Iskab oʻt” jumlasidan kelib chiqqan degan maʼlumotlar ham bor.

Sang. Qishloqni Sang deyilishi bilan bogʻliq bir necha rivoyatlar mavjud. Arab xalifaligi tomonidan tayinlangan Qutayba lashkarboshilaridan Shifozilning oʻgʻli Hasti Jalil Hasan Chustni boʻysindirib, qaytishda qishloqqa kelib suv soʻraydi. Hech kim suv bermagach: “Odamlari toshdan ham qattiq ekan” degan emish. Yana bir rivoyatda aytilishicha, Xoʻja Abdulloh Ansoriy va Xoʻja Ibodulloh Alamdoriylarni daft etish uchun qabr qazilganda yer qattiq chiqqan,

shunda arablar “Sangzarang budast” degan ekanlar. Shu bois qishloq Sangzarang deb atalib ketgan emish.

Uygʻur. Aytishlaricha, XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida Xorazm tomonlarda mangʻitlar qishloq hududiga koʻchib kelgan va Sirdaryo boʻylaridagi tepaliklarda gʻor qazib yashaganlar. Shundan Uygʻor soʻzi kelib chiqqan. Shuningdek, koʻchib kelganlar Xorazmning Qoʻshkoʻpir tumani Uygʻur qishlogʻidan boʻlganliklari uchun bu qishloq ham Uygʻur deb atalgan degan fikr ham mavjud.

Kelachi. Qishloq toponimi haqida quyidagi rivoyat mavjud: qadimda uch ogʻa-ini qishloq hududiga kelib, ovchilik bilan shugʻullangan. Ulardan biri daryo sohilidagi toʻqayzorga kelib bir necha kun mobaynida ov qilgan Oʻljalar koʻpligi uchun “Ey ovchi boʻlsang kelaver” deb ogʻa-inilarini chaqirgan. Shundan “Kelovchi” nomi kelib chiqib, keyinchalik paydo boʻlgan qishloq Kelachi deb atala boshlagan.

Kenagas. Tarixiy manbalardan maʼlumki, XVII – XVIII asrlar davomida koʻplab qoraqalpoq urugʻlari Fargʻona vodiysiga kelib joylashgan. Shu qabilalardan biri – kenagaslar boʻlib, ular shu qishloq hududiga oʻrnashib qolganlar va ular asos solgan qishloq Kenagas deb atala boshlagan.

Chorkesar. Qishloq hududida miloddan avvalgi III – II va milodiy V – VI asrlarga oid mugʻxonalar, oʻtov shaklidagi tosh maqbaralar topilganligi uning tarixi qadimiyligini koʻrsatadi. Qishloqning Chorkesar deb atalishiga sabab quyidagi maʼlumotlar mavjud: “Chorkesar”, tojikcha “chor” va “kesar” soʻzlaridan tashkil topgan, yaʼni toʻrtta keskir, chaqqon, uddaburon aka-ukalar Omonlaylak, Varzik, Soymachit, Qoraqoʻrgʻonlar qishloqqa asos solgan boʻlib, hozirda ularning nomlari bilan ataluvchi urugʻlar mavjud. Shuningdek, qadimda Pop, Olmos, Chodakka olib boruvchi toʻrt (chor) tomondan kelgan yoʻllar kesishgan joyda joylashganligi sababli qishloq – Chorkesar deb atalgan. Boshqa bir maʼlumotlarga koʻra, qishloq aholisi bir soʻzli, choʻrtkesar boʻlgan uchun qishloq ham Choʻrtkesar deb atalgan va keyinchalik Chorkesarga aylanib ketgan. Qishloq hududida oʻtgan asr 50-yillarida uran rudasi qazib chiqarilishi natijasida Chorkesar nomli shaharcha ham barpo etilgan (1957).

Madaniyat. Qishloqning qadimiy nomi Jarqoʻton boʻlib, jarlik yoqasidagi joy maʼnosini anglatadi. Qishloq 1983-yildan Madaniyat deb atala boshlagan.

Qasarak. Aytishlaricha, Qasarak toponimi shu yerda oʻsuvchi gasarak oʻsimligi nomining oʻzgargan shaklidir.

Parda Tursun. Qishloqning qadimgi nomi Mozor hisoblanadi. Rivoyat qilishlaricha, VIII asrda gʻayridinlarga qarshi janglarning birida xalok boʻlgan Zaynobiddin (Imom Ota) shu yerga dafn etilgan. Qishloq hududida Imom Ota nomi bilan ataluvchi ziyoratgoh mavjud. Parda Tursun nomi esa qoʻshni Chorkesar qishlogʻida tugʻilgan adib, yozuvchi Parda Tursun (1909-1957-yillarda yashab oʻtgan. “Oʻqituvchi” romani va bir nechta hikoyalar, toʻplamlar muallifi) nomi bilan bogʻliq. 1967-yildan Mozor qishlogʻi Parda Tursun deb atala boshlagan.

Maydamillat. Maydamillatning qadimiy nomi Kichik Mullaobod boʻlib, asos solgan odam nomi bilan bogʻliq. Keyinchalik qishloqqa Maydamillat nomi berilgan. Chunki, qishloqqa atrofdagi qishloqlardan koʻplab oilalar koʻchib kelib



joylashgan. Atrofdagilar ularni oz sonli, mayda millat kishilar deb atagan va qishloq ham Maydamillat deb atala boshlangan.

Nayman. Qishloq nomi turkiy xalqlarning nayman urug‘i bilan bog‘liq. Qishloq hududiga dastlab shu urug‘ vakillari kelib joylashgan, qishloq nomi ham shu urug‘ nomidan olingan. Shuningdek. Mingbuloq tumanida ham shunday ataluvchi qishloq mavjud.

Ko‘rnos. Qishloq tog‘ etagida joylashgan bo‘lib, geografik joylashuviga qarab, “ko‘rinmas” deb atalgan. Keyinchalik fonetik o‘zgarishlar natijasida Ko‘rinmas – Ko‘rnosga aylanib ketgan.

Navbahor. Ma‘lumki, 1973-yil fevral oyidan boshlab, Markaziy Farg‘onadagi cho‘l. qamishzor, botqoq va qumliklardan iborat bo‘lgan Achchiqko‘l mavzei o‘zlashtirila boshlangan. Navbaxorga ham shu yili asos solingan. O‘zbekiston SSR raxbari Sh.Rashidov taklifi bilan qishloqqa Navbaxor nomi berilgan. Respublika raxbari qishloqdagi birinchi uyga dastlabki g‘ishtni qo‘yib bergan.

Oltinkon. Qishloqning qadimgi nomi Chodakboshi bo‘lgan (qishloqning joylashgan o‘rniga nisbatan shunday atalgan). 1951-yilda qishloq hududida oltin koni borligi aniqlangan. 1957-1964-yillarda bu tasdiqlanib, amaliy ishlar boshlangan. 1967-yilda Chodakboshi qishlog‘ida oltin koni ochilishi, qishloq shaharcha tusini olganligi munosabati bilan unga – Oltinkon shaharchasi nomi berilgan.

Pungon. Ma‘lumotlarga qaraganda, Buyuk ipak yo‘li bo‘yida joylashgan qishloq, arablar istilosidan ham avval mavjud bo‘lgan. Uning qadimiy nomi Pumbakon, ya‘ni paxta koni deb atalgani haqida tahminlar mavjud. Biroq, Pungon toponimi haqida aniq ma‘lumotlar yo‘q.

Rezak. Rivoyat qilishlaricha qishloq ming yildan ortiq tarixga ega. Buloqlar ko‘p bo‘lganligi, qishloq suvga seroblighi uchun “Rezak” – har qasridan suv quyiladigan joy ma‘nosini anglatadi.

Tepaqo‘rg‘on. Tepaqo‘rg‘on toponimiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, qadimdan O‘rta Osiyo hududida “Su‘niy tepalik”lar mavjud bo‘lgan va bu tepaliklar yaqinlashib kelayotgan dushmandan ogoh bo‘lish uchun bir biridan ko‘rinadigan tepaliklarda olov yoqish, tutun chiqarish yoki boshqa bir yo‘l bilan xabar berilgan. Tepaqo‘rg‘on toponimi ham shunday tepaliklar bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Shuningdek, qishloq o‘rmidagi tepalikka atrofi aylana qilib qo‘rg‘on qurilgan. Tepalik ustidagi qo‘rg‘on nomidan kelib chiqib qishloq Tepaqo‘rg‘on deb atalgan.

To‘da. Qishloq nomini “to‘da” nomli turkiy qabilalarga mansub urug‘ nomidan kelib chiqqan degan faraz mavjud.

Xonobod. Aytishlaricha, Qoraboy Mirza ismli odam Qo‘qon xonligi saroyida bekklik lavozimida xizmat qilgan. Xonlar bu yerga, ya‘ni Qoraboynikiga dam olgani kelib turishgan. Qishloqning Xonobod deb atalishi shundan deb hisoblashadi.

Xo‘jaobod. Rivoyatlarga qaraganda, XIV – XV asrlarda Xo‘jakentlik aka-uka Xonxo‘ja va Toshxo‘jalar Sirdaryo bo‘yidagi unumdor yerlarga ko‘chib kelib, bog‘u-rog‘lar barpo etganlar. Keyinchalik Qo‘qon tomonlardan bir necha oila kelib o‘mashgan. Shundan so‘ng tashkil topgan qishloq Xo‘jaobod ya‘ni Xo‘jalar obod etgan joy deb atala boshlangan ekan.

Chinor. Chinor qishlog'ining o'rtasida taxminan 120 yillar oldin ekilgan chinor daraxti borligi uchun qishloq u nom bilan ataladi.

Yangiyer. Yangier yangi tashkil topgan qishloqlardan bo'lib, 1940-yilda Shimoliy Farg'ona kanalining ishga tushirilishi natijasida Chorkesar qishlog'idan kelgan aholi yangi yerlarni o'zlashtirib, qishloqqa asos solganlar. Qishloq nomi ham shu tariqa Yangiyer deb aalgan.

Chig'anoq. Sirdaryoning keskin burilishi natijasida qishloq yaqinida chig'anoq – tirsak xosil bo'lgan. Shundan qishloq nomi ham Chig'anoq deb ataladi.

Chortoq. Mahalliy aholining ma'lumotlariga qaraganda, XIX asr boshlarida qishloq hududiga Qo'qon xonligidagi beklarning oilalari o'rmasgan. Yangi tashkil topgan qishloqni Jartog' ya'ni jarliklardan iborat yer, tepalik atashgan ekan. Bugungi kungacha qishloq hududida uchta tepalik saqlanib qolgan. Jartog' vaqtlar o'tishi bilan Chortoqqa aylanib ketgan.

Tikkaariq. Dastlab G'urumsaroyda yashovchi aholining dala xovlisi sifatida shakllangan. Shimoliy Farg'ona kanalidan Sirdaryogacha tikkasiga ariq tushgan. Qishloq nomi ham shu sababli Tikkaariq deb ataladi.

Namangan viloyatida joylashgan qadimiy shaharlardan biri Chust hisoblanadi. Chust shahri toponomikasini kelib chiqishi to'g'risida turli ma'lumotlar mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, shahar Chust, Tuss nomlari bilan uchraydi. Chust toponomikasiga oid dastlabki ma'lumotlar sharqshunos olim A. Middendorf (Farg'ona vodiysi ocherklari. – Sankt-Peterburg, 1882.) asarida keltirilgan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, shahar yaqinida tuz qazib chiqarilgan bo'lib, shuning uchun shahar nomi "Tuss" deb atalgan.

Shuningdek, mahalliy tilshunoslar fikricha, Chust so'zi forscha "tez", "tezkor" manolarini bildiradi. Chust shahri tarixi 500 yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi. Uning oldingi nomi Toshqo'rg'on bo'lib, Karnon, Olmos, Baymoq. Toshloq nomli darvozalari bo'lgan. Rivoyat qilishlaricha, mashhur alloma Pop yaqinidagi Chodak qishlog'ida tug'ilgan Mavlona Lutfilloh (XVI asr) Chodakdan Axcha qishlog'i orqali Karnonga, ma'lum muddatdan so'ng Chust shahriga kelib istiqomat qiladi. Toshqo'rg'onda (Chustda) bir qancha muddat yashaganidan so'ng toshqo'rg'onlik (chustlik) keksalar u kishini mehnatini qadrlamay ranjitgan emish. Mavlono Lutfilloh Chustdan chiqib Namangan tomonga ketayotganlarida toshqo'rg'onlik (chustlik)lar xazratni noo'rin xafa qilishganini bilib, u kishini qaytarib kelish uchun bir necha kishini yuboradilar. Mavlono Lutfillohga Rezaksoyga bormasdan, beriroqdagi aylanma dovon etagidagi Beltosh oldida uchratadilar va Chustga qaytishlarini iltimos qiladilar. Shunda Mavlono Lutfilloh "Chust amaded", ya'ni "tez keldingiz" degan ekanlar. Shu bilan shaharga Chust nomi berilganmish.

Shuningdek, boshqa bir ma'lumotga ko'ra, Toshqo'rg'on (Chust) aholisi asosan tojik millatiga mansub bo'lib, harakteri jixatdan tezkor, ildam va uddaburon bo'lgan. Ushbu xususiyatlariga qarab, Mavlono Lutfilloh toshqo'rg'onliklarni Chuzdi (tezkor) deb atagan. Natijada, Toshqo'rg'on asta-sekinlik bilan Cuzd, keyinchalik Chustga aylanib ketgan.

Olmos. Olmos yurtimizning qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan qishloqlaridan. Qishloq nomining kelib chiqishi haqida turli xil ma'lumotlar

mavjud. Ularning biriga ko'ra, Olmos nomi qishloqning joylashgan geografik o'rnidan kelib chiqib shunday atalgan. Xususan, aytishlaricha bu qishloqda yshovchi dehqonlar qishloqdan o'tgan soyga (Olmossoy) damba qurib, soy suvini unumdor yerlarga yo'naltirib, ekinlardan xosil olishgan. Biroq, bahor oylarida sel kelib, bu dambani tez-tez buzib ketgan. Keyinchalik sel keladigan soy oqimiga mustahkam damba qurib, "endi bu dambani suv ololmas" – deb xotirjam bo'lishgan. Natijada yillar o'tib "ololmas" so'zi Olmosga aylanib, qishloq ham shu nom bilan atala boshlangan.

Shuningdek, yana bir ma'lumotga ko'ra, qishloq hududida tog' va buloq suvlari yig'ilishidan vujudga kelgan ko'l mavjud bo'lgan. Ko'l nihoyatda shaffof va toza bo'lganligidan uzoqdan qaragan kishiga quyosh nurida huddi olmosdek tovlanib ko'rinishiga qarab, bu joyni "Olmos ko'l", keyinchalik qishloq nomi ham Olmoga aylanib ketgan emish.

Yana bir ma'lumotga ko'ra, tog' oldi hududida joylashgan bu qishloqda yashagan aholi mehnatkash, qa'tiy va keskin fikrli bo'lganligi uchun harakteriga ishora sifatida olmosdek keskir tabiatli kishular deb, ular yashaydigan qishloqni esa Olmos deb atashgan ekan.

Shuningdek, ma'lumotlarga qaraganda, qishloq hududiga Tojikistonning Hisor viloyatidaning Olmos degan qishlog'idan hisorlik o'zbeklar kelib joylashgan. Keyinchalik, bu qishloq ham Olmos deb atala boshlangan.

Olmos toponimi haqida fikrlar xilma xil. Biroq, ko'plab mutaxassislar qishloqning geografik jihatdan joylashgan o'rnidan kelib chiqqan nomini haqiqatga yaqin deb hisoblaydilar.

Varzik. Ma'lumotlarga ko'ra, Vartzik – fors-tojikcha "ekinzor" degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, Vartzik toponimi so'g'dcha ikki so'z "var" – g'ov, qo'ra va "z, ze" so'zlaridan tashkil topgan, ya'ni atrofi qo'rg'onli, g'ov bilan o'ralgan joy, yoki qo'rg'oncha "soy boyidagi qo'rg'on" ma'nolarini ham berishi mumkin. Chust tumanidagi yana bir qishloq Vartzigon toponimiga ham shunday ta'rif beriladi.

Karkidon. Qishloqning tashkil topish tarixi XV-XVI asrlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, "kar" toponimi hind-yevropa til oilasiga mansub bo'lib, "shahar", "uya" degan, "ki" esa "ko'k", "tog'", "tepa" degan ma'noni anglatadi. Demak, "karki" so'zi tepadagi, tog'dagi qishloq ma'nosini bildiradi. Shuningdek, qishloq toponimi haqida boshqa ma'lumotlar ham mavjud. Xususan, V. Nalivkin qadimda o'zbeklarning ming, yuz, qirq, kerki, qipchoq va boshqa urug'larning Farg'ona vodiysiga o'rnashganligi haqida ma'lumot beradi. Shundan kelib chiqib, Karkidon qishlog'ining nomi va aholisi kerki urug'idan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Atamaning "don" qo'shimchasi – "joy", "makon" ma'nosini anglatadi.

G'ova. Qishloq juda qadimiy bo'lib, eramizning I-IV asrlariga oid topilmalar topilgan. G'ova atamasining asosiy o'zagi "g'ov" – fors tilida "qishloq", "ovul" degan ma'noni bildiradi.

Axcha. Ma'lumotlarga qaraganda, Axcha XVII asrda poydo bo'lgan. Axcha nomi esa, shu nom bilan ataluvchi o'zbek urug'laridan birining nomidan olingan.

Baymoq. Qishloq XVI asr oxiri XVII asr boshlarida tashkil topgan. Atumashunoslar Baymoq atamasi – “Ikki tog‘ning yaqinlashgan joyi” ma’nosini bildiradi, degan fikrdalar.

Sho‘rqo‘rg‘on. Aytishlaricha. Sho‘raqo‘rg‘on XVII – XVIII asrlar atrofida paydo bo‘lgan. Bu joy oldinlari qamishzor, sho‘rxok, sho‘ra bosib yotgan yer bo‘lgan. Ko‘chmanchi qirg‘iz va qipchoqlar, qo‘shni qishloqlar aholisi bu yerni o‘zlashtirib, sho‘ra o‘simligidan yasalgan kapa, chaylalarda yashab, dehqonchilik qilgan. Sho‘rqo‘rg‘on toponimi shundan kelib chiqqan.

Shoyon. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloq XVIII asr boshlarida vujudga kelgan. Mahalliy aholining aytishicha, qadimda bu yerda o‘zbeklarning sholar degan urug‘i kelib o‘tmashgan va Ko‘kseraksoy (Rezaksoy)dan Sholar arig‘i qazilib, suv olib kelingan. Qishloq shu tariqa vujudga kelib, Sholar yoki Shoyon nomini olgan.

Qiziltepa. Qishloqning shakllanish jarayoni XVII asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Mahalliy aholining aytishicha, qishloq aholisi bir vaqtlar Buxoro umirligiga qarashli bo‘lgan Qiziltepadan ko‘chib kelgan. Qishloq nomi ham shu tariqa Qiziltepa nomini olgan ekan.

Zuvutqand. Shuningdek, bu qishloq Subuzgan ham deb ataladi. Qishloq qadimiy bo‘lib, ma’lumotlarga qaraganda, XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida paydo bo‘lgan. Toponimdagi “zov”, “zuv”, “zob” forscha “tik qoya”, “jarlik”, “chuqur dara” kabi ma’nomlarni bildiradi. Haqiqatan ham, Zuvutqand qishlog‘i geografik jihatdan ariqlar, selxona va suv to‘planadigan tor darada joylashgan. Demak, Zuvutqand qadimda Zobirkon deb yuritilib, keyinchalik, xalq tilida soddalashib, Zuvutqand yoki Subuzgan deb nomlangan.

Ariqbo‘yi. XX asr boshlarida paydo bo‘lgan. Ariqboyi toponimi ikki o‘zakdan – “ariq” va “bo‘yi”dan yasalgan bo‘lib, aholi dastlab o‘tmashgan yangi qazilgan ariq nomidan kelib chiqqan.

Dam. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloq nomi Sumsaroy soyining irmog‘i Rezaksoydan qazilgan Damariq nomidan olingan.

Hisorak. Hisor arabcha so‘z bo‘lib, “qo‘rg‘on”, “qal’a”, “istehkom” degan ma’nomlarni bildiradi. – ak esa toponim yasovchi affiks.

Chindovul. Chindovul toponimi haqida ikki xil ma’lumot mavjud. 1) Suv tashuvchi meshkob; 2) Chingdovul – qo‘shinning orqasida yuradigan soqchi otryad.

Chust tumanidagi qishloqlardan biri – Yorqishloq bolib, qishloq toponimi “yor” va “qishloq” so‘zlarini qo‘shilishidan kelib chiqqan. “Yorqishloq” – jarlik yoqasida, ariq yaqinida joylashgan qishloq degan ma’nomlarni bildiradi.

Kaklikqo‘rg‘on. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloqqa XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida asos solingan. Toponim ikki so‘z “kaklik” va “qo‘rg‘on” so‘zlarini birikishidan xosil bo‘lgan. Kaklikqo‘rg‘on qishlog‘i toqqa yaqin, oldinlari kaklikka boy bo‘lgani uchun “Kaklikkon” deb ham yuritilgan.

Duoba. Qishloq aholisi, asosan, tojiklar bo‘lib, ma’lumotlarga qaraganda bundan 4-5 asr muqaddam Qorategindan ko‘chib kelgan. Duoba toponimi tojikcha “du” – “ikki” va “ob” – “suv” so‘zlari birikmasidan iborat bo‘lib, qishloqning Hulvazorsoy va Duobasoy oralig‘ida joylashganligi bilan bog‘liq.

Karnon. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham Karnon qishlog‘i Boburmirzo dushmanlaridan yashirilib, jon saqlagan joy sifatida tilga olinadi. Karnon toponimining birinchi o‘zagi “kar” bo‘lib, “shahar”, “uya”, “atrofi o‘ralgan joy” ma‘nolarini anglatadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Karnon qishlog‘i qadimiy va qadimda atrofi o‘ralgan kattagina qishloq bo‘lgan.

Og‘asaroy. Ma‘lumotlarga ko‘ra, qishloq XVI asr boshlarida vujudga kelgan. Og‘asaroy toponimi haqida tarixchi Y. Qosimov Namangan yaqinida uyg‘urlarning “og‘a” urug‘i yashaganligi bayon etgan. XIX asr ikkinchi yarmida Farg‘ona vodiysini o‘rgangan sharqshunos V. Nalivkinning yozishicha, Namangan atroflarida og‘acha urug‘i va og‘aliklar yashagan. Ko‘rinib turibdiki, qishloq nomi og‘a urug‘i nomi bilan bog‘liq.

Qayirma. Qishloq toponimi haqida turli xil ma‘lumot mavjud. Ushbu geografik atama qayrilmoq (burilmoq) fe‘lidan kelib chiqqan. Qayirma deganda yo‘lning burilishi, muyilishi tushiniladi va qishloqning geografik o‘rniga qaratilib shunday atalgan.

Rezaksoy. Qishloq XVIII asr boshlarida paydo bo‘lgan. Rezaksoy – kesishgan joy yoki adirlarni teng ikkiga ajratib oquvchi soy demakdir.

Sariqamish. Sariqamish toponimi ikki o‘zakdan, “sar” tojikcha “bosh” hamda “qamish” – qamish so‘zlarining birikuvidan kelib chiqqan. Sariqamish qishlog‘i o‘rni qadimda qamishzorlardan iborat bo‘lgan bo‘lib, nomi shu bilan bog‘liq.

Chust tumanining qishloqlaridan biri – Tapaqo‘rg‘on hisoblanadi. Qishloqning vujudga kelishi XVI asr oxiri – XVII asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Qishloq toponimi yuqorida ta‘kidlanganidek, ikki o‘zakdan – “tepa” va “qo‘rg‘on” so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, “tepadagi qo‘rg‘on”, “tepadagi qal‘a” ma‘nolarini anglatadi.

**Mingbuloq, To‘raqo‘rg‘on, Kosonsoy tumanlari shahar va qishloqlari toponimikasi.** Jomashuy – Namangan viloyatidagi shaharlardan biri. Mingbuloq tumani markazi. “Jomashuy” toponomiyasiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ma‘lumotlarga ko‘ra, qoraqolpoqlarning “jamansha” urug‘i nomidan olingan. Jamansha so‘zi keyinchalik. Jamansh – Jamasho – Jamashov tarzida o‘zgarib ketgan deyishadi. Shuningdek, tojikcha joma – “kiyim”. shuy – shuston “yuvmoq” felining negizi: Jomashuy Sirdaryo bo‘yida joylashgan. Aholi daryo bo‘yida kir yuvib yurgani uchun Jomashuy nomi shundan olingan degan farazlar ham mavjud.

Mingbuloq tumanidagi yirik qishloqlardan biri – Gurtepa hisoblanadi. Qo‘qon xonligiga oid tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda, qishloq XVIII asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan. O‘sha xujjatlarda qishloq nomi “Gurgtepa” deb keltirilgan. “Gurg” so‘zi fors-tojikcha “Bo‘ri” degan ma‘noni bildiradi. Demak, qishloqning qadimgi nomi “Boritepa” ma‘nosini anglatadi. Gurgtepa nomi bora-bora Gurtepaga aylanib ketgan.

Mazgil. Keksalarning aytishlaricha, uzoq o‘tmishda qishloq o‘rni qum barxanlariga tutashib ketgan ozgina past tekislik, qamishzor. to‘qay, atrofi ko‘lbotqoqlik joy bo‘lgan ekan. Qo‘qondan Namangan va Andijonga boriladigan so‘qmoq yo‘l shu yerdan o‘tgan ekan. Qurama degan joydan Eshnazar ismli degan dehqon odam shu joyga kelib, kapa tikadi, qamishlar o‘rniga qovun va boshqa ekinlar ekadi. Bora-bora Eshnazar Quramaning uyi yo‘lovchilar, karvonlar

to'xtab o'tadigan manzilgohga aylanadi. Shu tarzda bu joy Mazgil (ya'ni Manzil) deb atala boshlaydi. Juda bahavo joy bo'lganligi uchun uni keyinroq Bahriobod deb atash ham odat bo'lgan.

**Qorashahar.** Aytishlaricha, Qo'qon xonlaridan biri shu hududda qora o'tovlardan qishki manzilgoh qurdirib, uzoq shikor qiladi. Bu manzilgohni aholi Qorashahar deb ataydi. Qishloq ham, keyinchalik, Qorashahar deb atalib ketgan ekan. Shuningdek, mahalliy aholining aytishicha, qishloq atrofi cho'llardan iborat bo'lib, bir guruh odamlar yo'l yurib, cho'lu biyobonlardan o'tib, shu qishloqqa duch kelishadi va ulardan biri "qara shahar" deb baqiradi. Keyinchalik, qishloq nomi ham Qorashahar deb atalgan emish.

**Alami.** Ma'lumotalarga qaraganda, bir vaqtlar qishloq atrofidagi ekinzor yerlar qozixonaning a'lamiga qarashli bo'lgan. "A'lamning yeri", "A'lamning qishlog'i" deyilib, bora-bora qishloq nomi A'lamiga aylanib ketgan.

**Beshserka.** Qishloq mahalliy aholi tilida Katta Beshserka va Kichik Beshserka deb ataladi. Beshserka toponimi qoraqolpoqlar urug'larining nomidan olingan.

**Dovduq.** Rivoyatlarga qaraganda, bu yerga yaqin bo'lgan Qo'sh qishlog'i dehqonlari yo'qolgan yilqi podasini axtarib shu joydagi o'tloqqa kelishadi. Qarashsa, yilqilari o'tlab yuribdi. Quvonganlaridan, "tovdiq" (sheva) ya'ni, "topdik" – deb yuborishadi. Keyinchalik, ular Sirdaryo boyidagi shu hududlarga ko'chib kelishadi va bu manzilni "Tovduq joy", "Tovdiq" deb atashadi. Bora-bora "Tovdiq" so'zi "Dovduq" bo'lib ketadi.

**Momoxon.** Qo'qon xonligi arxivlarida "Momoxon viloyati" degan ibora ishlatilgan. Shuningdek, ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon xoni Xudoyorxonning Momoxonda qo'rg'onchasi mavjud bo'lgan ekan. Qishloq toponimi haqida aniq ma'lumot yo'q.

**Tegirmon.** Oldinlari qishloq hududida eski tegirmon mavjud bo'lgan. Atrof qishloqlarning aholisi bu yerga kelib, bug'doylarini unga aylantirib ketganlar. Shu bois qishloq dastlab "Tegirmonboshi", keyinroq esa Tegirmon deb atalgan.

**Uyirchi Damko'l.** Uyirchi nomi qoraqalpoqlarning shu nomli urug'i nomidan olingan. Qishloq nomining ikkinchi qismi esa uning geografik o'rni va yaqin o'tmishdagi ahvolidan kelib chiqqan. Markaziy Farg'ona cho'lining iqlim sharoiti eng og'ir ichkari qismlari Damko'l deb atalgan. Keyinroq, bu nom cho'lining o'rta va sharqiy qismlaridagi ma'lum hududlarga nisbatan qo'llanilgan va qishloqning nomiga aylanib ketgan.

**Qozoqovul.** Ma'lumotlarga qaraganda, 200 yilcha avval qishloqqa uchta qozoq ko'chib kelib, bu yerdagi 30 xo'jalikdan iborat aholiga qo'shiladi. Keyinchalik, qozoqlar ko'payib, qishloq nomi ham Qozoqovul bo'lib ketgan ekan.

**Qayrag'ochovul.** XX asr 60-yillariga qadar qishloq hududida ulkan qayrag'och daraxti, uning tagida eski quduq mavjud bo'lgan. Shuning uchun ham qishloq Qayrag'ochovul deb atalgan.

**Qolgandaryo.** Qishloq Sirdaryo bo'yida joylashgan. Bir vaqtlar daryo shu qishloq o'rnidan oqib o'tgan. Keyinroq o'zanini o'zgartirib, shimol tomonga surilgan. Qishloq hududida hozirgacha saqlanib qolgan ko'l bundan dalolat beradi. Qolgan daryo degan nom shundan kelib chiqqan.

Mulkobod. Mulkobodning eski nomi Yumoloqtepa deb nomlanadi. Chunki qishloqning janubida yumaloq tepalik mavjud bo'lib, bu yer mozor hisoblanadi. Mozorga aziz-avliyolar, shu yerda yashab o'tgan eshon va ulamolar dafn etilganligi uchun atrof qishloqlarning aholisi unga azaldan ixlos qo'ygan. 30-yillarda qishloq dehqonlari jamoa xo'jaligi tuzib, o'z yerimiz, o'z mulkimizga ega bo'ldik degan ma'noda unga "Mulkobod" nomini berishgan. Keyinchalik, qishloq nomi ham Mulkobod deb atalgan.

To'raqo'rg'on – Farg'ona vodiysidagi qadimiy shaharlardan biri, shu nomdagi tuman markazi. To'raqo'rg'on toponimi to'g'risida Isoqxon Ibrat "Farg'ona tarixi" asarida quyidagi fikrlarni keltirgan – "Namanganning g'arbida bir bozorlik qasaba bu muallif vatani asliysidurki, muni Dashti Qipchoq xonlaridan Ahmadxon, ya'ni Shig'ayxon bino qilgan ekan. U vaqt muarrixlari Ahmadxon ismiga qal'a qilib, Qal'ayixon deb ism qo'yib, bu lafz binosiga ta'rix bo'lgan ekan ("Qal'ayixon"dan 861-hijriy, 1456-milodiy yil kelib chiqadi). Ammoki, To'raqo'rg'on demak ma'nosi Shig'ayxonning Yusuf To'ra va Ya'qub To'ra degan o'g'illari ismlariga To'raqo'rg'on deb shuhrat bo'lgan edi".

Shahand. Qishloq nomining kelib chiqishi to'g'risida ma'lumotlar kam bo'lib, "Shoh kent", shohlar yurti degan ibora bilan bog'laydilar.

Temirqishloq. Temirqishloq toponimi haqida turli xil ma'lumotlar bor. Xususan, Temir ismli kishi ismidan olingan bo'lishi mumkin. Shuningdek, temir – etnonim: o'zbeklarning saroy qabilasi tarkibida, qozoqlarning alimuli, dulat qabilalari. qirg'izlarning adigene, basiz, bug'u, so'lto' qabilalari tarkibida temir urug'i bo'lgan. Bundan tashqari turkiy xalqlar tarkibida temirbek, temirberdi, temirqul, temirso'fi, temirxo'ja, temirchi kabi kichikroq urug'-shoxobchalar ham bo'lgan. Qishloq toponimiga ham shulardan biri asos bo'lgan bo'lishi mumkin.

Axsi. Axsi so'zi – savdo, olish-berish yoki qo'rg'on, qal'a ma'nolarini bildiradi, degan fikrlar mavjud. Shuningdek, Axsi atamasi Oqsuv so'zidab kelib chiqqan degan ma'lumotlar ham mavjud.

Bekobod. Rivoyatlarga qaraganda, Podshohning yovqur beklaridan biri mana shu qishloq o'rmini so'rab oladi va qarindosh-urug'laridan to'rt oilani ko'chirib kelib, qo'rg'on quradi. Aholi ko'payib, kattagina qishloq paydo bo'ladi. Qishloq nomi esa unga asos solgan bek nomidan – Bekobod deb atala boshlandi.

Bordimko'l. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloq nomi dastlab Bordonko'l bo'lgan. Bordon – archilmagan qamishdan bo'yraga o'xshab to'qilgan 80 sm kenglikdagi to'qima. U tomga loy bosishdan avval vassa ustiga tashalgan. Bordon to'qiladigan qamish sayoz ko'llarda o'sadi. Qishloqning quyi tarafida Sirdaryo yoqalarida bunday ko'llar kop bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan qishloq nomi Bordimko'l deb atala boshlangan.

Buramatut. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloq qadimiy bo'lib uning tarixi bir necha yuz yillarni tashkil etadi. Qishloq nomi ham o'sh davrda buralib o'sgan tut daraxti nomidan olingan.

Yortepe. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloq nomi asli Chor-tepa bo'lib, bu nom qishloqdagi to'rt tepa bilan bog'liq. Hozirda tepaliklardan ikkitasi saqlanib qolgan.

Langarbobo. Qishloq Hazrati Langar avliyoning nomi bilan ataladi. Bu qishloq nomi bilan bog'liq quyidagi rivoyat mavjud: azizlardan biri (balki Hazrati

Langar) odamlarni mana shu joylarda yashamoqqa undaganlarida, ular suv chiqmasligini bahona qilganlar. Muborak zot “Siz harakat qiling, suvni xudo beradi” deyдилar. Ko‘chib kelganlar tongda turib qarashsa, yerdan buloq suvi chiqayotgan emish. Keyinroq, buloq kengaytirilib, hovuzga aylantirilgan. Qishloq hozir ham shu hovuzdan foydalanadi.

Naymancha (Tepa Naymancha va Quyi Naymancha). Qishloqqa turkiylarning nayman urug‘i asos solgan bo‘lib, uning nomi shu urug‘ nomidan olingan. Shuningdek, bu qishloq haqida quyidagi rivoyat mavjud: qishloqqa Qo‘qon yaqinidagi Nayman qishlog‘idan kelgan odam asos solgan. Keyinchalik, u suv chiqarib dehqonchilik qila boshlagan yerga boshqa odamlar ham ko‘chib kelib joylashgan. Bu odamlardan: “Qayerdانسizlar?” – deb so‘raganlarida kelgan kishining yurtidanmiz, deb javob berishgan ekan. Keyinchalik, qishloq nomi ham Nayman deb atalgan emish.

Olchin. Mahalliy aholining fikricha qishloqqa bundan 200 yillar oldin yushagan va talonchi dushmanlarga qarshi kurashgan Olchinboy ismli bahodirning nomi berilgan. Shuningdek, qishloqni turkiylarning olchin urug‘i nomi bilan ham bog‘laydilar.

Saroy. Qishloq nomini o‘zbeklarning saroy urug‘i nomi bilan bog‘laydilar.

Janjal. Oldinlari qishloqda suv yetarli bo‘lmagan va aholi o‘rtasida tez-tez janjallar bo‘lib turgan. Shu sababli qishloq nomi ham Janjal bo‘lib ketgan. Keyinchalik, qishloq nomi Fayziobod deb o‘zgartirilsada, mahalliy aholi uni Janjal deb ataydi.

Qatag‘onsaroy. Aytishlaricha, qadimda qishloqda karvonsaroy bo‘lib, shahardan-shaharga yuboriladigan xatlar o‘sha davr odatiga ko‘ra shu saroyga keltirilgan. Qishloqning nomi ham “xat olgan saroy” jumlasining buzilgan shaklidir. Shuningdek, o‘zbek urug‘lari tarkibida qatag‘on va saroylar ham mavjud. Bu urug‘lar qishloqqa asos solgan va qishloq ular nomi bilan atalgan degan fikrlar ham mavjud.

Qashqarguzar. Ma‘lumotlarga ko‘ra, oldinlari qishloq markaziga qashqarlik savdogarlar kelib, savat, qoshiq, qoshiqdon va anjomlar to‘qib sotganlar. Ko‘p o‘tmay qashqarliklar qaytib ketadi, biroq qishloqning nomi Qashqarguzar bo‘lib qoladi.

Qariyb ikki ming yillik tarixga ega bo‘lgan qadimiy Kosonsoy yurtimiz tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Kosonsoy shahri nomining paydo bo‘lishi borasida turli xil ma‘lumotlar mavjud. Xususan, muallifi noma‘lum bo‘lgan “Hudud ul olam” asarida (X asr) Kason, Sam‘oniy va Yoqut Hamaviy (XII – XIII) asarlarida Kosan tarzida keltirilgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, ushbu so‘z Kushon so‘zining o‘zgartirilgan shakli bo‘lib, IX asrgacha so‘z o‘rtasida tovush o‘zgarishi yuz bergan, deyiladi.

H. Hasanovning ma‘lumotlariga ko‘ra, Kushon so‘zi aslida xalq nomi bo‘lib, Koshon – Kushon nomining o‘zgariganidir.

Ishoqxon Ibrat o‘zining “Tarixi Farg‘ona” asarida “Koson” so‘zi so‘g‘d tilida “sultonlarini zikr qilgan” degan ma‘noni bildiradi, ya‘ni Bog‘dod shahridan islom dinini targ‘ib qilish maqsadida kelgan kishilarni hurmat qilib, mahalliy aholi qadimgi so‘g‘d tilida “Kason” deb aytganlar.



Eronlik olim Said Nafisiy, doktor Muin, o'zbek olimi N. Mahmudov va I. Yo'ldoshev "Koson" "kosibon" so'zining assimilyatsiyaga uchragan shaklidir degan xulosaga kelganlar. Demak, "Koson" – "kosiblar shahri", "hunarmandlar manzili" degan ma'nolarni bildiradi.

Tergachi. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloq miloddan avvalgi I ming yillikda vujudga kelgan. Dastlab qishloq o'rni botqoqlik va qamishzor bo'lgan. Bu yerga odamlar turli joylardan ko'chib kelganligi sababli uni "Termachi" deb ataganlar. Tergachi mana shu nomning vaqtlar mobaynida o'zgarib ketgan shakli hisoblanadi.

Isparon. Qishloqning nomi, ma'lumotlarga qaraganda, unga asos solgan Isparon nomli sayyoh ismidan olingan emish. Shuningdek, Eronning qadimiy shahri Isfarxon nomi bilan bog'laydigan ma'lumotlar mavjud.

Ko'ktosh. Ko'ktosh nomining kelib chiqishi qishloqdagi shu nomli mozor bilan bog'liq. Ko'ktosh qabristonida muqaddas sanalgan ko'k tosh mavjud va toshni ziyorat qilgani turli hududlardan odamlar keladi.

Rovot. Rovot so'zi etimologik jihatdan a) Rabot – qo'nalg'a, manzil, guzar; b)"Ravoq" ya'ni "shaharning darvozasi" demakdir.

Takarang. Qadimda qishloq hududi xilvat joy bo'lgan va bu yerga qaroqchilar makon qurgan. Ular yo'lovchilarga xujum qilib turgan. Ular odamlarning yuraklariga qo'rquv solib "takarang-takarang" ot choptirib yurgan emish. Qishloq nomini Takarang deb atalishi shundan kelib chiqqan deyilar.

Qo'qumboy. Qishloq xushmanzara joyda joylashgan va tabiati juda noyob. Qo'qumboy nomi o'zbekcha "Ko'ki moy" ya'ni ko'ki yog'li so'zidan kelib chiqqan. Qishloq hozirda ham mahalliy aholi tilida Qo'qimay deb atalib kelinadi.

Uzunqishloq. Qishloq aholisi qadimdan uzumchilik bilan shug'ullangan bo'lib, turli navdagi uzumlari bilan mashhur bo'lgan. Shu sababli qishloq Uzunqishloq deb atalgan. Bora-bora qishloq nomi Uzunqishloqqa aylanib ketgan.

Xonqo'rg'on. Mahalliy aholining aytishicha, Qo'qon xoni Xudoyorxon qishloq hududiga qo'rg'on qurdirib, dam oladigan maskan barpo etgan ekan. Shu tariqa qishloq ham Xonqo'rg'on nomi olgan.

Chak. Aytishlaricha, bundan bir necha asr oldin odamlar bu qishloq hududiga borib o'rtnashganlar. Qishloq yerlarini tergachiliklarga chek sifatida bo'lib berilganligidan qishloq Chek nomini olgan. Vaqtlar o'tib Chek so'zi Chakga aylanib ketgan.

Chindovul. Qishloqning nomi tojikcha "Chinda gul", ya'ni "Gul terish" degan ma'noni bildiradi degan fikrlar mavjud.

Yumaloqshayxmozor. Mahalliy aholining aytishiga qaraganda, XV-XVI asrlar atrofida Misrdan kelgan Shayx Zunnun ismli kishi shu yerda yashagan. U vafoti oldidan shunday vasiyat qiladi: "Men vafot etgan kun bir oq tuya keladi, unga jasadimni yuklab tuya qayerga yotsa, o'sha yerga yumaloq tarzda qabr qazib ko'minglar". Shu tariqa qishloq nomi Yumaloqshayxmozor deb atalar ekan.

Yalama. Qadimdan qishloq hududidan karvonlar qatnagan bo'lib, savdogarlar to'xtab o'tganlar. Ularning chorvalari yo'l yoqasidagi ekinlarni, daraxtlarni yalab (yeb) o'tar ekan. Qishloq nomini Yalama deb atalishi shundan.

Tagijar. Aytishlaricha, qadimda qishloqning kunchiqar tomoni tepalik, kunbotari chuqur soy bo'lganligi uchun "tagijar" – jarning tagidagi joy, deb nomlangan.

#### **Tayanch iboralar:**

Namakkon, Namangoni Eshoniy, Langarbobo, G'irvon, G'alcha, Uychi, Qizilrovot, Xizrravot, Jiydakapa, Churtuk, Uchqorg'on, Qayqi, Qo'g'ay, Uchyog'och, Chortoq, Koroskon, Peshqo'rg'on, Hazratishoh, Qoramurt, Ko'kyol, Marg'izor, Qozoqovul, Pop, Chodak, Sang, Chorkesar, Chust, Olmos, Karnon, Jomashuy, Alami, To'raqo'rg'on, Saroy.

#### **Nazorat savollari:**

1. Namangan shahri toponimi haqida ma'lumot bering?
2. Namangan viloyati shahar va qishloqlari toponimlarida o'ziga xosliklar bormi?
3. Namangan viloyati hududida urug', qabila, xalq nomi bilan bog'liq joy nomlaridan misollar keltiring?
4. Chust shahri qachondan shunday nom bilan atala boshlangan?
5. Namangan viloyati shahar va qishloqlarining nomlanishi bilan bog'liq afsona va rivoyatlar bormi?

## XULOSA

O'quv qo'llanma natijalari quyidagi asosiy xulosalarni bayon qilish imkoniyatini beradi:

– Toponimika geografik nomlar, kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimikani "zamin tili", ya'ni yer tili deb ham atashadi. Toponimika atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, "topos" – joy, "onom" yoki "onima" – nom, umuman, joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi. Toponimika ikki ob'yektdan: mikro va makro toponimlardan iborat bo'lib, mikrotoponimika – grammatik jihatdan mayda ob'yektlarni, ya'ni "turdosh otlarni", mikro ob'yektlarning nomlarini, makrotoponimika esa atoqli otlar, ya'ni, yirik ob'yektlarning nomlarini tadqiq qiladi;

– joy nomlari, ya'ni toponimika bir necha turga bo'linadi. Bular, gidronomiya, ya'ni, daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari; oronomiya, ya'ni yer yuzasining relef shakllari – tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya, polinimiya, yoki urbanonomiya, ya'ni, qishloq hamda shaharlarning nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar deb atash mumkin;

– XIX asr oxirlaridan e'tiboran dunyoda amaliy grammatika, xususan, kartografiya ehtiyojlari munosabati bilan toponimikaga qiziqish kuchaydi. Toponimikadan maxsus asarlar paydo bo'ldi, geografik nomlarni o'rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Angliyada 1923-yilda dunyoda birinchilardan o'laroq mamlakatdagi barcha tomonimik ishlarni muvofiqlashtirish uchun "Toponimika jamiyati" tuzildi. Keyinchalik, G'arbiy Yevropa, Fransiya, Germaniya, Pol'sha va boshqa mamlakatlarda ham huddi shunday jamiyatlar yoki guruhlar paydo bo'lgan;

– V. V. Bartol'd, M. S. Andreyev, S. P. Tolstov, Ya. G'. G'ulomov, B. A. Ahmedov, A. R. Muhammadjonov, M. Masson, O. D. Chexovich, A. A. Semenov, O. A. Suxareva kabi olimlarning tarixiy-geografik asarlaridan O'zbekiston toponimlarining ma'nosi, kelib chiqishi haqida talay ma'lumotlar mavjud;

– Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug'-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini (etnogenezini) hamda geografiyaga oid atamalarni o'rganishda Ya. G'. G'ulomov, R. N. Nabiyeu, A. R. Muhammadjonov, F. Abdullayev, S. Ibrohimov. O'zbekistonda birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan H. T. Zarifov, etnograflar – E. Fozilov, M. Shoabdurahmonov, X. Doniyorov, R. Qo'ng'irov, geograflar – H. Hasanov, S. Qorayev kabilarning ishlari diqqatga sazovordir;

– Toponimika shaharlar, qishloqlar, daryolar, ko'llar, tog'lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o'rganar ekan, bu fan geograflarga ham, tilshunoslarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi. Demak, toponimika uchta katta soha: tilshunoslik, geografiya, tarix oralig'idagi fandır;

– O'zbekiston toponimlari tarkibida eng ko'p keladigan affiksalar (topoformantlar): -zor (Marg'izor, Olmazor), -kat, -kent (Navkat, Binkat, Parkent), -iston (Guliston, Bog'iston), -loq (Toshloq, Sangloq, Qumloq), -obod

(Dehqonobod, Dashnobod, Xalqobod, Haqqulobod), -li, -lik -liq, (Gazli, Totli, Soylik, Ohaklik, Bo'stonliq, Qoyliq), -on (Ohangaron, So'zangaron), -xona (Arabxona, Bo'rixona, Urganjixona), -goh, go (Namozgoh, Janggoh), -chi (Sho'rchi, O'qchi, Chiroqchi), -cha (Shorcha, Ko'kcha, Shoxcha), -ak -ik (Hisorak), -kor (Paxtakor, Lalmikor) va boshqalar;

– O'rta Osiyo va uning geografik nomlari to'g'risidagi eng qadimgi ma'lumotlar Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da uchraydi. "Avesto"ning turli qismlari qadimgi geografik tushunchalar – daryolar, tog'lar, ko'llarning nomlari, qadimgi mamlakatlar ro'yxati, hududiy, etnik qabilalar va viloyatlarning nomlari, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy tuzum, qadimgi qabilalar o'rtasidagi siyosiy kurashlar, zardushtiylarning diniy falsafasi kabi ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

– qadimgi Eron yozuvlari O'rta Osiyo tarixi va toponimikasi haqida qadimiy va muhim manbalardandir. Bunday yozuvlar ahamoniylarning qadimgi poytaxti Persopol', shuningdek, Suza va Ekbatana (hozirgi Hamadon) shaharlari va uning atrofida topilgan. Eron yozuvlarida toponimik ma'lumotlar – O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, eng qadimgi xalqlar massaget va saklar haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi;

– qadimgi Xitoy manbalarida O'rta Osiyo hududidagi qadimgi davlatlar va xalqlar haqida qimmatli ma'lumotlar bilan birga toponomik ma'lumotlar ham uchrab turadi. Xitoy manbalarida bo'lib o'tgan voqealarning vaqti va o'rni aniq ko'rsatiladi, bir-biriga qarshi turgan qo'shinlarning umumiy soni aniq ko'rsatiladi;

– O'rta Osiyo va uning geografik nomlari to'g'risidagi eng qadimgi ma'lumotlar miloddan avvalgi VI-V asrlarda yunon olimlari asarlarida uchraydi. Yunon olimlarining asarlarida O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistondagi bir qancha toponimik ma'lumotlar, chunonchi, Araks (Amudaryo), Oks (Oksos – Amudaryo), Xorasmiya (Xorazm) shahri, Qang' (Qangxa, Qang'uy) davlati, Yaksart (Sirdaryoning eng qadimgi mahalliy nomi), Marakand (Samarqand), Politimet (Zarafshon), sak, massaget va boshqalar tilga olingan;

– O'zbekiston joy nomlarining o'rganilishiga "arab geograflari" nomlari bilan mashhur olimlar katta hissa qo'shgan. Arab geografiyasi, ayniqsa, X asrda keng rivojlandi. Bu davrda Muqaddasiy, Istaxriy, Ibn Havqal, Ibn Rusta, Ibn Xurdodbeh kabi olimlar yetishib chiqdi. Mazkur muarrixlar yurtimiz hududini umummusulmon olami, Arab xalifaligi bir qismi sifatida yoritganlar;

– Abu Rayhon Beruniy asarlari, muallifi noma'lum "Hudud ul-Olam", Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma va Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarlari o'rta asrlardagi yurtimiz toponimlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi;

– XIV-XV asrlarga kelib, Yevropada savdogarlar va tadbirkorlar tabaqasi chtiyojlarini qondirish maqsadida savdo yo'llari haqidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan haritalar yaratilgan. Xususan, Sharq mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyo hududlarini o'zida aks ettirgan ko'plab haritalar, jumladan, Katalon (1375) va Fra Mauro (1459) haritalari yuzaga kelgan;

– mamlakatimiz juda uzoq tarixga ega ekanligi hech kimga sir emas. Yurtimizning qadimiy Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Qo'qon shaharlari kabi ko'plab qadimiy shaharlarimiz mavjud. Yurtimiz shaharlari toponomiyasida

o`ziga xosliklar ko`plab uchraydi. Yurtimizdagi qator shaharlarning nomlanishi to`g`risida bir nechtdan afsona va rivoyatlar mavjud. Shuningdek, turli urug`lar nomi bilan ataladigan hamda joylashgan o`rnidan kelib chiqqan holda atalgan shaharlar va shaharchalar yetarli. Shuni alohida qayd etish joizki, yurtimizdagi ko`plab shaharlarining toponomiyasi hanuzgacha jumboqligicha qolmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бусағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йук. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 31 б.
3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
4. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 430 б.
5. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: Ozbekiston, 2015. – 304 б.
6. Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Тошкент: Фан, 2003. – 152 б.
7. Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган, 2011. – 287 б.
8. Абдурасулов А. Хива. – Тошкент: Шарк, 1997. – 216 б.
9. Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. – Т.: Фан, 1966.
10. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Том I. / Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968. – 488 б.
11. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Том V. / Қонуни Маъсудий. – Тошкент: Фан, 1973.
12. Алимова Д. А., Филанович М. И. Тошкент тарихи. – Тошкент: Фан, 2009. – 185 б.
13. Бабобеков Х. История Коканда. – Тошкент: Фан, 2006. – 244 с.
14. Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 410 б.
15. Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Янги нашр, 2010. – 167 б.
16. Бойбуриева С. Жиззах вилояти Зомин тумани // Турон тарихи. – Тошкент, 2009. – №IV–VI. – Б. 43 – 45.
17. Гадов К., Бердиева С. Жаҳонгашта сайёҳ-олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 272 б.
18. Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., 1969. – 323 б.
19. Дусимов Х. Жой номларининг қискача изохли лугати – Т.: Ўқитувчи, 1977. – 185 б.
20. Иномов И. Попим – саҳовагли юртим. – Тошкент, 1996. – 95 б.
21. Иномов О. Бука тарихи ва унинг топонимининг келиб чиқиши ҳақида баъзи бир мулоҳазалар // Турон тарихи. – Тошкент, 2009. – №II – III. – Б. 52 – 54.
22. Исоқхон Ибрат. Фарғона тарихи / Нашрга тайёрловчилар Х. Бобобеков, М. Ҳасаний. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 266 – 327.
23. Камолиддин Ш. С. Древнетюркская топонимия Средней Азии / Отв. ред. М. Исоков. – Т.: Шарк, 2006. – 192 с.
24. Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар / А. С. Саъдуллаев таҳрири остида. – Тошкент: Шарк, 1998. – 208 б.
25. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1990. – 72 б.
26. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимикаси. –Т.: “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2005. – 240 б.
27. Qorayev S. Toponomika. –Toshkent., 2006. – 320 б.

28. Маҳмуд Қошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотут турк). – Т.: Фан, 1963. – 463 б.
29. Мирзалиев Э. Наманган маданияти тарихидан лавҳалар. – Наманган, 1994. – 94 б.
30. Муҳаммаджонов А. Қуйи Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1972. – 376 б.
31. Муҳаммаджонов А. Р. “Кеш” ойконими ва “Кат” субстрактининг этиноми / Шахрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. – Тошкент, 2002. – Б. 12–15.
32. Муҳаммаджонов А. Р. Кеш – уй, яъни Ватан демакдир // Мозийдан садо. – Тошкент, 2003. – № 2 (18). – Б. 44 – 45.
33. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик (Ўлкани урганишнинг асосий манбалари). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 336 б.
34. Нажмиддинов Ф. Чуст тарихи. – Чуст, 1995. – 74 б.
35. Озодаев Ф. Тошкент тарихидан очерклар. – Тошкент: Фан, 1960. – 265 б.
36. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – 86 б.
37. Пулатов Х. Шаҳарсозлик тарихи. – Тошкент: Фан ва технология, 2008. – 293 б.
38. Равшанов П. Қашқадарё тарихи (Энг қадимги даврлардан XIX аср II ярмига қадар). – Тошкент: Фан, 1995. – 783 б.
39. Расулов А. “Наманган” этимологиясига оид.../ Наманган тарихидан лавҳалар. – Наманган, 2010. – №1. – Б. 5 – 7.
40. Саъдуллаев А. С. Қадимги Ўзбекистон илк манбаларда. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 112 б.
41. Саъдуллаев А. С. Гау Суғд – Наутака –Кеш // “San`at”. – Тошкент, 2001. – № 1. – Б. 7 – 10.
42. Сулейманов Р. Х. Нахшаб – унутилган тамаддун сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 48 б.
43. Тошкент. Энциклопедия. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 494 б.
44. Ҳамидова М. С. Қашқадарё воҳаси хунармандчилиги тарихи (XIX – XX аср бошлари). – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети кутубхонаси нашриёти, 2009. – 143 б.
45. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 220 б.
46. Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – 264 б.
47. Ҳомиджон Ҳомидий, Аширов А., Умаралиев М. Косонсой тарихи. – Тошкент: EXTREMUM PRESS, 2010. – 146 б.
48. Хушвақтов Х. “Самария” – Самарқанд тарихини урганишда муҳим манба.// Турон тарихи. – Тошкент, 2008. – №2. – Б. 30 – 31.
49. Чориев А., Ҳамроев Т. Кеш манбаларда // Шахрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. – Тошкент, 2002. – Б. 25 – 26.
50. Чортоқ тарихи. – Тошкент: Университет, 1995. – 61 б.
51. Шахрисабз – минг йиллар мероси / Муаллифлар жамоаси. Альбом. – Тошкент: Шарк, 2002. – 228 б.
52. Шонийёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарк, 2001.

## MUNDARIJA

<i>Kirish</i> .....	3
<i>Toponimika – tarixiy manba</i> .....	5
<i>O'rta Osiyo tarixiy toponimiyasining manbalari</i> .....	14
<i>O'rta asr yozma manbalarida qadimgi toponimlar</i> .....	24
<i>Tarixiy kartalarda makrotoponim va gidrotoponimlar</i> .....	38
<i>Tarixiy toponimiyani o'rganishning nazariy, ilmiy va uslubiy asoslari: hududiylik, tarixiylik va til jihatdan mansublik</i> .....	46
<i>Tarixiy toponimiyaning substrati – o'zagi hamda nom yasovchi leksema – komponentlari</i> .....	51
<i>O'zbekiston Respublikasi etnonim, oronim va gidronimlari</i> .....	62
<i>O'zbekiston shaharlari toponimikasi</i> .....	77
<i>Namangan viloyati shahar va qishloqlari toponimikasi</i> .....	97
<i>Xulosa</i> .....	122
<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</i> .....	125



Ilmiy nashr

Zohid Madrahimov

# TARIXIY TOPONIMIKA

*(o'quv qo'llanma)*

Muharrir: Ibrohim Mahkamov  
Texnik muharrir: Hoshimjon Dadaboyev  
Musahhih: Nuriddin Muhammad

“Navro’z” nashriyoti,  
Toshkent shahri, Amir Temur ko’chasi, 19-uy.

Terishga 2017 yil 26 aprelda berildi. Bosishga 2017 yil 10 mayda ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 <sup>1/16</sup> «Times New Roman» garniturasida ofset bosma usulida oq qog’ozga bosildi. Hajmi 8 bosmā taboq. Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

“UAS” MCHJ da chop etildi.  
Namangan shahri, Navoiy ko’chasi, 72-uy.

ISBN 978-9943-381-84-1



9 789943 381841